O‘ZBEKISTON TARIXI

(IV asrdan XIII asr boshlarigacha)

7-sinf

O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan

Yangi nashr

TOSHKENT – 2022

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

UO‘K 94(575.1)(075.3)
KBK 63.3(5O‘)
O‘ 17

Zamonov, A.
O‘zbekiston tarixi : umumiy o‘rta ta'lim maktablarining 7-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma / A. Zamonov, N. Ismatova va boshqalar. — Yangi nashr. — Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. — 224 b.

ISBN 978-9943-8376-6-9

UO‘K 94(575.1)(075.3)
KBK 63.3(5O‘)

MUALLIFLAR:

A. Zamonov, N. Ismatova, Z. Zamonov, Z. Jabborova

TAQRIZCHILAR:

D. I. Ro‘ziyeva – pedagogika fanlari doktori, professor;
I. M. Shamsiyeva – tarix fanlari nomzodi, dotsent;
D. R. Normurodov – falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD);
F. M. Abdilniyozova – «Ziyo-zukko» umumta’lim maktabi tarix fani o‘qituvchisi.

Mazkur metodik qo‘llanma (xrestomatiya) umumiy o‘rta ta’lim maktablarida faoliyat ko‘rsatayotgan tarix o‘qituvchilariga innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarda dars o‘tishni yanada rivojlantirish, ularga pedagogik mahorat sirlarini ochib berish, pedagogik va axborot texnologiyalarini amaliyotga joriy etish, kasbiy malaka va mahoratni oshirishlari uchun amaliy yordam tariqasida tayyorlandi.

Shuningdek, qo‘llanma maktab o‘qituvchilariga nazariy dars va amaliy mashg‘ulotlarini rejalashtirish, ilg‘or pedagogik texnologiya elementlari va interfaol metodlarni tarix darsi jarayonida qo‘llashga o‘rgatishni, o‘qituvchilarning ijodiy va tahliliy, tanqidiy fikrlash darajalarini yanada oshirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

© A. T. Zamonov, N. K. Ismatova va boshqalar, 2022
© Respublika ta’lim markazi, 2022.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

KIRISH

Jamiyatning farovonligidan, davlatning rivojlanishidan, fan-texnika va ishlab chiqarishning taraqqiy etishidan eng birinchi manfaatdor shaxs, shuningdek, uni amalga oshiruvchisi va iste'molchisi ham hisoblanadi. Bu esa shaxs–jamiyat–davlat tamoyiliga mos keladi. Mamlakatimizning asosiy qonunida xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbayi ekanligi qayd etiladi. Davlat esa xalq irodasini ifoda etadi, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab tashkil qiladi.

Davlat har kimga ta'lim olish bilan birga, ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqini ham kafolatlaydi. Bu esa jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlikda ko'rinadi.

Jahon hamjamiyati tomonidan ma'qullangan fan-texnika yangiliklari shu bilan birga, innovatsion g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish bilan bog'liq masalalarni qo'llab-quvvatlash borasida davlatning o'zi tashabbus bilan chiqqanligini ko'ramiz. Hamda mazkur siyosat ortida yuqorida bildirgan fikrlarimizning tasdig'ini topishimiz mumkin. Bugungi real voqelik o'qituvchi va ota-onalar oldiga quyidagi savollarni qo'ymoqda: ***Maktab ta'limining natijasi nimada? Yakuniy imtihonlardagi bahomi yoki maktabdan keyingi samarali va muvaffaqiyatli faoliyatmi? Uzoq muddatli natijalarni ko'zlash ta'lim mazmuniga qanday ta'sir ko'rsatadi? Umumiy o'rta ta'lim maktabini bitirgan o'quvchi ta'limda olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olyaptimi? Yoki faqat imtihondan yaxshi baho olish uchun o'qiyaptimi?***

Har bir ota-ona farzandining uddaburon, tashabbuskor bo'lishini, kundalik hayotda duch kelishi mumkin bo'lgan u yoki bu muammolarni hal etishda o'zidagi mavjud bilimlardan foydalana olishi va bilimlarini muntazam rivojlantirib borishi, zaruriy axborotlarni topa olishi, jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq normalari asosida o'zining fikrini bayon qila bilishini istaydi.

O'zbekiston tarixi fani o'qituvchisi fanning oldiga qo'ygan maqsad-vazifalardan kelib chiqqan holda o'quvchilarda fanga oid hamda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishi lozim.

Tarix fani o'qituvchisi o'quvchilarga nafaqat tarixiy voqealar haqida katta hajmdagi ma'lumotlarni beradi, balki ularni tahlil qila olish, voqealarning sabablarini tushuntira olish, tarixiy manbalari bilan ishlash, tarixiy makon va zamon o'rtasidagi bog'liqlikni anglash kabi qobiliyatlarni ham shakllantiradi.

Shuningdek, ularda tarixiy u yoki bu voqeaning kelib chiqish sabablari, insoniyat, jamiyat rivojiga ta'sirini tushuntira olish va o'zining mustaqil munosabatini bildira olish, tarixdan to'g'ri saboq chiqarish ko'nikmalari shakllantirilishi lozim.

Ta'limga kompetensiyaviy yondashuv nimani o'qitish emas, qanday o'qitish va qanday o'qishni o'rgatishga yoki dars ja-

rayonida o‘rgangan bilimlari asosida o‘zining bilimlarini oshirib bora olish makakasini shakllantirishga yo‘naltirilishi lozim.

Mazkur vazifani amalga oshirishda tarix fani o‘qituvchisi o‘zining ish faoliyatida barcha tayanch kompetensiyalarni fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish orqali amalga oshiradi.

Bu masalada asosiy urg‘u kommunikativ, o‘z-o‘zini rivojlantirish, milliy va madaniy, faol fuqarolik kompetensiyalarining elementlarini shakllantirib borish misolida amalga oshiriladi. Shuningdek, fan-texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish va matematik savodxonlik kompetensiyasi ham aynan tarix fani darslarida shakllantirilishi mumkin.

O‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish vazifasini amalga oshirishda, eng avvalo, har bir o‘qituvchi, shu jumladan, tarix fani o‘qituvchisi sohaga oid me’yoriy hujjatlar bilan mukammal tanishib chiqishi va ularni o‘z faoliyatiga tatbiq etishi lozim.

Ta’lim sohasini amalga oshirishga qaratilgan me’yoriy hujjatlardan biri davlat ta’lim standartlaridir. Davlat ta’lim standartlari barcha turdagi ta’lim oluvchilar uchun majburiy bo‘lgan davlat talablarini o‘z ichiga oladi. Bu talablar fanning nazariyasi va metodologiyasi orqali amalga oshiriladi.

Har bir fanda bo‘lganidek, O‘zbekiston tarixi fanining ham o‘zining nazariyasi va metodologiyasi mavjud.

Nazariya — bu ilmiy bilimlar yig‘indisi bo‘lib, u yoki bu fanning shakllanish qonuniyatlari va boshqa fanlar bilan mavjud bo‘lgan aloqadorliklarini bilish jarayonidir.

«Metodologiya» so‘zi grek tilidan olingan bo‘lib, *metodos* — tadqiq etish yo‘li, nazariyasi, ta’limoti degan ma’noni anglatsa, *logos* — ta’limot deganidir.

«Metodologiya» tushunchasi ikki asosiy tushunchadan iborat bo‘lib, birinchidan, fan sohasida amalga oshirib boriladigan ma’lum yo‘llar, operatsiyalar tizimiga aytilsa, ikkinchidan, shu tizim to‘g‘risidagi ta’limot, metod nazariyasiga aytiladi.

O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitish metodologiyasi deganda bu boradagi ilmiy bilimlarning tuzilishi va rivojlanishini, ularning natijalarini asoslash yo‘llarini amaliyotda mazkur fanga xos bo‘lgan ilmiy bilimlar mexanizmining samarali tatbiq etilishiga aytiladi.

O‘zbekiston tarixi fani metodologiyasi deganda tarix fanlari doirasidagi ilmiy bilimlarning tuzilishi prinsiplariga, shakli va ilmiy jihatdan O‘zbekiston tarixi fani doirasida qo‘llaniladigan ta’limotga aytiladi.

O‘zbekiston tarixining fan sifatida nazariy-metodologik asoslari o‘zida mazkur fanning qonuniyatlari va prinsiplarini, faqatgina shu fanga xos bo‘lgan qat’iy tushunchalarni va bilish metodlarini o‘z ichiga oladi.

Shuningdek, mazkur fanni o‘qitishda quyidagi tamoyillarga amal qilish lozimligini alohida qayd etish lozim:

- fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida belgilab qo‘yilgan huquqlari va erkinliklarini buzmaslik;
- vijdon erkinligi — fuqarolarning har qanday dinga e’tiqod qilish yoki hech qanday dinga e’tiqod qilmaslikdan

iborat kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqini ta’minlash;

- O‘zbekiston tarixini o‘qitish jarayonida ta’lim va tarbiyaning uyg‘unligiga e’tibor qaratish asosiy talablardan biridir.

O‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlari hamda dunyoqarashini boyitib borish bilan birga, milliy qadriyatlarning mohiyati, ijtimoiy taraqqiyot va shaxs kamolotini ta’minlashdagi o‘rni, ahamiyatini doimiy ravishda maqsadga muvofiq yoritib borish lozim. Jumladan:

- dars jarayonida berilayotgan bilimlar va keltirilayotgan asoslarning aniqligiga rioya qilish;
- nazariy bilimlar va hayotiy misollarning o‘zaro mosligi, ularning bir-birini to‘ldirishiga e’tibor berish;
- fanlararo aloqa tamoyiliga rioya qilish;
- dasturda belgilangan mavzularning to‘liq yoritilishini ta’minlash;
- o‘quvchining dasturda belgilangan mavzular bo‘yicha qo‘shimcha ilmiy-nazariy ma’lumotlarga ega bo‘lishi uchun o‘z ustida muntazam ishlashini ta’minlash;
- dastur vazifalarini to‘liq amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan amaliy mashg‘ulotlar, mustaqil ishlar, savollar, tayanch iboralar lug‘ati, qo‘shimcha adabiyotlar va yordamchi manbalarni takomillashtirish;
- fanni o‘qitish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish uchun tarixiy boy ma’naviy merosimizga doir bilimlar berishga e’tibor qaratish;
- xalq pedagogikasi va buyuk allomalarimizning falsafiy qarashlari va mulohazalaridan foydalanish;
- mustaqillikka erishilgandan keyin o‘tgan davr mobaynida barcha sohalarda (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-madaniy) amalga oshirilgan ulkan o‘zgarishlar haqida tushuncha berish;
- din ko‘p asrlar davomida avloddan avlodga o‘tib kelayotgan ma’naviy qadriyat ekanligini tushuntirish bilan birga, dinni dunyodagi zo‘ravonlar, terroristlar va ekstremistlarning g‘oyalari bilan bir qatorga qo‘yib bo‘lmasligini tushuntirish maqsadga muvofiq.

Tarix fanining mazmuni va uning tizimi birinchi navbatda, o‘quvchilar bilib olishlari kerak bo‘lgan ma’lum xronologiyaga oid tarixiy bilimlarni, tarixiy voqealarning o‘zaro aloqadorligi va qonuniyatlarini, aniq ma’lumotlar, tasavvur va tushunchalarni o‘z ichiga olishi lozim.

Tabiiyki, bu talablar umumta’lim maktablarida o‘rganiladigan O‘zbekiston tarixi fani o‘quv dasturida, darsliklarida, o‘quv-metodik qo‘llanmalarida o‘zining to‘la ifodasini topgan.

Mazkur fan o‘qituvchisi o‘rganilayotgan mavzu mazmunini to‘liq tushuntirishi va tarixiy materialni davr talabi darajasida bayon etishi hamda o‘quvchilarda to‘g‘ri dunyoqarashni, faol fuqarolikni, daxldorlik fazilatlarini shakllantirishda samarali metodlarni qo‘llashi lozim.

Tarixiy materialni tanlash masalalari, uning hajmi va qismlari, O‘zbekiston tarixi fanining strukturasini belgilash, tarixiy faktlarni bayon etish usullari, bu tushunchalarni darsning

qanday o‘rni, muddatida qo‘llash masalalari va uning yo‘llari faqat tarix fanini o‘qitish metodikasi vositasidagina amalga oshiriladi.

Metodika so‘ziga ilmiy-nazariy berilgan ta’riflarni umumlashtirib shuni aytish mumkinki, O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitish metodikasi o‘qitish jarayoni qonuniyatlarini yanada takomillashtira borib, har tomonlama rivojlangan, komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayoniga samarali ta’sir ko‘rsatadigan pedagogik fandir.

O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitishning metodologik asosi pedagogik fan bo‘lganligi bois bilish nazariyasi tashkil etadi. Pedagogikaga nisbatan xususiy didaktikani tashkil etgan O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitish metodikasi umumiy tarix, pedagogika, psixologiya fanlarining umumiy prinsiplari va xulosalari bilan ichki aloqador.

O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitish metodikasi tarix o‘qituvchilarining amaliy tajribalariga suyanadi. O‘qituvchilar oldida bu fanini o‘qitishning ilg‘or tajribalarini umumlashtiradi va kelajakda O‘zbekiston tarixi darslarida o‘quv-tarbiya ishlarini yanada takomillashtirish, ularda o‘zligini anglash va faol fuqarolikni kamol toptirishda yaratuvchilik rolini o‘ynaydi.

TARIX DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TARIXIY FAKTLARNI TO‘G‘RI TANLASH VA ULARDAN FOYDALANISHGA BO‘LGAN TALABLAR

O‘zbekiston tarixini tushunish jarayoni boshqa tarix fanlari kabi tarixiy faktlarni o‘rganishdan boshlanadi. Tarixiy faktning o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, u hayotda qaytadan tiklanmaydi, uni takroran uchratib bo‘lmaydi.

Dars samaradorligini oshirishda o‘qituvchilar darslikda berilgan ayrim faktlar bilan cheklanib qolmasliklari lozim. Chunki darslik, asosan, u yoki fan bo‘yicha yo‘naltiruvchi yoki ma’lumot beruvchi vazifani o‘taydi. Biror tarixiy voqea haqidagi barcha ma’lumotlarni bitta mavzu bilan o‘rganib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham o‘qituvchi o‘quvchilar tomonidan berilishi mumkin bo‘lgan savollarga tayyor bo‘lishi va tarixiy voqealarning mohiyatini yaxshi tushunishi lozim.

Tarixni o‘rganishda tarixiy faktlar shunchalik bir alohida o‘rganilmasdan, balki ular orasida mavjud bo‘lgan mantiqiy aloqadorliklarni ham atroflicha o‘rganishni taqozo etadi. Bunday metodning qo‘llanilishi tarixiy faktlarni umumlashtirish, ularni atroflicha o‘zlashtirish va tizimlashtirishni talab qiladi. Tarixiy faktlar ikki xil xarakterda bo‘lishi ham mumkin.

Birinchidan, alohida olingan voqealarni aks ettiradigan faktlar.

Bu turdagi faktlar tarixda bir marotabagina sodir bo‘lib, unda alohida o‘zigagina xos sharoit mavjud bo‘ladi, voqeada chegaralangan konkret kishilar ishtirok etadilar. U

o‘zining aniq makoni va zamoniga ham ega bo‘ladi. Masalan, arablarning Turon hududiga kirib kelishi. Ayrim tarixchilarning fikriga ko‘ra, agar arablar Turon hududiga bostirib kirmaganlarida Turon hududida islom dinining yoyilishi ancha vaqt ortga surilgan bo‘lar edi.

Ayrim metodik adabiyotlarda tarixiy faktlarni uch guruhga bo‘lish tavsiya etilganligini ham ko‘ramiz. Bular:

- alohida olingan voqealar, takrorlanmaydigan hodisalar.
- ko‘p marotaba takrorlanadigan hodisalar, bir-birlariga o‘xshash bo‘lgan faktlar.
- sabab va oqibatlarida, zamonda o‘zaro mantiqiy aloqadorliklar bo‘lib, yagona bir zanjirni tashkil etadigan jarayonlar.

Birinchidan, «alohida» va «takrorlanmaydigan» voqeaga eng yagona misol sifatida Qur’oni karimning nozil bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin.

Ikkinchidan, yer yuzining u yoki bu mintaqasida ma’lum bir vaqt sulolalarning hukmronligini o’rnatilishi va ma’lum vaqtdan keyin hokimiyat tepasidan ketishi yoki o‘rnini boshqa sulola (Tohiriylar, Safforiylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G‘aznaviylar, Saljuqiylar) vakillari egallashini ko‘p marotaba takrorlanadigan hodisalar sirasiga kiritish mumkin.

Uchinchidan, zamonda, sabab va oqibatlarida o‘zaro mantiqiy aloqadorliklar bo‘lib, yagona bir zanjirni tashkil etadigan jarayonning klassik misoli Somoniylar davlatining tugatilishi natijasida Qoraxoniylar va G‘aznaviylar mustaqil davlatlarining paydo bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin.

Bugungi kunda axborot olami barcha sohalarni o‘rab olganidek, tarixiy jarayonlarni o‘rganishga ham o‘zining ta’sirini o‘tkazmoqda. Masalan, ommaviy axborot vositalarida yoki ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilingan biror tarixiy voqea haqidagi ma’lumot ko‘pgina o‘quvchilarni qamrab oladi. U yoki bu voqeaning asl sababi va mohiyatini bilmagan o‘quvchi mazkur ma’lumotlarni boricha qabul qilishi mumkin. Masalan: Muqanna shaxsi va uning asl maqsadi manbalarda turlicha talqin qilinishi singari.

O‘zbekiston tarixi darslarida tarixiy faktlarni tanlashda quyidagi talablarga rioya etmog‘imiz lozim:

- faktlar ilmiy jihatdan atroflicha asoslangan bo‘lishi kerak;
- tanlangan faktlar tarixiy jarayonni tushunishda ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmog‘i kerak.

Tanlangan faktlar o‘quvchilarni mustaqil tafakkur etishga, ularning mohiyatiga baho berishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Shu narsa muhimki, o‘qituvchi dars jarayonida faktlarni tanlashda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini, psixo-fiziologik rivojlanishlari va boshqa fanlardan olgan bilimlarini e’tiborga olishi zarur.

O‘quvchilar tarixiy jarayonlar o‘rtasidagi ma’lumotlarni puxta o‘zlashtirishlari tarixiy faktlardan o‘z o‘rnida va samarali foydalanishga bog‘liq.

Shuningdek, tarixiy rasmlar orqali ham tarixiy faktlarni o‘rganish mumkin. O‘quv-

chilar tarixiy fakt o‘rtasidagi uzviy aloqadorliklarni qanchalik puxta o‘zlashtirsalar, ularning faktlar asosida olgan bilimlari shunday tizimlashib boradi. Chunki ular har bir darsda oldingi darslardan o‘rgangan faktlardan kelib chiqadigan nazariy xulosalarga ega bo‘lib boradilar. Xuddi mana shu metodik qonuniyat asosida «Darsning ta’limiy maqsadi», «Darsning tarbiyaviy maqsadi», «Darsda rivojlantirib boriladigan ta’lim» talablari tarix o‘qitishning metodik-nazariy ajralmas qismi bo‘ladi.

Tarixiy bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirib borish — bu tarixiy ilmiy asoslarni tushunishning asosiy qurolidir.

Bilish dialektikasi shunday: u tarixiy faktlar to‘g‘risidagi aniq obrazlarni yaratish, ya’ni tarixiy tasavvurni hosil qilishdan boshlanadi. Tarix o‘qituvchisi har bir darsda mana shu metodik talabni mahorat bilan qo‘llamog‘i kerak.

Tarixiy tasavvur hamma yoshdagi o‘quvchilarda ham shakllantirilib borilsa-da, ularni detallashtirish darajasi turlichadir. O‘quvchilarda tarixiy tasavvurni shakllantirishda ko‘rgazmali qurollar, illyustratsiyalar, sxemalar, applikatsiya, shuningdek, mavzuga doir kartalarning roli beqiyos kattadir.

Tarix har doim makon va zamonda sodir bo‘ladi. Bunda tarix o‘qitish metodikasi talablaridan biri — ***«Davr lentasi»***dan foydalanish dars samaradorligini oshirishning asosiy shartlaridan biridir.

Bularga asosiy sanalar, tayanch sanalar, tarix kursining ma’lum davrini o‘rganishda esda saqlab qolish uchun zarur bo‘lgan sanalarni kiritish mumkin. Tayanch sanalari ikkinchi darajali faktlar bilan aloqa o‘rnatadigan sanalardir.

O‘zbekiston tarixidan olgan bilimlarga integratsion yondashish tarix ta’limini bir butun holda o‘zlashtirishlariga imkon berayotir.

Shuningdek, Ona-Vatanimiz tarixiga aloqador bo‘lgan fikr-mulohazalar, turli yo‘nalishda berilgan voqealar borki, biz ularga tayangan holda hozirgi davr o‘quvchisiga xalqimizning bosib o‘tgan tarixiy yo‘llarini boy va betakror tarixiy faktlar asosida sharhlab bermog‘imiz lozim.

Vatanimizda sodir bo‘lgan u yoki bu tarixiy voqeaning sabab-oqibatlarini aniq tarixiy faktlar asosida ko‘rsatish, tarixiy mavzulardagi bosh g‘oyalar, tayanch tushunchalardan, albatta, o‘z o‘rnida maqsadga muvofiq holda foydalanish kerak bo‘ladi. Yana bir jihati biz o‘quvchi yoshlarga tarixiy voqealar, ularni keltirib chiqargan sabab, natijalar, tarixiy shaxslar haqida tarixiy to‘liq ma’lumot taqdim etishimiz lozim.

O‘ZBEKISTON TARIXINI O‘QITISHNING METODLARI VA ULARNING KLASSIFIKATSIYASI

DARS JARAYONINI TASHKIL ETISH

Ta’lim samaradorligiga bevosita va bilvosita ta’sir etuvchi omil bu — O‘zbekiston tarixi fani o‘qituvchilarining pedagogik mahoratidir. Fan o‘qituvchisi o‘z sohasining bilimdoni va yetuk mutaxassisi bo‘lishi lozim.

Ayrim hollarda o‘qituvchi o‘z fanini yuksak darajada bilsa-da, pedagogik mahoratining yetarli emasligi natijasida kutilayotgan samaraga erishib bo‘lmaydi. Masalan, dars jarayonida pedagogik texnologiyalar va metodlardan uzluksiz va uzviy ravishda foydalanish, vaziyatni to‘g‘ri baholay olish va samarali usullarni ishlatish o‘qituvchining pedagogik mahoratiga bog‘liq. O‘qituvchida bilim bo‘lsa-yu, uni o‘quvchilarga yetkazib bera olmasa, unda pedagogik mahorat yetishmasa, ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Yoki aksi — o‘qituvchi pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish yo‘llarini bilsa-yu, ammo bilimi yetarli bo‘lmasa ham ko‘zlangan natijaga erishib bo‘lmaydi.

Bugungi kunda «moda» bo‘lgan ayrim innovatsion metodlar mamlakatimizning barcha hududlarida birdek natija bermaydi.

Har bir dars uchun alohida va tajribadan o‘tgan metodlardan foydalanish yoki dars jarayoni davomida zarurat yuzaga kelgan vaqtda yangi metodlarni qo‘llay olish mahorati o‘qituvchining pedagoglik salohiyatini belgilab beradi. O‘qituvchilarimizni boshqa soha mutaxassislaridan ajratib turadigan farq shundaki, ular tez o‘zgaruvchan insonlar, ya’ni bolalar bilan ishlaydilar. O‘smirlar, bolalarning kayfiyati tezlik bilan bir holatdan ikkinchi bir holatga o‘tishi mumkin. Avvalgi darsda olgan yaxshi bahosi yoki eshitgan tanbehi, keyingi darsdagi kayfiyatga bevosita ta’sir etadi. Yoki bahor kunlarining tez isib ketishi, sinf xonasidagi haroratning tushib ketishi ham o‘quvchining kayfiyatiga ta’sir qiladi. Ayniqsa, dars 5–6-soatlarga qo‘yilgan bo‘lsa, bu darslarda o‘quvchilarning ishtiyoqi birinchi soatdagidan ancha sust bo‘ladi. Shuning uchun ham o‘qituvchi dars jarayonining mohir muhandisi sifatida 45 minutli vaqtni nazorati ostiga olishi va bu vaqtdan unumli foydalanishi, ya’ni o‘quvchilarga zarur bo‘lgan bilimlarni berishi va ularda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishga erishishi kerak. Shu nuqtayi nazardan olganda, dars metodlarini tanlash jarayonida birinchi soatda qo‘l kelgan metod 6-soatda maqsadga muvofiq bo‘lmasligi mumkin. O‘qituvchi tomonidan bir necha marotaba takrorlangan va o‘zining samarasini bergan metodlarning jamlanmasi pedagogik texnologiyalarni tashkil qiladi.

Xo‘sh texnologiya o‘zi nima? Kundalik hayotimizda «axborot texnologiyalari», «yangi texnologiya», «innovatsiyon texnologiya» kabi atamalarni ko‘p uchratamiz.

Yangilikka, axborot yoki innovatsiyaga nisbatan ishlatilayotgan «texnologiya» atamasi haqida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Texnologiya biror ishda, mahoratda, san’atda qo‘llaniladigan usullar va yo‘llar yig‘indisidir. Qolaversa, ishlov berish, ahvolni o‘zgartirish san’ati, mahorati, qobiliyatlar va metodlar yig‘indisi. Shu o‘rinda barchaga tushunarli bo‘lishi uchun bir misolni keltirib o‘tamiz. Mamlakatimiz hududining qaysi go‘shasiga bormang, sizni o‘zbekning asl taomi osh bilan siylaydilar. Osh (palov) deganda sabzi, piyoz, go‘sht, guruch, yog‘, turli ziravorlar va suv qo‘shib tayyorlanadigan taomni tushunamiz. E’tibor bersak, oshni tayyorlash texnologiyasi bir xil, qovuriladi, qaynatiladi va dimlanadi. Natijada «Osh» degan mahsulot olinadi. Endi uni tayyorlash usullariga e’tibor qilsak, kimdir oshni piyozini qizartiribroq qovursa, kimdir yengilgina qovuradi. Lekin qanday yondashilsa ham natijada «osh» qilinadi. Demak, texnologiya shunday tushunchaki, uni boshqalar tomonidan qo‘llash imkoniyati mavjud va olinadigan natija oldindan ma’lum. Metodlarni esa, ana shu natijani ta’minlaydigan vosita deb tushunsak ham bo‘ladi.

Shu o‘rinda pedagogik texnologiya deganda nimalar nazarda tutiladi. Shu haqida biroz to‘xtalsak.

Pedagogik texnologiya – aniq ishlab chiqilgan va ilmiy loyihalashtirilgan bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan pedagogik harakatlar tizimi, ya’ni pedagogik jarayonni amaliyotga rejali va bir maromda tatbiq etish tizimidir.

Pedagogik texnologiya fan sifatida – pedagogikaning san’at, mahorat darajasidagi sohasini o‘rganuvchi fan hisoblanadi.

Shuningdek, pedagogik texnologiya – ta’lim berishning rejalashtirilgan natijalariga erishish jarayoni va tafsilotidir.

Pedagogik texnologiya – didaktik tizimning tarkibiy qismi.

Pedagogik texnologiyalar ma’lum bir konsepsiyaga tayanadi. Pedagogik texnologiyalar – o‘quv-tarbiya jarayoni va uning qismlari bilan o‘zaro bog‘liq bo‘ladi. Samaradorlikka, ta’lim standartlarining bajarilishiga xizmat qiladi. Pedagogik texnologiyalarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri, uni boshqalar tomonidan qayta amalga oshirilishi mumkin bo‘ladi.

Pedagogik texnologiyaning maqsadi quyidagilardan iborat:

- barkamol insonni shakllantirish va rivojlantirish;
- jamiyatda mustaqil erkin va hur fikrli shaxsning shakllanishiga xizmat qilish;
- o‘zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, imoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo‘lgan faol fuqarolarni tarbiyalash;
- ta’lim-tarbiya jarayoni sifat-samaradorligini oshirish va h.k.

Pedagogik texnologiyaning tarkibi ehtiyojni aniqlash, maqsadga erishish yo‘llarini aniqlash, yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish va rivojlantirish, axborotlarni avloddan-avlodga uzatish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish, bilim, ko‘nikma, malakalarni o‘rgatish va o‘zlashtirilishiga erishish, turli meto-

dikalarni qo‘llash va takomillashtirishni o‘z ichiga oladi.

Pedagogik texnologiyalar insonparvarlik, demokratik, do‘stona muhit, o‘zaro hurmat, hamkorlik va g‘amxo‘rlik, qo‘llab-quvvatlash tamoyiliga amal qiladi.

Har bir fanning maqsad va vazifalariga mos bo‘lgan pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda asosan o‘qituvchi, o‘quvchi va ta’lim vositalari ishtirok etadi.

Pedagogik texnologiya va metodika o‘rtasida quyidagicha farq mavjud.

Ta’lim shakllari, usullari, uslubiy tizimlari xususiy metodikalar ko‘rinishida hosil bo‘lgan bo‘lib, ular takomillashib borish jarayonida texnologiyaga o‘sib o‘tadi.

Metodika biror-bir ishni maqsadga muvofiq o‘tkazish metodlari**.** Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi — bu o‘qituvchi va o‘quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijada hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog‘liq.

O‘qitish jarayonida, maqsad bo‘yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo‘llaniladigan har bir ta’lim texnologiyasi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil etishi zarur. Dars natijasiga ko‘ra o‘qituvchining va o‘quvchining ijobiy natijaga erishishi jarayonining asosi hisoblanadi. Demak, pedagogik texnologiya oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija olinishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING ASOSIY TARKIBIY ELEMENTLARI

Pedagogik texnologiyalarning asosiy tarkibiy elementlari	O‘qituvchi faoliyatidagi asosiy jarayonlar	O‘quvchi faoliyatidagi asosiy jarayon
Ko‘rsatish, so‘zlash, mashq bajarish	So‘zlash, ko‘rsatish, vazifa topshirish	tinglash
Ehtiyojni aniqlash	O‘quvchilar bilimidagi bo‘shliqlarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo‘llarini izlash, yo‘naltirish	ko‘rish
maqsadga erishish yo‘llarini aniqlash (muammolar yechimini topish)	Do‘stona muhitni tashkil etish, huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish	izlanish
Ta’lim-tarbiyani rivojlantirish	O‘quvchilardagi mavjud bilimlar asosida, yangilarini shaklantirish va ijtimoiy hayotga yo‘naltirish	Tahlil qilish
	Rahbarlik qilish	Mashq bajarish, amaliyotga tatbiq eta olish
	Nazoratni amalga oshirish	

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING QO‘LLASH BOSQICHLARI

Bosqichlar	*Amalga oshirish*	*Kutilayotgan natija*
I bosqich	O‘rganish	Esda saqlash
II bosqich	Tushuntirib berish	O‘rganganlarini ayta bilish, isbotlash, himoya qila olish
III bosqich	Tatbiq etish	Qoida qonuniyatlarni amaliyot bilan bog‘lay olish
IV bosqich	Tahlil etish	Qiyoslash, taqqoslash, sababini aniqlash
V bosqich	Sintez	Axborotni qayta ishlay olish
VI bosqich	Baholay olish	Natijaga erishish

Innovatsion faoliyatning asoslari. Hozirgi davr ta’lim taraqqiyoti yangi yo‘nalish innovatsion pedagogikani keltirib chiqardi. Innovatsion *(ingliz.)* — yangilikni kiritish (tarqatish) ma’nosini anglatadi.

Pedagogik innovatsiyada «yangi» tushunchasi markaziy hisoblanib, pedagogik fanda — xususiy, shartli, mahalliy va subyektiv yangilikka qiziqishni uyg‘otadi. Ilmiy yo‘nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari farqlanadi. Yangilik — bu vosita, yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar.

Innovatsion jarayonlar, ularning funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlarining pedagogik asoslarini o‘rganish o‘quv jarayonini zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlari yutuqlari asosida, jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi.

Innovatsion faoliyatning eng muhim masalalardan biri — o‘qituvchi shaxsi — novator, ijodkor, o‘z bilimlarini va malakasini muntazam oshirib boruvchi, ma’naviy yetuk, umuminsoniy va milliy madaniyatga ega, izlanuvchan bo‘lishi lozim.

Innovatsion faoliyat motivatsion, texnologik va refleksiyalik qismlardan tashkil topadi. Innovatsion jarayonlar rivojlanish qonuniyatlarining pedagogik asoslarini o‘rganish o‘quv jarayonini zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlari yutuqlari asosida, jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayonining 3 ta asosiy qonuniyati farqlanadi.

Pedagogik innovatsiya muhitining ayovsiz bir sharoitda emasligi qonuni. Bunda pedagogik jarayon va hodisalar to‘g‘risidagi tasavvurlar buziladi, pedagogik ong buziladi, pedagogik yangilik baholanadi.

Nihoyat amalga oshirish qonuni. Nihoyat amalga oshirish qonuni yangilikning hayotiyligi bo‘lib, erta yo kech, stixiyali yoki ongli ravishda amalga oshadi.

Komillashtirish pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanish va qaytish qonuni. Pedagogik innovatsiyaning davriyligi va qaytishi qonuni bo‘yicha yangilik, yangi sharoitlarda qayta tiklanadi.

Innovatsion pedagogik jarayonning muhim shartlari shaxsning o‘z-o‘zini boshqarishi va o‘zini-o‘zi safarbar qilishi hisoblanadi. Uning eng muhim yo‘nalishlaridan biri o‘quvchi, tinglovchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Bu faoliyat ishtirokchilarning ijtimoiy faolliklarini rivojlantiradi. Ya’ni an’anaviy ta’limda o‘quvchilarga ma’lum bir bilimlar berilgan bo‘lsa, innovatsion faoliyat natijasida ular olgan bilimlariga tayangan holda yangi bilimlar olish, xulosalar chiqarishga o‘rganishadi. Shuningdek, ularda tayyor ish joylarida mehnat qilishga emas, balki ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha ham ko‘nikmalar shakllanadi.

Pedagog bu jarayonga shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta’lim jarayonida o‘quvchi asosiy figuraga aylanadi. Aynan shu jarayon o‘quvchilarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantiradi. Bu jarayonni tashkil etishda zamonaviy o‘qitish metodlari — interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o‘rni va roli benihoya kattadir. Bunda pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o‘quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi.

Ijobiy natijaga erishish uchun o‘qituvchi dars jarayonini avvaldan loyihalashtirib olishi kerak. Bunda o‘qituvchi dars rejasini fanning xususiyatidan, fanning oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda shakllantiradi. Dars rejasini shakllantirish uchun o‘qituvchi pedagogika, psixologiya, metodika, pedagogik va axborot texnologiyalardan xabardor bo‘lishi, shuningdek, samarali metodlardan foydalanishni bilishi zarur.

Hozirgi davr ta’lim taraqqiyoti yangi yo‘nalish — innovatsion pedagogikani keltirib chiqardi.

Ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to‘liq foydalaniladi.

Dars jarayonini tashkil etishda o‘qituvchi vaziyatga qarab, o‘quvchilarning ehtiyojidan kelib chiqqan holda jarayonni boshqarib borishi zarur. Dars jarayonini tashkil etishda o‘qituvchi avvaldan birorta metoddan foydalanishni nazarda tutgan bo‘lsa-da, lekin tanlangan metod samarasiz bo‘lishi mumkin. Bunday sharoitda o‘qituvchi zarur bo‘lgan boshqa metodlardan birini qo‘llashi kerak bo‘ladi.

O‘qituvchi dars jarayonida quyidagilarga e’tibor qaratishi zarur:

- o‘tiladigan mavzu yuzasidan o‘quvchilarning ehtiyojini, dunyoqarashini, tafakkurini aniqlashga yo‘naltirilgan savol berish;
- o‘quvchilarni mavzu bilan tanishtirish, maqsad va vazifalarni aniqlash;

- ijodiy faoliyat uchun tavsiya etilgan savol va topshiriqlarni ijtimoiy hayot bilan bog‘lash va o‘quvchilarni to‘g‘ri fikrlashga yo‘naltirish;
- mavzuni boshqa fanlar yordamida tushuntirishga harakat qilish, o‘quvchilarda mavjud bilimlardan foydalanish.

Darsni boshlash jarayonida o‘quvchilarda ko‘tarinki kayfiyat, yuksak ehtiros, ijodiy ruhlanish kuzatilsa, dars jarayonining samaradorligi yuqori bo‘ladi. Bunda o‘qituvchining faoliyati aniq reja asosida, oldindan tayyorlangan holda bo‘lishi zarur. Demak, o‘qituvchi tomonidan dars davlat ta’lim standartlari asosida olib boriladi.

Bunda aniq vazifalar sifatida bevosita o‘quv jarayonini yaxshilash, o‘quv dasturlarini yanada takomillashtirish, o‘qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini amalda joriy qilish, texnik vositalaridan keng foydalanishdan iboratdir.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim. Bu ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra, ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarining to‘laqonli rivojlanishlarini ko‘zda tutadi. Ta’lim jarayonining asosiy obyekti o‘quvchi bo‘lib, uning shaxsi, qadr-qimmatini yuqori o‘ringa qo‘yadigan, asosiy e’tiborni intellektual salohiyatini oshirish, dunyoqarashini boyitish, ma’naviy-axloqiy tafakkurini rivojlantirishga qaratadigan pedagogik faoliyat turi.

Tizimli yondashuv. Ta’lim texnologiyasi tizimning barcha belgilari: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo‘g‘inlari o‘zaro bog‘langanligi va yaxlitligini o‘zida mujassam etishi kerak.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirish, ta’lim oluvchining faoliyatini faollashtirish va tezlashtirish, o‘quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo‘naltirilgan ta’limni ifodalaydi.

Dialogik yondashuv. Bu yondashuv ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining psixologik birligi va o‘zaro munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Natijada shaxsning o‘z-o‘zini faollashtirishi va ko‘rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish. Tenglik, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi subyektiv munosabatlarda hamkorlikni, maqsad va faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e’tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

O‘zbekiston tarixini o‘qitish metodlari sifatida *og‘zaki bayon, hikoya, monolog, dialog, suhbat, keys* va boshqalarni aytish mumkin.

Tarixiy manbalar bilan ishlash *tarixiy adabiyotlar, tarixiy hujjatlar, moddiy va ma’naviy manbalar, yozma va og‘zaki tarix*ni o‘z ichiga oladi.

O‘quvchilarni O‘zbekiston tarixi faniga qiziqtirishda tarixiy manbalar bilan ishlash metodi muhim omil hisoblanadi. Mazkur metodni amalga oshirishda tarixiy va badiiy adabiyotlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, B. Ahmedovning

«Amir Temur», Sharofiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Alisher Navoiyning o‘ylari, hikmatlari, naqllari va she’rlari to‘plangan «Hikmatlar» kitobi va boshqa tarixiy-badiiy adabiyotlardan tarix darslarida foydalanishda o‘quvchilarning psixologik yosh xususiyatlarini hisobga olish joiz.

Ko‘rgazmali metodlar: shartli-grafik illyustratsiyalardan foydalangan holda ko‘rgazmalilik, surat tahlili, rasm ishlash, kontur xaritani to‘ldirish, kompyuter, proyektor va boshqa texnika vositalari orqali EATRlaridan ta’lim samaradorligini oshirishda foydalanish.

ELEKTRON AXBOROT TA’LIM RESURSI VA ULARNI TA’LIM JARAYONIGA TATBIQ ETISH

Yosh avlodga zamonaviy bilimlar berish, kasb-hunar o‘rgatish, iqtidori, qobiliyati va intellektual salohiyatini o‘stirish uchun zarur bo‘lgan barcha imkoniyatlarni yaratish, ayni paytda ularni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, ezgu fazilatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash masalasi davlatning doimiy e’tiboriga olindi. Ushbu maqsadni amalga oshirishda darsliklarning yangi avlodining yaratilishi bilan bir qatorda elektron axborot-ta’lim resurslari yaratilmoqda.

Elektron axborot-ta’lim resursidan foydalanish uchun oldin ushbu resurs haqida qisqacha tushunchalarga ega bo‘lish maqsadga muvofiqdir.

Elektron axborot-ta’lim resursi nima?

Elektron axborot-ta’lim resursi (EATR) – o‘rganish va ta’lim berish uchun qulay tarzda shakllantirilgan, ilmiy jihatdan tizimlashtirilgan, turli yoshdagi va ta’lim olish darajasidagi o‘quvchi va o‘qituvchilarga mo‘ljallangan, ma’lum bir fanni o‘rganish uchun mantiqiy ketma-ketlikda shakllantirilgan elektron axborot manbalari majmuasidir.

Elektron axborot-ta’lim resursi tuzilishi:

- ma’ruza matni;
- nazariy material;
- nazorat dasturlari;
- media materiallar;
- audio materiallar;
- mashq va masalalar to‘plami, so‘rovnoma;
- qo‘shimcha materiallar;
- didaktik to‘plam;
- fotogalereya.

Ta’lim jarayonida elektron o‘quv vositalaridan foydalanishning nazariy asoslari quyidagilardan iborat:

- barkamol insonni shakllantirish va rivojlantirish;
- o‘qitishning uslub va usullarini individuallashtirish va intellektuallashtirish;
- ijodiy qabul qilish va o‘quv-uslubiy materialning reproduksiyasi;
- qo‘llaniladigan didaktik vositalarning muloqotbopligi, kommunikativligi va faolligi;
- ta’lim oluvchilarning bilish qobiliyatini yuksak darajada shakllantirish;

- innovatsion (ta’lim berishning yangi uslublarini) texnologiyalarni ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish.

Elektron axborot-ta’lim resursi – mustaqil ta’lim olish vositasi sifatida:

– ta’lim oluvchi ta’lim olishda o‘zlashtirish jarayonini mustaqil boshqaradi, o‘zlashtirilgan bilimlarni nazorat qilish esa, o‘z navbatida, sun’iy intellektga ega bo‘lgan ta’lim olish manbasi orqali amalga oshiriladi;

– elektron darsliklarning qaysi fan yoki sohaga yo‘naltirilganligidan qat’i nazar, asosiy yo‘nalish boshlang‘ich ma’lumotlarni, oraliq natijalarni vizuallashtirishga qaratilgan bo‘ladi. Amaldagi tarix fanidan yaratilgan EATRlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- fan mazmunini ochib berish hamda o‘quv-metodik maqsadlarga erishishga imkon bera oladigan darajada hajmga ega;
- fan o‘quv-metodik maqsadlariga erishishga yordam beruvchi ko‘rgazmali elementlarga ega;
- materialni monitor ekranidan ko‘rish va tarmoq bo‘ylab joylashtirish imkoniyati mavjud;
- katta hajmdagi o‘quv materialini qayta ishlash, ularni web manbalariga va boshqa axborot tashuvchilarga o‘tkazish imkoniyati mavjud;
- ko‘rgazmalilik darajasining yuqoriligi, interaktiv topshiriqlar, o‘z-o‘zini baholash va nazorat qilish, mustaqil ishlash imkoniyati berilgan;
- imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun maxsus sharoitlar yaratilgan;
- ko‘rgazmalilik darajasining yuqoriligi, mashqlar orqali bilimlarni to‘ldirish va mustahkamlash;
- Davlat ta’lim standarti talablarini o‘zlashtirishni nazorat qilish, mustahkamlash imkoniyati mavjud.

Elektron axborot-ta’lim resursidan foydalanishdan oldin quyidagilar tavsiya etiladi:

- o‘quv yili boshida EATRdan foydalanish yuzasidan tayyorlangan yo‘riqnoma bilan tanishish, mavzuni tanlash, dars ishlanmasini tayyorlash (kompyuter yoki multimedia proyektori bilan jihozlangan sinfga mos);
- o‘quvchilarni EATRdan qanday foydalanish lozimligi bilan tanishtirish;
- dars jarayonini tashkil qilish, o‘quvchilarni ikkita (va undan ko‘proq) guruhga bo‘lish, har bir guruh uchun topshiriqlar tayyorlash;
- o‘quvchilarning o‘z ustilarida ishlashlarini ta’minlashga oid ijodiy faoliyat turlarini tashkil qilish.

Ta’limning muvaffaqiyati dars jarayonini to‘g‘ri rejalashtirish, tashkil etish va uni amalga oshirishga bog‘liqdir.

Amaliy metodlar: *online sayohat, tadqiqotchilik, badiiy va tarixiy manbalarni qiyoslash va hokazo.*

INTERFAOL METODLAR

FSMU *(Fikr, sabab, misol, umumlashtirish)* **metodi.** Ushbu texnologiyadan munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o‘tkazishda yoki chorak yakunida yo o‘quv dasturi asosida har bir bo‘lim o‘rganib bo‘lingach, qo‘llanilsa, maqsadga muvofiq. Bu texnologiya o‘quvchilarni mustaqil fikrlash dars jarayonida egallagan bilimlari asosida vaziyatni baholash shu bilan birga, kommunikativ, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ega bo‘lish kompetensiyalari elementlarini shakllantiradi. Ushbu texnologiya o‘quvchilarga tarqatilgan oddiy qog‘ozda o‘z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarini bayon etishga yordam beradi. Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o‘tkaziladi.

1-bosqich (tashkiliy):

- o‘qituvchi bahs mavzusini yoki muhokama etilishi kerak bo‘lgan muammoni yo o‘rganilgan bo‘limni belgilab oladi;
- o‘qituvchi dars avvalida har bir o‘quvchiga yakka tartibda ishlashi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib borilishi va nihoyat dars oxirida jamoa bo‘lib ishlanishi haqida ma’lumot beradi;
- dars davomida har bir o‘quvchi o‘z fikrini erkin holda to‘liq bayon etishi mumkin ekanligi eslatib o‘tiladi.

2-bosqich (amaliy ishlar).

Har bir o‘quvchiga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog‘ozlar tarqatilgan:

- F — fikringizni bayon eting.
- S — fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating.
- M — ko‘rsatgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.
- U — fikringizni umumlashtiring.

Har bir o‘quvchi yakka tartibda qog‘ozdagi FSMUning fikrlarini yozma bayon etgan holda to‘ldiradi.

3-bosqich (umumlashtirish).

Har bir o‘quvchi o‘z qog‘ozlarini to‘ldirib bo‘lgach, o‘qituvchi ularni kichik guruhlarga bo‘linishlarini iltimos qiladi yoki o‘zi turli guruhlarga bo‘lish usullaridan foydalangan holda o‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lib yuboradi. Bu bosqichda o‘quvchilar har biri o‘zlarining fikrlarini himoya qiladilar va yagona fikrni shakllantiradilar.

4-bosqich yozilgan katta formatdagi qog‘ozlar tarqatiladi; kichik guruhlar birlashtirilib, o‘quvchilarning soniga qarab, uchta yoki to‘rtta katta guruhlarga birlashtiriladi.

O‘qituvchi kichik guruhlarda yozilgan qog‘ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirishni topshiradi.

Bu jarayonda avval har bir guruh vakili kichik guruhlarda umumlashtirilgan fikrlari bilan katta guruh a’zolarini tanishtirib o‘tadi. Barcha fikrlar o‘rganilgach, fikrlar umumlashtiriladi. Bu bosqichda guruh a’zolari jamoa bo‘lib ishlaydilar va har bir fikrni himoya qilishga tayyorgarlik ko‘radilar.

5-bosqich:

- har bir guruh muammo bo‘yicha o‘zlarining fikr va mulohazalarini himoya qiladi.

6-bosqich:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga yakun yasaydi, bildirilgan fikrlarga o‘z munosabatini bildiradi;
- quyidagi savollar bilan tinglovchilarga murojaat qiladi:
  - ushbu trening yordamida nimalarni bilib oldingiz va nimalarga o‘rgandingiz?
  - savollar har bir darsning mazmuni, maqsadidan kelib chiqib o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga berilishi mumkin.

Tarqatma materialning taxminiy nusxasi.

FSMU texnologiyasi:

(F) — fikringizni bayon eting;

(S) — fikringizni bayoniga biron sabab ko‘rsating;

(M) — ko‘rsatilgan sababni tushuntiruvchi (isbotlovchi) misol keltiring;

(U) — fikringizni umumlashtiring.

Masalan: milliy qadriyatlarning jamiyatga ta’siri haqida ma’lumot bering.

F – men milliy qadriyatlarni qo‘llab-quvvatlayman.

S – milliy qadriyatlar insonning o‘zligini anglatadi.

M – til – millat ko‘zgusidir. Milliy qadriyatlar bizning tariximizdan xabar beradi.

U — shuning uchun ham milliy qadriyatlarni qo‘llab-quvvatlayman.

«AQLIY HUJUM» METODI

Mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo‘llaniladigan metod sanalib, u mashg‘ulot ishtirokchilarini muammo xususida har tomonlama fikr yuritish, shuningdek, o‘z tasavvurlari va g‘oyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma’lum ko‘nikma hamda malakalarni hosil qilishga rag‘batlantiradi. Ushbu metod yordamida tashkil etilgan mashg‘ulot jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni topish imkoniyati tug‘iladi.

Mashg‘ulotlar jarayonida «aqliy hujum» metodidan foydalanishda bir necha qoidalarga amal qilish talab etiladi. Ushbu qoidalar quyidagilardan iborat:

1) mashg‘ulot ishtirokchilarini muammo doirasida keng fikr yuritishga undash, ular tomonidan kutilmagan mantiqiy fikrlarning bildirilishiga erishish;

2) har bir ta’lim oluvchi tomonidan bildirilayotgan fikr yoki g‘oyalar miqdori rag‘batlantirilib boriladi. Bu esa, bildirilgan fikrlar orasidan eng maqbullarini tanlab olishga imkon beradi. Bundan tashqari, fikrlarning rag‘batlantirilishi navbatdagi yangi fikr yoki g‘oyalarning tug‘ilishiga olib keladi;

3) har bir ta’lim oluvchi o‘zining shaxsiy fikri yoki g‘oyalariga asoslanishi hamda ularni o‘zgartirishi mumkin. Avval bildirilgan fikr (g‘oya)larni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o‘zgartirish ilmiy asoslangan fikr (g‘oya)larning shakllanishiga zamin hozirlaydi;

4) dars jarayonida ta’lim oluvchilarning har qanday faoliyatlarini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildirilayotgan fikrlarni baholashga yo‘l qo‘ymaydi. Agar ularning fikr (g‘oya)lari baholanib boriladigan bo‘lsa, ta’lim oluvchilar o‘z diqqatlarini shaxsiy fikrlarini himoya qilishga qaratadilar, oqibatda ular yangi fikrlarni ilgari surmaydilar. Mazkur metodni qo‘llashdan asosiy maqsad ta’lim oluvchilarni muammo xususida keng va chuqur fikr yuritishga rag‘batlantirish ekanligini e’tibordan chetda qoldirmagan holda ularning faoliyatlarini baholab borishning har qanday usulidan voz kechish maqsadga muvofiqdir.

Mashg‘ulot jarayonida ushbu metoddan samarali foydalanish maqsadida quyidagilarga amal qilish lozim.

1. Mashg‘ulot ishtirokchilarining o‘zlarini erkin his etishlariga sharoit yaratish.

2. G‘oyalarni yozib berish uchun yozuv taxtasi yoki varaqlarni tayyorlab qo‘yish.

3. Muammo (yoki mavzu)ni aniqlash.

4. Mashg‘ulot jarayonida amal qilinishi lozim bo‘lgan shartlarni belgilash. Shartlar quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

a) ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilayotgan har qanday g‘oya baholanmaydi;

b) ta’lim oluvchilarning mustaqil fikr yuritishlari, shaxsiy fikrlarini ilgari surishlari uchun qulay muhit yaratiladi;

d) g‘oyalarning turlicha va ko‘p miqdorda bo‘lishiga ahamiyat qaratiladi;

e) boshqalar tomonidan bildirilayotgan fikrlarni yodda saqlash, ularning fikrlariga tayangan holda yangi fikrlarni bildirish, bildirilgan fikrlar asosida muayyan xulosalarga kelish kabi harakatlarning ta’lim oluvchilar tomonidan sodir etilishiga erishiladi.

5. Bildirilayotgan g‘oyalarni ularning mualliflari tomonidan asoslanishiga erishish va ularni yozib olish.

6. Muayyan qog‘oz varaqlari g‘oya (yoki fikr)lar bilan to‘lgandan so‘ng ularni yozuv taxtasiga osib qo‘yish.

7. Bildirilgan fikrlarni yangi g‘oyalar bilan boyitish asosida ularni quvvatlash.

8. Boshqalar tomonidan bildirilgan fikr (g‘oya)lar ustidan kulish yoki ularga nisbatan kinoyali sharhlarning bildirilishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

9. Ta’lim oluvchilar tomonidan yangi g‘oyalar bildirilishi davom etayotgan ekan, muammoning yagona to‘g‘ri yechimini e’lon qilishga shoshilmaslik.

O‘qituvchi tomonidan dars yakunida o‘quvchilar ta’lim-tarbiyasidagi bo‘shliqlar aniqlanadi, to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltiriladi.

Aqliy hujum metodi to‘g‘ri va ijobiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o‘rgatadi.

«FIKRIY HUJUM» METODI

Bu metod o‘quvchilarning mashg‘ulotlar jarayonida faolliklarini ta’minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag‘batlantirish hamda bir xil fikrlashdan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g‘oyalarni to‘plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish, muammo yoki masalani yechish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo‘lgan

fikrlarni asoslashga o‘rgatish uchun xizmat qiladi. «Fikriy hujum» metodi A. F. Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo‘lib, uning asosiy tamoyili va sharti mashg‘ulot (bahs)ning har bir ishtirokchisi tomonidan o‘rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo taqiqlash, har qanday hazil-mutoyibalarni rag‘batlantirmaslikdan iboratdir. Bundan ko‘zlangan maqsad ta’lim oluvchilarning mashg‘ulot (bahs) jarayonidagi erkin ishtirokini ta’minlashdir. Ta’lim jarayonida ushbu metoddan samarali va muvaffaqiyatli foydalanish o‘qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko‘lamining kengligiga bog‘liq bo‘ladi. Ushbu metodga asoslangan mashg‘ulotni bir soatda tashkil etish mumkin.

«FIKRLARNING SHIDDATLI HUJUMI» METODI

Mazkur metod Y. A. Aleksandrov tomonidan asoslangan hamda G. Ya. Bush tomonidan qayta ishlangan. «Fikrlarning shiddatli hujumi» metodining mohiyati jamoa orasida muayyan topshiriqlarni bajarayotgan har bir ta’lim oluvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish hamda ta’lim oluvchilarda ma’lum jamoa (guruh) tomonidan bildirilgan fikrga 2 qarshi g‘oyani ilgari surish layoqatini yuzaga chiqarishdan iboratdir.

Ushbu metoddan foydalanishga asoslangan mashg‘ulot bir necha bosqichda tashkil etiladi.

1-bosqich. Ruhiy jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lgan ta’lim oluvchilarni o‘zida biriktirgan hamda son jihatdan teng bo‘lgan kichik guruhlarni shakllantirish.

2-bosqich. Guruhlarga hal etish uchun topshirilgan vazifa yoki topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqadigan maqsadlarni aniqlash.

3-bosqich. Guruhlar tomonidan muayyan g‘oyalarning ishlab chiqilishi (topshiriqlarning hal etilishi).

4-bosqich. Topshiriqlar yechimlarini muhokama etish, ularni to‘g‘ri hal etilganligiga ko‘ra turkumlarga ajratish.

5-bosqich. Topshiriqlar yechimlarini qayta turkumlashtirish, ya’ni ularning to‘g‘rilik darajasi, yechimini topish uchun sarflangan vaqt, yechimlarning aniq va ravshan bayon etilishi kabi mezonlar asosida baholash.

6-bosqich. Dastlabki bosqichlarda topshiriqlar yechimlari yuzasidan bildirilgan muayyan tanqidiy mulohazalarni muhokama etish hamda ular borasida yagona xulosaga kelish.

Yuqorida mohiyati bayon etilgan «Fikrlarning shiddatli hujumi» metodini ijtimoiy, gumanitar va tabiiy yo‘nalishlardagi fanlar yuzasidan tashkil etiladigan mashg‘ulotlar jarayonida muvaffaqiyatli qo‘llash mumkin. Metodni qo‘llash jarayonida quyidagi holatlar yuzaga keladi:

- o‘quvchilar tomonidan muayyan nazariy bilimlarning puxta o‘zlashtirilishiga erishish;
- vaqtni tejash;
- har bir o‘quvchini faollikka undash;
- ularda erkin fikrlash layoqatini shakllantirish.

Ko‘rinib turibdiki, ushbu metod ta’lim oluvchilar tomonidan muayyan nazariy bilimlarning puxta o‘zlashtirilishiga erishish, vaqtni iqtisod qilish, har bir ta’lim oluvchini faollikka undash, ularda erkin fikrlash layoqatini shakllantirishga yordam beradi.

«YALPI FIKRIY HUJUM» METODI

Mazkur metod J. Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, uni bir necha o‘n (20, 40 va 60) nafar ta’lim oluvchilardan iborat guruh (sinf)larda qo‘llash mumkin. Ushbu metod ta’lim oluvchilar tomonidan yangi g‘oyalarning o‘rtaga tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladi. Besh yoki olti nafar ta’lim oluvchilarni o‘z ichiga olgan guruhlarga 15 daqiqa ichida ijobiy hal etilishi lozim bo‘lgan turli xil topshiriq yoki ijodiy vazifalar beriladi. Topshiriq va ijodiy vazifalar belgilangan vaqt ichida ijobiy hal etilgach, bu haqda guruh a’zolaridan biri axborot beradi. Guruh tomonidan berilgan axborot (topshiriq yoki ijodiy vazifaning yechimi) o‘qituvchi va boshqa guruhlar a’zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi. Mashg‘ulot yakunida o‘qituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning yechimlari orasida eng yaxshi va o‘ziga xos deb topilgan javoblarni e’lon qiladi. Mashg‘ulot jarayonida guruh a’zolarining faoliyatlari ularning ishtiroklari darajasiga ko‘ra baholab boriladi.

ARRA METODI

(E. Aronson,1978)

Pedagogik amaliyotda mazkur metodda kichik guruhlar 6–8 nafar o‘quvchidan tashkil topadi. Dars davomida o‘rganiladigan mavzu mantiqan tugallangan qismlarga ajratiladi. Har bir qism yuzasidan o‘quvchilar bajarilishi lozim bo‘lgan o‘quv topshiriqlari tuziladi. Har bir o‘quvchilar guruhi mazkur topshiriqlarning bittasini bajaradi va shu qism bo‘yicha «mutaxassis»ga aylanadi. So‘ngra guruhlar qayta tashkil etiladi. Bu guruhlarda har bir qism (blok yoki modul) «mutaxassisi» bo‘lishi shart, mazkur «mutaxassis»lar o‘zlari egallagan bilimlarni xuddi «arra» tishlari ketma-ket kelganidek navbat bilan o‘rtoqlariga bayon qilishadi. Mazkur guruhlarda o‘quv materiali mantiqiy ketma-ketlikda qayta ishlab chiqiladi.

1986-yili R. Slavin «arra» metodini qisman o‘zgartirib «arra-2» metodini yaratdi. Mazkur metodga ko‘ra, kichik guruh 4–5 o‘quvchidan tashkil topadi. Barcha guruh a’zolari o‘quv materiali yuzasidan tuzilgan yagona topshiriq ustida ishlaydi. Guruh ichida o‘quvchilar topshiriqlarni qismlarga ajratib, bo‘lib oladilar. Har bir o‘quvchi o‘ziga tegishli qismini puxta o‘zlashtirib «mutaxassis»ga aylanadi. Dars oxirida har bir kichik guruhdagi «mutaxassis»lar uchrashuvi qayta tashkil etilgan guruhlarda o‘tkaziladi.

O‘quvchilar bilimi sinovi test savollari yordamida individual tarzda o‘tkazilib nazorat qilinadi va baholanadi. Guruh a’zolarining ballari jamlanadi, eng yuqori ball to‘plagan guruh g‘olib sanaladi.

«BUMERANG» TEXNOLOGIYASI

Bu texnologiya o‘quvchilarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar,

matnlar bilan ishlash, o‘rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so‘zlab bera olish, fikrini erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o‘quvchilarni baholay olishga qaratilgan.

Maqsad: dars davomida tinglovchilarga tarqatilgan materiallarni ular tomonidan yakka va guruh holatida o‘zlashtirib olishlari hamda o‘zaro suhbat munozara orqali, turli savollar, tarqatma materiallar va undagi matnlar qay darajada o‘zlashtirilganini nazorat qilish; dars davomida o‘quvchilar tomonidan baho ballarini egallashga imkoniyat yaratish.

O‘TKAZISH TEXNOLOGIYASI

1-bosqich:

– dars to‘g‘ridan-to‘g‘ri tinglovchilarni 4–5 kishidan iborat kichik guruhlarga bo‘lishdan boshlanadi;

– darsda har bir guruh va uning har bir a’zosiga mustaqil o‘rganish, fikrlash va yodda saqlab qolish uchun o‘qituvchi tomonidan tanlangan umumiy mavzu bo‘yicha biron-bir hajmdagi matn berilgan alohida-alohida aniq yozma tarqatma materiallar beriladi, ularning soni guruhlar va tinglovchilar soniga bog‘liq. Agar 4 ta kichik guruh bo‘lsa, u holda umumiy mavzu 4 ta kichik matnlarga bo‘linib har bir guruhga beriladi;

– faoliyat samarali bo‘lishi uchun har bir guruhga berilgan matndan har bir tinglovchiga beriladi. Shunday qilib, 4 ta guruh umumiy mavzu asosida 4 xil matnga, har bir tinglovchi esa, o‘z guruhiga tushgan matnga ega bo‘ladi.

2-bosqich:

– guruhlarga berilgan matnni guruh a’zolari yakka tartibda alohida o‘rganishlari, matnni eslab qolishlari, keyin kerak bo‘lganda o‘qituvchiga yoki boshqalarga gapirib berishlari, iloji boricha matnni o‘zlashtirib olishlari kerakligini o‘qituvchi uqtiradi va tayyorgarlik uchun matnning katta-kichikligiga qarab 10–15 daqiqa vaqt beradi. O‘zi esa guruh va o‘quvchilarning ish faoliyatini kuzatadi.

3-bosqich:

– o‘qituvchi oldindan tayyorlab qo‘yilgan raqamlar yozilgan kichik qog‘ozlar bilan har bir guruh yoniga kelib guruh a’zolaridan raqamli qog‘ozlardan bittadan tortib olishlarini so‘raydi (qog‘ozlar soni guruhdagi tinglovchilar soniga bog‘liq, masalan: guruhda 5 nafar kishi bo‘lsa, qog‘ozdagi raqamlar 1, 2, 3, 4, 5 etib tayyorlanadi, agar 4 nafar bo‘lsa, 1 dan 4 gacha va h.) guruhlardagi barcha tinglovchilar raqamlar yozilgan qog‘ozdan olishlari kerak. Nechta guruh bo‘lsa, shuncha guruh a’zolari soniga qarab raqamlar yozilgan qog‘ozlar tayyorlanadi;

– o‘qituvchi raqamlar bo‘yicha tinglovchilardan yangi guruhlar tuzishlarini so‘raydi. Masalan: hamma 1 raqamini olganlar bitta yangi guruh, 2 raqamlilar ikkinchi guruh, 3 raqamlilar uchinchi guruh, 4 raqamlilar to‘rtinchi guruh, 5 raqamlilar beshinchi guruhni tashkil etishadi. Guruh a’zolari yangi guruhga o‘tishlarida o‘zlari bilan o‘rgangan matnlarini oladilar.

4-bosqich:

– raqamlar bo‘yicha yangi guruhlar tuzilganda har bir yangi guruhda avvalgi guruhlardan bittadan vakillar o‘z-o‘zidan to‘planib qoladi, ya’ni 4 ta guruhda 4 xil matn o‘rganilgan bo‘lsa, bu yangi guruhda har bittasidan bittadan vakil to‘planadi, umumiy mavzu bo‘yicha 4 tinglovchi va 4 xil matn to‘planadi.

5-bosqich:

– yangi tuzilgan guruhning har bir a’zosi endi o‘ziga 2 ta vazifa, ya’ni o‘qituvchi va o‘quvchi vazifasini oladi va quyidagicha faoliyat ko‘rsatadi.

1. O‘qituvchi (o‘rgatuvchi) sifatida, o‘zi avval o‘rgangan materialni gapirib beradi, tushuntiradi, o‘zi mustaqil o‘rgangan materialning asosiy joylariga barchaning diqqatini jalb qiladi, boshqa guruh a’zolarining tushunish va o‘zlashtirish qobiliyatlarini tekshiradi.

2. O‘quvchi sifatida, guruh a’zolarining navbatma-navbat so‘zlab, tushuntirayotgan, gapirayotgan matnlarini eshitadi, tahlil qiladi, fikrlaydi va yodda saqlab qolishga harakat qiladi. O‘qituvchi esa ularga o‘z matnlarini faqat so‘zlab berishlari kerakligini uqtiradi va bunga taxminan 10–15 daqiqa vaqt beradi (matn hajmiga va umumiy mazmunining qiyin osonligiga qarab vaqt ajratiladi). Bu bosqichda tarqatilgan barcha material tinglovchilar tomonidan o‘zlashtirilgan hisoblanadi.

6-bosqich:

– guruhdagilar bir-birlariga o‘z matnlarini gapirib berib, barchalari ushbu matnlarni bilib olishgach, o‘qituvchi o‘rganilgan material guruh a’zolari tomonidan qanchalik o‘zlashtirib olinganini tekshirib ko‘rish uchun har bir guruh a’zolari bir-birlariga o‘z matnlaridan kelib chiqqan holda savollar berishlari mumkinligini tushuntiradi. Shunday qilib savol-javob orqali guruh ichida ichki nazorat o‘tkaziladi. Bu esa guruhdagi tinglovchilarga bir-birlariga so‘zlab berilgan materiallarning boshqalar tomonidan o‘zlashtirilganlik darajasini aniqlashga, mustahkamlashga yordam beradi.

7-bosqich:

– tinglovchilarni yana avvalgi joylariga qaytishlari so‘raladi, ya’ni yana hamma mashg‘ulot boshlanishidagi guruhlariga qaytadilar.

8-bosqich:

– o‘qituvchi sinfdagi o‘quvchilarning barchasi hammaga tarqatilgan yozma materiallar bilan tanish ekanliklari, ular haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lganliklarini hisobga olgan holda auditoriyadagi har bir o‘quvchidan xohlagan materialni so‘rashi mumkinligini aytadi.

9-bosqich:

– tarqatilgan materiallarning tinglovchilar tomonidan qay darajada o‘zlashtirilganligini aniqlash maqsadida o‘qituvchi yoki maxsus guruh yo opponent guruhi tomonidan berilgan nazorat savollariga javoblarni reyting baho tizimida – to‘liq javob uchun – 5 baho, qo‘shimcha uchun – 4 baho, tushuncha bo‘lsa (luqma tashlansa) – 3 baho, javob bermasa – 2 baho, umuman ishtirok etmasa – 1 baho qo‘yishni belgilash mumkin.

Guruh a’zolarining javoblarini yuqorida ko‘rsatilgan tartibda baholash, umumlashtirish uchun har bir guruh o‘ziga guruh qatnashchilaridan birini «hisobchi» etib tayinlashi mumkin («hisobchi» ham davrada bo‘layotgan savol-javoblar muloqotida ishtirok etadi).

10-bosqich:

– o‘qituvchi tarqatma materiallar asosida tuzilgan savollar (5–6 ta) bilan o‘quvchilarga murojaat qiladi (savollar iloji boricha mavzuga oid hamma matnlarga tegishli bo‘lgani ma’qul, shuningdek, o‘qituvchi sinfdagi barcha o‘quvchilarni javob berish uchun qamrab olishga harakat qiladi). Berilgan savollarga javob berish tugagach, doskaga guruhlar tomonidan to‘plangan ballar yoziladi va mashg‘ulotning keyingi bosqichiga o‘tiladi.

11-bosqich:

– o‘qituvchi har bir guruh o‘z yozma materiallarining mazmunidan kelib chiqqan holda bittadan savol tayyorlashi kerakligini aytadi va guruhlarga savol tuzishlari uchun 5–7 daqiqa vaqt ajratadi.

12-bosqich:

– guruhlar bir-birlariga savollar beradilar, guruhlardagi «hisobchilar» guruh a’zolarining javoblarini yuqorida belgilangan tartibda baholab boradilar. Javoblar to‘g‘ri bo‘lsa, savol bergan guruh javobni to‘ldirmaydi.

13-bosqich*:*

– o‘qituvchi guruh a’zolari to‘plagan ballarni yana bir marotaba doskaga yozadi va to‘plangan baholarning umumiy sonini aniqlaydi. To‘plangan ballar (baholar) umumiy sonini guruh a’zolariga (yuqorida keltirilgan mezon asosida) teppa-teng bo‘ladi.

Izoh: agar to‘plangan baholar guruh a’zolari orasida teng bo‘lish paytida o‘quvchilar tomonidan norozilik bo‘lsa, ya’ni ba’zi guruh a’zolari guruhning faoliyatida faol ishtirok etib, umumiy jamoaviy faoliyatda passiv bo‘lishsa yoki umuman ishtirok etmagan, qiziqmagan bo‘lishsa, bunday holatda vaziyatni yechish guruh a’zolariga yuklatiladi. Guruhning yechimi to‘g‘ri hisoblanadi yoki o‘qituvchi o‘z fikrini bildirishi mumkin, chunki u dars jarayonida o‘quvchilarning javoblari, faol yoki passivliklarini kuzatib boradi.

Agar o‘quvchi faollik ko‘rsatmagan yoki savol-javoblarda ishtirok etmagan bo‘lsa ham uning shu dars jarayonida biron narsani bilib olgani, eslab qolib o‘zlashtirganini hisobga olgan holda unga eng kichik baho berilishi mumkin. Bu o‘quvchini keyinchalik shu shakldagi darslarda faolroq bo‘lishga undaydi. Yuqoridagi kabi vaziyat vujudga kelsa, uning yechimini har bir o‘qituvchi sharoitga, faoliyatga qarab o‘zi hal etishi yoki guruh, jamoaga tashlashi mumkin.

Ba’zi guruhning «hisobchilari» baholarni qo‘yishda noaniqlikka yo‘l qo‘yishlari yoki qo‘shib yozishlari mumkin, natijada ba’zi guruhlarning umumiy to‘plagan baholari boshqa guruhlarnikidan katta farq qilishi mumkin. O‘quvchilarning haqqoniy baholanishlari ularning tanlagan «hisobchi»lariga bog‘liq ekanligini o‘qituvchi eslatib o‘tadi. Agar umumiy to‘plangan ballar guruh a’zola-

riga taqsimlanganda shu mashg‘ulot uchun belgilangan maksimal bahodan ortib ketgan bo‘lsa, u holda shu mashg‘ulot uchun kerakli bahoni olib qolib, ortiqchasini keyingi mashg‘ulotlarga o‘tkazish mumkin.

14-bosqich:

– har bir o‘quvchiga baho qo‘yilgach, o‘qituvchi mashg‘ulotga yakun yasaydi. O‘qituvchi o‘quvchilarning faoliyatiga baho beradi, berilgan javoblarga o‘z fikrini bildiradi va quyidagi savollar bilan ularga murojaat qiladi:

- Bugungi darsdan nimalarni bilib oldingiz?
- Nimalarni o‘rgandingiz?
- Nimalar siz uchun yangilik bo‘ldi?
- Yana nimalarni bilishni istar edingiz?

15-bosqich:

– o‘qituvchi o‘quvchilarning javoblarini diqqat bilan tinglab, ularga minnatdorchilik bildiradi va darsni yakunlaydi.

«INSERT» STRATEGIYASI METODI

Sinf o‘quvchilari guruhlarga bo‘linadilar, guruhlar nomlanadi. O‘qituvchi har bir guruh o‘quvchilaridan mavzuga oid ikkitadan fikr bildirishlarini so‘raydi. Guruhlar navbat bilan fikr bildiradilar. Ushbu jarayonda guruhning barcha a’zolari faol ishtirok etishlarini ta’minlash maqsadga muvofiq. Bayon etilgan fikrlar yozuv taxtasiga yozib boriladi. Faoliyat yakunlangach, o‘qituvchi mavzular mazmunini yoritishga xizmat qiluvchi matnni o‘quvchilarga tarqatadi. So‘ngra shunday topshiriq beriladi:

a) matn bilan tanishib chiqing;

b) matnning har bir qatoriga quyidagi belgilarni qo‘yib chiqing:

- **Z** – matnda guruh tomonidan bildirilgan fikr o’z aksini topgan bo’lsa;
- **S** – matnda guruhlar tomonidan bildirilmagan fikr yuritilgan bo’lsa;
- **D** – matnda bir biriga zid fikrlar mavjud bo’lsa;
- **?** – matn bilan tanishish jarayonida tushunmovchiliklar yuzaga kelsa.

So‘ngra guruh a’zolari shaxsiy qarashlaridan kelib chiqib, o‘zaro fikr almashadilar, guruh bo‘yicha belgilar soni umumlashtiriladi. Sardorlar vositasida har bir belgining miqdori bayon etiladi va izohlanadi. O‘qituvchi guruhlar tomonidan qayd etilgan sonlarni ularning nomlari yozilgan ustunga yozib boradi.

O‘qituvchi har bir guruh sardori fikrini tugatgach, yuzaga kelgan qarama-qarshilik va tushunmovchiliklarni o‘quvchilar to‘g‘ri hal etishlariga va tushunib olishlariga yordam beradi.

Shundan so‘ng guruhlar darslikda berilgan matn bilan tanishib chiqib, asosiy tushunchalarni ajratadilar ular o‘rtasidagi mantiqiy munosabatlarni ochib berishga harakat qiladilar (modellashtiradilar). Guruhlar tomonidan ilgari surilgan fikrlar umumlashtirilib, sardorlar tomonidan sinf jamoasida yetkaziladi.

«JAMOADA O‘QITISH» METODI

Jamoada o‘qitishda o‘quvchilar teng sonli ikkita guruhga ajratiladi. Har ikkala guruh bir xil topshiriqni bajaradi. Komanda

a’zolari o‘quv topshiriqlarini hamkorlikda bajarib, har bir o‘quvchi mavzudan ko‘zda tutilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishiga e’tibor qaratiladi. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi mualliflaridan biri bo‘lgan R. Slavinning ta’kidlashicha, o‘quvchilarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish uchun ko‘rsatma berilishi yetarli emas. O‘quvchilar o‘rtasida tom ma’nodagi hamkorlik bo‘lishi uchun har bir o‘quvchining qo‘lga kiritgan muvaffaqiyatidan quvonish, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissi, qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga kelishi zarur. Mazkur metodda o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish sifatini aniqlashda ularni bir-biri bilan emas, balki har bir o‘quvchining kundalik natijasi avval qo‘lga kiritilgan natija bilan taqqoslanadi.

Shundagina har bir o‘quvchi o‘zining dars davomida erishgan natijasi jamoaga foyda keltirishini anglagan holda mas’uliyatni his qilib, ko‘proq izlanishga, bilim, ko‘nikma va malakalarni puxta o‘zlashtirishga intiladi.

KICHIK GURUHLARDA HAMKORLIKDA O‘QITISH

Bu yondashuvda kichik guruhlar 4 nafar o‘quvchidan tashkil topadi. O‘qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so‘ngra o‘quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. O‘quvchilarga berilgan o‘quv topshiriqlari 4 qismga ajratilib, har bir o‘quvchi topshiriqning ma’lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o‘quvchi o‘zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o‘rtoqlarini o‘qitadi, so‘ngra guruh a’zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi. O‘qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test savollari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi.

O‘quvchilarning kichik guruhlardagi o‘quv faoliyati o‘yin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin.

KICHIK GURUHLARDA IJODIY IZLANISHNI TASHKIL ETISH METODI

Mazkur metod 1976-yili Tel-Aviv universiteti professori Sh. Sharan tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metodda ko‘proq o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy ishiga e’tibor qaratiladi.

O‘quvchilar alohida-alohida yoki 6 kishilik kichik guruhlarda ijodiy izlanish olib boradilar. Ijodiy izlanish kichik guruhlarda tashkil etilganda darsda o‘rganish lozim bo‘lgan o‘quv materiali kichik qismlarga ajratiladi. Keyin bu qismlar yuzasidan topshiriqlar har bir o‘quvchiga taqsimlanadi. Shunday qilib, har bir o‘quvchi umumiy topshiriqning bajarilishiga o‘z hissasini qo‘shadi. Kichik guruhlarda topshiriq yuzasidan munozara o‘tkaziladi. Guruh a’zolari birgalikda ma’ruza tayyorlaydi va sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘z ijodiy izlanishlari natijasini e’lon qiladi. Kichik guruhlar o‘rtasida o‘tkazilgan o‘quv bahsi, munozara o‘quvchilar jamoasining hamkorlikda bajargan mustaqil faoliyatining natijasi, yakuni sanaladi. Hamkorlikda ishlash natijasida qo‘lga kiritilgan muvaffaqiyatlar sinf jamoasidagi har bir

o‘quvchining muntazam va faol aqliy mehnat qilishiga, kichik guruhlarni, umuman, sinf jamoasini jipslashtirishga, avval o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni yangi kutilmagan vaziyatlarda qo‘llab, yangi bilimlarni o‘zlashtirishiga bog‘liq bo‘ladi.

«NUQTAYI NAZARING BO‘LSIN» METODI

Metodni qo‘llashdan maqsad:

- o‘quvchilarga muayyan muammo bo‘yicha o‘z nuqtayi nazarini asosli dalillab, himoya qilishga o‘rgatish;
- o‘quvchiga muammo muhokamasi jarayonida o‘z fikrini o‘zgartirish imkonini berish;
- o‘qituvchi barcha o‘quvchilarni munozaraga jalb etish va sinfdagi hamma o‘quvchilar o‘rtasida munozara jonlanishini yuzaga keltirishi mumkin.

«Nuqtayi nazaring bo‘lsin» uslubi o‘quvchilar o‘rtasida munozara yuzaga kelishi va ular munozara jarayonida o‘z fikrlarini sinfdoshlaridan asosli g‘oyalarini eshitib o‘zgartirishi yoki avvalgisini mustahkamlashiga imkon berish maqsadida qo‘llaniladi. O‘quvchilar, shuningdek, maktab, mintaqa, respublika va jumla insoniyat uchun xarakterli bo‘lgan eng dolzarb muammolar bo‘yicha o‘z nuqtayi nazarlarini asosli dalillash va himoya qilishga o‘rganadilar.

O‘quvchi ochiqdan ochiq savollar uslubi bilan odatda dars jarayonida faol bo‘lmagan o‘quvchilarni munozarada ishtirok etishga majbur qiladi.

TANQIDIY TAFAKKUR

«Tanqidiy tafakkur» uslubi o‘quvchining qo‘yilgan masala yoki muammo yuzasidan o‘z fikrini bayon qilish, o‘zgalarning fikrlarini tanqidiy qayta idrok etish, o‘z nuqtayi nazarini asoslab berish va saqlab qolish imkoniyatiga ega bo‘lishiga asoslangan. Masalan, odob-axloq qoidalariga amal qilish kerakmi? Jamoa transportida maktab o‘quvchilari uchun bepul yo‘lkira joriy etish kerakmi? Shunga o‘xshash masalalar. Bu narsa o‘quvchilarning tinglash va muloqot qilish ko‘nikmalarini, turli nuqtayi nazarlarni tushunish malakasini rivojlantirish, bahsli masalalarni hal qilish, tahliliy mushohada yuritish va fikrlash layoqatini oshirish, ularning o‘z fikrini shakllantirish mahoratini mustahkamlash imkoniyatini beradi.

O‘quvchilarning oldiga muammoli topshiriq yoki chalkash masala qo‘yiladi va quyidagi savollardan foydalanish tavsiya etiladi:

- ✓ Nima deb o‘ylaysiz?
- ✓ Fikringiz qanaqa?
- ✓ Sizningcha qanday?
- ✓ Nega bunday deb o‘ylaysiz?
- ✓ Nimalar asosida bunday xulosaga keldingiz?

O‘qituvchi o‘quvchilar bilan birgalikda har xil nuqtayi nazarlarni muhokama qilish vositasida barcha fikrlarni tahlil qilib chiqadi. Muammoli topshiriq, masala bo‘yicha qabul qilingan qarorga o‘quvchilar tomonidan o‘z nuqtayi nazarlarini qabul qilishi yoki qayta baholanishi bilan erishiladi.

«HAMMA BIR-BIRIGA O‘RGATADI»

«Hamma bir-biriga o‘rgatadi» uslubi o‘quvchilarga o‘rgatuvchiga aylanish, ma’lum bilimlarni o‘zlashtirgach, sinfdoshlari bilan baham ko‘rish imkonini beruvchi o‘qitish uslubidir. Bu uslubning maqsadi o‘quvchilarga o‘qitish jarayonida zarur bo‘lgan eng ko‘p axborotni berish, ayni paytda o‘quvchida axborot olish va berishga qiziqish uyg‘otishdir. Shuningdek, axborot hajmini olgan o‘quvchi ma’lum vaqt davomida uni iloji boricha ko‘proq o‘rtoqlariga yetkazadi.

«IKKI QISMLI KUNDALIK»

«Ikki qismli kundalik» pedagogik uslub bo‘lib, yozma nutqni rivojlantiradi. Bu uslub o‘qib chiqilgan mavzu bo‘yicha tushunchalarni shaxsiy tajriba bilan bog‘lashga imkon beradi.

Maqsad: o‘rganilayotgan mavzuga qiziqish uyg‘otish, yozma nutqni rivojlantirish.

Amalga oshirish bosqichlari:

1-bosqich. O‘quvchilarga oldindan tayyorlab qo‘yilgan matn o‘qish uchun taklif etiladi. Masalan:

«Podshohning bir haftada ikki kun zulm ko‘rganlarni qabul qilmasdan iloji yo‘q. U zulmkorni jazolamog‘i, insofga chaqirmog‘i, raiyat so‘zlarini o‘z qulog‘i bilan vositachisiz eshitmog‘i kerak».

Nizomulmulk.

2-bosqich. Hamma matn bilan tanishganiga ishonch hosil qilib, daftarni vertikal chiziq bilan ikkiga bo‘lish so‘raladi.

3-bosqich. O‘quvchilarga daftarni chap tomoniga muallif sitatalari (g‘oyalari, fikrlari)ning yoqqanlarini (yoki yoqmaganlarini) yozishlari aytiladi.

4-bosqich. O‘ng tomonga o‘quvchi mazkur sitataga berilgan o‘zining izohini yozadi, ya’ni o‘qilgan matn haqidagi tushunchasini umumlashtirib beradi.

5-bosqich. Topshiriqni shu qismi tugagandan keyin o‘quvchilarga (o‘z xohishiga ko‘ra) bittadan sitatalarni va ularga yozilgan izohni o‘qish taklif etiladi. Sitata va ularning izohi o‘qilayotganda savol berish yoki mazkur sitataga o‘z izohini berishga ruxsat etiladi.

6-bosqich. O‘quvchilar sherik (uchliklar yoki kichik guruhlar) bo‘lib ham ishlashlari mumkin.

VENN DIAGRAMMASI

Venn diagramma — grafik ko‘rinishda bo‘lib, olingan natijalarni umumlashtirib, ulardan bir butun xulosa chiqarishga, ikki va undan ortiq predmetni (ko‘rinish, fakt, tushuncha) tahlil qilish va o‘rganishda qo‘llaniladi. Diagramma ikki va undan ortiq aylana kesishmasidan hosil bo‘ladi.

Maqsad: ikki va undan ortiq predmet va tushunchalarni taqqoslashda, turli va umumiy tomonlarini aniqlashda bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish.

Amalga oshirish bosqichlari:

1-bosqich. O‘quvchilar (sheriklari bilan) ikki doirani to‘ldiradilar, har bir doiraga ikki

tushuncha (predmet)ning e'tiborli tomonlari sanab o'tiladi.

2-bosqich. O'quvchilarni kichik guruhlarga (4–5 kishidan iborat) birlashtirib, diagrammalarni taqqoslaymiz va to'ldiramiz.

3-bosqich. Kichik guruh o'quvchilariga bu tushunchalarning (predmet, ko'rinishlarning) umumiy xossalarini aniqlashni taklif etamiz.

4-bosqich. Biron-bir guruh vakili har bir tushunchaning o'ziga xos tomonlarini o'qiydi. Boshqalar zarurat bo'lganda uning javobini to'ldiradilar.

5-bosqich. Boshqa guruh vakillari ikki tushunchani birlashtiruvchi (umumiy) xususiyatlarni o'qiydi. Boshqalar zarurat paydo bo'lganda bu javoblarni to'ldiradilar.

SAVOLLAR BERISH TEXNOLOGIYASI

Real ta'lim amaliyoti shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda o'quvchilar o'zlari uchun zerikarli darsda o'tirgandan ko'ra, «Facebook», «Twitter» yoki «Instagram» kabi ijtimoiy tarmoqlarda o'tirishni afzal ko'radilar. Demak, hukumatimiz tomonidan ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan talablardan kelib chiqqan holda ta'limga ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning bilim olishga qiziqishlarni faollashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogika kasbiga endigina qadam qo'ygan hamkasblarimiz uchun yuqorida «Pedagogik texnologiya nima?» degan savolga javob berishga harakat qildik. Demak, pedagogik texnologiyalar – o'quv-tarbiya jarayoni va uning qismlari bilan o'zaro bog'liq bo'ladi va u ta'lim sifatini oshirishga, ta'lim standartlarining bajarilishiga xizmat qiladi. Ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarda hayotiy va tayanch kompetensiyalarini shakllantirish uchun dars jarayoni to'g'ri tashkil qilinishi va o'quvchilarga beriladigan savollar mavzuni mustahkamlashga xizmat qilishi zarur. Bu jarayonda o'qituvchining tayanch konspekti muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchi darsga tayyorgarlik jarayonida mavzu yuzasidan quyidagi tayanch konspektni tuzib olishi lozim.

Taklif qilingan tayanch konspekt an'anaviy dars rejasini tuzishdan biroz farq qiladi.

Tayanch konspekti savollarini o'qituvchi kompyuterga kiritib qo'ysa, vaqtdan unumli foydalanadi.

Umumiy mazmunga ega bo'lgan savollar	***Savollar***
✓ Savol to'liq javobni talab qilmaydi, mavzuni o'rganishga yordam beradi.	***1.***
✓ Tanlangan savollar bir nechta fanlarga aloqador bo'lib, fanlararo bog'liqlikni shakllantirishga yordam beradi.	***2.***
✓ O'quvchilarni mustaqil fikrlashga yo'naltiradi.	***3.***

✓ Har bir o‘quvchiga tushunarli, ravon hamda do‘stona ruhda bayon qilinadi.	***4.***
✓ O‘quvchilarning bilimda mavjud bo‘lgan ehtiyojlarini hamda ularning qiziqishlarini aniqlashga imkoniyat beradi.	***5.***
Mazmunga aloqador va o‘zida ma’lum bir muammoni aks ettirgan savol	
✓ Bitta aniq javobga ega bo‘lmaydi. ✓ Bir nechta to‘g‘ri va bir-biriga nomutanosib javoblar ham bo‘lishi mumkin. ✓ Savollar ijtimoiy hayot bilan bog‘liq bo‘ladi. ✓ O‘quvchilarni o‘ylab ko‘rishga yo‘naltiradi. ✓ Davlat ta’lim standartlarida belgilangan ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi. ✓ O‘rganilayotgan mavzuning asosini tashkil qiladi.	***1.*** ***2.*** ***3.*** ***4.***
Javobi aniq bir yo‘nalishga qaratilgan savol	
✓ Javobi aniq bo‘ladi. ✓ Mavzuga oid asosiy tushunchalarni o‘zida mujassamlashtiradi. ✓ Davlat ta’lim standartlarida belgilangan bilimlarni egallashga yo‘naltiradi.	***1.*** ***2.*** ***3.***
Mavzu bo‘yicha Davlat ta’lim standartlarining talablari	
✓ Bilim. ✓ Ko‘nikma. ✓ Malaka. ✓ Kompetensiya.	
O‘quv maqsadi	
✓ Maqsad aniq belgilanadi. ✓ O‘quvchilar bir vazifani bajarishdan tashqari, nimani o‘rganishlari belgilanadi. ✓ Mavzuning tarbiyaviy maqsadi aniq ko‘rsatiladi. ✓ Ta’limning qaysi tomonlarini rivojlantirib borish kerakligi bayon etiladi.	
Mavzuni mustahkamlash uchun topshiriqlar	
✓ Mavzuga oid qonun hujjatlari mazmunini o‘rganish. ✓ Test topshiriqlari. ✓ Boshqotirmalar. ✓ Sitatalar. ✓ Kazuslar.	

O‘quvchilar faoliyatini baholash (berilgan topshiriq mazmunidan kelib chiqadi)
Berilgan topshiriqni bajarishda: ✓ fikrini aniq va to‘g‘ri ifodalay olish; ✓ mavzuni hayotiy misollar bilan bog‘lash; ✓ tarixiy manbalarga tayangan holda tushuntirish; ✓ ijtimoiy hayot bilan bog‘lay olish; ✓ testlarni to‘g‘ri ishlash va h.k.
Uyga vazifa
✓ Mavzu yuzasidan berilgan topshiriqlarni bajarish. ✓ Kelgusi mavzu yuzasidan ma’lumotlar bazasini shakllantirish va h.k.

Yuqoridagi jadvalga asoslanib dars jarayonini quyidagi qismlarga bo‘lish mumkin

Motivatsiyani aniqlash	Motivatsiyani qaror toptirish	Refleksiya	Baholash
O‘quvchilarni faollashtirish	Nazariya yoki qoidalar bilan ishlash	O‘quvchilarni mustaqil ishlashga o‘rgatish	Yakuniy xulosa chiqarish
Muammoni aniqlash	U yoki bu voqeaning sabablarini aniqlash (amaliyot bilan bog‘lash)	Uyga vazifa	

Dastavval, o‘qituvchi mavzu yuzasidan o‘quvchilardagi mavjud ma’lumotlarni aniqlaydi, o‘quvchilarni faollashtiradi, muammoni aniqlaydi, shu maqsadga yo‘naltirilgan savollar bazasini shakllantiriladi.

Savollar quyidagi mazmunga ega bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Umumiy mazmunga ega bo‘lgan savollar: o‘quvchilarni bir qancha fanlardan egallagan bilim, ko‘nikma va malakalari asosida keng doirada fikrlashga yo‘naltiradi.

Mazmunga aloqador va o‘zida ma’lum bir muammoni aks ettirgan savollar: o‘quvchilardagi mavzuga oid mavjud bo‘lgan ko‘nikma va malakalarini rivojlanishiga yordam beradi.

Javobi aniq bir yo‘nalishga qaratilgan savollar: javobi aniq bo‘ladi, biror-bir mavzu asosida aniq bir ma’lumot so‘raladi.

Mazkur savollar jadvalini mavzuni qo‘yilishiga qarab davom ettirish mumkin. Savollarni bunday shakllantirilishi quyidagi omillarga sabab bo‘ladi:

- → o‘quvchi darsdan zerikmaydi;
- → o‘quvchining ongida hayotiy kuzatishlari natijasida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar asosida mavzuning asosiy mag‘zi ochib beriladi;
- → o‘quvchini to‘g‘ri fikrlashga va o‘z fikrini aniq ifodalashga imkoniyat beradi;
- → o‘quvchilarni o‘zlariga bo‘lgan ishonchini kuchaytiradi;

- mavzuni yod olish yo‘li bilan emas, amaliyot bilan bog‘lash orqali tushunib olishga imkoniyat beradi;
- sinfda o‘zaro hamkorlik yuzaga keladi, natijada do‘stona muhitning shakllanishiga zamin yaratiladi.

O‘quvchilarning guruhlarda ishlashlarini to‘g‘ri tashkil qilish ham kutilayotgan natijaga erishish imkoniyatlaridan biridir.

«Guruhlarda ishni tashkil qilishda nimadan boshlash kerak?» – degan savol yosh pedagoglarni o‘ylantirishi aniq.

Birinchi navbatda, hajmni to‘g‘ri tanlash, ya’ni guruhlarda ishlash faoliyatini darslikning biror bobi, bo‘limi, kattaroq qismi tugatilganida tashkil qilish lozim bo‘ladi. Bunda o‘tilgan mavzular takrorlanadi, mustahkamlanadi va ularning bir-biri bilan aloqadorligi isbotlanadi.

Guruhlarda ishlash uchun savollarni tuzish. Savollarni shunday shakllantirish kerakki, barcha guruhlarning javoblari o‘tilgan bob yuzasidan yakuniy xulosa chiqarishga asos bo‘lsin.

Guruhlar faolligini oshirish. Mazkur jarayonni amalga oshirish uchun guruhda ishlaydigan barcha o‘quvchilarni berilgan topshiriqni bajarish mezonlari bilan tanishtirish lozim. Ya’ni topshiriqni qanday bajarish lozimligi guruhlarga taqdim qilinadi. Misol uchun, topshiriq: «*Agar siz Vatanimiz tarixining VI–VII asrlariga tushib qolsangiz, qaysi sohani va qanday rivojlantirgan bo‘lardingiz? Davr sharoitidan kelib chiqib javob bering»,* – deb nomlansa, o‘quvchilar ushbu topshiriq yuzasidan turli ma’lumotlarni berib o‘tadilar. Bu bilan oldinga qo‘yilayotgan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Vaholanki, topshiriq mezoni o‘quvchilarga tushunarli, aniq, ma’lum bir vazifani bajarishga yo‘naltirilishi va har bir o‘quvchini ma’lum bir shartni bajarishga undashi lozim. Barcha guruh ishtirokchilari bajargan topshiriqlari asosida guruh uchun berilgan yagona topshiriq natijasi hosil bo‘lishi kerak. Masalan, bitta katta guruhda 10 nafar o‘quvchi faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lsa, quyidagi topshiriqni berish mumkin. Har bir o‘quvchi uchun alohida topshiriq tayyorlanishi lozim. Bunda har bir o‘quvchining javobi guruhning umumiy javobi bo‘lib, berilgan topshiriq to‘liq bajariladi va o‘quvchilar jamoaviy ishlashga o‘rgatiladi.

«Agar siz Vatanimiz tarixining VI–VII asrlariga tushib qolsangiz, qaysi sohani va qanday rivojlantirgan bo‘lardingiz? Davr sharoitidan kelib chiqib javob bering».

№	Guruhdagi har bir o‘quvchiga beriladigan topshiriq
1	Dehqonchilik
2	Savdo-sotiq
3	Shaharsozlik
4	Me’morchilik
5	Ta’lim
6	Din
7	San’at
8	Harbiy soha
9	Davlat boshqaruvi
10	Diplomatiya

Har bir o‘quvchi mazkur topshiriq bo‘yicha biror ma’lumotni topishga harakat qiladi. O‘quvchi o‘ziga berilgan mas’uliyatni

his qiladi. Agar mazkur dars kompyuter xonasida tashkil qilinsa, bu o‘quvchilar imkoniyatini yanada kengaytiradi.

Dars boshlanishida o‘qituvchi o‘quvchilarni mavzu bilan tanishtirishda kompyuter imkoniyatlaridan foydalangan holda taqdimot qiladi. Taqdimot slayd ko‘rinishida 3–4 sahifadan oshib ketmasligi lozim. Aks holda o‘quvchilarni chalg‘itishi hamda vaqt samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Taqdimot (prezentatsion) materiallarga BBB (bilaman, bilishni xohlayman, bilib oldim) jadvalini joylashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘quvchilarga beriladigan savol va topshiriqlar darsning qaysi bosqichida bo‘lmasin, darsda o‘tiladigan mavzuni ochib berishi, bir savol ikkinchisini to‘ldirishi yoki mantiqan davom ettirishiga e’tibor qaratilishi lozim.

Masalan, «IV–VII ASRLARDA MAMLAKATIMIZ XALQLARINING TURMUSH TARZI»

Turmush tarzi deganda nimani tushunasiz?	Umumiy mazmunga ega bo‘lgan savollar
Hunarmandchilik, savdo-sotiq va qishloq xo‘jalik ishlarining rivojlanishi insonlar hayotiga qanday ta’sir ko‘rsatdi?	Mazmunga aloqador va o‘zida ma’lum bir muammoni aks ettirgan savol
Siz insonlar hayotining farovonligi uchun nima ixtiro qilgan bo‘lardingiz? Fikringizni asoslang.	Mazmunga aloqador va o‘zida ma’lum bir muammoni aks ettirgan savolning ikkinchi bir ko‘rinishi
Qanday omillar sabab dehqon xo‘jaliklari paydo bo‘ldi?	Javobi aniq bir yo‘nalishga qaratilgan savol

DARS TAHLILLARI VA ULARNING NATIJAVIYLIGI

DARS TAHLILI VA ULARNING TURLARI

Dars tahlilidan maqsad nima? Darsning yutuqlari va kamchiliklari, kelgusida e’tiborga olinishi lozim bo‘lgan vazifalar belgilanadi. Masalan, tashkiliy ishlar, didaktik, psixologik, pedagogik, metodik, ilmiy va boshqalar.

Tashkiliy ishlar tahlili — xonaning darsga tayyorligi ko‘zdan kechiriladi. O‘quvchilarning davomati va darsga tayyorgarligi aniqlanadi. O‘qituvchining tashqi qiyofasiga e’tibor qaratiladi.

Didaktik tahlilda mavzuning izchilligi, oddiydan murakkabga tomon yo‘nalishi, ko‘rgazmaliligi, yangi axborotlarning zamonaviyligi va hayotiyligi, axborot texnologiyalaridan foydalanilishiga e’tibor qaratiladi. Mavzuning jonli va ravon ochib berilayotgani, darslik va qo‘shimcha ma’lumotlar bilan oqilona ishlanilayotganiga ham diqqat qilish kerak.

Metodik tahlilda o‘quvchilarni faollashtirish, ularning yoshi va psixologik xususiyatlari hisobga olinishi, ijodkorlik va uslubiy mahorat, pedagogik tajribalardan foydalanish, vaqtning to‘g‘ri taqsimlanganligi, mavzuning fanlararo bog‘lanishiga e’tibor beriladi.

Psixologik tahlil paytida o‘quvchilarning yangi va avvalgi materiallarni esda saqlashlari, jamoadagi do‘stona muhit, fanga bo‘lgan qiziqishlari, mavzuga oid ma’naviy qadriyatlarning singdirilishi, hozirjavobligi, sezgir va topqirligi, idroki, o‘z oldilarida turgan mas’uliyatlariga nisbatan irodali yoki irodasizligi kabilar o‘rganiladi.

Pedagogik tahlilda o‘qituvchi tomonidan umuminsoniy tarbiyaning tarkibiy qismlari berilishi, nutq madaniyati, o‘quvchilar bilan til topishish mahorati, axloqiy tarbiya va milliy g‘oyaning singdirilishi tahlil qilinadi.

Ilmiy tahlil – o‘qituvchining o‘z fani yangiliklaridan boxabarligi, mavzu mazmun-mohiyatini jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan uyg‘unlashtira olishi, manbalardan maqsadli va o‘z o‘rnida foydalana olishiga e’tibor beriladi.

Dars tahlili bo‘yicha yakuniy xulosa chiqarish va o‘qituvchiga zaruriy tavsiya berish maqsadga muvofiqdir.

Dars tahlili bo‘yicha yakuniy tavsiya	Dars rejasining bajarilishi
	Darsdan ko‘zlangan maqsadga erishilganligi
	Darsning eng qiziqarli va taassurotli jihatlari
	Aynan shu mavzuni tushuntirishda yana qanday usullardan foydalanish mumkin?

Tahlil turlari

Tahlil turlari	Yutug‘i	Kamchilikar	Tavsiyalar
Tashkiliy ishlar			
Didaktik			
Metodik			
Pedagogik			
Psixologik			
Ilmiy			
Yakuniy xulosa			



O‘QUV MASHG‘ULOTINING TEXNOLOGIK XARITASINI TUZISH USULLARI

Pedagogik amaliyotda «pedagogik texnologiya», «ta’limiy texnologiya» va «ta’lim berish texnologiyasi» kabi atamalarning keng qo‘llanilishi kuzatilmoqda. Shu bilan birga, ularni tushunishda alohida bo‘lgan o‘qish turlari mavjud. Avvalambor, aniq ifodani berish, ularni nima birlashtirishi va nima ajratib turishini tushunish uchun texnologiya va uning kelib chiquvchilari: «texnologik jarayon», «texnologik harakat», «texnologik xarita», «texnologik tartib» tushunchalarini aniqlash lozim.

Texnologiya yunoncha *«techne»* — mahorat, san’at, malaka va *«logos»* — so‘z, ta’limot so‘zlaridan olingan.

Ta’limni texnologiyalashtirish – bu o‘qitish jarayoniga texnologik yondashish asosida ta’lim maqsadlariga erishishning eng maqbul yo‘llari va samarali vositalarini tadqiq qiluvchi va qonuniyatlarni ochib beruvchi pedagogik yo‘nalishdir.

Ta’lim texnologiyasi — bu mavjud sharoit va o‘rnatilgan vaqtda belgilangan ta’limiy maqsad va ko‘zlanayotgan natijalarga kafolatli erishishni vositali ta’minlovchi, muloqot, axborot va boshqaruvning eng qulay yo‘l va o‘qitish vositalarining tartibli yig‘indisidir.

Texnologik xaritada ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyati (o‘quv jarayoni) bosqichlarining ketma-ketligi va mazmuni hamda ularda qo‘llaniladigan vositalar tavsiflanadi. Texnologik xarita talabalarning mustaqil ishlashlarini nazorat qilishga yordam beradi.

Mavzuiy rejadan farqli o‘laroq texnologik xaritada (1) ta’lim beruvchi faoliyati bilan birga, ta’lim oluvchining ham faoliyati, (2) o‘quv mashg‘ulotining bosqichlari va vaqti, (3) ta’lim berishning usul, shakl va vositalari, (4) ta’lim maqsadlarining o‘quv yutuqlari monitoringi va baholashlari ko‘rsatiladi.

Texnologik xaritaning tuzilishi va mazmuni ko‘rsatkichlari:

1-bosqich (3–5 daqiqagacha).

Ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar harakati. O‘qituvchi mavzuning nomi, ma’ruza rejasi va o‘quv mashg‘ulotining xususiyati bilan (muammoli ma’ruza, blits-o‘yin va boshqalar), mavzu bo‘yicha asosiy tushunchalarni; dars mashg‘ulotida o‘quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi.

O‘quvchilar ushbu bosqichda tinglaydilar, aniqlashtiradilar, savollar beradilar va yozib oladilar.

2-bosqich (10–15 daqiqagacha). Asosiy ma’lumot taqdim etish.

*Ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar harakati***.** O‘qituvchi o‘quv mashg‘ulotining rejasiga muvofiq tuzib chiqqan ta’lim modelini amalga oshiradi, ko‘zlanayotgan o‘quv natijalariga erishish bo‘yicha talabalar o‘quv faoliyatini boshqaradi.

3-bosqich (25–40 daqiqagacha). Yakuniy — natijaviy.

Ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar harakati. O‘qituvchi mavzu bo‘yicha yakun yasaydi, ta’lim oluvchilar e’tiborini mavzuning asosiy jihatlariga qaratadi, bajarilgan ishlarni kelgusi kasbiy ish faoliyatidagi ahamiyatini ma’lum qiladi, guruhlar, alohida o‘quvchilar ishini baholaydi yoki o‘zaro baholashning yakunini chiqaradi; o‘quv mashg‘uloti maqsadiga erishish darajasini baholaydi; mustaqil ish uchun topshiriq beradi.

O‘quvchilar o‘zaro baholashni o‘tkazadilar, savol beradilar, topshiriqni yozadilar.



Ma’ruza mashg‘ulotining bosqichli texnologik xaritasi namunasi


Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat	
	ta’lim beruvchi	ta’lim oluvchilar
1-bosqich. O‘quv mashg‘ulotiga kirish (daq.)	mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi; mashg‘ulot rejasi bilan tanishtiradi; mavzu bo‘yicha asosiy tushunchalarni; tarixiy manbalar haqida ma’lumot berish; o‘quv mashg‘ulotida o‘quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi.	Tinglaydilar, yozib oladilar. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar.
2-bosqich. Asosiy (daq..)	tezkor so‘rov / savol-javob aqliy hujum orqali bilimlarni faollashtiradi; darsning rejasi va tuzilishiga muvofiq ta’lim jarayonini tashkil etish bo‘yicha harakatlar tartibini bayon qiladi.	Javob beradilar, yozadilar, guruhlarda ishlaydilar, taqdimot qiladilar va bosh.
3-bosqich. Yakuniy (daq...)	mavzu bo‘yicha xulosa qiladi, amalga oshirilgan ishlarning Vatan tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega ekanligiga o‘quvchilar e’tiborini qaratadi; guruhlar ishini baholaydilar, darsning maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi; mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash mezonlarini yetkazadi.	O‘z-o‘zini, o‘zaro baholashni o‘tkazadilar. Savol beradilar. Topshiriqni yozadilar.

AJDODLARIMIZNING MA’NAVIY QADRIYATLARI – JAHON SIVILIZATSIYASI ASOSLARIDAN BIRI

mavzusining texnologik xaritasi

<table>
<tr><th>Mavzu</th><th colspan="2">Ajdodlarimizning ma’naviy qadriyatlari – jahon sivilizatsiyasi asoslaridan biri</th></tr>
<tr><td rowspan="2">Maqsad, vazifalar</td><td colspan="2">Maqsad: «O‘rta asrlar» tushunchasi haqida ma’lumot berish va bu davrning o‘ziga xos tomonlarini tushuntirish. 7-sinfda o‘rganiladigan davr va uning mohiyatini, jumladan IV asrdan XIII asr boshlarigacha bo‘lgan Vatanimizning o‘rta asrlar tarixi haqida, shuningdek, darslikning mazmun-mohiyati bilan tanishtirish.</td></tr>
<tr><td colspan="2">Vazifalar: Bu davrning Vatanimiz tarixiy taraqqiyotida tutgan o‘rni, dunyo madaniyati va ilm-fanining shakllanishidagi o‘rni borasida bilim va ko‘nikmalar hosil qilish hamda ularni kengaytirish. Mavzuga oid tarqatilgan materiallar o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishini hamda munozara orqali mazmunning o‘zlashtirilganini tekshirish va baholash.</td></tr>
<tr><td>O‘quv jarayonining mazmuni</td><td colspan="2">Davrga berilgan ta’riflarni qiyosiy tahlil qilish. Davrning o‘ziga xos jihatlariga baho berish. Tarixda yil hisobini bilish. Tarix fanining inson ma’naviyatini shakllantirishda tutgan o‘rnini ko‘rsatish.</td></tr>
<tr><td>O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi</td><td colspan="2">Metod – og‘zaki bayon qilish, ko‘rgazmali, «Idrok xaritasi» texnologiyasi.
Forma – an’anaviy ma’ruza.
Vosita – tarqatma materiallar, slaydlar, ma’ruza matnlari, kompyuter, proyektor, elektron doska.
Usul – auditiv
Nazorat – og‘zaki so‘rov, savol–javob
Baholash – «assessment» uslubi, mezoniy (reyting tizim asosida)</td></tr>
<tr><td rowspan="2">Kutiladigan natijalar</td><td>O‘qituvchi</td><td>O‘quvchi</td></tr>
<tr><td>Mavzuni berilgan vaqt ichida barcha jihatlarini yoritgan holda to‘liq bayon qilishga erishadi. O‘quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg‘otadi. O‘quvchilarning faolligini oshirish hisobiga mavzuni qisqa muddatda o‘zlashtirishga o‘rgatadi, guruhdagi barcha ishtirokchilarni baholashga erishadi.</td><td>Berilgan mavzu bo‘yicha yangi bilimlarga ega bo‘ladi.
✓ Milodiy IV asrgacha bo‘lgan davrni tarixiy davrlashtira oladi.
✓ 6-sinf tarix darsidagi (Baqtriya, Kushon, Xorazm davlatlari) voqealarni eslaydi va ular haqida hikoya qilib bera oladi.
✓ Mavzuda berilgan rasmlar asosida tarixiy voqealarni biladi va so‘zlab bera oladi.
✓ IV–XIII asrning umumiy xarakteristikasi, bu davrning o‘ziga xos jihatlari va muhim voqealari haqida umumiy tasavvurga ega bo‘ladi.</td></tr>
</table>

		✓ Tarixiy davrlashtirishning ahamiyati haqida tushunchaga ega bo‘ladi. ✓ Voqealarni ketma-ketlikka ajratib, tahlil qilish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. ✓ IV–XIII asrda hududimizda tashkil topgan davlatlar va sulolalar haqida dastlabki tushunchalarga ega bo‘ladi.
Kelgusi rejalar (tahlil, o‘zgarishlar)	**O‘qituvchi**	**O‘quvchi**
	Yangi pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirib borish, ular ustida ishlash, amalda tatbiq etish, o‘quv mashg‘uloti davomida qo‘llash, ularni takomillashtirishga hissa qo‘shish. Muntazam o‘z ustida ishlash, yangi statistik ma’lumotlar, qonunlardagi o‘zgarishlar asosida o‘quv materialini boyitish, pedagogik tajriba va mahoratni oshirib borish.	Dars davomida o‘rta asrlar davrining Vatanimiz tarixidagi tutgan o‘rniga oid berilgan ma’lumotlar, munozara, tahlillar, tavsiya qilingan asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar, internet saytlaridagi ma’lumotlar asosida o‘z bilimlarini yanada mustahkamlaydi.



AJDODLARIMIZNING MA’NAVIY QADRIYATLARI – JAHON SIVILIZATSIYASI ASOSLARIDAN BIRI

MAVZU YUZASIDAN

TEST

1. «O‘rta asrlar» tushunchasi tarix faniga qaysi yurt tarixchilari tomonidan olib kirilgan?

A) ispan; **B) italyan;** D) nemis; E) Ingliz.

2. O‘rta asrlar tarixi necha davrga bo‘lib o‘rganiladi?

A) 2; B) 4; **D) 3;** E) 5.

3. Ilk o‘rta asrlar davri qaysi asrlarni o‘z ichiga oladi?

A) IV–VIII asrlar; B) V–IX asrlar;
D) IX–XV asrlar; E) IV–IX asrlar.

4. Rivojlangan o‘rta asrlar davri qaysi asrlarni o‘z ichiga oladi?

A) IX–XV asrlar; B) VIII–XVI asrlar;
D) IX–XVI asrlar; E) XVI–XIX asrlar.

5. So‘nggi o‘rta asrlar davri qaysi asrlarni o‘z ichiga oladi?

A) XI–XV asrlar; B) XIV–XVI asrlar;
D) XV–XIX asrlar; **E) XVI–XIX asrlar.**

6. Qadimdan yurtimiz va unga tutash hududlar Turon deb atalgan. Qaysi voqeadan so‘ng ushbu hududlar Movarounnahr va Xuroson deya atala boshlangan?

A) Arablar bosqinidan so‘ng; B) Forslar bosqinidan so‘ng;
D) Ruslar bosqinidan so‘ng; E) Eftaliylar bosqinidan so‘ng.

7. Yevropa tarixshunosligida o‘rta asrlarning boshlanishi qaysi sana bilan belgilanadi?

A) 476-yil; B) 456-yil; D) 584-yil; E) 484-yil.

8. Qachonga kelib yurtimizda Arab xalifaligi hukmronligi o‘rnatildi?

A) VII asr boshlarida; B) VIII asr o‘rtalarida;
D) VIII asr boshlarida; E) IX asr boshlarida.

9. Ahamoniylar podshosi Kurush kim bilan bo‘lgan jangda halok bo‘lgan edi?

A) Shiroq; B) Spitamen; D) Frada; **E) To‘maris.**

10. Ushbu 7-sinf «O‘zbekiston tarixi» darsligi qaysi davrlarni o‘rganishni o‘z ichiga qamrab oladi?

A) IV asrdan XIII asr boshlarigacha; B) V asrdan XIII asr boshlarigacha;
D) V asrdan XV asr boshlarigacha; E) IV asrdan XIV asr o‘rtalarigacha.

IV–VII ASRLARDA MAMLAKATIMIZ XALQLARINING TURMUSH TARZI

<table>
<tr><th>Mavzu</th><th colspan="2">IV–VII asrlarda mamlakatimiz xalqlarining turmush tarzi</th></tr>
<tr><td rowspan="2">Maqsad, vazifalar</td><td colspan="2">Maqsad: Yerga egalik qilish munosabatlarining tashkil topishi, Qang‘ va Kushon davlatlari ravnaq topgan davrdagi dehqonchilikdagi yutuqlar, ijtimoiy o‘zgarishlar, «dehqon»lar va ular xo‘jaligidagi hayot, dehqon munosabatlari to‘g‘risida ma’lumotlar berish.</td></tr>
<tr><td colspan="2">Vazifalar: Qang‘ va Kushon davlatlari geografik joylashuv hududini aniqlash. Mavzuga oid tarqatilgan materiallarni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirib olishlari hamda munozara orqali ularning mazmunini o‘zlashtirganlarini tekshirish va baholash. Tarixiy manbalar bilan ishlash.</td></tr>
<tr><td>O‘quv jarayonining mazmuni</td><td colspan="2">Qadimgi shahar yodgorliklari bilan bog‘liq manbalar tahlili. Qang‘ va Kushon davlatlarining o‘ziga xos jihatlariga baho berish.</td></tr>
<tr><td>O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi</td><td colspan="2">Metod – og‘zaki bayon qilish, ko‘rgazmali namoyish. Taqqoslash, baholashni o‘rgatuvchi metodlar.
Forma – ma’ruza, blits so‘rov.
Vosita – tarqatma materiallar, slaydlar, ma’ruza matnlari, kompyuter, proyektor, elektron doska.
Nazorat – og‘zaki so‘rov, savol-javob.
Baholash – DTS asosida.</td></tr>
<tr><td rowspan="2">Kutiladigan natijalar</td><th>O‘qituvchi</th><th>O‘quvchi</th></tr>
<tr><td>Mavzuni berilgan vaqt ichida barcha jihatlarini yoritgan holda to‘liq bayon qilishga erishadi. O‘quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg‘otadi. O‘quvchilarning faolligini oshirish hisobiga mavzuni qisqa muddatda o‘zlashtirishga o‘rgatadi, guruhdagi barcha ishtirokchilarni baholashga erishadi.</td><td>Berilgan mavzu bo‘yicha yangi bilimlarga ega bo‘ladi.
✓ Dehqon, kadivar, kashovarz, chokar so‘zlarining kelib chiqish tarixi va ularning ma’nolari haqida bilimga ega bo‘ladi va izohlab bera oladi.
✓ Ekin maydonlarining kengayishiga sabab bo‘lgan ehtiyojlarni aytib bera oladi.
✓ Dehqonchilik va hunarmandchilikning rivojlanishiga sabab bo‘lgan omillar haqida so‘zlab bera oladi.
✓ Yer maydonlarining kengaytirilishiga sabab bo‘lgan omillar haqida tushunchaga ega bo‘ladi va so‘zlab bera oladi.</td></tr>
</table>

Kelgusi rejalar (tahlil, o‘zgarishlar)	O‘qituvchi	O‘quvchi
	Yangi pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirib borish, ular ustida ishlash, amalda tatbiq etish, o‘quv mashg‘uloti davomida qo‘llash, ularni takomillashtirishga hissa qo‘shish. Muntazam o‘z ustida ishlash, yangi statistik ma’lumotlar, qonunlardagi o‘zgarishlar asosida o‘quv materialini boyitish, pedagogik tajriba va mahoratni oshirib borish.	Dars davomida o‘rta asrlar davrining Vatanimiz tarixidagi tutgan o‘rniga oid berilgan ma’lumotlar, munozara, tahlillar, tavsiya qilingan asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar, internet saytlaridagi ma’lumotlar asosida o‘z bilimlarini yanada mustahkamlaydi.

TEST

1. Qishloq jamoalari yerlarida yashab yer va suvdan iborat umumiy mulkka ega bo‘lgan erkin ziroatchilar tabaqasi nima deb atalgan?

A) kadivar; B) chokar;

D) kashovarz; E) dehqon.

2. Qishloqning dehqonlarga qaram aholisi nima deb atalgan?

A) kadivar; B) chokar;

D) kashovarz; E) dehqon.

3. O‘rta asrlarda mulkdor tabaqa, qishloq hokimi deya e’tirof etilgan tabaqa qaysi?

A) kadivar; B) chokar;

D) kashovarz; **E) dehqon.**

4. Dehqon mulkini qo‘riqlovchi harbiy posbon keltirilgan javobni belgilang.

A) kadivar; **B) chokar;**

D) kashovarz; E) dehqon.

5. «O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi» nomli asar muallifini aniqlang.

A) Ahmadali Asqarov; B) Anatoliy Sagdullayev;

D) Dilorom Alimova; E) Iso Jabborov.

6. Noto‘g‘ri berilgan javob variantini aniqlang.

A) kadivar (qishloq hokimi) – ilk o‘rta asrlarda mulkdor tabaqa;

B) kadivar – qishloqning dehqonlarga qaram aholisi;

D) chokar – dehqon mulkini qo‘riqlovchi, harbiy posbon;

E) kashovarz – ziroatchi oddiy qo‘shchilar.

7. So‘nggi antik davr qaysi asrlarni o‘z ichiga oladi?

A) I–IV asrlar; **B) II–IV asrlar;**

D) III–IV asrlar; E) I–III asrlar.

8. Ziroatkor vohalardagi sug‘orma yerlarning asosiy qismi kimlarning qo‘lida edi?

A) dehqonlarning; B) kadivarlarning;

D) chokarlarning; **E) qishloq jamoalarining.**

9. Dehqon bu – … .

A) ilk o‘rta asrlarda qishloq hokimi; B) ziroatchi oddiy qo‘shchi;

D) qishloq hokimi mulkini qo‘riqlovchi posbon; E) qul.

10. Noto‘g‘ri berilgan javobni aniqlang.

A) Dehqonlarning shaharda hunarmandchilik rastalari, uylari bo‘lgan. Ularning xo‘jaligida ko‘plab odamlar mehnat qilganlar.

B) O‘rta Osiyoning har bir dehqonchilik viloyatlarida o‘nlab mahalliy hokimliklar tashkil topib, ikkinchi tomondan, ularning yiriklashish jarayoni ham jadal kechdi.

D) Unumdor yerlar hamda suv taqsimoti qabila boshliqlari va ishboshilarning nazoratiga o‘tdi. Bu esa ularning qishloq aholisiga o‘z ta’sirlarini o‘tkazish, ziroatchi aholiga hukmronlik qilish imkoniyatini berdi.

E) Ziroatkor vohalardagi sug‘orma yerlarning asosiy qismi dehqonlar qo‘lida edi.


TARIXIY HUJJAT

KUYOVNING KELIN TOMON OLDIDAGI MAJBURIYATLARI

Tarxun[1] podsholigining X yilidir. «Laqabi Nidon bo‘lmish Uttakin Qiyshiq o‘g‘lidan Navekat hokimi Cher Vaxzanak o‘g‘liga va uning (Cherning) o‘g‘illariga, urug‘-aymoqlariga, Men, janob, sendan laqabi Chata bo‘lmish Dug‘dg‘uncha Viyus qizini xotinlikka oldim. So‘ngra senga, Cher, men shunday arz qildim va va’da berdim: shu bugundan iborat kelgusida toabad Chata menga xotin bo‘lib qolajak va janob, sening qarshingda hamda xudo Mitra guvohligida quyidagilarni zimmamga olaman: uni (Chatani) men sotmayman, qarz evaziga qullikka ham bermayman, biror kimsaning homiyligidagi o‘z mulkiga aylanishiga ham yo‘l qo‘ymayman. Shuningdek, agar kimdir uni mendan bevosita yoki sirtdan tortib olsa, uni tahqirlasa, u holda men uni shu zahotiyoq hech qanday ziyon-zahmatsiz ozod qilaman. Bordi-yu, agar Chata men bilan qolishni ixtiyor qilmasa yoki men o‘zim uni qo‘yib yuborsam, uni senga va sening o‘g‘illaringga hamda urug‘ingga sog‘lom, ziyon-zahmatsiz etkazib beraman, topshiraman.

Agar uni ziyon-zahmatsiz yetkazib bermasam, u holda 100 dinoriy dirham, kumush muomalada amal qilishi tasdiqlangan xilidan, yaxshi saqlangan (toza sifatli) pul qarz

[1] Tarxun – Sug‘d podshosi (taxm. 700–711-yillarda hukmronlik qilgan).



bo‘laman, (qarzni) uzaman va senga to‘layman. Shu pulni senga to‘lamasam, u holda 10 dirhamiga 2 dirhamdan penya to‘lash evaziga qarz sifatida saqlayman». Uttakin o‘g‘illari va urug‘-ujuti bilan Cherning o‘ziga va o‘g‘illariga shu shartlar va 100 dirham yuzasidan laqabi Nivudak bo‘lmish Nipak Vurz o‘g‘lini javobgar sifatida tayin etdi (ya’ni agar Uttakin shartlarni bajarmasa, Nivudak — Nipak Vurz o‘g‘li Cher va uning o‘g‘illari oldida javobgar bo‘ladi, Uttakinni shartlarni bajarishga majbur qiladi).

Cher hamda uning urug‘-ujuti xohlagan kishisidan (Uttakin yoki Nipakdan) bu ayolni ziyon-zahmatsiz, pulini penyasi bilan birga yetkazib berishni talab qilaversin. Va bu noma barcha xalqqa — shu uyda muqim yashovchilarga va xonadon mehmonlariga birdek taalluqlidir. Va hujjat «Qonunlar uyida» uning boshlig‘i Vahgo‘kon Varxuman o‘g‘li huzurida tuzildi. Bu yerda guvoh sifatida Skatch Shishich o‘g‘li, Chakushak Nanich o‘g‘li, Chaxren Romich o‘g‘li bor edi. Uttakin buyrug‘iga binoan Romtish Vgashfarn o‘g‘li tomonidan yozildi. Tamom.

Mirsodiq Is’hoqovning
«Unutilgan podsholikdan xatlar»
(Sug‘dcha nikoh bitimining kuyov tomonidan qabul qilingan majburiyatlar qismi hujjati) kitobidan.

IV–VII ASRLARDA XORAZM

Mavzu: «IV–VII asrlarda Xorazm» *(Darslik 10–14 betlar)*

Kalit so‘zlar: Xorazm vohasi, Amudaryo, Hindiqush, Xuroson, Tuproqqal’a, Qang‘, Alfir, Afrig‘iy, mobad ... .

Soatlar soni: 1 soat

Ta’limiy maqsad: Xorazm vohasi haqida, madaniy-savdo aloqalari haqida ma’lumot berish. Buyuk ipak yo‘lining dunyo xalqlari rivojidagi o‘rnini tushuntirish.

Tarbiyaviy maqsad: Vatanimiz tarixi jahon tarixining uzviy va ajralmas bo‘lagi ekanligini anglatish.

Rivojlantiruvchi ta’lim: O‘rta asrlar, afrig‘iylar davlati. Zardushtiylik. Madaniyat.

Bu mavzuda o‘quvchilarni baholashda ularning quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga e’tibor qaratish lozim:

- IV asrgacha bo‘lgan davrda Xorazm tarixi haqida ma’lumotlar bera olishi;
- Xorazmning tabiiy sharoiti va hududi haqida ma’lumot bera olishi;
- bu hududning bugungi kundagi o‘ziga xos xususiyatlari haqida so‘zlab bera olishi;
- qadimgi xorazmliklarning turmush tarzi va an’analari haqida ma’lumotga ega bo‘lishi va so‘zlab bera olishi;
- mavzuda berilgan rasmlar asosida Xorazm hududida yashagan aholining kasblari, ularning qaysi yo‘nalishlar bo‘yicha bilimlarga ega ekanligi haqida ma’lumot bera olishi;
- Xorazmning qadimgi shaharlari va poytaxtlari haqida ma’lumotga ega bo‘lishi;
- Xorazm tarixi haqida tarixshunoslar ma’lumotlari haqida so‘zlab bera olishi;
- Qadimgi Xorazm aholisining diniy e’tiqodlar va ularning g‘oyasi haqida so‘zlab bera olishi;
- Xorazm madaniyati haqida qo‘shimcha manbalar bilan ishlay olishi;
- jamoa bo‘lib Xorazm tarixi va buguni haqida mustaqil ravishda qo‘shimcha ma’lumotlar topa olishi va shu asosida kichik taqdimot tayyorlay olishi.

Ko‘rgazma vositalari: Didaktik vositalar.

IV–VII asrlarga oid Xorazm vohasi xaritasi, tarqatma materiallar.

Tarixiy hujjatlar: *Ibn Havqalning «Kitob surat al-Ard» asaridan, Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asaridan parcha.*

Mavzuga oid tarqatma materiallar.

O‘quvchilarni faollashtirish uchun savol va topshiriqlar.

1. Qadimgi davrlarda Xorazm bilan bog‘liq qanday tarixiy jarayonlarni bilasiz?

2. «Xorazm Jayxunning butun foydasini ola bilgan mamlakatdir». Olim Istaxriyning so‘zlari sizga Gerodotning Nil haqida aytgan qaysi fikrini eslatdi? Nima deb o‘ylaysiz, olim bu fikri bilan nima demoqchi?

1-ijodiy faoliyat

1. Tabiiy shart-sharoitlarni inobatga olib, bu hududda qanday kasblar rivojlangan? Fikringizni asoslang.

2. Xorazm tarixida qanday shaharlar bor edi?

2-ijodiy faoliyat. Manbalar bilan ishlash *(darslikning 11-beti)*

1. Sizningcha, berilgan rasmlarda tasvirlangan qaysi soha Xorazmda davlatchilik taraqqiyotini tezlashtirgan?

2. Xorazm haqidagi bilimlaringizga tayanib mazkur hududda yashagan insonlar qanday nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lganligini asoslang.

3. Buyuk ipak yo‘li orqali Xorazm qo‘shni davlatlarga qanday mahsulotlarni yetkazib bergan. Fikr bildirishdan avval sug‘orma dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik, savdo-sotiq va haykaltaroshlik sohalarining rivoji natijasida qanday qo‘shimcha sohalarga ehtiyoj sezilishini o‘ylab ko‘ring.

3-ijodiy faoliyat. Mavzuni mustahkamlash

6-sinfda tarix fanidan olgan bilimlaringizga tayanib javob bering.

1. Zardushtiylik qachon paydo bo‘lgan? Zardushtiylik bilan bog‘liq qaysi an’analar yodingizda qolgan?

2. Fikrni davom ettiring: *Bolalarga ... fikr, ezgu ..., ... amal tamoyillari o‘rgatilgan.*

Uyga vazifa.

1. IV–VII asrlarda Xorazm mavzusidagi bilimlaringizni infografika holatiga keltiring.

2. Nima uchun IV–VII asrlarda Xorazm o‘zining siyosiy mustaqilligini saqlab qolishga erishdi?

3. Shu davrida bolalarga berilgan ta’lim va tarbiyaning bugungi kundagi fanlarga o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlang.

4. Qadimgi dunyo davlatlarida Xubbi obrazidagi suv bilan bog‘liq afsonaviy qahramonlarni bilasizmi? Ularning davlati va nomini jadval ko‘rinishiga keltiring.

5. Nima uchun poytaxt mudofaa jihatidan nihoyatda mustahkam qilib qurilishiga zarurat yuzaga kelgan?



TEST

1. «Xorazm Jayxunning butun foydasini ola bilgan mamlakatdir» degan ma'lumotni kim keltirib o'tgan?

A) Gerodot; B) Beruniy; **D) Istaxriy;** E) Narshaxiy.

2. Xorazm diyorida sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik va savdo-sotiq, ilm-fan, san'at, xususan, yana qaysi soha yuqori darajada rivoj topgan?

A) haykaltaroshlik; B) shishasozlik; D) kulolchilik; E) zargarlik.

3. Xorazmning poytaxti hisoblanmish Tuproqqal'a shahrining umumiy maydoni qancha edi?

A) 18 gektar; **B) 20 gektar;** D) 23 gektar; E) 15 gektar;

4. Burgut va lochin qaysi davlatning hukmdorlik ramzi edi?

A) Eftaliylar; B) Xioniylar; D) Qang'; **E) Xorazm.**

5. Xubbi haqidagi afsona qaysi davlat tarixi bilan aloqador?

A) Xorazm; B) Kushon; D) Qang'; E) Eftaliylar.

6. Xorazmning poytaxti bo'lgan Tuproqqal'a shahri xarobalari hozir qaysi hududga to'g'ri keladi?

A) Xorazm viloyati Ellikqal'a tumani;

B) Xorazm viloyati Xazorasp tumani;

D) Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumani;

E) Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumani.

7. Zaiflashib borayotgan Qang' davlati tarkibidan dastlab Xorazm ajralib chiqdi. Uni dastlab qaysi sulola vakillari boshqara boshlaganlar?

A) Siyovushlar; **B) Afrig'iylar;** D) Oltintoshlar; E) Varzamarlar.

8. Qachon xorazmshoh Afrig' o'z qarorgohini Xorazmning qadimgi poytaxti Kat shahriga ko'chirgan?

A) 456-yilda; **B) 305-yilda;** D) 250-yilda; E) 484-yilda.

9. Qaysi davlat tangalarining old tomoniga shoh surati, orqa tomoniga esa suvoriy tasviri tushirilgan edi?

A) Xorazm; B) Kidariylar; D) Xioniylar; E) Eftaliylar.

10. «Milodiy 305-yilda xorazmshoh Afrig' o'z qarorgohini Xorazmning qadimgi poytaxti Kat shahriga ko'chirdi. Kat qayta tiklanib uning yonida joylashgan Alfir qasri ichida shoh o'ziga yangi saroy qurdirdi». Ushbu ma'lumotlar kimga tegishli?

A) Ibn Xavqal; **B) Beruniy;** D) Istaxriy; E) Narshaxiy.

11. «Shahar markazidan yuqoriroqda joylashgan ibodatxona majmuasi, uning burchak qismida esa balandligi 25 metr bo‘lgan ko‘p minorali xorazmshohlar qasri qad ko‘targan». Ushbu ma’lumot qaysi shahar haqida?

A) Poykend; B) Varaxsha; D) Buxoro; **E) Tuproqqal’a.**

12. Alfir qasri qayerda joylashgan?

A) Xorazm; B) Samarqand; D) Qashqadaryo; E) Surxondaryo.

13. Xorazmshoh Afrig‘iylarning poytaxti bo‘lgan shaharni aniqlang.

A) Poykend; B) Varaxsha; **D) Kat;** E) Hazorasp.

14. Xorazmda nechanchi asrgacha Zardushtiylik dinining ta’siri kuchli bo‘lgan?

A) VIII asrgacha; B) VII asrgacha; D) IX asrgacha; E) X asrgacha.

15. Mobadlar kimlar?

A) Dehqon mulkini qo‘riqlovchi harbiy posbonlar;

B) Dehqonlar mulkida ishlovchi yersiz shaxslar;

D) Sug‘orish ishlarini tartibga soluvchi amaldorlar;

E) Zardushtiylik dinining diniy marosimlarini bajaruvchi shaxslar.

16. Afrig‘iylar sulolasining Xorazmda hukmronlik qilgan davrini aniqlang.

A) III–X asrlar; B) IV–X asrlar; D) III–IX asrlar; E) III–XI asrlar.

17. «Qasr imoratlari — ikki qavatli shoh saroyi va koshona turarjoylarning devor tokchalari turli mazmundagi rangdor tasvirlar, qabartma ganchkor naqshlar hamda haykallar bilan bezatilgan». Ushbu ta’rif qaysi davlatning poytaxt shahri haqida?

A) Xorazm; B) Eftaliylar; D) Xioniylar; E) Kidariylar.

18. «Kundalik hayotda chorvachilik va baliq ovlash bilan shug‘ullanishgan. Ularning xo‘jalik turmushida, asosan, baliq, qovun, qovoq, yovvoyi jiyda va tut alohida o‘rin tutgan». Ushbu ta’rif qaysi davlatning xo‘jalik hayoti haqida?

A) Xorazm; B) Eftaliylar; D) Xioniylar; E) Kidariylar.

19) «Ta’lim maskanlarida bolalarga, asosan, o‘qish, yozish va jang san’atidan saboq berilgan. Shuningdek, ularga faqat rost so‘zlashlari zarurligi uqtirilgan. Yolg‘on gapirish katta jinoyat hisoblangan». Ushbu ta’rif qaysi davlatning xo‘jalik hayoti haqida?

A) Xorazm; B) Eftaliylar; D) Xioniylar; E) Kidariylar.

20. Xorazmda Xubbi … ilohi hisoblangan.

A) suv; B) quyosh; D) tuproq; E) tabobat.

TARIXIY HUJJAT

JAYXUN DARYOSI

Jayxun daryosiga kelsak, uning asosiy o‘zani Xarbob daryosi bo‘lib, Badaxshon hududidagi Vaxon mamlakatidan oqib chiqadi. Al-Xuttal va al-Vaxsh hududida unga bir qator daryolar quyiladi va ulardan bu katta daryo hosil bo‘ladi. Bu daryolardan biri Xarbob daryosidan keyin kelib, Axshu deb ataladi. U Hulbuk shahrining daryosidir. Undan keyin Barbon daryosi keladi. Undan keyin uchinchi daryo — Forg‘ar daryosidir. To‘rtinchi daryo— Andijorog‘ daryosidir. Beshinchi daryo Vaxshob daryosi bo‘lib, u barcha mazkur daryolar ichida eng sersuvidir. Bu suvlar Orhanga yetmasdan unga qo‘shiladi. Keyin al-Quvodiyonga yetmasdan Vaxshob daryosi bilan qo‘shiladi.

Shundan keyin unga al-Buttam va boshqa joylardan oqib chiquvchi daryolar quyiladi. Bular as-Sag‘oniyon daryolari va al-Quvodiyon daryolaridir, ular hammasi al-Quvodiyon yaqinida birlashadilar.

Vaxshob daryosining suvi turklar mamlakatidan oqib chiqib, al-Vaxsh yerlarida ko‘rinadi va bir tog‘ ichidan o‘tib, katta ko‘prik ostidan o‘tadi. Bu yerda suv shunchalik ko‘pki, uning chuqurligini aniqlash mumkin emas. Keyin daryo torayib, bu yerda oldingidek yana tor bo‘ladi. Bu ko‘prik al-Xuttal va al-Voshjird o‘rtasidagi chegaradir. Keyin bu daryo Balx viloyati hududlaridan at-Tirmiz tomonga, keyin Kaylif orqali Zamm, keyin Omul tomonga oqib, Xorazmda tutaydi va uning ko‘liga quyiladi.

Bu daryoning al-Xuttalda, at-Tirmizda va Zamm nohiyasigacha yerlarda hech kim foydalanmaydi. Undan Zamm, Omul va Farabor aholisi foydalaniladi, keyin daryo Xorazmgacha yetib boradi va uning aholisi suvning hammasini o‘z dalalariga ishlatadi.

Jayxun — Amudaryoning arabcha nomi. Arablar har qanday yirik daryoni jayxun deb ataganlar. Qadimgi yunonlar bu daryoni Oxus deb ataganlar.

Xarbob — Amudaryoning yuqori oqimidagi daryo.

Badaxshon — Amudaryoning yuqori oqimi havzasidagi Ko‘kcha daryosi va uning irmoqlari vodiysida joylashgan tog‘li o‘lka.

Vaxon — Vaxon va Pomir daryolarining havzasida Tibet bilan chegarada joylashgan tog‘li o‘lka.

Al-Vaxsh — Amudaryoning yuqori oqimidagi Vaxsh daryosining havzasida joylashgan tog‘li o‘lka.

Axshu — Turkcha Oqsuv so‘zining buzilgan shakli. Jayxun daryosiga quyilgan.

Hulbuk — o‘rta asrlarda Xuttalon viloyatining bosh shahri.

Barbon — Ko‘lob daryosining yuqori oqimidagi Talbar daryosi nomining buzilgan shakli.

Forg‘ar — Amudaryoning yuqori oqimidagi daryo.

Andijorog‘ — Amudaryoning yuqori oqimidagi daryo, u Vaxshob va Forg‘ar daryolari orasidan oqib o‘tgan. Hozir bu daryo Tairsuv deb ataladi.

Ibn Havqalning
«Kitob surat al-Ard» asaridan.

AFRIG‘IYLAR DAVRIDA XORAZM

Nihoyat Kayxusrav[2] naslidan Ofrig‘[3] podshohligi boshlandi. Eronliklar «gunohkor» Yazdijardni yomon xabar keltiruvchiga yo‘yganlaridek, [xorazmliklar] Ofrig‘ni shum xabar keltiruvchiga chiqardilar. Ofrig‘dan keyin uning o‘g‘li podshoh bo‘ldi. [Ofrig‘] Iskandar tarixining olti yuz o‘n oltinchi yilida al-Fir ustiga o‘z qasrini qurdirdi. Keyin xorazmliklar Ofrig‘ va uning avlodi podshohligidan tarix oldilar.

Al-Fir Xorazm shahri[4]ning chekkasidagi loy va xom g‘ishtdan qurilgan qal’a bo‘lib, biri-birining ichiga joylashgan va balandlikda bir-biridan qolishmaydigan uch qavat qo‘rg‘on edi. Bu barcha qo‘rg‘onlar tepasida Yamandagi G‘umdon singari podshohlarning qasrlari bor edi.

G‘umdon — tabbalarning turarjoylari bo‘lib, San’a shahridagi Masjidi jome ro‘parasidagi toshdan qurilgan qal’adir. Aytilishicha, u to‘fondan keyin Som ibn Nuh qurgan binolardandir. Som qazigan quduq ham o‘sha yerdadir. Ba’zilar esa bu — Zahhok tomonidan Zuhra ismiga atab qurilgan haykal deganlar. Al-Fir o‘n milcha va undan ko‘proq masofadan ko‘rinar edi. Jayxun har yili uni buzib, yiqitib va parchalab olib keta berdi; nihoyat Iskandar tarixining ming uch yuz beshinchi yil[5]ida undan asar qolmadi.

Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asaridan.

XORAZMSHOH – AFRIG‘IYLAR[6]

Payg‘ambar alayhissalom kelgan vaqtda Xorazm shohlaridan Arsamux ibn Buzgor ibn Xomgariy ibn Shovush Sixr ibn Azkojvor ibn Askajmuk ibn Saxxasak ibn Bag‘ra ibn Ofrig‘ podshoh edi. Xorazm aholisi [islom dinidan] qaytgandan keyin, Qutayba ibn Muslim Xorazmni ikkinchi marta fath qilgach, xorazmliklarga Askajmuk ibn Azkojvor ibn Sabriy ibn Sixr ibn Arsamuxni podshoh qildi va uni podshohlikka ko‘tardi. Xisravlar nasli qo‘lidan viloyat ketib, ularda faqat shohlik nomi qoldi. Chunki shohlik ularga merosdek edi. Tarix, musulmonlar rasmiga muvofiq, hijriy [yilga] ko‘chirildi.

Qutayba Xorazm xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o‘rgangan va bilimini boshqalarga o‘rgatadigan kishilarni halok etib, butkul yo‘q qilib yuborgan edi. Shuning uchun u [xabar va rivoyatlar] islom davridan keyin, haqiqatni bilib bo‘lmaydigan darajada yashirin qoldi. Mamlakat idorasi goho bu xonadonda bo‘lib, goho boshqa qabilalar qo‘llariga o‘tib yurdi. Nihoyat, Shahid Abu Abdullo Muhammad ibn Ahmad ibn Muhammad ibn Iroq ibn Mansur ibn Abdullo ibn Turkasbosa ibn Shovushfir ibn Askajmuk ibn Azkojvor ibn Sabriy ibn Sixr ibn Arsamuxdan — buning zamonida payg‘ambar alayhissalomga payg‘ambarlik kelganini aytib o‘tdim — keyin viloyatlik ham, shohlik ham ular [qo‘li] dan chiqib ketdi.

Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asaridan.

[2] Kayxusrav – Eron mifologiyasida kayoniylar sulolasidan bo‘lgan 3-shoh. Otasi Siyovush.

[3] Ofrig‘ – (Afrig‘), afrig‘iylar sulolasi asoschisi (305-y.), Xorazmshoh.

[4] Xorazm shahri – Kat (hozirgi Beruniy) shahrining yana bir nomi.

[5] 1305 – 312 = 993-yil, taxminiy hisob.

[6] Afrig‘iylar – milodiy III asr o‘rtalaridan 995-yilgacha Xorazmda hukmronlik qilgan mahalliy sulola vakillari (davlat poytaxti dastlab Tuproqqal’a o‘rnidagi shahar, keyinchalik 305-yildan Kat shahri bo‘lgan).

IV–V ASRLARDA XIONIYLAR VA KIDARIYLAR

Mavzu: «IV–V asrlarda xioniylar va kidariylar»
(Darslik 15–17 betlar)
Kalit so‘zlar: xioniylar, toxarlar, oq xunnlar, yuechjilar, kidariylar, sosoniylar

Ta’limiy maqsad: Xioniylar va kidariylar haqida ma’lumot berish. Ularning kelib chiqishi, Turon zaminiga kirishi, siyosiy munosabatlar haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy maqsad: Vatanimiz tarixi jahon tarixining uzviy va ajralmas bo‘lagi ekanligini anglatish.

Rivojlantiruvchi ta’lim: O‘rta asrlar, kidariylar va xioniylar davrida Turon.

Bu mavzuda o‘quvchilarni baholashda ularning quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga e’tibor qaratish lozim:

- → Turon hududida yashagan massagetlar, sug‘dlar, saklar hamda Ahamoniy, Yunon-Baqtriya, Kushonlar davlati tarixi haqida bilimga ega, Xioniylar davlatining tashkil topishi va uning hududi haqida ma’lumot bera oladi va xaritadan taxminiy joylarini ko‘rsata oladi.
- → Toxarlar, kushonlar va kidariylar haqida so‘zlay oladi, ularning kelib chiqishi umumiy ekanligi haqida tushunchaga ega bo‘ladi.
- → Xioniylar va kidariylarning tarixdagi ahamiyati va davlatchiligining tanazzuli sabablari haqida ma’lumot bera oladi.

TEST

1. Quyidagi qaysi davlat 120 yildan oshiqroq faoliyat ko‘rsatgan?

A) Kidariylar; **B) Xioniylar;** D) Afrig‘iylar; E) Eftaliylar.

2. Kidariylar davlatining poytaxti bo‘lgan shaharni aniqlang.

A) Balx; B) Termiz; D) Panjikent; E) Poykand.

3. «Hindistonda Gupta davlatini egallab, bu yerda 75 yil hukmronlik qilgan va Xitoyga elchilar yuborgan». Ushbu berilgan ta’rif qaysi davlat haqida?

A) Kidariylar; B) Xioniylar; D) Afrig‘iylar; E) Eftaliylar.

4. «Kidara Kushon Sha» ushbu so‘zlar bitilgan tangalar qaysi davlatda muomalada bo‘lgan?

A) Afrig‘iylar; B) Xioniylar; **D) Kidariylar;** E) Eftaliylar.

5. Kidariylar va sosoniylar o‘rtasida to‘qnashuv bo‘lib o‘tgan yilni aniqlang.

A) 456-yil; B) 467-yil; D) 473-yil; E) 305-yil.

6. V asrning 20-yillarida Sharqdan Sirdaryo va Orol bo‘ylari orqali Xorazm hamda Amudaryo havzasiga kirib kelgan qabilani aniqlang.

A) Toxarlar; B) Xioniylar; D) Eftaliylar; E) Jujanlar.

7. Xioniylar davlatining janubiy qismida o‘z hukmronligini o‘rnatgan qabilani aniqlang.

A) Afrig‘iylar; B) Xioniylar; **D) Kidariylar;** E) Eftaliylar.

8. «G‘arb tarixchilari esa ularni xunnlarga qarindosh hisoblab, ularni «oq xunnlar» deb ataydilar». Ushbu ta’rif qaysi qabila haqida?

A) Afrig‘iylar; **B) Xioniylar;** D) Kidariylar; E) Eftaliylar.

9. Dastlabki vatani Sharqiy Turkiston bo‘lgan xalqni aniqlang.

A) Toxarlar; B) Xioniylar; D) Eftaliylar; E) Jujanlar.

10. «Dastlab Zarafshon vohasini egallab, janub tomon harakat qilishgan va Kushon podsholigi hududida hukmronlik qilishgan. Ular markazi Toxariston bo‘lgan Shimoliy Hindiston, Afg‘oniston, Xurosonning bir qismini ham o‘z ichiga olgan katta davlat tuzishgan». Ushbu ta’rif qaysi davlat haqida?

A) Toxarlar; **B) Xioniylar;** D) Eftaliylar; E) Jujanlar.

11. Xioniylar davlati kuchaygan davrni aniqlang.

A) V asrning 20-yillari; **B) IV asrning 70-yillari;**

D) V asr boshlari; E) IV asr o‘rtalari.

12. «Xioniylar IV asrning 70-yillarida o‘zining kuchaygan pallasiga kiradi». Xioniylar haqida bildirilgan ushbu fikr muallifini aniqlang.

A) Trever; B) Beruniy; D) Tolstoy; E) Telepin.

13. Chorvador aholi – eftaliylar bilan to‘qnashishi natijasida Shimoliy Hindistonga chekingan qabilani aniqlang?

A) Afrig‘iylar; B) Xioniylar; **D) Kidariylar;** E) Eftaliylar.

14. Kidariylarning tangalari qaysi yozuvda yozilgan?

A) oromiy; B) baqtriya; D) fetal; **E) braxmiy.**

15. Jujanlar hujumi tufayli o‘z qarorgohini Bolo (Balx)ga ko‘chirgan hukmdorni aniqlang.

A) Sidolo; B) Kidar; D) Vaxshunvar; E) Eftalon.

16. Markazi Toxariston bo‘lgan, Shimoliy Hindiston, Afg‘oniston va Xurosonning bir qismini o‘z ichiga olgan davlatni aniqlang.

A) Toxarlar; **B) Xioniylar;** D) Eftaliylar; E) Jujanlar.





17. Berilgan javoblarning qaysi biri kidariylar haqida emas?

A) Hindistonda Gupta davlatini egallab, bu yerda 75 yil hukmronlik qilgan.

B) Gandhardan shimoldagi 5 ta davlatni o‘ziga bo‘ysundirgan.

D) Ularning dastlabki vatani Sharqiy Turkiston edi.

E) Ularning asl vatanini ayrim tadqiqotchilar Orol bo‘yida deb hisoblaydilar.

18. IV asrda Zarafshon vohasini egallab janubga tomon harakat qilgan qabilani aniqlang.

A) Toxarlar; **B) Xioniylar;** D) Eftaliylar; E) Jujanlar.

19. Noto‘g‘ri berilgan javob variantini aniqlang.

A) Xioniylar Hindistonda 75 yil hukmronlik qilgan va Xitoyga elchilar yuborgan.

B) Xioniylarning dastlabki vatani Orolbo‘yi edi.

D) Kidariylarning dastlabki vatani Sharqiy Turkiston edi.

E) Kidariylarning poytaxti Balx shahri edi.

20. Toxarlarning Xorazm va Amudaryo havzasiga kirib kelgan davrini aniqlang.


A) V asr boshlari; **B) V asr 20-yillari;**

D) IV asr 70-yillari; E) IV asr boshlari.

EFTALIYLAR

Bu mavzuda o‘quvchilarni baholashda ularning quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga e’tibor qaratish lozim:

- IV–V asrlarda Turon hududida yashagan xalqlar haqida umumlashtirilgan ma’lumot bera olishi;
- eftaliylarning kelib chiqish tarixi, davlatchiligining tashkil topishi haqida so‘zlab bera olishi;
- Eftaliylar davlatining taxminiy hududini xaritadan ko‘rsatib bera olishi;
- davlat boshqaruvining o‘ziga xosliklari haqida ma’lumot bera olishi;
- eftlaliylarning xalqaro munosabatlarda ishtiroki haqida so‘zlab bera olishi;
- ularning turmush tarzi, shaharlari haqida ma’lumot bera olishi;
- madaniyati, yozuvi, diniy e’tiqodi haqida ma’lumotlar bera olishi;
- mashhur shaharlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari va farqli tomonlarini ajrata olishi va bu haqida so‘zlab bera olishi.



TEST

1. Ilk o‘rta asrlarda … «O‘kuz» deb atalgan.

A) Amudaryo; B) Sirdaryo; D) Kaspiy dengizi; **E) Orol dengizi.**

2. «Davlat boshqaruvida ma’lum qonun-qoidalar mavjud bo‘lgan. Davlat harbiy kuchga tayangan». Ushbu ta’rif qaysi davlat haqida?

A) Toxarlar; B) Xioniylar; **D) Eftaliylar;** E) Jujanlar.

3. Qaysi sulola asoschisini «Vaxshunvar» ham deb atashgan?

A) Afrig‘iylar; B) Xioniylar; D) Kidariylar; **E) Eftaliylar.**

4. Eftaliylar davlati poytaxti bo‘lgan shaharlarni aniqlang.

A) Fayoztepa, Varaxsha; B) Balx, Poykent;

D) Panjikent, Tuproqqal’a; **E) Varaxsha, Poykent.**

5. Ilk o‘rta asrlardagi qaysi davlatda taxt vorisini aniqlab taqdim etadigan kengash faoliyat yuritgan?

A) Afrig‘iylar; B) Kidariylar; **D) Eftaliylar;** E) Xioniylar.

6. Sosoniylar podshosi Pero‘zning eftaliylar bilan kurashda vafot etgan yilni aniqlang.

A) 456-yil; **B) 484-yil;** D) 473-yil; E) 496-yil.

7. O‘rta asrlarda tayyorlangan shishalar rangdorligi, yarqiroqligi va tiniqligi jihatidan qaysi davlat shishasidan ustun turgan?

A) Xitoy; B) Eron; D) Hindiston; **E) Vizantiya.**

8. Noto‘g‘ri berilgan javob variantini aniqlang.

A) Eftaliylarning Ipak yo‘lidagi savdosida sosoniy savdogarlari bilan raqobatda asosan sug‘diylar vositachilik qilishgan.

B) Eftaliylar alifbosi Baqtriya yozuvi asosida shakllangan. Mazkur alifbo 25 harfdan iborat bo‘lib, chapdan o‘ngga tomon yozilgan.

D) Eftaliylar davlatida harbiy soha bilan shug‘ullanish faqat o‘smir o‘g‘il bolalar bilan cheklanmagan. Qizlar ham otda yurish, kamondan o‘q otish kabi jismoniy mashqlarga jalb qilingan.

E) Turon aholisining bir qismi sug‘d tilida, ikkinchi qismi esa turkiy tilda so‘zlashgan. Bu davrda turkiy tildan xalqaro savdo tili sifatida Yettisuv, Farg‘ona, Sharqiy Turkiston va Xitoy hududlarida foydalanilgan.

9. V asrda nisbatan qadimiyroq bo‘lgan qishloq o‘rnida Panjikent shahri barpo etiladi. Uning maydoni qancha edi?

A) 18 gektar; B) 25 gektar; D) 23 gektar; E) 15 gektar.

10. O‘rta asrlar arab manbalarida «Madina at-tujjor» – «Savdogarlar shahri» deb e’tirof etilgan shahar qaysi?

A) Buxoro; B) Termiz; D) Samarqand; **E) Poykand.**

11. «To‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi ushbu shaharning asosi 21 gektar bo‘lib, bu yerda mustahkam himoya inshootlari, hukmdor saroyi, mafkuraviy inshootlar, turar joylar qad rostlagan». Ushbu ta’rif qaysi shahar haqida?

A) Poykand; B) Termiz; D) Tuproqqal’a; **E) Buxoro.**

12. Ilk o‘rta asrlarda qaysi davlatning yettida darvozasi bo‘lgan?

A) Buxoro; B) Termiz; D) Samarqand; E) Poykand.

13. IV–V asrlarga kelib maydoni 17 gektarni tashkil etgan shaharni aniqlang.

A) Zartepa; B) Poykand; D) Varaxsha; E) Samarqand.

14. «Shahri Vayron» qal’asi qaysi shaharda joylashgan?

A) Naxshab; B) Termiz; D) Poykand; **E) Buxoro.**

15. Fir qal’asi qaysi shaharda joylashgan?

A) Termiz; B) Poykand; **D) Xorazm;** E) Buxoro.

16. «Zahoki Maron» qaysi shaharda joylashgan?

A) Naxshab; B) Termiz; D) Poykand; E) Buxoro.

17. Samarqand viloyati janubiy tumanlarining asosiy suv manbayi bo‘lgan Darg‘om kanali nechanchi asrda qurilgan?

A) V asr; B) IV asr; D) VI asr; E) VII asr.

18. «Ular shaharlik sulolalar, oliy hazratlari». Ushbu ta’rif qaysi sulola haqida?

A) Afrig‘iylar; B) Kidariylar; **D) Eftaliylar;** E) Xioniylar.

19. Noto‘g‘ri berilgan javob variantini aniqlang.

A) Buxoro Sug‘dida o‘ng tomonida hukmdor tasviri tushirilgan kumush va mis tangalar zarb etilgan.

B) Samarqand Sug‘dida V–VI asrlarda orqa tomonida tik turgan kamonchi tasviri tushirilgan kumush tangalar zarb etilgan.

D) **Surxon vohasida o‘ng tomonida podsho bosh qismi tasviri tushirilgan mahalliy kumush va mis tangalar muomalada bo‘lgan.**

E) Xorazmda esa, old tomonida hukmdor boshi, orqa tomonida otliq chavandoz tasviri tushirilgan kumush va mis tangalar zarb etilgan.

20. «Viloyatlarda boshqaruv mahalliy xonadonlar (sulolalar) tomonidan olib borilgan. Mazkur mulklar hukmdor – Sho (shoh)ga tobe sulolalar tomonidan boshqarilgan. Hatto ularning har biri o‘zining kumush yoki mis tangalarini zarb etgan». Ushbu ta’rif qaysi davlat haqida?

A) Afrig‘iylar; B) Xioniylar; D) Kidariylar; **E) Eftaliylar.**

TARIXIY HUJJAT

EFTALIYLAR DIPLOMATIYASI

Turli davrlarda diplomatik munosabatlar mexanizmi o‘zgarib turgan. Xususan, Eftaliylar davri (420–579)dagi diplomatiyada asosan harbiy kuch orqali ta’sir o‘tkazilgan. Chunki bu davrda mintaqa uchun kurashda eftaliylar va sosoniylar manfaatlari to‘qnash kelgan. 420-yilgacha eftaliylar Sug‘d, Baqtriya hamda Hindiston yarim orolining shimoli-g‘arbiy qismlarini o‘ziga bo‘ysundirgan. Eftaliylar va sosoniylar o‘rtasidagi kurash bir necha harbiy to‘qnashuvlarga sabab bo‘lgan. Bu urushlar natijasida sosoniylar shohi Pero‘z (459–484) asir olingan. Bu voqeaga aralashgan Vizantiya imperatori Zenon o‘z elchisi orqali eftaliylarga chiqib, Pero‘zni katta to‘lov evaziga ozod qilishni iltimos qilgan. Eftaliylar Pero‘zni ozod qilish uchun sosoniylardan 30 xachirga yuk bo‘ladigan kumush dinorni o‘lpon sifatida talab qiladi. Ammo sosoniylar 20 xachirga yuk bo‘ladigan darajada kumush dinor to‘play olgan, xolos. Shu bois, Pero‘zning o‘g‘li Kavod qolgan 10 xachir to‘lov evaziga garovga topshirilgan. Bu harakatlarning barchasi o‘sha davr diplomatiyasiga xos ko‘rinish edi. O‘z harakatlaridan xulosa chiqarmagan Pero‘z 484-yilda so‘nggi bor eftaliylar ustiga yurish qilib, shu yurishda halok bo‘lgan. U o‘ldirilgach, sosoniy hukmdorlari Kavod (484–530) va Xusrav Anushervon (530–580) davrida, ya’ni 565–567 yillargacha Eron Eftaliylar davlatiga o‘lpon to‘lash bo‘yicha majburiyatlarini bajarib kelgan.



Bu davrda Eftaliylar davlati Xitoydagi sulolaviy davlatlar bilan ham diplomatik aloqalar o‘rnatgan. 516-yilda eftaliylar o‘z elchisini Chanjan (Yanszi) vodiysida joylashgan Lyang sulolasi (502–557) hukmdori huzuriga yuborgan. Bu aloqalarning natijalari ma’lum emas. Ammo tarix sahnasiga Turk xoqonligining (552–745) chiqishi va eftaliylarning 567-yilda Buxoro yaqinida turklardan mag‘lub bo‘lishi bu davlatni tanazzulga olib keldi. Bundan foydalangan sosoniylar o‘z mavqelarini tiklab, eftaliylarga boy bergan hududlarini qayta qo‘lga kiritishdi.

Azimxo‘ja Otaxo‘jayevning «Ilk o‘rta asrlar Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida turk-sug‘d munosabatlari» kitobidan.

LOYIHA ISHI

Loyiha ishini tashkil qilish tartibi.

Loyiha (design) – ba'zi murakkab ishlanmalarni yaratish bo'yicha hujjatlar yig'indisi. Loyiha (*ing. project*) tushunchasi kengroq ma'noda ma'lum natija (loyihaning beqiyos mahsuli)ga ega maqsadli faoliyatni tashkil etish uchun biror-bir tashkiliy shaklni belgilash uchun foydalaniladi.

Loyihalashtirish – real natijaga olib keluvchi, qat'iy tartibga solingan harakatlar izchilligini o'z ichiga oluvchi muammoni o'zgartiruvchi faoliyatni anglatadi.

Ta'limiy tavsifdagi loyihalashtirish o'qituvchi tomonidan o'quvchining muammoni izlash, uni hal etish bo'yicha faoliyatini rejalashtirish va tashkil etishdan to (intellektual yoki moddiy mahsulotni) ommaviy baholash uchun uni hal qilish usulini taqdim etishgacha mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi maxsus tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyatidir.

«O'quv loyihasi» tushunchasi keng qamrovli bo'lib, quyidagi mazmunga ega: muayyan iste'molchiga mo'ljallangan, muammolarni izlash, tadqiqot qilish va yechish, natijani noyob (moddiy yoki intellektual) mahsulot ko'rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilish usuli; nazariy bilimlar orqali amaliy vazifalarni yechishga qaratilgan o'quv vositalari va qurollari; rivojlantiruvchi, ta'lim va tarbiya hamda bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va malakalarni shakllantirishga qaratilgan didaktik vosita.

O'quv loyihasidan foydalanish o'zida quyidagi maqsadlarni aks ettiradi:

- loyihaviy ta'lim jarayoni ishtirokchilarida o'z-o'ziga ishonchni qaror toptirish;
- egallangan bilimlarning amaliyotda qo'llanilishiga erishish;
- tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish;
- ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchilarda jamoa bo'lib hamkorlikda ishlash ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

Loyiha ishini tashkil qilishga oid tavsiyalar:

- jamoalarga bo'lingan o'quvchilar aynan diniy e'tiqoddagi, soliqlardagi, ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarni tahlil qila olishlari va loyiha taqdimotini himoya qilishlari lozim;
- bu jarayonda topshiriq loyiha ishiga ajratilgan soatdan oldinroq o'quvchilar tomonidan tashkil qilingan jamoalarga topshiriladi;
- loyiha darsida tayyorlangan loyiha taqdimoti jamoalar tomonidan himoya qilinadi;
- boshqa jamoalar tinglab, o'z fikr va mulohazalarini bildiradilar;
- o'qituvchi tomonidan xulosalar umumlashtiriladi va jamoalar baholanadi.

O'quv loyihasini ishlab chiqish bosqichlari:

- tayyorgarlik (motivatsiya, muammoli vaziyatlarni aniqlash, mavzuni tan-

lash, loyihaning maqsadini belgilash);

- loyihalashga doir (umumiy rejani ishlab chiqish, faoliyatni amalga oshirishning aniq rejasini tuzish, tanlab olingan nuqtayi nazar bilan bog‘liqlikda topshiriqlarni talabalar o‘rtasida taqsimlash, mustaqil ish, guruhlarda ishlash, aqliy hujum, praktikum va boshqalar);
- amaliy (muammoni tadqiq etish, ma’lumotlarni to‘plash va qayta ishlash, natija olish, natijalarni sinovdan o‘tkazish, natijalarni grafik ko‘rinishida taqdim etish, hujjatlarni rasmiylashtirish);
- tahliliy (rejalashtirilgan ishlar va olingan natijalarni taqqoslash, umumlashtirish va xulosalash);
- nazorat va baholashga doir (natijalarni va yo‘l qo‘yilgan xatolarni tahlil etish, xatolarni to‘g‘rilash yo‘llarini izlash, real holat bilan bog‘liqlikda loyihaga o‘zgartirishlar kiritish);
- yakuniy (ish mazmuni bilan tanishtirish, xulosalarni asoslash, loyiha himoyasi).

Hozirgi vaqtda ta’lim amaliyotida o‘quv loyihasining xilma-xil turlaridan foydalaniladi:

- *yetakchi faoliyat turiga ko‘ra:* tadqiqot, amaliy yo‘naltirilgan va axborotli;
- *fanga yo‘naltirilganligiga ko‘ra:* monoloyiha va fanlararo loyiha;
- *davomiyligiga ko‘ra:* uzoq muddatli, o‘rta muddatli, qisqa muddatli;
- *loyiha ishtirokchilarining soniga ko‘ra:* individual va guruhli.

Shuningdek, ta’lim maqsadi bilan bog‘liqlikda ham o‘quv loyihasini turlarga ajratish mumkin: axboriy, tadqiqotchilikka doir, amaliy-yo‘naltirilgan, ijodiy, o‘yinli yoki rolli.

Masalan, agar o‘qituvchi o‘quvchida axborotlar bilan ishlash malakalarini, matnni tahlil etish, turli manbalardagi ma’lumotlarni tasniflash va tekshirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ysa, u holda axboriy tavsifdagi o‘quv loyihasidan foydalanishi maqsadga muvofiq. Axboriy tavsifdagi loyihaning maqsadi aynan ma’lumotlarni to‘plash, axborotlarni rasmiylashtirish va taqdim etishdan iborat. Albatta, o‘quv loyihasining istalgan turida axborot to‘plash bosqichi bor, biroq bu yerda u o‘quv ishi vositasi bo‘lib xizmat qiladi, axboriy tavsifdagi loyihada esa, asosiy maqsad sifatida belgilanadi. Mazkur holatda o‘quvchi faoliyati aynan axborotlar bilan ishlashga yo‘naltiriladi. Shu bilan birga, o‘quvchida axboriy kompetentlikni rivojlantirish asosiy vazifa sifatida belgilanadi.

Ma’lum bir fan yoki fanlarga doir amaliy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish zaruriyati paydo bo‘lganda amaliy yo‘naltirilgan loyihalardan foydalanish yaxshi samara beradi. Eng oddiy holatda, o‘qituvchi o‘quvchilardan fanga doir tarqatma materiallar yoki o‘yinlar ssenariysi, glossariy, tarixiy atlaslar yaratish topshirig‘ini buyurishi mumkin. Amaliy yo‘naltirilgan loyihalar bilan ishlash jarayonida o‘quvchilarda faqat fanga doir bilim, ko‘nikma va malakalar rivojlanibgina qolmay, balki faoliyatga doir kompetentlik ham qaror topadi.

O‘quv loyihasida eng katta e’tibor o‘quvchilarda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga

qaratiladi. Aynan ijodiy loyiha o‘quvchilarga o‘zini namoyon eta olish, istalgan janrdagi asarni yaratish imkonini beradi. Shuningdek, ijodiy loyihalar o‘quvchilarni guruhdagi maqomining oshishi, o‘z-o‘zini baholashga imkon berishi orqali ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Har qanday ijodiy ish uni taqdim etish va sinf jamoasi bilan qayta aloqani taqozo etadi. Ana shu sababli ijodiy loyihalar o‘quvchilarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga katta ta’sir ko‘rsatadi.

O‘quv loyihasini amalga oshirishda bir qator shakl va metodlarga tayaniladi. O‘quv loyihasini tashkil etishning turli bosqichlarida bir-biridan farq qiluvchi metodlarga murojaat etishga to‘g‘ri keladi. Bu jarayonda o‘qituvchi va talabalarning faoliyatlari ham bir-biridan farqlanadi.

O‘quv loyihasini amalga oshirish bosqichlari

Loyihani bajarish bosqichlari	O‘quvchi faoliyati	O‘qituvchi faoliyati
Izlanishga doir	Muammoni muhokama qiladi; maqsadni belgilaydi va reja ishlab chiqadi;	O‘quvchilarga muammoni taklif etadi va muhokama qiladi; loyiha maqsadlarini tushuntiradi
Tashkiliy	Ma’lumotlar bilan ishlaydi; tahlil qiladi, g‘oyalarni baholaydi	O‘quvchilarni faollashtiradi, g‘oyalarni topish va qaror qabul qilishga yordam beradi
Texnologik	Zarur tayyorgarlik ishlarini amalga oshiradi; nazoratni amalga oshiradi	Moddiy bazani ta’minlaydi; o‘quvchilar faoliyatini boshqaradi
Yakuniy	Loyihani bajarish natijalarini tahlil qiladi; loyihani himoya qiladi	Loyihani muhokama va himoya qilish jarayonini tashkil etadi; loyihani tahlil etish va baholashda ishtirok etadi

Ta’lim loyihasini amalga oshirish.

Ta’lim loyihasi bevosita real ta’lim sharoitida amalga oshiriladi. Bu jarayonda quyidagi ishlarga alohida e’tibor qaratiladi:

- o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha maqsad, vazifalar bilan o‘quvchilarni oldindan tanishtirish, muammo, topshiriqlarni, shuningdek, uy vazifalari, mustaqil bajariladigan ishlarni, ularni bajarish tartibi, vaqtini e’lon qilish, mavzuni to‘liq o‘zlashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berish, o‘zlashtirish me’yorlarini aytib berish;
- o‘quvchilarni faol, mustaqil faoliyatga rag‘batlantirish, ular diqqatini bo‘lim yoki mavzu mazmuniga tortish, uni qanday o‘rganish zarurligini aytib berish, bilishga qiziqish uyg‘otish,



o‘qish-o‘rganishga havas, muammolarni bajarishga ehtiyoj uyg‘otish, his-tuyg‘ular, tafakkur hodisalari, bilimlarni o‘quv holatlariga tatbiq etish yo‘llari orqali mavzu bo‘yicha ma’lumotlar to‘plash, to‘plangan ma’lumotlar yuzasidan joriy nazoratni tashkil etish, mavzuni to‘liq o‘zlashtirishga oid o‘zgarish, qo‘shimcha va tuzatishlarni belgilash;

- bo‘lim yoki mavzu bo‘yicha to‘plangan bilimlarga ishlov berish.

Bu darsda o‘quvchilarni baholashda ularning quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga e’tibor qaratish lozim:

- sinfdoshlari bilan jamoa shakllantira olishi va birgalikda loyihani amalga oshira olishi;
- chorak boshidan boshlab tanishib chiqqan mavzulardagi: Xorazm, Kidariylar, Xioniylar va Eftaliylar davlatlarining o‘ziga xosliklarini tahlil qila olishi, ularning umumiy va farqli tomonlarini sanab bera olishi;
- Jahon tarixi fanidagi bilimlaridan foydalanib, shu davrda jahon tarixidagi boshqa davlatlarning tuzumi, ijtimoiy hayoti va madaniyatini O‘zbekiston tarixi fanidagi davlatlar bilan taqqoslay olishi, ularning o‘ziga xosliklari va dunyo hamjamiyatidagi o‘rni haqida so‘zlab bera olishi;
- bu davrdagi Sharq davlatchiligi, ularda yashagan xalqlar madaniyatining ustunliklari haqida asosli ma’lumotlar bera olishi va o‘z jamoasi fikrini himoya qila olishi;
- o‘rgangan va tahlil qilgan ma’lumotlari asosida loyiha ishiga xulosa bera olishi va mustaqil ravishda o‘z munosabatini bildira olishi;
- loyiha yuzasidan boshqa jamoalarga asosli va mantiqli savollar bera olishi va javoblarni tinglay olishi.

TURK XOQONLIGI

<table>
<tr><th>Mavzu</th><th colspan="2">TURK XOQONLIGI</th></tr>
<tr><td rowspan="2">Maqsad, vazifalar</td><td colspan="2">Maqsad: Turk xoqonligining tashkil topishi, uning hududi, boshqaruv shakli, savdo, madaniy munosabatlari bilan tanishtirish.</td></tr>
<tr><td colspan="2">Vazifalar: Turk xoqonligining geografik hududini aniqlash. Manbalar asosida xoqonlikning davlat mafkurasiga baho berish.
Mavzuga oid tarqatilgan materiallarni o‘quvchilar o‘zlashtirib olishi hamda munozara orqali ularning mazmunini o‘zlashtirganlarini tekshirish va baholash. Tarixiy atamalar va manbalar bilan ishlash.
Urxun-Yenisey yodgorliklari haqida ma’lumotlarni o‘rganish.</td></tr>
<tr><td>O‘quv jarayonining mazmuni</td><td colspan="2">Qadimgi shahar yodgorliklari bilan bog‘liq manbalar tahlili. Turkiy tilda so‘zlashuvchi qabilalar ittifoqi xoqonlik asosini tashkil etishini o‘rganish.</td></tr>
<tr><td>O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi</td><td colspan="2">Metod – og‘zaki bayon qilish, ko‘rgazmali namoyish. Taqqoslash, baholashni o‘rgatuvchi metodlar.
Forma – ma’ruza.
Vosita – tarqatma materiallar, slaydlar, ma’ruza matnlari, kompyuter, proyektor, elektron doska.
Nazorat – og‘zaki so‘rov, savol-javob.
Baholash – DTS asosida.</td></tr>
<tr><td rowspan="2">Kutiladigan natijalar</td><th>O‘qituvchi</th><th>O‘quvchi</th></tr>
<tr><td>Mavzuni berilgan vaqt ichida barcha jihatlarini yoritgan holda to‘liq bayon qilishga erishadi. O‘quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg‘otadi. O‘quvchilarning faolligini oshirish hisobiga mavzuni qisqa muddatda o‘zlashtirishga o‘rgatadi, guruhdagi barcha ishtirokchilarni baholashga erishadi.</td><td>Berilgan mavzu bo‘yicha yangi bilimlarga ega bo‘ladi.
Turk so‘zining ma’nosi haqida ma’lumotga ega bo‘ladi va so‘zlab bera oladi.
Turk xoqonligining tashkil topishi tarixi haqida ma’lumot bera oladi.
Xoqonlikning ijtimoiy tuzumi, davlat boshqaruvi, aholisining asosiy mashg‘ulotlari haqida bilimlarga ega bo‘ladi.
Xoqonlikning ikkiga bo‘linish sabablarini tushuntira oladi.
Xoqonlikning umumiy hududi va G‘arbiy va Sharqiy Turk xoqonliklarining alohida hududlarini xaritadan ko‘rsatib bera oladi.
Bu hududlar hozir qaysi davlat hududiga kirishini qiyosiy tahlil qila oladi.</td></tr>
</table>

		Turk qonunnomasi va ulardagi qonun-qoidalarni tushuntira oladi. Xoqonlik aholisining diniy e'tiqodlari haqida ma'lumot bera oladi. O'sha davrdagi diniy e'tiqodlarning bugungi kunimizdagi qadriyatlar va urf-odatlarimizda saqlanib qolganligini misollar bilan tahlil qila oladi. Turk xoqonligining mavqeyini jahondagi o'sha davrda mavjud boshqa davlatlar bilan solishtirib beradi.
Kelgusi rejalar (tahlil, o'zgarishlar)	**O'qituvchi**	**O'quvchi**
	Yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirib borish, ular ustida ishlash, amalda tatbiq etish, o'quv mashg'uloti davomida qo'llash, ularni takomillashtirishga hissa qo'shish. Muntazam o'z ustida ishlash, yangi statistik ma'lumotlar, qonunlardagi o'zgarishlar asosida o'quv materialini boyitish, pedagogik tajriba va mahoratni oshirib borish.	Dars davomida Turk xoqonligining Vatanimiz tarixidagi tutgan o'rniga oid berilgan ma'lumotlar, munozara, tahlillar, tavsiya qilingan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar, internet saytlaridagi ma'lumotlar asosida o'z bilimlarini yanada mustahkamlaydi. Manbalar bilan ishlay oladi.

TEST

1. Nechanchi asrda Oltoy va Janubiy Sibirda turkiy qabilalarni birlashtirgan yangi davlat vujudga keldi?

A) VI asr boshida; **B) VI asr o'rtalarida;**
D) VI asr oxirida; E) VI asr oxiri – VII asr boshida.

2. Turk xoqonligi nomini olgan davlat qayerda tashkil topadi?

A) Sirdaryo va Orol; **B) Oltoy va Janubiy Sibir;**
D) Yettisuv va Sharqiy Turkiston; E) Oltoy g'arbida, Irtish daryosi o'rta oqimida.

3. Turk xoqonligi qaysi dinni «qam» deb yuritgan?

A) Tangrichilik; B) Moniylik; D) Buddaviylik; **E) Shomonlik.**

4. O'n ming suvoriyga ega bo'lgan tumanboshi nima deb yuritilgan?

A) shod; B) o'n o'q el sardori; D) xoqon; E) yang'u.

5. Kaspiy dengizi tarkibiga kirgan xoqonlik markazi qayer bo'lgan?

A) O'tukan; B) Oltoy; D) Yettisuv; E) Sibir.

6. Qaysi darajaga faqat xoqon urug‘idan bo‘lganlargina ko‘tarilgan?

A) shod; B) o‘n o‘q el sardori; D) xoqon; **E) yang‘u.**

7. Turk xoqonligi janubi-g‘arbiy tomondan qaysi davlat bilan chegaradosh?

A) Suy imperiyasi; **B) Tibet;** D) Vizantiya; E) Toxarlar.

8. Turk xoqonligida davlat faqat urf-odatlar bilan emas, balki yozma qonunchilik hujjatlari bilan ham boshqarilgan. Shu davrda qayerda «Turk qonunnomasi» amalda bo‘lib, u ibodatxonada saqlangan?

A) Qo‘rg‘ontepa; B) Dushanbe; D) Farg‘ona; **E) Samarqand.**

9. Turkiylarda qadimda nima ilohiylashtirilgan?

A) ot; **B) bo‘ri;** D) to‘rt tomoni teng bo‘lgan salb – «adji»; E) kamon.

10. Tangrichilikda diniy ramz nima hisoblangan?

A) ot; B) bo‘ri; **D) to‘rt tomoni teng bo‘lgan salb – «adji»;** E) kamon.

11. Qaysi manbada Tangri yagona, azaliy, abadiy, hayot beruvchi, yaratuvchi, o‘ldiruvchi, hukm qiluvchi, yordam beruvchi, jazolovchi, bandaning duosini qabul qiluvchi, himoya qiluvchi, marhamatiga oluvchi, hamma narsani biluvchi, insonlarga ilm beruvchi va yo‘l ko‘rsatuvchi sifatlar bilan maqtalgan?

A) «Qovunchi madaniyati»ga oid hujjatda; B) «Turk qonunnomasi»da;
D) Urxun-Yenisey yodgorliklari bitiklarida; E) «Avesto»da.

12. Ajinatepa buddasi haykali hozirgi kunda qaysi shahardagi Milliy arxeologiya muzeyida saqlanadi?

A) Toshkent; **B) Dushanbe;** D) Farg‘ona; E) Samarqand.

13. Nima sababdan ko‘k rang ilohiy buyuklik ramzi hisoblangan?

A) suv hayot manbayi bo‘lgan. Suv ko‘k-moviy rang bo‘lganligi sabab;

B) osmonga (Tangri) va yer-suvga sig‘inishganligi uchun;

D) ilohiy ramzi bo‘ri tunda ko‘k osmonga qaraganligi uchun;

E) Tangri – bu moviy Osmon, buyuk Osmon sohibi. Uning doimiy makoni osmon bo‘lganligi uchun.

14. Turk xoqonligi sosoniylar hukmdori Xusrav I Anushervon bilan kimlarga qarshi o‘zaro harbiy ittifoq tuzdi?

A) Eftaliylar; B) Suy imperiyasi; D) Toxarlar; E) Vizantiya.

15. Ashina xonadoniga mansub shaxs davlatga asos solganda qaysi unvonni oladi?

A) Shod; B) O‘n o‘q el sardori; D) Xoqon; **E) Yang‘u xoqon.**

16. Xoqonlik kuchaygan paytida qaysi hududlarni o‘z ichiga oladi?

A) Oxota dengizidan Qrim yarimoroligacha, Sibirdan Hindistongacha;

B) Sariq dengizdan O‘rta dengizgacha;

D) Amudaryoning janubidan Kaspiy dengizigacha;

E) Fors qo‘ltig‘idan Amudaryogacha, Xotandan Orol dengizigacha.

17. Qaysi hujjatlarda oldi-sotdi, nikohni qayd etishga oid shartnomalar guvohlar o‘rtasida yozma shaklda tuzilib, muhr bilan tasdiqlanganligi haqida ma’lumot mavjud?

A) «Qovunchi madaniyati»ga oid hujjatda;

B) «Turk qonunnomasi»da;

D) Qadimgi Sug‘d hujjatlarida;

E) Urxun-Yenisey yodgorliklari bitiklarida.

18. «Qovunchi madaniyati» hozirgi qaysi hududda joylashgan?

A) Toshkent viloyati Yangiyo‘l shahri hududida;

B) Tojikistonda Mug‘ qal’asida;

D) Samarqand viloyati Afrosiyob xarobasi yaqinida;

E) Dushanbe shahrida.

19. Turklarning g‘arbga tomon yurishlariga kim boshchilik qiladi?

A) Bumin; **B) Istami;** D) Pero‘z; E) Xusrav I Anushervon.

20. G‘arbiy va Sharqiy Turk xoqonliklari tarkibiga kiruvchi hududlarga muvofiq javobni toping.

1. Janubiy Sibir; 2. Sirdaryo; 3. Amudaryo; 4. Urxun havzasi; 5. Yettisuv; 6. Shimoliy Xitoy; 7. Sharqiy Turkiston.

a) G‘arbiy xoqonlik; b) Sharqiy xoqonlik

A) a – 1, 2, 3, 7; b – 4, 5, 6;

B) a – 2, 3, 6; b –1, 4, 5, 7;

D) a – 2, 3, 5, 7; b – 1, 4, 6;

E) a – 2, 3, 6; b – 1, 4, 5.

TARIXIY HUJJAT

TURK XOQONLIGIDA ELCHILARNI QABUL QILISH MAROSIMI

Elchilarni qabul qilish va kuzatish masalasida Istami xoqon o‘rdusida bo‘lgan va uning tovus shaklidagi taxtda o‘tirishini yozgan vizantiyalik elchi Zemarx (568), o‘zining 10 ta hamrohi bilan birga To‘n yabg‘u-xoqon oldiga kelgan va xoqon qarorgohida mukammal tartib-intizom va qoidalar yo‘lga qo‘yilganiga guvoh bo‘lgan budda dini targ‘ibotchisi

Prabxakaramitra (626), To‘n yabg‘u-xoqonni Suyob yaqinidagi o‘rdusida to‘satdan uchratib qolgan va xoqon o‘rdusidan *«oltin naqshlar bilan bezatilgan katta va keng bo‘lib, ko‘zni qamashtirar edi»* deya hayratlangan xitoylik rohib Syuan Szan (629), Tuli xoqon (Kimin; 599–609 yoki 600–608)ning I-gin daryosi shimoli-sharqidagi o‘rdusiga tashrif buyurgan (607) Suy imperatori Yandi kabilarning ma’lumotlarini keltirish mumkin. Shuningdek, biroz keyin uyg‘ur xoqonining Oltin o‘rdusiga kelgan arab elchisi Tamim ibn Bahr (IX asr o‘rtalari)ning esdaligi ham qiziq.

Boshqa davlatlarda bo‘lganidek, elchilar davlat chegarasidayoq kutib olingan. Xususan, Vizantiya imperatori Yustin II ning elchilari turklar yeriga qadam bosishlari bilanoq qarshi olingan. 568-yili Vizantiya elchisi Zemarxning safar hisobotiga tayanib yozilgan vizantiyalik tarixchi Menandrning asarida ushbu elchilik tafsilotlari quyidagicha tasvirlangan:

«Zemarx Vizantiyadan Maniax va uning yo‘ldoshlari bilan birga yo‘lga chiqdi. Zemarxning ko‘p kunlik yo‘li sug‘diylarning manziliga yetib kelganidan keyin tugadi. Otlaridan tushishlari bilan [u yerda] shuning uchun qo‘yilgan ayrim turklar, ularga temir sotib olishni taklif qilishdi. O‘ylaymanki, ular buni o‘zlarida temir rudalari borligini ko‘rsatib qo‘yish uchun qilishgan, axir ularga temirdan bo‘lgan buyumlarni ishlatish qiyin, deb hisoblanadi-ku. Shunday qilib, ularning yerlarida temir borligi bilan maqtanishgani uchun ularni tushunish mumkin. [Turklar] qabilasidan bo‘lgan qandaydir boshqalari, o‘zlarini o‘zlari shunday atovchi va shular haqida gapiruvchilar, ya’ni ko‘z tegishi, yomon narsalarni haydovchilar, Zemarx qatorida boshqalarni ham va elchilikning butun buyumlarini udumga ko‘ra duolar bilan o‘rtaga olib o‘tishdi. Skif tilidagi qandaydir varvarcha so‘zlarni shivirlagancha, ladan daraxtining yosh novdalarini olovda quritib olishdi, qo‘ng‘iroqlarni jaranglatishdi va doiralarni urishdi. Buyumlar ustidan ladan daraxtining yonib turgan barglarini baqirishib va shu bilan birga jazavaga tushishib aylantirishar, xuddi yomonlikni quvayotgandek ko‘rinishardi. Baxtsizlikni daf qiluvchilar yovuz kuchlardan himoyalovchilar sanaladi. Shu tariqa butun baxtsizlikni haydab, ular muqaddas marosimni bajardik, deb o‘ylab Zemarxning o‘zini ham olov ustidan o‘tkazishdi. Shundan keyin ular xoqon tomonidan qo‘yilganlar nazorati ostida qator bo‘lib bu paytda Dizavul[7] yashab turgan [turklar] «Ektog‘», yunonlar esa «Oltin tog‘» deb atovchi toqqa borishdi».

Yuqorida elchilarning yonib turgan olov bilan poklanishgani, to‘g‘rirog‘i, elchilar va ularning buyumlari udumga ko‘ra «tozalangani» aks ettirilgan. Bu jarayon uzoq davom etgan ko‘rinadi, chunki uni o‘tkazgan kishilar haddan tashqari jazavaga tushishgan.

Qadimgi turklarda hukmdor va uning hokimiyati bilan bog‘liq barcha narsalar ilohiy sanalib, ayniqsa, Xun imperiyasidan boshlab turkiy va turk-mo‘g‘ul davlatlarida

[7] Turkcha yabg‘u unvonining yunonchada buzilgan shakli. Bu yerda Istami yabg‘u ko‘zda tutilmoqda.

hokimiyatning muhim instituti deb bilingan *ordu (orda)* alohida o‘rin tutardi. Aslida «poytaxt» tushunchasi uchun qo‘llanilgan *o‘rdu* termini tom ma’noda «hokimiyat markazi», «hukmdor-xoqon o‘tiradigan maxsus joy», «qarorgoh» yoki Rashiduddinning tili bilan aytganda, «ko‘chmanchilarning siyosiy va davlat markazi» sanalgan.

Syuan Szan o‘z esdaliklarida poytaxt Suyob yaqinida turk xoqonlarining «Oltin o‘rdu»-si bo‘lganini qayd etgan. Keyinroq turgash xoqoni Uch-elig (xit. Uchjile; 699–706) G‘arbiy turk xoqoni *Xuselo* (Xusrav; 690–699)ni Xitoyga qochishga majbur qilgach, Suyabni egallab, o‘z o‘rdusini shu yerga ko‘chiradi va uni *Ulug‘ o‘rdu* (xit. Suy-ye-chuan) deb ataydi[8]. Xitoy manbalarida Oltoyda ham turk xoqonlarining «Oltin qarorgohi» (xit. Szin-ya) bo‘lganligi eslatiladi. Keyinroq uyg‘ur xoqonlari ham «Oltin (arab. *min al-dhahab*) chodir»-da yashashgan va u «Oltin O‘rdu» deb atalgan. Mo‘g‘ul xoni O‘qtoyning imperial lageri esa mo‘g‘ulcha *Sïra Ordu* – «Sariq O‘rdu» («Oltin O‘rdu» bo‘lgan) deb atalgan.

Oltin sariq rang hukmdorlik belgisi, hokimiyatning ma’naviy ramzi sanalgani uchun[9] ko‘chma ma’noda hukmdor qarorgohiga qarata qo‘llanilgan. Chin ma’noda esa xoqon qarorgohi oltin suvi yugurtilgan o‘ta hashamdor va ko‘zni qamashtiruvchi shohona buyumlar, qimmatbaho bezaklar bilan to‘lib-toshganligidan edi. Shu bois, manbalarda ba’zan «Oltin chodir» yoki «Oltin o‘rdu» deb, ba’zan «Ulug‘ oltin o‘rdu» deb tilga olingan. Xususan, Janubiy Sun elchisi Pen Da-ya (1233) shunday yozadi:

«... U [mo‘g‘ul hukmdori]ning oltin chodiriga kelsak, ([ichki] ustunlari oltindan qilingan. Shuning uchun [chodir] oltin deb ataladi), unda [u bilan birga] barcha noqonuniy malikalarning chodirlari ham [boshqa vassallarining] manzilgohlari bilan birga o‘rnatiladi, faqat bu «Ulug‘ O‘rdu» deb nomlanadi».

Hulagular davri tarixchisi Rashiduddinning yozishicha, marvarid va zumrad toshlar bilan bezatilgan xonning oltin taxti uning «Oltin O‘rdusi» ichida joylashgani uchun qarorgoh «Oltin o‘rdu» (fors. O‘rdu-i zarrin) deb nomlangan. Turk va mo‘g‘ul imperiyalarida ostonasi va ustunlari oltin bilan qoplangan ulkan «Ulug‘ Oltin o‘rdu» (fors. O‘rdu-i zarrini buzurg) to‘y, qurultoylar paytida hamda elchilarni kutib olishda xoqon yoki xon buyrug‘i bilan tiklangan. «Oltin o‘rdu» yoki «Oltin chodir» ham chorvadorlarda hokimiyat belgilaridan biri bo‘lish bilan birga imperiyaning o‘ziga xos dabdaba va hashamatini ko‘rsatish usuli sanalgan.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, xoqon qarorgohi yoki o‘rdusi tog‘ yonbag‘rida joy-

[8] Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах... Т. 1. – С. 296; Chavannes E. Documents sur les... – P. 79; Зуев Ю. А. Ранние тюрки... – С. 148-150.

[9] Mutaxassislar fikricha, oltin/sariq rangga maxsus maqom berilishi Xitoyning ranglar tizimidan o‘zlashgan. Mo‘g‘ullarning Jo‘ji ulusi ham keyinroq Oltin O‘rda (rus manbalarida Zolotaya Orda) deb atalishi Xitoyning ranglar tizimidan o‘zlashgan oltinning markazdaligi bilan bog‘liq (xuddi Shira Ordo kabi). Bu rang ko‘proq boshqaruvchi xonadonni ifodalovchi «oliy/imperial rang» bo‘lish bilan birga turkiylarda Xitoyda bo‘lganidek «markaz» (ba’zan «shimol»)ni bildirgan.

lashgan bo‘lib, xoqonning hashamatli o‘tog‘i va amaldorlarning ko‘plab chodir uylaridan iborat o‘ziga xos «shaharcha» hisoblangan. Zemarx Istemining alohida-alohida uchta chodiri bo‘lganligini aytgan. Menandrning yozishicha, Istemi vizantiyalik elchilarga qolgan ikkita chodirni bergan. Ularning ikkisi ham alohida turli joylarda bo‘lib, ipak, oltin va kumush bilan birdek yaxshi bezatilgan edi. Bu uchala turar joyni yunonchada *ένδον σκηνης* («chodirning ichi»), *καλύβη* («chodir yoki kulbaning o‘zi»), *διαίτη* («turarjoy») deb atalgan; bundan chodir va ko‘chma uylarda yashovchi tipik ko‘chmanchi hukmdorga xos tasavvur paydo bo‘ladi.

O‘rdu turklarning shaharchilik madaniyatida ham o‘ziga xos o‘rin tutgan. Chunki o‘rdular bo‘lajak poytaxt shaharlar uchun asos bo‘lgan, buni *O‘rdu-baliq, O‘rdu-kand* kabi toponimlar ham tasdiqlaydi. Xususan, Mahmud Qoshg‘ariy o‘z «Devoni»da o‘rdu terminini arab tiliga *qasaba* — «poytaxt» shaklida o‘girganligi ham buning yorqin misolidir.

«Oltin o‘rdu»ning ichida elchilar qanday kutib olingani haqida yana Menandrning tafsilotlariga qaytsak.

«Oltin tog‘ vodiysida, Zemarx kelganidan keyin, uni darrov chodir o‘rtasidagi oltin o‘rindiqdagi Dizavul (Istemi)ga tanishtirishdi. Bu o‘rindiqni kerak bo‘lganida ot tortishi mumkin edi. [Zemarx] varvar bilan o‘z udumiga ko‘ra salomlashgach, sovg‘alarni o‘z oldida ushlab turgancha, ularni sovg‘alarga kim mas’ul bo‘lsa, o‘shanga topshirdi. Shu bilan birga Zemarx aytdi: *«Bizning hukmdor, ulug‘ vasilevs, meni xizmatlarim uchun elchilik (missiyasi)ga tayinlagan, senga, o, ko‘plab xalqlarning hukmdori, sog‘liq, baxt va xotirjamlik, o‘z romeylaring (fuqarolaring demoqchi)ga quvonch va iltifot ko‘rsatishingni tilaydi. O‘z dushmanlaring ustidan har doim kuchli bo‘lgin va g‘animlarni yutgin. Do‘stlik qonunlarini buzuvchi dushmanlik yo‘q bo‘lsin. Turklar qabilasi, shuningdek, chegaradan tashqaridagi turklarga bo‘ysunuvchi boshqalar ham men uchun foydali va afzaldir»*. Zemarx shunday gapirdi, Dizavul ham tegishlicha so‘zlar bilan salomlashdi».

Demak, turk xoqonlari elchilarni oltin taxtda o‘tirgan holda qabul qilgan. Elchi qabul uchun joy – *o‘tog‘ga* maxsus taklifdan so‘ng kirgan va bo‘sag‘ada turgan holda xoqon bilan salomlashgan. Salomlashish jarayonining o‘zi ketma-ket bajariluvchi uchta qismdan iborat edi: *egilib ta’zim qilish*, *salomlashish* va *diplomatik sovg‘a-salomlarni topshirish*.

Aftidan, egilib ta’zim qilishda tiz cho‘kib ta’zim qilingan ko‘rinadi, chunki suryoniy manbalarda yunonlar turk xoqoni oldida mukka tushib, yuz tuban «yiqilishgani», to‘g‘rirog‘i, yerga tiz cho‘kib ta’zim qilishgani haqida eslatilgan. Shuningdek, xoqonning har bir savoliga javob berayotganlarida ham elchilar bosh egib ta’zim qilishgan. Xitoy elchilaridan birining El xoqon (xit. Xyeli; 620–630) qarshisida tiz cho‘kib ta’zim qilishdan bosh tortishi, uning xoqon o‘rdusida ushlab qolinishiga sabab bo‘lgan. Umuman,

xoqon xohishiga ko‘ra, elchilar yoki jo‘natib yuborilgan, yoki ushlab qolingan. Shuningdek, Bahrom Chubin va Xusrav Parvizning elchisi turk xoqoni bilan «xuddi shahanshohlar» yoki Eron shohlari bilan salomlashishgandek so‘rashishgan.

Xitoy yilnomalarida yozilishicha, Sharqiy qanot hukmdori Ishbara xoqon kasalligidan o‘rnidan tura olmasligi uchun uzr so‘rab, Suy sulolasi elchisi – kichik vazir Yuy Kinszeni o‘tirgan holda qabul qiladi. Shuningdek, xoqon katta amakisidan boshqa hech kimning oldida ta’zim qilmasligini ham qo‘shimcha qilib qo‘yadi. Ammo bunga javoban Yuy Kinsze xoqonga nazokat bilan tanbeh beradi. Malika Syangin esa Yuy Kinszega qo‘li bilan xoqon tabiatiga ko‘ra bo‘ri, shuning uchun bahslashish va urushishni juda yaxshi ko‘radi, deb ishora qiladi. Chansun Shen nomli xitoylik amaldor xoqonni ko‘ndirishga harakat qiladi. Shundan so‘ng Ishbara kulimsirab, o‘rnidan turadi va egilib ta’zim qilgancha, tiz cho‘kib davlat muhri bosilgan yorliqni oladi va boshiga tekizadi (qo‘yadi). Biroq shunda kutilmaganda katta sarosima boshlanadi va xoqonning itoatkorlari to‘dalashib ho‘ngrab yig‘lab yuborishadi.

«Sovg‘a-salomlar almashinuvi» deb nomlanuvchi jarayon ham har qanday diplomatik muzokaralarning juda muhim tarkibiy qismi sanalgan. Elchilar ularni qabul qiluvchilar uchun sovg‘a-salom va hadyalar olib kelishgan hamda o‘z o‘rnida elchilarga ham turli sovg‘a-salomlar berilgan. Elchi yuborayotgan hukmdor bordi-yu uni qabul qilayotgan tomonning yordami va qo‘llab-quvvatlashiga ehtiyoj sezsa, u holda elchini qimmatbaho sovg‘a-salomlar bilan jo‘natgan. Lekin uning aksi ham bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, elchilar ham o‘z mamlakatiga quruq qo‘l bilan qaytishmagan, hatto, ayrim hollarda elchilarning o‘zlari ham alohida sovg‘alar bilan siylangan. Masalan, 569-yili Vizantiya imperatorining elchisi Zemarxga Istemi xoqon... asira qizni tortiq qilgan. Yoki Sharqiy turk xoqoni tomonidan berilgan sovg‘alar qatoriga minglab otlardan iborat uyur ham kirgan.

Sovg‘alarning qiymati va oz-ko‘pligi siyosiy vaziyat va tomonlarning kuch-qudrati va mavqeyidan kelib chiqqan, albatta. Xususan, Vizantiya imperatori Yustin II ham turk xoqoniga atab oltin, kumush, marvaridan yasalgan badiiy yuksak hunarmandchilik buyumlari va hashamatli kiyim-kechaklar yuborgan edi. Forslar 573-yili yunon shaharlaridan birini egallagach, 2000 ta mukammal go‘zallikka ega qizlarni tanlab olib, ularni qimmatbaho kiyimlar va taqinchoqlar bilan yasantirib, Istemi xoqonga tortiq qilishgan.

Shuningdek, Syuan Szan bilan birga To‘n yabg‘u-xoqon huzuriga borgan Gaochan (Turfon) hukmdori elchilari xoqonga o‘z hukmdorlari yuborgan 500 to‘p ipak gazlamani olib yo‘lga chiqqani haqidagi ma’lumot yillik o‘lpon bilan aloqador bo‘lishi mumkin.

Sovg‘a-salomlar almashinuvi tugagach, elchilar o‘z hukmdorlarining nomalari va davlat qog‘ozlarini topshirishgan. Ular o‘qib bo‘linmagunicha, elchilar tik turishgan. Elchi

faqat xoqon ruxsati bilan va u ko‘rsatgan joygagina o‘tirishi mumkin edi. Elchilarning xoqonga qanchalik yaqin o‘tirishi o‘z davlatlarining mavqeyi va u bilan xoqonlikning munosabatidan kelib chiqqan. Masalan, vizantiyalik elchilarning xoqon taxtiga forslarga qaraganda yaqinroq o‘tirishlari Eron elchilarining ranjishiga sabab bo‘lgan.

Diplomatik yozishmalardan tashqari elchilar og‘zaki xabarlarni ham yetkazishgan. Hatto, yozuv ancha yaxshi rivojlangan ayrim xalqlarda ham og‘zaki xabar juda keng yoyilgan edi. Og‘zaki diplomatik so‘zlashuv, ayniqsa, yashirin topshiriqlarni bajarayotganda muhim ustunlikka ega edi. Bizgacha yetib kelgan elchilik nomalarining mazmunidan elchilar o‘z hukmdorlarining topshiriqlarini mazmunini saqlagan holda o‘zboshimchalik bilan yoki erkin yetkazishmagan. Aksincha, uni so‘zma-so‘z aytib berishgani va birinchi shaxs nomidan gapirishgani yozma manbalarda saqlanib qolgan.

Bu o‘rinda elchilar yetkazishi kerak bo‘lgan murojaatning shakli, ohangi va uslubiga va uning javobiga ham ko‘p narsa, hatto, muzokaralarning yakuni bog‘liq bo‘lgan. Shuning uchun, muzokaralar paytida elchilarning sukut saqlash qonuni bo‘lgan. Masalan, Istemi yabg‘u-xoqon Sosoniylar elchisini qabul qilganida unga qattiq ta’na qilgan. Shunda *«Fors elchisi, ularda dasturxon atrofida kuzatiladigan sukut saqlash qonunini unutib, ravon, tutilmay va qo‘rqmay Dizavulning ta’nalarini rad etdi»*.

Istemi xoqon sug‘diy savdogar Maniaxni «skif xati» (sug‘diy yoki turk-run bo‘lishi kerak) bilan Vizantiyaga elchi qilib yuborgan. O‘z navbatida turk xoqonlari Vizantiya imperatorlaridan xat olib turishgan. Xitoy rohibi Syuan Szan To‘n yabg‘u-xoqon oldiga kelganida u rohib keltirgan xatlarini qabul qilgani haqida ma’lumotlar uchraydi: «Shundan ko‘p o‘tmay, ular Xan (Xitoy) va Gaochandan kelgan elchilarning kirishini so‘rashdi, ular davlat qog‘ozlari va maktublarni berishdi. Xoqonning o‘zi qog‘oz va xatlarga ko‘z yugurtirib chiqqach, juda quvonib, elchilarga o‘tirishga izn berdi».

Elchilarni qabul qilishning muhim qismlaridan yana biri – ziyofat yoki mehmondorchilik bo‘lib, elchilarni mehmon qilishdan iborat edi. Odatda ziyofat uchun dasturxon chodir ichiga yerga solingan. Menandrning yozishicha, salomlashish tugagach, elchilar uchun xuddi o‘sha chodirda kun bo‘yi dabdabali ziyofat uyushtiriladi. Ertasi kuni ham elchilar uchun boshqa chodirda yana dasturxon yoziladi. Dasturxondagi idish-tovoqlarning barchasi oltindan bo‘lgan. Vizantiya elchilarining e’tiborini tortgan yana bir narsa – hashamatli kutib olish marosimida «qadahlarni to‘ldirib yana bir varvarcha shirin vino (*barbarikoa* [...] *γλεύκους*) turini ichishlari» edi. Vino esa vizantiyaliklarnikiga o‘xshab uzumdan siqiladigan emas, balki sharbat qandaydir mahalliy, varvarcha kelib chiqishga ega, yangi shirin vinoga o‘xshaydi. Tadqiqotchi R. Bloklining fikricha, bu ichimlik chorvadorlarning mashhur qimizi bo‘lmay

(chunki u nordon bo‘ladi), balki xitoycha turdagi guruchdan tayyorlangan shirin vino bo‘lishi kerak. Qolaversa, Markaziy Osiyoda o‘rganilayotgan davrdan ancha oldin ham uzumdan vino tayyorlanganligi to‘g‘risida ma’lumotlar bor.

Zemarxdan so‘ng turk xoqoni o‘rdusida mehmon bo‘lgan rohib Syuan Szan ham o‘z xotiralarida turklarning dabdabali ziyofatini quyidagicha chiroyli ta’riflagan:

«Xoqon vino qo‘yishga va musiqani boshlashga buyruq berdi. Shundan so‘ng xoqon, uning barcha bo‘ysunuvchi kishilari va elchilar vino icha boshlashdi, lekin rohibga ichish uchun boshqa nimadir – uzum sharbati topildi. Keyin hamma kosa va qadahlarni to‘ldirib va o‘zaro ularni almashib bir-birini mehmon qila boshlashdi. Butun bu vaqt davomida temir jarangi jo‘rligida chet el musiqasi[10] taralib turdi. Garchi bu musiqa yovvoyilarniki bo‘lsa-da, u ham quloqqa yoqardi, yurak va xayollarni quvontirardi. Bir qancha vaqtdan so‘ng yangi qo‘y va buzoq go‘shtidan qaynatib pishirilgan ovqat olib kelindi va mehmonlarga mo‘l-ko‘l qilib qo‘yildi. Lekin rohibga guruchli nondan, suzmali (tvorog) obi non, yovvoyi va katakdan olingan asal, uzumdan iborat yengil ovqat tayyorlangan edi. Ovqatlanish tugagach, yana uzum sharbati olib kelindi va shundan keyingina rohibdan budda dinining aqidalari to‘g‘risida so‘zlab berishini so‘rashdi».

Turk xoqonligidagi elchi shaxsi va diplomatik marosimga xos ma’lumotlar asosida xoqonlik xalqaro munosabatlarda o‘z davri uchun yuksak darajadagi usullarni qo‘llaganini haqida xulosa qilish mumkin. Buni ularning Xitoy, Vizantiya va Eron kabi qo‘shni saltanatlarning diplomatik marosimlari bilan tenglasha olgani, ulardan kelgan elchilarni har sohada hayratga solgani, o‘z davrining xalqaro diplomatik me’yorlariga to‘la javob bergani, shu bilan birga, uzoq o‘tmishga borib taqaluvchi dasht an’analarini ham mustahkam saqlab qolganida ko‘rish mumkin.

Munira Xatamova maqolasidan.



[10] Bu yerda musiqa xitoylik rohib uchun yot bo‘lganligidan shunday deyilgan.

G‘ARBIY TURK XOQONLIGI

Texnologik xarita (1-dars)

Namuna sifatida

Mavzu: «G‘arbiy Turk xoqonligi»

Kalit so‘zlar: *Turk, xoqonlik, yabg‘u, noib, siyosiy ittifoq, viloyat, Sheri kishvar, Turk-runiy, Urxun-Yenisey yozuvi, Kultegin bitiklari…*

Soatlar soni: 1 soat

G‘arbiy xoqonlik ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan Sharqiy xoqonlikdan mutlaqo ajralib turardi. G‘arbiy xoqonlik aholisining kattagina qismi o‘troq dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan mashg‘ul edi. VII asrning birinchi choragiga kelib G‘arbiy xoqonlik taraqqiy etadi. Xoqon To‘ng yabg‘u hukmronlik qilgan davrda boshqaruv tartiblari isloh qilinadi. Viloyat hokimlarini xoqonlik ma’muriyati bilan bevosita bog‘lash va ularning ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida mahalliy hukmdorlarga xoqonlikning «yabg‘u» unvoni beriladi.

Xoqonlik tarkibidagi ko‘plab qabila va elatlarni birlashtirish va boshqarish, ulardan ma’lum miqdordagi soliqlar va o‘lponlarni o‘z vaqtida yig‘ib olish maqsadida xoqonlikda maxsus ma’muriy va harbiy-siyosiy boshqaruv tizimi joriy etilgan edi. Xoqon o‘z noiblari – tudunlar yordamida mustaqil hokimliklar ustidan nazoratni kuchaytirgan. Xoqonlik o‘z ehtiyoji va hayotiy zaruratidan kelib chiqib, harbiy harakatlarda «o‘nlik» tizimni yaratish, vassal hokimliklar hududida o‘z qarorgohlarini barpo etish va davlat boshqaruvini takomillashtirish yo‘lida ijobiy islohotlar amalga oshirgan.

Turk xoqonligi davrida Sug‘d hududlariga hozirgi Panjikentdan Karmanagacha bo‘lgan yerlar kirgan. Buxoro esa, VII asrdan boshlab mustaqil mulklar ittifoqidan iborat bo‘lgan. Sug‘dning mahalliy hokimlari ayrim vaqtlarda Choch va Xorazmning mustaqil hukmdorlari bilan birlashar edilar. Bunday yirik siyosiy birlashmalar ma’lum muddatlarda yirik shaharlarda o‘z qurultoylarini o‘tkazib turganlar. Farg‘ona Sug‘d siyosiy ittifoqiga kirmagan bo‘lib, u alohida mustaqil davlat edi. Turk xoqonligi tarkibidagi turli xalqlarning yashash tarzi ham turlicha edi. Ko‘chmanchi chorvador turklarda jamoatchilik an’analari kuchli bo‘lgan. Ko‘chmanchilarning asosiy mashg‘uloti chorvachilik edi. Shahar aholisi hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug‘ullangan. Hatto hunarmandchilik mahsulotlarini yasash uchun Farg‘ona va Sug‘dda oltin, temir, mis, lloqda qo‘rg‘oshin, kumush va oltin, Shahrisabzdan tosh va tuz qazib olinardi.



Savdogarlar orasida Sug‘d savdogarlarining mavqeyi baland bo‘lgan. VII asrning birinchi yarmida G‘arbiy Turk xoqonligi bilan Xitoy o‘rtasida, ayniqsa, iqtisodiy aloqalar faollashdi. Bu davrda Xitoyga to‘qqiz marotaba savdo elchiligi yuboriladi. Birgina 627-yilning o‘zida Buxoro, Samarqand, Ishtixon va Ustrushona (Jizzax va O‘ratepa viloyatlari)dan birlashgan juda katta savdo karvoni Xitoyga yetib boradi.

Bu davrda ham yurtimizda moddiy va ma’naviy madaniyatning yangidan yangi betakror namunalari yaratildi. Turli olimlar, mutaxassislar bahsiga sabab bo‘lgan Turk-runiy, Urxun-Yenisey yozuvi, Kultegin bitiklari, Bilga xoqon yodnomasi va shu singari noyob topilmalar turk yozma madaniyatining qadimiyligi va rang-barangligidan guvohlik beradi. Turon zaminida turkiy yozuv bilan bir qatorda Sug‘d va Xorazm yozuvlari ham keng qo‘llanilgan.

Sug‘d yozuvi chapdan o‘ngga qarab yozilgan. Shaharlarda Sug‘d-turk ikki tilliligi rasmiy odat bo‘lganligi haqida Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘otit-turk» (XI asr) asarida ham qayd etib o‘tilgan. Bu yozuvlarda ulug‘ ajdodlarimizning katta tarixi, boy madaniyatiga oid ma’lumotlar aks etgan.

Bugungi kunda milliy bayramimiz bo‘lgan Navro‘z bayrami ham o‘sha davrlarda keng nishonlangan. Navro‘zni nishonlash albatta, yakka kurash marosimi bilan o‘tgan. Turk xoqonligida ma’lum darajada ishlab chiqilgan jinoiy qonunchilikka amal qilingan. Sodir etilgan jinoyat uchun jazoning asosiy turlari – qatl etish, odam a’zolarini kesib tashlash, zararni to‘lash, mol-mulk tarzida tovon to‘lashdan iborat edi. Misol uchun, manbalarning ma’lumot berishicha, o‘lim jazosi davlatga qarshi jinoyatlar uchun (isyon ko‘tarish, sotqinlik) hamda nohaq yoki qasddan odam o‘ldirganlik uchun berilgan. O‘g‘rilik qilgan yoki buzuqlik qilgan shaxsning qo‘li yoki oyog‘i kesilgan. Shaxsga qarshi qaratilgan boshqa jinoyatlar uchun yetkazilgan zararni o‘n barobar qilib to‘lash, jarohat yetkazgani yoxud mayib qilgani uchun mol-mulk tarzida tovon to‘lash shaklida jazo amalga oshirilardi.

O‘QUV JARAYONINI AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYASI

Metod: Savol-javob, kichik guruhlarda ishlash, «Aqliy hujum» metodi

1. Bosqich: tinglovchilarni faollashtirish, ehtiyojni va muammolarni aniqlash.

2. Ehtiyojlarni to‘ldirish, bahs-munozara, me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan ishlash. Mashg‘ulotni tinglovchilarni qiziqtirgan savol-javoblar asosida munozara shaklida ham tashkil etish mumkin. Bunda jonli fikr almashuvlari ko‘zda tutiladi.

Forma: savol-javob, bahs-munozara, kichik guruhlarda ishlash, jamoa bilan fikr almashtirish – suhbat.

Vositalar: (texnik va didaktik): tarqatma materiallar – ma’ruza asosida tayyorlangan prezentatsiya slaydlari, markerlar, doska, kompyuter, proyektor.

Nazorat: O‘z-o‘zini nazorat qilish, ijodiy faoliyat, og‘zaki nazorat orqali

Baholash: DTS talablari asosida.

Maqsadlar:

Ta’limiy:

Malaka talablari

Tarixiy voqelikni tushunish va uni mantiqiy izchillikda tushuntira olish kompetensiyasining quyidagi elementlarini shakllantirish:

1. G‘arbiy Turk xoqonligining tarixiy-geografik makoni haqida ma’lumot bera olish.

2. Tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash kompetensiyasining quyidagi elementlarini shakllantirish:

→ G‘arbiy Turk xoqonligining tarixiy jarayon va voqealari haqida ma’lumot berishda qo‘shimcha adabiyot va manbalardan foydalana olish;

Vazifalar:

Faollashtirish uchun savollar

1. Turk xoqonligining ikkiga bo‘linishi sabablarini ayting. Sizningcha, buning oldini olish mumkin bo‘lganmi?

2. Davlat va aholining bo‘linishi qanday oqibatlarga olib keladi, deb o‘ylaysiz?

3. Yurtimiz hududi qaysi Turk xoqonligi tarkibida bo‘lgan?

Ehtiyojni aniqlash uchun savollar

1. Savdo-sotiq bilan shug‘ullanish uchun qanday bilimlar kerak bo‘ladi?

Mazmunga yo‘naltiruvchi savollar.

Xoqonlikda kulolchilik, to‘qimachilik, sarrojlik, misgarlik, chilangarlik, temirchilik va zargarlik taraqqiy etgan. Hunarmandchilikning ushbu sohalari taraqqiy etishi uchun qanday ko‘nikmalar kerak bo‘ladi?

→ G‘arbiy Turk xoqonligi haqidagi manbalar, tarixiy-badiiy asarlardan foydalanishda va ularga munosabat bildirishda axborot madaniyatiga rioya qiladi. **Tarbiyaviy**: *O‘quvchilarda* *Matnni hikoya qilib berish, savollar tuza olish, tinglash va fikr bildirish madaniyatini shakllantirish, atamalar mazmunini bilish va tushuntira olish, jumladan, yabg‘u, noib, siyosiy ittifoq va boshqalarning lug‘aviy ma’nolarini tushuntira oladi.* **Rivojlantiruvchi:** Turon zaminidagi ajdodlarimizning buyuk tarixi haqida ma’lumotlarga ega bo‘ladi.	**Mazmunni ochib berishga yo‘naltirgan savollar** 1. Mamlakatimizda bugungi kunda qanday mevalar yetishtiriladi? Qanday donli ekinlarni bilasiz? 2. Berilgan rasmlar asosida xoqonlikda odamlarning mashg‘ulotlari haqida hikoya tuzing. Rasmlardagi har bir detalga e’tibor qarating. Bugungi kunda o‘sha davr odamlari shug‘ullangan qaysi kasblar davom etmoqda va qaysilari yanada takomillashgan? 3. Bugungi kunda Navro‘z bayramida biz qanday milliy o‘yinlarni tashkillashtiramiz? 4. Turonga qo‘shni hududlar va Yevropa xalqlarida ta’lim olish jarayoni qanday shakllangan edi? 5. Nima sababdan sug‘dlar doimo o‘z bolalari kaftiga tanga qo‘yib, tiliga asal surtish odatiga amal qilganlar? **Mavzuni mustahkamlash va uyga vazifa uchun savol va topshiriqlar.** 1. Siz bilgan yana qaysi davlatlarda jinoyat va jazo tizimiga oid qonun hujjatlari mavjud edi? Ularning umumiy va farqli jihatlari bormi? 2. Bugungi kunda Afrosiyob nomi bilan ataladigan qanday joylarni va ma’lumotlarni bilasiz? 3. Samarqand hududi qadimgi Yunon va Rim manbalarida qanday nomlangan edi? 4. Turk xoqonligining mavqeyi jahondagi qaysi davlatlarning mavqeyi bilan barobar edi?
	Bu davrda dunyoning boshqa mintaqalaridagi davlatlarning yashash tarzi va davlatchilik tuzumi qanday edi? Jamoangiz bilan Jahon tarixi darsidan olgan bilimlaringiz va qo‘shimcha ma’lumotlar asosida taqdimot tayyorlashga harakat qiling. O‘zingizga yoqqan davlat haqida ko‘proq ma’lumot bering.

Kutilayotgan natijalar:	
Dars (ma’ruza) yakuniga ko‘ra o‘quvchi faoliyati G‘arbiy Turk xoqonligining tarixiy-geografik makoni haqida ma’lumot bera oladi. G‘arbiy Turk xoqonligining tarixiy jarayon va voqealari haqida ma’lumot berishda qo‘shimcha adabiyot va manbalardan foydalana oladi. G‘arbiy Turk xoqonligi haqida tarixiy moddiy va ma’naviy manbalardan tarixiy-badiiy asarlar va boshqa ma’lumotlardan foydalanishda va ularga munosabat bildirishda ax-borot madaniyatiga rioya qiladi.	
Dars (ma’ruza) yakunida o‘qituvchi: G‘arbiy Turk xoqonligi haqida ma’lumot beradi.	**Tinglovchi faoliyati** Tayanch va fanga oid, hayotiy kompeten-siyalar shakllanadi.

Dars jarayoni va uning bosqichlari:			
Ishning nomi	**Bajariladigan ish mazmuni**	**Metod**	**Vaqt**
1-bosqich: **Tashkiliy qism.**	Dars xonasining darsga tayyorligi ho-lati, o‘quvchilar davomati tekshiriladi.		2 daq.
2-bosqich: **Refleksiya.** **Ehtiyojlarni aniqlash**	O‘quvchilarni faollashtirish, ehtiyoj va muammolarni aniqlash. Darslik bilan ishlash. Berilgan savollarga javob olish.	Savol-javob, «Aqliy hu-jum» metodi	8 daq.
3-bosqich: **Yangi mavzuning bayoni**	O‘qituvchi yangi mavzuning mazmunini o‘quvchilarga yetkazadi va guruhlarda ish olib boradi. Darslik bilan ishlash.	Kichik ma’ruza	15 daq.
4-bosqich: **Mustahkamlash**	Mavzuni mustahkamlash uchun tinglovchilarga qo‘shimcha savollar beriladi. Ijodiy faoliyat.	Savol-javob, «Aqliy hu-jum» metodi	10 daq.
5-bosqich: **Baholash.** **Dars yakuni**	Dars yakunida faol qatnashgan o‘quv-chilar rag‘batlantiriladi. O‘qituvchi mavzuga qisqacha xulosa yasaydi va darsni yakunlaydi.	DTS talablari asosida baholash	5 daq.

6-bosqich: **Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar** **(uyga vazifa)**	Darslikning 32-38-betdagi «Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar» ruknida berilgan vazifalar.	Strategiyalar tahlili	5 daq.

«G‘ARBIY TURK XOQONLIGI» mavzusi (2-dars)

Mavzu: «G‘arbiy Turk xoqonligi»

(Darslik 32-38 betlar)

Kalit so‘zlar: *Turk, xoqonlik, yabg‘u, noib, siyosiy ittifoq, viloyat, Sheri kishvar, Turk-runiy, Urxun-Yenisey yozuvi, Kultegin bitiklari...*

Soatlar soni: 1 soat

Guruhlar uchun topshiriq

G‘arbiy Turk xoqonligi hududini yozuvsiz xaritaga tushiring.

Bu mavzuda o‘quvchilarni baholashda ularning quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga e’tibor qaratish lozim:

- Turk xoqonligining bo‘linib ketish sabablari haqida fikr bildira olishi;
- bizning hududimiz qaysi xoqonlik tarkibida bo‘lganligi haqida ma’lumot bera olishi va xaritadan ko‘rsata olishi;
- G‘arbiy Turk xoqonligining tariximizdagi o‘rni, ahamiyati haqida tahlil qila olishi;
- G‘arbiy Turk xoqonligi aholisining yashash tarzi, urf-odatlari, qonunchilik tizimi haqida ma’lumot bera olishi;
- boshqaruv tizimi va bu jarayonda mahalliy hokimliklarning o‘rni haqida tahlil qila oladi, ularni boshqa hududlar bilan solishtira olishi;
- madaniy hayoti, shaharlari, iqtisodiy sohasida amalga oshirilgan ishlar haqida ma’lumot bera olishi;
- Turk xoqonligida mavjud bo‘lgan shaharlarining bugungi ko‘rinishi va joylashuvi haqida ma’lumotlar ayta olishi;
- jamoaga bo‘lingan holda bu davrda dunyoning boshqa mintaqalaridagi davlatlarning yashash tarzi va davlatchilik tuzumi bilan Turk xoqonligining nufuzini solishtirib, tahlil qila olishi va xulosalarni bayon qila olishi;
- mavzu yuzasidan berilgan rasmlar bilan ishlay olishi va izohlay olishi;
- mavzu yuzasidan berilgan savollarga mustaqil javob bera olishi va munosabat bildira olishi, xulosalarini ayta olishi.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ
TEST

1. G‘arbiy Turk xoqonligida qarorgoh vazifasini bajargan shaharning hozirgi kundagi joylashuvi bilan to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni toping.

1. Ek-tog‘	a) Turfan
2. Suyab	b) Oq Bishim
3. Beshbaliq	d) Sharqiy Turkiston

A) 1-d, 2-b, 3-a;
B) 1-a, 2-b, 3-d;
D) 1-d, 2-a, 3-b;
E) 1-b, 2-a, 3-d.

2. Buxoroda asos solingan hududlar qaysi javobda to‘g‘ri xronologik ketma-ketlikda joylashtirilgan?

A) Varaxsha,Iskajkat, Sharg‘, Romtin, Poykand;
B) Iskajkat, Sharg‘, Romtin, Poykand, Varaxsha;
D) Poykand, Iskajkat, Sharg‘, Romtin,Varaxsha;
E) Poykand,Varashxa, Iskajkat, Sharg‘ va Romtin.

3. Shaharlarda Sug‘d-turk ikki tilliligi rasmiy odat bo‘lganligi haqida nimada qayd etib o‘tilgan?

A) Urxun-Yenisey bitiklarida;
B) Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘otit-turk» asarida;
D) Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarida;
E) Kultegin va Bilgaxoqon bitiklarida.

4. Ushbu tanga muomalada bo‘lgan davlat haqida to‘g‘ri fikrni aniqlang.



A) 627-yili juda katta savdo karvoni Vizantiyaga yetib boradi.
B) Bolalar 5–6 yoshga to‘lishi bilan uni bilim olishga yo‘llab, dastavval, xat-savod va hisob-kitobni o‘rganishga jalb etganlar.
D) VII asrning birinchi yarmiga kelib taraqqiy etadi.
E) Davlat boshqaruvida xoqonlikning barcha bo‘g‘inlarida lavozim egalari harbiy unvonga ega bo‘lishi shart hisoblangan.

5. Xoqonlikning «yabg‘u» unvoni mahalliy hukmdorlarga nima maqsadda berilgan?

A) Xoqonlik tarkibidagi ko‘plab qabila va elatlarni birlashtirish va boshqarish, ulardan ma’lum miqdordagi soliqlar va o‘lponlarni o‘z vaqtida yig‘ib olish maqsadida.
B) Viloyat hokimlarini xoqonlik ma’muriyati bilan bevosita bog‘lash va ularning ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida.

D) Xoqonlik o‘z ehtiyoji va hayotiy zaruratidan kelib chiqib, harbiy harakatlarda «o‘nlik» tizimni yaratish, vassal hokimliklar hududida o‘z qarorgohlarini barpo etish va davlat boshqaruvini takomillashtirish maqsadida.

E) Davlat osoyishtaligini saqlash, davlat sarhadlarini kengaytirish, soliq tizimini tartibga solish maqsadida.

6. Abruy qo‘zg‘oloni rasmini qaysi rassom chizgan?

A) V. S. Kaydalov; B) Breygel; D) Xubert Gizen; E) Kamoliddin Begzod.

7. Turk xoqonligi davrida Sug‘d hududlariga hozirgi qaysi yerlar kirgan?

A) Buxorodan Karmanagacha; B) Jizzax va O‘ratepa viloyatlari;

D) Panjikentdan Karmanagacha; E) Afrosiyob va Varaxsha hududlari.

8. Turkiston va Taroz yaqinida bino qilingan shahar qanday atalgan?

A) Baykand; B) Hamukent; D) Iskajkat; E) Qal’ayi Dabusiy.

9. Abruy turgan shahar qaysi nom bilan atalgan?

A) Baykand; B) Hamukent; D) Iskajkat; E) Qal’ayi Dabusiy.

10. Nima maqsadda xoqonlikda maxsus ma’muriy va harbiy-siyosiy boshqaruv tizimi joriy etilgan edi?

A) Xoqonlik tarkibidagi ko‘plab qabila va elatlarni birlashtirish va boshqarish, ulardan ma’lum miqdordagi soliqlar va o‘lponlarni o‘z vaqtida yig‘ib olish maqsadida.

B) Viloyat hokimlarini xoqonlik ma’muriyati bilan bevosita bog‘lash va ularning ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida.

D) Xoqonlik o‘z ehtiyoji va hayotiy zaruratidan kelib chiqib, harbiy harakatlarda «o‘nlik» tizimni yaratish, vassal hokimliklar hududida o‘z qarorgohlarini barpo etish va davlat boshqaruvini takomillashtirish maqsadida.

E) Davlat osoyishtaligini saqlash, davlat sarhadlarini kengaytirish, soliq tizimini tartibga solish maqsadida.

11. Buxoro tilida gavhar ma’nosini beruvchi atama?

A) Baykand; B) Afrosiyob; D) Dabus; E) Hamuk.

12. VII asrdan boshlab mustaqil mulklar ittifoqidan iborat bo‘lgan hudud hukmdori qanday atalgan?

A) xudot; B) ixshid; D) tudun; E) afshin.

13. Qaysi yodgorlik xona devorlaridagi rasmlarda shoh a’yonlari, Chag‘oniyon, Toxariston, Sharqiy Turkiston, Choch, Chinu Mochin, Hindiston va boshqa mamlakatlardan kelgan elchilar, olib kelingan ot-ulov, sovg‘alar va ov sahnasi ifodalangan?

A) Poykand; B) Varaxsha; D) Afrosiyob; E) Quva.

14. Qaysi shaxsning laqabi Biyog‘u bo‘lgan?

A) Qorajurin; B) Sheri kishvar; D) Abruy; E) Hamuk.

15. Hunarmandchilik mahsulotlarini yasash uchun qazib olingan ma’danlar hududlar bo‘yicha to‘g‘ri keltirilgan qatorni toping.

a) Farg‘ona va Sug‘d;

b) Iloq;

d) Shahrisabz.

1) oltin	5) qo‘rg‘oshin
2) tosh	6) tuz
3) mis	7) kumush
4) temir	

A) a – 1, 3, 7; b – 2, 4; d – 5, 6, 7. B) a – 1,3,4; b – 1, 5, 7; d – 2, 6.

D) a – 1, 2, 3; b – 4, 5, 6; d – 2, 6. E) a – 1,3,5; b – 1, 4, 7; d – 2, 5.

17. XX asr 60-yillarida avtomobil yo‘li qurilishi jarayonida qaysi shahar xarobalari topib o‘rganilgan?

A) Poykand; B) Varaxsha; D) Ustrushona; E) Afrosiyob.

18. Ustrushonaga hozirgi qaysi hududlar kiradi?

A) O‘ratepa va Xo‘jand viloyatlari; B) Jizzax va Xo‘jand viloyatlari;

D) Jizzax va O‘ratepa viloyatlari; E) Samarqand va Jizzax viloyatlari.

19. Hududlarda hukmdorlar qanday atalishi bo‘yicha to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni aniqlang.

1) Sug‘d	a) ixshid
2) Buxoro	b) afshin
3) Choch	d) tudun
4) Toxariston	e) malikshoh
5) Farg‘ona	f) xudot
6) Kesh	g) xorazmshoh
7) Xorazm	h) ixrid
8) Ustrushona	

A) 1-a, 2-f, 3-d, 4-e, 5-a, 6-h 7-g, 8-b; B) 1-a, 2-f, 3-b, 4-e, 5-h, 6-a, 7-g, 8-d;

D) 1-h, 2-f, 3-d, 4-e, 5-h, 6-a, 7-g, 8-b; E) 1-h, 2-f, 3-d, 4-e, 5-a, 6-a, 7-g, 8-b.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

TARIXIY HUJJAT

TURK XOQONLIGI VIZANTIYA MANBALARIDA

Shu yilning yozi kelganida, sharqda turklar ehtirom bilan kagan (xoqon) deydigan kishi imperator Mavrikiy (Vizantiya imperatori, 582–602-yy.)ga elchilarini yubordi, ular bilan birga maktub ham yuborib, unda ulkan maqtovlar bilan o‘zining barcha g‘alabalarini tavsiflagan edi[11]. Bu maktubning boshlanishi so‘zma-so‘z mana bunday edi: «Rumlarning podshohiga xoqon, yetti qabilaning buyuk hokimi va olam yetti iqlimining amiri»dan. Bu xoqon abdallar (men ularning eftalit deb ataladiganlari haqida aytayapman) qabilasi[12] sardorini tor-mor qilib, ularni yengdi va ularga o‘z hukmini tarqatdi. Bu g‘alabadan qattiq mag‘rurlanib va Stemvis-xoqonni[13] o‘ziga ittifoqchi qilib, u avarlar qabilasini qul qildi[14].

Hech kim meni, kam xabardor bo‘lib hikoya qilmoqda, deb o‘ylamasin va gap Yevropa va Pannoniyada varvarlardek yashagan avarlar haqida ketayotir (ular bu yerlarga imperator Mavrikiydan ancha ilgari kelganlar), deb hisoblamasin. Istr bo‘yida yashovchi varvarlar soxta ravishda o‘zlariga avarlar nomini olganlar. Ular qayerdan kelib chiqqani haqida men hozircha aytmayman. Avarlar yengilganidan so‘ng (men yana o‘z hikoyamga qaytayapman), ularning ba’zilari qochib, Tavgastga[15] ega bo‘lib turganlarning huzurida panoh topdilar.

Tavgast – mashhur shahar, u turklar deb ataladiganlardan 1500 mil masofada bo‘lib, Hindistonga yaqin joylashgan. Tavgast yaqinida yashovchi varvarlar juda kuchli va ko‘p sonli qabiladir, kattaligi jihatidan butun olamda yashaydigan xalqlardan birortasini ular bilan solishtirib bo‘lmaydi.

Avarlarning boshqasi, mag‘lubiyatlari tufayli xo‘rlanib yanada oyoqosti qilinganlari, mukri deb ataladiganlarning huzurida qolib yashadilar. Bu qabila Tavgast aholisiga eng yaqinlardandir; ular harbiy to‘qnashuvlarda, kundalik mashqlari tufayli ham, xavf-xatar paytlarida irodasining mustahkamligi tufayli ham, juda kuchlidir. Xoqon boshqa ishni ham

[11] G‘arbiy Turk xoqonligining xoqoni Tayang‘u Qora Churin Turk Konstantinopolga Vizantiya (Rum) imperatori Mavrikiy (582–602) huzuriga elchilarini 598-yili yuborgan.

[12] Eftaliylarni turkiy qabilalar o‘sha uzoq VI asrdayoq abdal deganlar (Kichik Osiyo turklari ularni va umuman janjalkash va urushqoq odamni hozir ham shu nom bilan ataydilar). Arablar ularni xaytal va xuttal deganlar. Ularning nomi hozirgi Tojikiston g‘arbidagi Xatlon (o‘rta asrlarda – Xuttalon) nohiyasi nomida saqlangan.

[13] Istemi xoqon nazarda tutilmoqda.

[14] Istemi xoqon avarlarni 558-yili yengib, bo‘ysundirgan. Ulardan 20 ming askar qochib, Dunaybo‘yiga – Vizantiya hududlariga kelgan.

[15] Tavgast – qadimgi turkcha Tabg‘ach atamasining yunoncha talaffuzi; qadimgi turklar bu nom bilan Xitoy imperatorini, mamlakatning o‘zini va poytaxtini (Chanan) ham ataganlar. Feofilakt bu yerda qadimgi turklar an’anasiga rioya qilyapti. Uning bu ma’lumotlari imperator Yustinian II (565–578) davrida turk xoqoni huzuriga Zemarx boshchiligida yuborilgan Vizantiya elchilari to‘plagan ma’lumotlarga asoslangan. Zemarx turk xoqonining o‘sha paytdagi qarorgohi Kucha (Sharqiy Turkiston) shahrida 572-yil atrofida bo‘lgan. Zemarx bu sayohatidan o‘z hassasining ichida, xufiyona, ipak qurtlarini keltirgan va Vizantiyada ipakchilikka asos solishga sababchi bo‘lgan.

amalga oshirdi va o‘g‘ur qabilasining odamlarini o‘ziga bo‘ysundirdi. Ko‘psonli va to‘la qurollangan holda doimiy harbiy mashqlar olib borishi tufayli bular eng kuchli qabilalarning biridir. Ular sharqda Til daryosi oqadigan yerda yashaydilar, bu daryoni turklar odatda Qora deb ataydilar[16]. Bu qabilaning eng qadimgi sardorlari Uar va Hunni deb atalgan. Shuning uchun ham bu qabilalarning ba’zilari uar va hunni deb nomlangan.

Urush paytida bu qabiladan uch yuz ming kishi yo‘q qilingan edi, shundayki, o‘ldirilganlarning uzluksiz qatori to‘rt kunlik yo‘l masofasini qoplagan edi. Xoqonga g‘alaba shunday kulib boqqanida, turklar orasida o‘zaro ichki janjal boshlandi. Xoqonga yaqin bo‘lgan urug‘dan Turum[17] deb atalgan bir kishi, davlat to‘ntarishini niyat qilib, katta kuch to‘pladi. Jangda tarozi pallasi bu hokimiyat bosqinchisining tarafiga og‘ganida, xoqon boshqa uchta kishini buyuk xoqonning huzurlariga (Vizantiya imperatoriga) elchi qilib yubordi. Ularning nomlari quyidagichadir: Sparzevgun, Kunaksolan va Tuldix. Butun lashkar Ikar (Tarim daryosi havzasi) yaqinida (bu joy keng sayhonliklar bilan o‘ralgan) joylashganida va shu joyning o‘zida g‘animlar ularga qarshi chiqib, bahodirona jang qilganida, bu qirg‘inda hokimiyat bosqinchisining o‘zi halok bo‘ldi va ittifoqchi kuchlar dushmanni chekinib qochishga majbur qildi. Katta qirg‘in bo‘ldi va xoqon yana o‘z yerining hokimi bo‘ldi. Mana shu barcha g‘alabalar haqidagi xabarni xoqon elchilar orqali imperator Mavrikiyga yubordi. Bu Ikar Oltintog‘[18] deb ataladigan tog‘dan to‘rt yuz mil masofada joylashgan. Bu tog‘ joylashishi bo‘yicha sharqqa qaragan, uni mahalliy aholi tomonidan — «oltin» deb atalishining sababi shuki, unda mevalar mo‘l: undan tashqari u yovvoyi hayvonlarga va yilqiga boydir. Turklarda mavjud bir qonunga ko‘ra, Oltintog‘ bosh xoqonning ixtiyoriga berib qo‘yilgan. Turk xalqi ikkita muhim narsa bilan faxrlanadi: ular aytadilarki, juda qadim zamonlardan, ularning hayoti boshlanganidan beri, ular hech qachon o‘z yerlarida vaboni ko‘rmaganlar va ularning mamlakatida zilzila juda kam bo‘lgan. Faqat bir vaqtlar o‘n-o‘g‘urlar tomonidan barpo qilingan Bakaf zilzilada vayron bo‘lgan, Sug‘diyona esa vaboni ham, zilzilani ham boshidan kechirgan.

Turklar olovni hamma narsadan ham yuqori qo‘yadilar, suv va havoni ulug‘laydilar, yerga madhiyalar kuylaydilar va birgina osmon va yerning yaratuvchisiga ibodat qilib, uni —

[16] Bu yerda Tarim daryosi haqida so‘z ketmoqda. Uning yuqori oqimidagi bir irmog‘i Qoradaryo deb ataladi.

[17] Bu yerda Simokatta tarixiy shaxs va voqealarni eslatayapti. Turum – Sharqiy Turk xoqonligidagi o‘n birinchi xon To‘ramen ismining yunoncha atalishi. Uning nomi xitoy, arman, fors manbalarida Dalobyan, Abruy, Aboxon nomlari bilan ham eslatiladi. U xoqonlikning to‘rtinchi xoni Mug‘anxonning cho‘risidan ko‘rgan o‘g‘li bo‘lgan, shuning uchun saroy a’yonlari uning kelib chiqishini past bilib, xoqonlik taxtiga noloyiq hisoblaganlar. Feofilakt bu yerda eslayotgan voqealar 582-yili buyuk xon Arslon To‘bo‘xonning o‘limidan so‘ng Turum – To‘ramenning taxt uchun olib borgan kurashining aksidir.

[18] Oltintog‘ – yunonchada Chruzon oros, Menandr uni Ektag degan; shunga ko‘ra asli turkcha nomi Aqtag‘ bo‘lgani ehtimol. Turk xoqonining qarorgohi o‘sha yerda, Kucha shahri yaqinida, Tarim daryosidan shimolroqda bo‘lgan.

Tangri deb ataydilar. Ular unga otlarni, buqalarni va mayda hayvonlarni qurbonlikka keltiradilar va o‘zlariga, ularning fikricha, kelajak haqida bashorat keltiruvchilarni kohin qilib tayinlaydilar. Xuddi shu vaqtning o‘zida tarniax va kotzagir qabilalari (ular uar va hunnilar tarkibida edi) turklardan qochdilar va Yevropaga kelib, avarlarning xoqon hukmi ostidagilariga qo‘shildilar. Aytishlaricha, zabender qabilasi ham uar va hunni xalqidan kelib chiqqan. Bu avarlarga qo‘shilgan qo‘shimcha kuch o‘n ming kishidan iborat edi.

Vizantiya tarixchisi Feofilakt Simokatta (VII asr)ning «Tarix» asaridan (Tarjimon A. Ahmedov)

Vizantiya manbalarida aytilishicha, Eron qo‘shinlari turklardan ba’zilarining peshonasida qora rang bilan salibning tasviri solinganini ko‘rgach, ular nima uchun bu belgi bilan yuradilar, deb so‘raganida, turklar javob berib, ko‘p yil burun Turkiyada[19] vabo bo‘lganini va ba’zi nasroniy turgolar shunday qilishni maslahat berganliklarini, va shu yo‘sinda, ular vabodan qutulganliklarini aytdilar.

Bahromning tarafida Narses bilan urushgan turk askarlaridan ba’zilarining peshonasida salib nishonlanganining boshqa sababi ham bor. Ma’lumki, Vizantiya imperatori Yustinian I (527–565) ortodoksiyani (pravoslavlikni) rasmiy din deb qabul qilganidan so‘ng nasroniylikning boshqa oqim va mazhablari, jumladan, nestorianlar va monofizitlar imperiyadan quvg‘in qilinadi. Nestorianlar asosan Eron va Turkistonda panoh topadilar. Shuning uchun ilgariroq nasroniylikni qabul qilgan turklar rumliklarga asir bo‘lishlarini sezganlarida, jon saqlash maqsadida, peshonalariga salib tamg‘asini qo‘ygan bo‘lishlari mumkin.

Feofan Tavbakorning «Xronografiya» asaridan (Tarjimon A. Ahmedov)

TURK XOQONLIGINING FARG‘ONA VODIYSIDAGI BOSHQARUVI HAQIDA


Turk xoqonligining har ikkala qanoti – Sharqiy xoqonlik va G‘arbiy xoqonlik unvonlar tizimida *tutuq* unvoni uchrab ko‘pchilik tadqiqotchilar uni «biror viloyatning harbiy-ma’muriy hokimi ma’nosidagi xitoycha *dudu* so‘zidan o‘zlashgan», deb hisoblaydilar. Ularga ko‘ra, Ashinaliylar davlatida ham ushbu unvon egalari xuddi shunday vazifani bajarishgan. Shu bilan birga ushbu unvonni qadimgi turkcha *tut* «tutmoq» fe’lidan shakllangan, deb qarovchi tadqiqotchilar ham talaygina. Biroq, *tutuq* unvoni xitoychadan o‘zlashgani haqiqatga yaqin ko‘rinadi. Chunki ushbu unvon xoqonlikdan ancha oldin,

[19] Yunonchada Tourkia. Bu nom bilan Feofan va ilk o‘rta asrlardagi yunonlar Turk xoqonligi va turkiy qabilalar yashaydigan yerlarni, ya’ni Markaziy Osiyoni ataganlar. Demak, VI–VIII asrlarda O‘rta Osiyo uchun *Turkiya* degan atama qo‘llanganligi, bu nom keyinchalik qanday hudud uchun qo‘llangan va qanday ma’no olganligidan qat’iy nazar inkor etib bo‘lmas haqiqatdir. Aslida, yunoncha *Turkiya* deb atalishi forscha Turkistonning yunonchalashtirilgani bo‘lsa, ehtimol.

milodiy IV asrda Xitoy boshqaruvida ancha faol ravishda uchraydi. Ashinaliylar davlati tarixiga aloqador manbalarda mazkur unvon egasining aynan qaysi vazifani bajarganiga doir batafsil ma'lumot uchramaydi.

Shunga qaramay, *tutuq* unvonining Xitoy sulolalari boshqaruvidagi vazifasidan kelib chiqib, shuningdek, ba'zi ma'lumotlarga asoslanib, uni xoqonlarning joylardagi vakili (ehtimol, harbiy) – noibi bo'lgan, deb taxmin qilish mumkin. Jumladan, bitiktoshlarda xoqonlikka qarshi olib borilgan janglarga yo'lboshchilik qilgan «*Tabg'ach (Xitoy) o'ngtutuq*» «*Az (qabilasi) tutug'i*» haqida gap borishi A-14 raqamli Mug' tog'i sug'diy hujjatida «*xoqonga va Farg'ona hukmdoriga atalgan xat topshirilgan Farg'ona tutug'i*» O'tror tangalarida «*Alp xoqon tutuq*» yoki «Alp-xoqon tutug'i» jumlalari uchrashi ushbu unvon egalarining harbiy ishlar bilan mashg'ul bo'lganidan darak beradi. Umuman olganda, sug'diy tildagi manbalarning Farg'ona va Ashinaliylar davlati tarixini yoritishdagi ahamiyati shuki, Sug'd va Farg'ona aloqalari doirasida shakllangan hujjatlarda tomonlarning o'zaro munosabatlari doirasi aks ettirilgan. Shu sababli ularni o'ziga xos dalillar sifatida baholash mumkin.

Turk xoqonlik tarixini yorituvchi Xitoy yilnomalari va bitiktoshlarda *tutuq* (harbiy voliy) unvoni *suboshi apatarxon* (bosh lashkarboshi), *sangun* (qo'mondon general), *chabish* (harbiy amaldor), *bingboshi* (mingboshi), *yuzboshi, o'nboshi* va hokazo kabi harbiylarning unvoni yoki lavozim nomi sifatida keladi. Ashinaliylar davlati tarkibidagi vassal hukmdorliklar orasida Farg'ona va O'trordagina ushbu unvonning uchrashi esa o'sha davrda har ikkala hukmdorlikning xoqonlik siyosiy hayotida alohida o'rni bo'lganini ko'rsatadi.



Farg'ona vodiysining ilk o'rta asrlardagi tarixini Xitoy va sug'd tilli yozma manbalarni o'zaro solishtirilganda bu davrda vodiyni mahalliy sulolalar bilan birga Turk xoqonligiga aloqador turkiy sulola boshqargani anglashiladi. Farg'onaning yetakchi sulolasi o'laroq Ashina xonadoni vakillari xoqonlar bilan tig'iz siyosiy aloqalar o'rnatgan bo'lib, bu esa Farg'ona hukmdorligining mintaqadagi siyosiy mavqeyi oshishini ta'minlagan. Farg'ona boshqaruvchilarining Sug'd, Yettisuv va Sharqiy Turkiston siyosiy hayotiga aralashuvi buning yorqin dalillaridir.

Ulug'bek Xolmo'minovning «Ilk o'rta asrlardagi xitoy va sug'diy manbalarda Farg'ona vodiysiga oid ma'lumotlar» maqolasidan.

MAHALLIY HOKIMLIKLARNING TASHKIL TOPISHI

Bu mavzuda o‘quvchilarni baholashda ularning quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga e’tibor qaratish lozim:

- → mahalliy hokimliklarning boshqaruvidagi o‘ziga xosliklari haqida ma’lumot bera olishi;
- → Toxariston, Sug‘d viloyat va shaharlarining boshqaruvidagi o‘ziga xosliklarni tushuntirib bera olishi;
- → Choch, Farg‘ona viloyat va shaharlarining boshqaruvidagi o‘ziga xosliklarni tushuntirib bera olishi;
- → Toxariston, Sug‘d, Choch, Farg‘ona viloyat va shaharlarining umumiy jihatlari va farqlarini tahlil qila olishi va xulosalarini aytib bera olishi;
- → Toxariston, Sug‘d, Choch, Farg‘ona viloyat va shaharlarining boshqaruvidagi o‘ziga xosliklarni tushuntirib bera olishi;
- → mahalliy hokimliklarning boshqaruv tizimi va ijtimoiy-iqtisodiy hayotini Turk xoqonligi, Eftaliylar, Kidariylar, Xioniylar, Xorazm davlatlari boshqaruvi va ijtimoiy hayotini bilan qiyoslab tahlil qila olishi;
- → mavzu yuzasidan berilgan savollarga mustaqil javob bera olishi va munosabat bildira olishi, xulosalarini ayta olishi.

TEST

1. Sug‘d qaysi davlat tanazzulidan keyin mustaqil davlatga aylangan?

A) Turk xoqonligi; **B) Qang‘;** D) Kushon; E) Eftaliylar.

2. Kimlar Sug‘dni Oqsoqollar Kengashi oliy organ orqali boshqargan?

A) Chjaou xonadoni; B) «O‘n o‘q» sulolasi vakillari;
D) ixshidlar; **E) A va B javoblar to‘g‘ri.**

3. Qaysi mahalliy hokimlikdan bo‘yoq, rangli shisha buyumlar va dori-darmonlar chiqarilgan?

A) Sug‘d; **B) Farg‘ona;** D) Toxariston; E) Choch.

4. Qaysi mahalliy hokimlik 11 ta mulkni birlashtirgan?

A) Sug‘d; B) Farg‘ona; D) Toxariston; E) Choch.

5. Qaysi mahalliy hokimlikda VI–VIII asr boshlarida o‘troq mahalliy aholining manzilgohlari soni nihoyatda oshgan?

A) Sug‘d; B) Farg‘ona; D) Toxariston; **E) Choch.**

6. Qaysi mahalliy hokimlik ko‘plab diniy konfessiyalar kesishgan mintaqa bo‘lganligi uchun bu yerda mahalliy turklarning tangrichilik, xristianlikning nestorian oqimi, moniylik kabi dinlar ham tarqalgan?

A) Sug‘d; B) Farg‘ona; D) Toxariston; **E) Choch.**

7. 618–630-yillarda qaysi mahalliy hokim hukmronlik qilgan?

A) To‘n Yabg‘u; B) Varxuman;
D) Tegin Tyanchji; E) Xusrav I.

8. Qaysi mahalliy hokim 605–609-yillarda hukmronlik qilgan?

A) To‘n Yabg‘u; B) Varxuman;
D) Tegin Tyanchji; E) Xusrav I.



9. Ushbu tasvirdagi Choch tangasi nechanchi yillarga taalluqli?

A) 618–630-yillar; **B) 625–725-yillar;**
D) 605–609-yillar; E) 625–675-yillar.

10. Chochda turkiy til va yozuvning amal qilishi qaysi topilma orqali tadqiq qilingan?

A) Devoriy yozuvlar;
B) Xusrav I ning eftaliylarga qarshi kurashi bayon etilgan manba;
D) Choch tangalaridagi yozuvlar;
E) Qanha shahri xarobasidan topilgan sopol idish bitigi.

11. Choch Ipak yo‘lining qaysi yo‘nalishida strategik ahamiyatga ega bo‘lgan hudud hisoblangan?

A) shimoli-sharqiy; B) shimoliy;
D) shimoli-g‘arbiy; E) markaziy.

12. Chochda qaysi omil zardushtiylik qabul qilinishiga sabab bo‘lgan?

A) din vakillari kelib tavsiya qilganligi; B) elchilar kelib turganligi;
D) karvon yo‘li o‘tganligi; **E) sug‘diylarning kirib kelishi.**

13. Varxuman Qaysi mahalliy hokimlik hukmdori bo‘lgan?

A) Sug‘d; B) Farg‘ona; D) Toxariston; E) Choch.

14. Toxaristonning chegaralangan hududlari muvofiq keltirilgan javobni toping.

A) shimol	1) Hindikush
B) janub	2) Xerirud
D) g‘arb	3) Hisor
E) sharq	4) Pomir
	5) Murg‘ob

A) A – 3; B – 4; D – 2, 5; E – 1. B) A – 3; B – 4, 5; D – 2; E – 4.
D) A – 3; B – 1; D – 2, 5; E – 4. E) A – 3; B – 1, 5; D – 2; E – 4.

15. To‘n yabg‘u o‘z qarorgohini qayerga ko‘chirgan?

A) Qanha hududiga;

B) Choch yaqinidagi Mingbuloq mavzesiga;

D) Yangiyo‘l shahri yaqinidagi hududga;

E) Tunketga.

16. Sug‘dda qaysi tabaqa vakillari «tujjor» deb atalgan?

A) dehqon; B) hunarmand; D) chorvador; **E) savdogar.**

17. Choch hududida qaysi hukmdorlarning tangalari muomalada bo‘lganligi aniqlangan?

A) To‘n Yabg‘u, Varxuman; **B) Tardu xoqon, To‘n Yabg‘u;**

D) Varxuman,Tegin Tyanchji; E) Tardu xoqon, Tegin Tayanchji.

18. Toxariston qaysi davlatlar bilan bilan savdo-madaniy aloqalar o‘rnatgan?

1) Hindiston; 2) Vizantiya; 3) Xitoy; 4) Eron; 5) Yaqin Sharq mamlakatlari; 6) Uzoq Sharq mamlakatlari.

A) 1, 4, 6; B) 2, 3, 4; D) 1, 2, 3, 4; **E) 1, 5, 6.**

19. Qaysi shaharda 22 ta darvoza bo‘lganligi o‘rganilgan?

A) Choch; B) Sug‘d; D) Balx; E) Tunket.

20. Tashqi savdoda Choch davlati qaysi hudud kumushlarini chetga chiqargan?

A) Tunket; B) To‘qket; **D) Lashkarak;** E) Eloq.

TARIXIY HUJJAT

QO‘SHIMCHA MA’LUMOT

Ilk o‘rta asrlarda yirik yerlarga ega bo‘lgan dehqonlar atrof aylana shaklidagi paxsa va yirik xom g‘ishtlardan bino qilingan baland va qalin devorlar bilan o‘ralgan qo‘rg‘on, qasr va ko‘shklarda yashaganlar. Qo‘rg‘onlar o‘z zamonida yov bostirgan vaqtlarida tashqi dushman hujumlariga qarshi kurashda mustahkam istehkom vazifasini o‘tagan. Shu sababli ularning tashqi devorlarining aylanasi bo‘ylab keng va chuqur handaq qazilib, u suvga to‘ldirib qo‘yilgan. Qo‘rg‘on ichkarisiga bir tomondan torgina yo‘l va handaq ustiga o‘rnatilgan osma ko‘prik orqali kirilgan. Qasrga esa ko‘tarma yo‘l – pandusdan ko‘tarilgan.

Bunday imorat mudofaa inshootlarining xarobalari baland tepalar shaklida bizning davrimizgacha saqlangan. Mahalliy aholi o‘rtasida ular odatda «oqtepa» nomi bilan yuritiladi. Toshkent shahri atrofida sakkizta: shu jumladan, Yunusobod, Chig‘atoy, Sag‘bon, Ko‘kcha va Chilonzor Oqtepalari hozirgi vaqt-

gacha saqlangan. Bu yodgorliklar orasida Yunusobod Oqtepasi arxeologik jihatdan deyarli to‘liq o‘rganilgan. Tepalik ostida dehqon qo‘rg‘oni, qasr va ko‘shkning hamda ularga tutashib ketgan hunarmandchilik mahallalarining xarobalari qayd etilgan. Yunusobod Oqtepasining eng baland qismi 21 metrga, umumiy maydoni 100 gektarga teng.

Yunusobodda qazib ochilgan dehqon qo‘rg‘oni va qasri tabiiy do‘nglik ustiga o‘rnatilgan tagkursi (platforma) ustiga qurilgan. U ikki qavatli qasr ko‘kdan iborat. Birinchi qavatining maydoni – 80×80 m, ikkinchi qavatining maydoni – 50×50 m ga teng. Ko‘shkning maydoni esa 22×22 m. Imorat devorlari xalq tilida «devg‘isht» deb atalgan paxsa bo‘laklari (70×70×70 cm) hamda uzun va qalin xom g‘isht (48×24×10 cm)lardan urib chiqilgan. Binoning tashqi devorining to‘rt burchagida doira shaklidagi to‘rt burji – *mo‘lasi* bo‘lgan. Mo‘lalar ichkari tomondan ravoqsimon qilib yopilgan uzun yo‘lak – *galereya* bilan tutashtirilgan. Galereya halqasi bo‘ylab qator yo‘laksimon kazematlar, toqli eshik o‘rinlari, doira shaklidagi burjxonalar, xona gumbazlari davrimizgacha yaxshi saqlangan. Qasr ichida mulkdorning turar joyi, mehmonxona, ibodatxona, omborxona, chillaxona kabi turli xil imoratlar joylashgan.

Qazishma jarayonida ko‘plab sopol idishlar, tosh, suyak, metallardan yasalgan buyumlar, qurol-yarog‘, zeb-ziynat, jumladan, temir pichoq, xanjar, bolta, o‘roq, yoy o‘qlarining paykonlari, tosh yorg‘uchoqlar, kumush uzuk kabi ashyolar topildi. Topilmalar orasida nuroniy mo‘ysafidning qiyofasi tushirilgan *terrakota,* ayniqsa, diqqatga sazovor. Unda qadimgi Choch (Toshkent) da yashagan aholining etnik qiyofasi mujassamlashgan. Arxeologik topilmalar orasida 18 ta kumush tanga va bir dona mis chaqa topilgan. Ulardan 6 tasi Choch mahalliy hukmdorlari tomonidan sosoniylar shohi **Pero‘zning** (**459–484)** dirhamlariga taqlidan zarb etilgan. 12 kumush tanga esa 705–732-yillarda so‘qilgan. Ular xalifalikning ummaviylar xonadoniga tegishlidir. Bulardan tashqari, tepalikdan old tomoniga gajak dumli bars, orqasiga Chochning ayri tamg‘asi va sug‘dcha «*Yabg‘u Tarnavich*» deb yozilgan Toshkentning mahalliy hokimining tangalari topildi. Ushbu tangalarga asoslanganda Yunusobod qo‘rg‘oni V asrlarda bino qilinib, VIII asr o‘rtalariga qadar unda hayot bo‘lgan.

Xullas, Toshkent hududidagi oqtepalar ilk o‘rta asrlarda shahar atrofida qad ko‘targan mudofaa qasrlarining xarobalari bo‘lib, nodir arxeologik manba hisoblanadi. Ular ilk o‘rta asrning mahalliy hokimiyatchilik, o‘zaro harbiy yurishlar, mehnatkash aholining ichki va tashqi g‘animlarga qarshi ko‘targan qo‘zg‘olonlari sharoitida bunyod etilgan yerdor dehqonlarning mustahkam istehkomi namunasi sifatida Toshkent shahri atrofida yashagan aholining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotining hamda o‘sha vaqtlari sodir bo‘lgan tarixiy voqealarning ko‘pgina sahifalarini to‘ldiradi.

A. Muhammadjonov, «O‘zbekiston tarixi», 7-sinf uchun darslik. «O‘qituvchi» 1999-yil.

PODSHOHLAR TURLARI VA BU PODSHOHLARGA XOS BO‘LGAN LAQABLAR

Eronliklar yil hisoblarining birinchi qismida podshohlarning umri va ularning mashhur ishlari haqida eshitishdan dillar nafratlanadigan, quloqlar tortinadigan va aqlga sig‘maydigan afsonalar bor. Lekin bizning vazifamiz maqsad yo‘lidagi xabarlarni tanqid qilish emas, eralarni aniqlashdir. Men Eron olimlari, majus ulug‘lari va donishmandlari aytganlarini ularning so‘zlaridan olingan holatda keltiraman va boshqa xalqlar yil hisoblarida qabul etilgan tartibga muvofiq bo‘lishi uchun ularni yuqoridagiday yo‘sinda jadvallarga yig‘aman. [Podshohlar] laqablarini ismlariga qo‘shib keltiraman, chunki [Eron] podshohlari maxsus [laqablari] bilan o‘zga podshohlardan [ajraladilar]. Garchi ulardan boshqa podshohlarda laqab uchratilsa ham, u butun tabaqaga umumiy bo‘lib, bir podshoh o‘rniga o‘tirgan ikkinchisi ham o‘sha laqabga sherik bo‘laveradi.

Podshohlar turlari	*Mazkur podshohlarga xos bo‘lgan laqablar*
Eronning sosoniy podshohlari	Shohanshoh va Kisro
Rum podshohlari	Bosili, ya’ni Qaysar
Iskandariya podshohlari	Batlimus
Yaman podshohlari	Tubba
Xazar va to‘qqiz o‘g‘iz turklari podshohlari	Xoqon
O‘g‘iz turklari podshohlari	Xonuvta
Xitoy podshohlari	Bag‘pur
Hind podshohlari	Balharo
Qannuj podshohlari	Robii [Roja]
Habash podshohlari	Najjoshiy
Nuba podshohlari	Kobul
Sharqiy dengiz orollari podshohlari	Maharoj
Tabariston tog‘lari podshohlari	Ispaxbad

Podshohlar turlari	*Mazkur podshohlarga xos bo‘lgan laqablar*
Danbovand podshohlari	Masmag‘on
G‘arjiston podshohlari	Shor
Saraxs podshohlari	Zoduya
Naso va Abivard podshohlari	Bahmana
Kash podshohlari	Nidun
Farg‘ona podshohlari	Ixshid
Ustrushona podshohlari	Afshin
Shosh podshohlari	Tudun
Marv podshohlari	Mohu
Naysobur podshohlari	Kanabor
Samarqand podshohlari	Tarxun
Sarir podshohlari	al-Xajjoj
Dihiston podshohlari	Sul
Jurjon podshohlari	Anohbad
Slavyan podshohlari	Kinoz
Suryon podshohlari	Nimrud

Podshohlar turlari	*Mazkur podshohlarga xos bo‘lgan laqablar*
Qibt podshohlari	Fir’avn
Bomiyon podshohlari	Shiri bomiyon
Misr podshohlari	Aziz
Kobul podshohlari	Kobulshoh
Termiz podshohlari	Termizshoh

Podshohlar turlari	*Mazkur podshohlarga xos bo‘lgan laqablar*
Xorazm podshohlari	Xorazmshoh
Shirvon podshohlari	Shirvonshoh
Buxoro podshohlari	Buxor xudot
Guzgonon podshohlari	Guzgon xudot

SUG‘D ELCHISI FATUFARNNING CHOCHDAN JO‘NATGAN MAKTUBI

Janobi hukmdorga, buyuk tayanchimiz, Sug‘d podshosi, Samarqand hokimi Devashtichga uning eng e’tiborsiz («millioninchi» darajali) quli Fatufarndan murojaatnoma. Janobi hukmdor, (senga) buyuk shon-sharaf (egasiga) ko‘pdan-ko‘p ta’zim yo‘llayman («murojaat qilaman»). Va janob, men bu yerga, Choch hukmdori huzuriga keldim. Janob, xatlarni ham topshirdim; og‘zaki («til bilan») (aytilishi) lozim bo‘lgan murojaatnomani ham to‘liq, oqizmay-tomizmay («qoldiqsiz») bayon etdim.

Tudun[20]ga ham, uning yordamchisiga ham. Va janob, xoqonga (mo‘ljallangan xatni ham, Farg‘ona podshosiga mo‘ljallangan xatni ham Farg‘ona tutug‘i qo‘li bilan (orqali) Farg‘ona podshosi tomon jo‘natdim. Janob, men shu tufayli yuqoriga tomon (yana yo‘l) yura olmadimki, xabarlarga ko‘ra xoqon (hech) ko‘rinmas emish. Janob, tudundan va uning yordamchisidan xat va og‘zaki javoblarni oldim va janob (yo‘lga chiqib) Apvartkonga (yetib) kelganimda, janob, Chadrchik haqida yaxshi xabarlar eshitmadim hamda Ustrushon viloyati hammasi (dushmanga) topshirilgan. Janob, men yolg‘iz, behamroh, holda (yo‘limda davom etib) yurishga jur’at qilolmayapman. Janob, ikkinchi qayta Choch tomon qaytib keldim. Buning uchun (sen) hukmdorimdan juda yomon qo‘rqyapman. Janob, Tudun toziylar (arablar) bilan bitimga binoan chekindi. Bitimga ko‘ra, Jamravaz va fors lashkarboshisi quyi tomon ketdilar. Xabarlar (borki), tovon undirib olish va kuchlarni arablardan nariga olib ketish (ularning maqsadidir). Janob, xabarlarga binoan xvonak hech ko‘rinmaydi, Chunki ular yuqoriga qarab ketishdi va haligacha hech kim qaytib kelgani yo‘q. Janob, tudun Tarband bilan bitim tuzgan edi. U yerdagi hamma joylarni oldi. Janob, Chadrchikda (tuzilgan) sulh munosabati bilan, eshitishimcha («Sulh, xabari tufayli») yordamchi juda g‘amgin, anduxnok bo‘lmoqda va yana yoningga borolmagani uchun sendan (hukmdordan) qo‘rqmoqda. Janob, so‘ngra sen tomon-

[20] Tudun – ilk o‘rta asrlarda Choch (Shosh) hukmdorlari shunday atalgan.

dan (hukmdordan) xabarlar kelmay qoldi. Janob, mana bu xatlarni men Marvon (ismli kishi) qo‘li orqali Kand tomonidan (aylana yo‘l bilan) jo‘natdim. Janobi hukmdor, buyuk tayanchimiz Sug‘d podshosi, Samarqand hokimi Devashtichga uning eng e’tiborsiz («millioninchi» darajali) quli Fatufarndan maktub.

Mirsodiq Is’hoqovning «Unutilgan podsholikdan xatlar» kitobidan.

ILK O‘RTA ASRLARDA VAZIRLIK BOSHQARUVI

Aytgan edikki, omillar va ularning ishlari vazirga tegishlidir va yaxshi vazir podshohni ham neknom va neksiyrat qiladi. Qaysi podshoh buyuk bo‘lib, olamda hukmron va mashhur bo‘lgan esa va qiyomatgacha nomi yaxshilik bilan tilga olinsa, bu yaxshi vazirlar orqali qo‘lga kiritilgan. Sulaymon alayhissalomga Osaf Barxiyo, Muso alayhissalomga Horun, Mustafo sallallohi alayhi vassallamga Abu Bakri Siddiq vazir bo‘lganlar. Buyuk podshohlardan Kayxusravga Gudars, Manuchehrga Som, Afrosiyobga Pironi Visa, Gushtaspga Jomosp, Rustamga Zavora, Bahrom Go‘rga Xuraro‘z, No‘shiravoni odilga Buzarjmehr, Bani Abbos xalifalariga Oli Barmak, Somoniylarga Bal’amiylar, Sulton Mahmudga Ahmad Hasan va Faxr ud-davlaga Sohib Abbod, Sulton Tug‘ralga Abu Nasr Kanduriy, Sulton Alparslon va Sulton Malikshohga Nizom ul-mulk al-Hasan vazirlik qilganlar. Bularga o‘xshaganlar ko‘p.

Ammo vazir pokdin, e’tiqodli bo‘lib, hanafiymazhab yoki shofi’imazhab, sohibqalam va podshohsevar bo‘lmog‘i zarur. Agarda vazirzoda bo‘lsa, buyukroq va muborakroqdir. Ardasheri Bobakon zamonidan to shoh Yazdigardgacha Ajam mulklarida shahzoda shoh, vazirzoda vazir bo‘lgan. Islom tarqatilguniga qadar Ajamda shunday edi. Hukumat Ajam maliklari qo‘lidan chiqdi-yu, vazorat ham vuzaro avlodlari qo‘lidan ketdi....

Abu Ali Hasan ibn Ali Tusiy Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asaridan.

LOYIHA ISHI

SHARQ VA G‘ARB TURMUSH TARZINING TAHLILI

Bu darsda o‘quvchilarni baholashda ularning quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga e’tibor qaratish lozim:

- jamoalarga bo‘linib, Turon hududida yashagan xalqlarning yashash tarzini, Yevropa va Sharqning boshqa davlatlaridagi hayot bilan solishtirib, tahlil qila olishi;
- sinfdoshlari bilan jamoa shakllantira olishi va birgalikda loyihani amalga oshira olishi;

- chorak boshidan boshlab tanishib chiqqan mavzularning o‘ziga xosliklarini tahlil qila olishi, ularning umumiy va farqli tomonlarini sanab bera olishi;
- Jahon tarixi fanidagi bilimlaridan foydalanib, shu davrda jahon tarixidagi boshqa davlatlarning tuzumi, ijtimoiy hayoti va madaniyatini O‘zbekiston tarixi fanidagi davlatlar bilan taqqoslay olishi, ularning o‘ziga xosliklari va dunyo hamjamiyatidagi o‘rni haqida so‘zlab bera olishi;
- o‘rgangan va tahlil qilgan ma’lumotlari asosida loyiha ishiga xulosa bera olishi va mustaqil ravishda o‘z munosabatini bildira olishi;
- loyiha yuzasidan boshqa jamoalarga asosli va mantiqli savollar bera olishi va tinglay olishi;
- loyiha yuzasidan berilgan savollarga mustaqil javob bera olishi va munosabat bildira olishi, xulosalarini ayta olishi;
- boshqa jamoalarning taqdimotini tinglay olishi va savollar bera olishi.

Jamiyatning turli sohalari	Turon hududida	Yevropa xalqlari	Slavyan xalqlari	Sharqiy Osiyo: Xitoy, Koreya, Yaponiya
Davlatchilik shakllarining mavjudligi va rivojlanganligi	Afrig‘iylar, kidariylar,...			
Qonunchilik hujjatlari				
Shaharlari				
Diniy e’tiqodlari				
Iqtisodiy soha				

TARIXIY HUJJAT

SHAHARNING SAMARQAND ATALISHI TO‘G‘RISIDA

Samarqand shahrining «Samarqand» atalishi to‘g‘risida bir necha sabab aytganlar:

Birinchi sabab: «Burhoni qote’» kitobida naql qilingankim, Samar ismlik bir kishi bu yerda joylashgan va o‘z tevaragiga xalqni to‘plagan edi. Shuning uchun bu yer boshda «Samarkent» ataldi. Arab qo‘shini bu yerni olgach, o‘z tillariga o‘zgartirib, «Samarqand» dedilar. Ikkinchi sabab: «Masolik ul-mamolik» nomli kitobda naql qilingandurkim, Samar boqir ismlik bir xon Farg‘ona va Qoshg‘ar tomonlaridan kelib, bu viloyat xalqiga dushmanlik yuzasidan shaharning devorlarini qazib buzgan edi. Shuning uchun bu shahar «Samar qazdi» ma’nosida bo‘lgan. Forscha «Samarqand» ataldi. Arab qo‘shini

bu shaharni olganidan keyin «Samarqand» atadilar. Uchinchi sabab: «Tarixi Tabariy» kitobida keltirilgandirkim, Samar otliq bir xon ushbu shaharni soldirdi. Eng avval «qand» degan turk aymog‘i bunda o‘rnashib o‘lturdi. Shuning uchun bu shahar «Samarqand» ataldi. To‘rtinchi sabab: uchbu shaharning bir yerida «Samar» degan birov tomonidan qazilgan bir buloq bor edi. Ulus o‘shal buloq tevaragiga yig‘ilib o‘rnashgan edilar. Shu sababdan u o‘rinning oti «Samarqand» deb deb shuhrat chiqardi. «Haft iqlim» kitobida aytilgankim, Yaman Tubba’i maliklaridan Samar ismlik bir kishi uchbu shaharning devorini buzdi. Arablar kelgandan keyin «Samarqand» dedilar va yana Tangri Taolo biladi.

Abu Tohirxoja Samarqandiyning
«Samariya» kitobidan.

BUXORO ARKINING BINO ETILISHI HAQIDA

Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr buning ajoyibotlari haqida to‘xtab, shunday deydi: Abu-l-Hasan Nishopuriy[21]ning «Xazoin ul-ulum»da aytishicha, Buxoro kuhandizining, ya’ni Buxoro arki hisorining bino etilishiga mana shu (voqea) sabab bo‘lgan. Siyovush ibn Kaykovus[22] o‘z otasidan qochib, Jayxun daryosidan o‘tib, Afrosiyob[23]ning oldiga keldi. Afrosiyob uni yaxshi qabul etdi va o‘z qizini unga xotinlikka berib, aytishlaricha, barcha mulkini unga topshirdi. Bu viloyat o‘ziga vaqtincha berib qo‘yilgan joy ekanligi tufayli, Siyovush bu yerda o‘zidan bir yodgorlik qoldirishni istadi. Shunday qilib, u Buxoro hisori (qal’asi)ni bino qildi va ko‘proq vaqt o‘sha joyda turar edi. (Kimlardir) u bilan Afrosiyob o‘rtasida yomon gap yurgizdi va (natijada) Afrosiyob uni o‘ldirdi hamda ana shu hisorda Sharqiy darvozadan kiraverishinda «Darvozayi g‘uriyon» deb atalgan somonfurushlar darvozasining ichkarisiga dafn etdilar. Shu sababli Buxoro otashparastlari o‘sha joyni aziz tutadilar va unga atab har bir erkak kishi har yili Navro‘z kuni quyosh chiqishidan oldin o‘sha joyda bittadan xo‘roz so‘yadi. Buxoro aholisining Siyovushning o‘ldirilishiga bag‘ishlab aytgan marsiyalari bo‘lib, u barcha viloyatlarga mashhurdir. Kuychilar unga moslab kuy tuzganlar va qo‘shiq qilib aytadilar. Qo‘shiqchilar uni «otashparastlar yig‘isi» deydilar. Bu gaplar bo‘lganiga hozir uch ming yildan ortiqroq vaqt o‘tdi. Shunday qilib, mana shu rivoyatga ko‘ra bu hisorni Siyovush bino qil-

[21] Abu-l-Hasan Nishopuriy – uning «Xazoin ul-ulum» kitobi bizgacha yetib kelgan-kelmaganligi manbashunoslik fanida hozircha ma’lum emas.

[22] Siyovush ibn Kaykovus – («Avesto»da Siyovarshan, Siyovaxsh, «qora ot»), «Shohnoma» eposi qahramonlaridan biri bo‘lib, Kaykovusning o‘g‘lidir. Kayoniylar sulolasidan. Beruniy ma’lumotiga ko‘ra, Xorazmda hukm surgan afrig‘iylar shajarasi Siyovushdan boshlangan. Xorazmda milodiy I–VII asrlarda zarb etilgan tangalardagi chavandoz surati ayrim tadqiqotchilar (S. P. Tolstov va b.) tomonidan Siyovushning tasviri deb qabul qilingan.

[23] Afrosiyob (Alp Er To‘nga) – mifologik obraz. Firdavsiy «Shohnoma»siga ko‘ra, Afrosiyob Turon podshosi bo‘lib, Eron shohlari u bilan kurash olib borgan. Afrosiyobni Eron shohlarining dushmani qilib ko‘rsatish g‘oyasi yozma adabiyotga birinchi bo‘lib Firdavsiy «Shohnoma»si orqali kirgan.



gan, ba’zilari esa Afrosiyob bino qilgan deganlar. (So‘ng) bu hisor buzilib ketib, ko‘p yillar vayronligicha qoldi. Biz aytib o‘tgan xotinning eri, Tag‘shodaning otasi bo‘lgan Bidun Buxorxudot taxtga o‘tirganidan keyin, odam yuborib bu hisorni tuzattirdi, undagi qasrni ham u tuzattirdi va o‘z nomini temirga yozdirib qasrning eshigiga mahkam o‘rnattirdi. Shu xat bitilgan temir tarjimonning zamonigacha o‘sha qasr eshigida mavjud edi. Lekin Ahmad ibn Muhammad ibn Nasrning aytishicha, hisorni vayron qilganlarida u eshikni ham buzib yuborganlar. Ahmad ibn Muhammad ibn Nasrning aytishicha, Muhammad ibn Ja’far va Abu-l-Hasan Nishopuriy bunday deganlar: Bidun Buxorxudot u qasrni bino qilganida buzilib ketdi, qaytadan bino qilgan edi. Yana buzildi. U necha marta bino qilmasin, yana vayron bo‘laverdi. Hukamolarni yig‘ib ulardan maslahat so‘radilar. Ular bu qasrni osmondagi yetti qaroqchi yulduzlari shaklida yettita tosh ustun ustiga qurishga qaror qildilar; shu shaklda (qurilgandan keyin) qasr buzilmadi. Yana bir ajoyibi shuki, bu qasr bino qilingandan beri bunda hayot kechirgan hech bir podshoh mag‘lubiyatga uchragan emas, aksincha, hamisha g‘alaba qozongan. Yana bir ajoyibi, bu qasrni bino qilganlaridan beri na kofirlar davrida va na islomiyat davrida biror podshoh ham uning ichida o‘lmagan — podshohning ajali yetgan vaqtda biror sabab yuz berib, u qasrdan tashqariga chiqqan va boshqa bir joyda vafot topgan — bu qasr bino qilinganidan to vayron bo‘lgunicha shunday bo‘lib kelgan.

Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far an-Narshaxiy[24]ning «Buxoro tarixi» asaridan.

[24] Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far an-Narshaxiy – Buxoroda tug‘ilgan, 899–959-yillarda yashab, ijod qilgan tarixchi olim.

TURON XALQLARINING HARBIY SAN'ATI

Bu mavzuda o‘quvchilarni baholashda ularning quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga e’tibor qaratish lozim:

- davlatning mavjud bo‘lishida harbiylarning o‘rni qay darajada muhimligini tushunishi va tushuntirib bera olishi;
- davlatning mavjud bo‘lishi uchun uning harbiy qo‘shinga ega bo‘lishi shartligini bilishi;
- jamoalarga bo‘lingan holda sosoniy-forslarning davlatni boshqarish sohasidagi, xitoyliklarning – hunarmandchilikdagi, yunonlarning – ilm-fandagi, turklarning — harbiy ishdagi ustunliklarini dalillar asosida tahlil qilib, so‘zlab bera olishi;
- Turon hududida mavjud bo‘lgan davlatlardagi qo‘shinning salohiyati, qudrati haqida ma’lumot bera olishi;
- harbiylarning o‘ziga xos jang qilish uslublari, jang qurollarining o‘ziga xosliklari haqida ma’lumot bera olishi;
- Turon xalqlarining harbiy salohiyati bo‘yicha xorijlik sayyoh va tarixshunoslarning fikrlarini tushunishi va tahlil qila olishi;
- mavzuga oid mustaqil manba bilan ishlay olishi;
- Yevropa va boshqa Sharq davlatlarining harbiy qo‘shinlari va Turon harbiy san’atini solishtira olishi, tahlil qila olishi va xulosa chiqara olishi;
- mavzu yuzasidan berilgan rasmlar bilan ishlay olishi va izohlay olishi;
- mavzu yuzasidan berilgan savollarga mustaqil javob bera olishi va munosabat bildira olishi;
- yuqori sifatli hujumkor va himoya qurollarini ishlab chiqaruvchi maxsus markazlar yaratish uchun qanday bilimlar kerak bo‘lishi haqida o‘z munosabatlarini bildira olishi va o‘sha davrda rivojlangan bilimlar haqida xulosa qila olishi;
- Turon hududining harbiy jihatdan ustunligi haqida xulosa chiqara olishi.

TEST

1. Xorijlik sayyoh kimlarning janglarini quyidagicha tasvirlagan?

«Hokimning qabilasidan bo‘lgan ko‘pchilik jangchilar jasur va g‘ayratli bo‘lib, o‘limni nazar-pisand qilmagan. Janglarda hech bir raqib ularga bardosh bera olmagan. Ular jang davomida qurol-aslahaning barcha turlaridan mohirona foydalanishgan».

A) Turkiylar; **B) Sug‘dlar;** D) Arablar; E) Sosoniy-forslar.

2. Qaysi omil otliq askarlarning ot ustida mustahkam o‘tira olish va og‘ir aslahalar bilan qurollanish imkonini bergan?

A) Har bir ibodatxona qoshida tashkil etilgan ta’lim dargohlari borligi.

B) Horigan otlarni charchamagan otlarga almashtirish.

D) Otlarning odamlarga ko‘niktirilib tarbiyalashlari.

E) Turkiy suvoriylar tomonidan uzangining kashf etilishi.

3. Turon hududi milodiy nechanchi asrda eftaliylar tarkibiga kirgan?

A) V asr; B) V–VI asr; D) VI asr; E) VII asr.

4. Eftaliylar o‘sha davrda qaysi hudud xalqlarini yagona davlatga birlashtirgan?

1) Yettisuv

2) O‘rta Osiyo

3) Shimoliy Eron

4) Sharqiy Eron

5) Xitoyning bir qismi

6) Shimoliy Hindiston

7) Sharqiy Turkiston

A) 1, 2, 4, 7; B) 2, 3, 6, 7; **D) 2, 4, 6, 7;** E) 3, 4, 6, 7.

5. «Turkiy xalqlar mafkurasi» nomli kitob muallifi kim?

A) Ahmadali Asqarov; **B) Usmon Turon;**

D) Ibn Arabshoh; E) Y. F. Buryakov.

6. Arab adibi Johiz xalqlarga bergan ta’rifini muvofiqlashtiring.

1) turklar — a) davlatni boshqarish

2) xitoyliklar — b) ilm-fan

3) sosoniy-forslar — d) hunarmandchilik

4) yunonlar — e) harbiy ish

A) 1-e; 2-d; 3-a; 4-b. B) 1-a; 2-b; 3-d; 4-e.

D) 1-e; 2-a; 3-d; 4-b. E) 1-a; 2-d; 3-b; 4-e.

7. Qaysi xalqlar turklardan otga minishni, uzun qilichdan foydalanishni va jangovar kiyim yasashni o‘rganib olganlar?

A) sosoniy-forslar; B) arablar; D) eftaliylar; **E) chinliklar.**

8. «Chodir-hammom va kasalxonalar kashf etib, ularni qo‘shin bilan birga otda olib yurishgan. Turklar umrlarini ot ustida kechirganlar: ular ot ustida ovqatlanishar, mashvarat o‘tkazishar, nihoyat jang-u jadal qilishardi».

Ushbu turkiylar haqidagi ma’lumot qaysi asarda berilgan?

A) «Manoqib al-atrok»da; **B) «Turkiy xalqlar mafkurasi»da;**
D) Ibn Arabshoh asarida; E) «Avesto»da.

9. «Turon» atamasi dastlab qaysi asarda tilga olingan?

A) «Manoqib al-atrok»da; B) «Turkiy xalqlar mafkurasi»da;
D) Ibn Arabshoh asarida; E) «Avesto»da.

TARIXIY HUJJAT

Turon hududidagi harbiy jarayonlarda, jang taktikasida kamonchilar muhim rolni o‘ynaganlar. Kamondan o‘q uzishning o‘ziga xos qiyinchiliklari bo‘lgan. Kamonchi otish qoidalarini, xususan, kamonning kuchini, kamon ipi tarangligini va o‘qning qancha masofaga yetishini bilishi zarur bo‘lgan.

O‘rta Osiyoda qadimda quyidagi turdagi *kamon*lar bo‘lgan:

1. *Skiflar kamoni*. Bu turdagi kamonlar Yevrosiyo dashtlarida bronza davrida paydo bo‘lib, keyinchalik butun qadimgi dunyoga tarqalgan. Skif kamoni — tarkibli, murakkab, qayrilma shaklli, uncha katta bo‘lmagan. Murakkab skif kamonlarining uzunligi 60–100 cm bo‘lgan. Turon va Eronga skif kamonlari kamida miloddan avvalgi VII–V asrlarda kirib kelgan.

2. *Xunnlar kamoni*. U skif kamonini takomillashtirish oqibatida Yevrosiyo dashtlari xalqlarida miloddan avvalgi so‘nggi asrlarda paydo bo‘lgan. Uning yaratilishiga asosiy sabab sovut, zirhli kiyimlarning keng tarqalishi bo‘lib, kamonlarning olisga otish quvvatini oshirish harbiy texnika oldida turgan dolzarb vazifaga aylangan edi. Xunnlar kamoni ham skiflarnikiga o‘xshab bir necha yog‘och qismlardan yasalgan asosga ega bo‘lgan. Unga muguz pardasi, paylar, suyak qoplagichlar birlashtirilgan. Xunnlar kamonining o‘ziga xos xususiyati uning kattaligida edi. Kamon uzunligi o‘rta hisobda 120–165 cm ga yetardi.

3. *Sosoniylar kamoni*. Bu kamon tashqi ko‘rinishdan besh burchak shaklda bo‘lib, dastasi to‘g‘ri oldinga bo‘rtib chiqib turgan, uchlari qayrilgan. Xunnlar kamonidan farqli o‘laroq, sosoniylar kamoni yelkalari kalta va og‘ir bo‘lib ularning uchi, muguzi uzun bo‘lgan.

Ilk o‘rta asr arman va arab manbalariga ko‘ra, Xorazm o‘zining ajoyib kamonlari bilan butun Sharqda dong taratgan. Maqdisiyning guvohlik berishicha, Xorazmda shunday kamonlar yasalganki, ularni faqat kuchli kishilargina torta olgan.

Turkiylarda otliqlar. Turkiylarning g‘arbga tomon yurishlaridagi zafarlarining asl sababi ham ot va suvoriylar edi. Turklar harbiy millat o‘laroq, chodir-hammom (charcha) va sayyor kasalxonalarni kashf etib, ularni qo‘shin bilan birga otda olib yurishardi. Bizonslar chodir hammomni turklardan o‘rgandilar va qo‘shinlarga tatbiq etdilar. Saljuq, Xorazm va Oq-qo‘ylar (Oqqo‘yunlilar) hukmdorlari ham chodir-hammomlar bilan harakatda bo‘lib, safar davomida yuvinish-tozalanish imkoniyatiga ega edilar...

Xunnlar davridan boshlab, ya’ni onasining himoyasidan chiqib o‘zi oyoqda tura oladigan bo‘lgandan e’tiboran, turklar umrlarini ot ustida kechirganlar. Zero, ular ot ustida ovqatlanishar, qimiz ichishar, mashvarat o‘tkazishar, nihoyat jang-u jadal qilishardi. Xunn, Ko‘k turk, Mo‘g‘ul va Usmoniy imperatorliklari ham ana shu tarzda bunyod etilgan. Turklar to‘satdan qilingan hujumlar va o‘ziga xos usullar orqali har qanday baquvvat zirhli dushmanni ham kunpayakun etishardi. Shuning uchun ham o‘rta asrlar manbalari ularni: «Dovuldek birdan paydo bo‘lib, qush kabi zumda ko‘zdan yo‘qoladi», deya tasvirlashgan.

Shuningdek, Hasan Ato Abushiyning «Turkiy qavmlar tarixi» kitobida turklarda askarlik xususida quyidagilarni o‘qish mumkin: «Turklar otga otlanmoqqa va ot ustinda har turli muomalada juda ustodirlar. O‘q, joya (yoy) va qilich iste’molini juda go‘zal biladilar. Qilich qoyishlarini turli ziynat ila ziynatlaydilar. Ko‘kraklariga temir kiyim kiyadilar. Askarlik xizmatini o‘tarlik yigitlar turklarda eng hurmatlidirlar. Turklar jangda jonfido etmak ila iftixor etarlar».

Faxriddin Hasanovning
«Turon xalqlari harbiy san’ati» kitobidan.



VI–VII ASRLARDA TURON XALQLARI MADANIY HAYOTI

Bu mavzuda o‘quvchilarni baholashda ularning quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga e’tibor qaratish lozim:

- madaniyat tushunchasiga izoh bera olishi, uni tushuna olishi;
- xalq madaniyati deganda nimalar nazarda tutilishi haqida tasavvurga ega bo‘lishi va fikr bildira olishi;
- karvon yo‘llari orqali hududimizga qaysi davlatlarning madaniyatlari kirib kelgan va ularning ta’siri qanday bo‘lganligi haqida tushunishi va so‘zlab bera olishi;
- qadimgi tariximizdan so‘zlovchi eng qadimgi yozma manba haqida davriylik asosida ma’lumot bera olishi va tahlil qila olishi;
- insoniyatning madaniyatini belgilash uchun qanday omillarga e’tibor qaratish kerakligi haqida o‘z fikrini bildira olishi;
- mavzu yuzasidan berilgan rasmlar asosida ishlay olishi va tahlil qila olishi;
- O‘zbekiston hududidagi madaniy yodgorliklar va ularning o‘ziga xosligi, tarixiy qimmati va bugungi kundagi ahamiyati haqida ma’lumotga ega bo‘lishi, so‘zlab bera olishi;
- o‘z hududi (viloyat, shahar, tuman, mahalla, ko‘cha)sidagi mavjud madaniy yodgorliklar haqida ma’lumot bera olishi;
- qadimgi Turon hududida mavjud bo‘lgan yozuv turlari, rivojlangan bilimlar va fanlar haqida ma’lumot bera olishi;
- Turon hududida yashagan xalqlarning diniy e’tiqod shakllari va ularning g‘oyasi haqida ma’lumot bera olishi, ularni qiyosiy tahlil qila olishi va xulosasini bildira olishi;
- mavzu yuzasidan berilgan jamoaviy topshiriqni bajara olishi va o‘z xulosalarini taqdim eta olishi;
- Turon xalqlarining kiyinishi madaniyati va ularning o‘ziga xos ko‘rinishlari, kiyimlarining o‘ziga xosliklari haqida ma’lumot bera olishi, ularga munosabat bildira olishi;
- bugungi kundagi kiyinish madaniyati bilan bog‘liq holda tahlil qila olishi;
- o‘z hududi (viloyat, shahar, tuman)dagi kiyinishning o‘ziga xos va farqli jihatlari haqida ma’lumot bera olishi;
- O‘zbekiston hududidagi vohalar va vodiylardagi kiyinishning o‘ziga xosliklari haqida fikr bildira olishi;
- o‘z davrida Turon xalqlari madaniyatining jahon madaniyatiga ko‘rsatgan ta’siri haqida xulosa bildira olishi;
- mavzu yuzasidan berilgan savollarga mustaqil javob bera olishi va o‘z xulosalarini ayta olishi.

TEST

1. Qaysi omil O‘rta Osiyoga qadimgi Mesopotamiyaning madaniyati kirib kelishiga zamin yaratdi?

A) o‘zaro hujumlar natijasida;

B) xristianlik dini kirib kelishi orqali;

D) o‘zaro savdo va madaniy aloqalar tufayli;

E) yahudiylar Ossuriya quvg‘inidan qochib kelishi tufayli.



2. Chilpiq qal’a qaysi dinga taalluqli?

A) xristianlik; **B) zardushtiylik;** D) buddaviylik; E) tangrichilik.

3. Ushbu devoriy tasvir qaysi yodgorlikka tegishli?

A) Panjikent; **B) Varaxsha;** D) Afrosiyob; E) Quva.

4. V asrda qaysi hududlarda xristianlik tarqalib, diniy muassasalar tashkil qilingan?

A) Samarqand, Buxoro; B) Panjikent, Varaxsha, Quva;

D) Samarqand, Farg‘ona; E) Samarqand, Farg‘ona, Buxoro.

5. To‘g‘ri ma’lumotni aniqlang.

A) Xristian o‘quv maskanlari – viharalar bo‘lgan.

B) Chilpiq qal’a buddaviylik diniga oid yodgorlik hisoblanadi.

D) Xorazmdagi Jonbosqal’a va Tuproqqal’adan topilgan Tangrichilik ibodatxonasi diqqatga sazovor.

E) Mug‘ tog‘i va Afrosiyobdan topilgan sug‘d yozuvlari Turon madaniyatidan hikoya qiladi.

6. Xorazmdagi ta’limga oid to‘g‘ri javobni aniqlang:

1) muhandislik, tibbiyot va me’morchilik kabi turli fanlardan bilimlar berilgan;

2) diniy qonun-qoidalar va xudoning mohiyati hamda irodasi (xudojo‘ylik) haqida ta’lim berilgan;

3) o‘g‘il bolalarga o‘qish, yozish, hisob-kitob o‘rgatilgan;

4) geografiya, zoologiya, botanika, astronomiya kabi turli fanlardan bilimlar berilgan;

5) xattotlik san’atini o‘rgatish bo‘yicha darslar tashkil etilgan;

6) 5 yoshdan o‘g‘il bolalar ta’lim olishni boshlashgan.

A) 1, 3, 5; **B) 1, 3, 4;** D) 2, 5, 6; E) 1, 2, 3, 4, 5, 6.

7. Haykaltaroshlik rivojiga qaysi din, ayniqsa, kuchli ta’sir ko‘rsatgan?

A) Zardushtiylik; B) Nasroniylik; D) Tangrichilik; **E) Buddaviylik.**

8. Qaysi tarixiy yodgorliklar haqida quyidagicha ta'rif berilgan: «qo'sh devorlar bilan qurshalgan va ichkariga aylanma yo'lagi bo'lgan to'g'ri burchakli bino bo'lgan. Xonalardan teriga va yog'ochga yozilgan turli mazmundagi hujjatlar hamda katta-kichik haykalchalar topilgan. Bu esa, ibodatxonaga tutash binolarda ta'lim maskanlari, huquq idoralari, ma'muriy-xo'jalik ishlari bilan shug'ullanadigan joylar bo'lganidan dalolat beradi»?

A) Jonbosqal'a; B) Tuproqqal'a; D) Chilpiq qal'a; **E) A va B javoblar.**

9. Yodgorliklar joylashgan hududlariga muvofiq javobni aniqlang.

1) Zarafshon vodiysi	a) Quva
2) Surxon vohasi	b) Afrosiyob
3) Farg'ona vodiysi	d) Varaxsha
	e) Panjikent
	f) Bolaliktepa

A) 1-b, d, e; 2-f; 3-a; B) 1-b, d; 2-e, f; 3-a; D) 1-b, e; 2-d, f; 3-a; E) 1-b, d; 2-f; 3-a, e.

10. Samarqand va Buxoroda xristianlik tarqalib, diniy muassasalar tashkil qilinishiga nima sabab bo'ladi?

A) Diniy erkinlik joriy etilishi;

B) Xristianlik dini kirib kelishi;

D) O'zaro savdo va madaniy aloqalar;

E) Yahudiylar Ossuriya quvg'inidan qochib kelishi.

11. Qaysi ta'limot bilan bog'liq an'analar o'rganilganida, har bir ibodatxonada rohiblar tayyorlaydigan ta'lim muassasalari bo'lgan?

A) Zardushtiylik; B) Nasroniylik; D) Tangrichilik; **E) Buddaviylik.**

12. Qaysi ta'limotga bog'liq ibodatxonaga tutash binolarda ta'lim maskanlari, huquq idoralari, ma'muriy-xo'jalik ishlari bilan shug'ullanadigan joylar bo'lganidan dalolat beradigan topilmalar aniqlangan?

A) Zardushtiylik; B) Nasroniylik; D) Tangrichilik; E) Buddaviylik.

13. Diniy qonun-qoidalar va xudoning mohiyati hamda irodasi (xudojo'ylik) haqidagi ta'lim nima deb ataladi?

A) Fiqh; B) Ilohiyot; D) Vihara; **E) Daxarma.**

14. Qayerda faqat erkak va ayol xizmatchilar belbog' taqishardi, asilzoda ayollar esa belini bog'lamasdi?

A) Toxariston; B) Buxoro; D) Sug'd; E) Choch.

15. Turon madaniyatidan hikoya qiladigan sug‘d yozuvlari qayerdan topilgan?

1) Mug‘	2) Afrosiyob	3) Panjikent
4) Varaxsha	5) Poykand	

A) 2, 3, 4; B) 1, 5; **D) 1, 2;** E) 3, 5.

16. Tunyuquq bitiktoshi nechanchi asrga oid?

A) VI asr; B) VII asr; **D) VIII asr;** E) VII–VIII asr.

17. Qayerdan katta nestoriyan jamoalarining hujjatlari topilgan?

A) Toxariston; B) Buxoro; **D) Sug‘d;** E) Choch.

18. Tunyuquq qayerda tug‘ilgan?

A) Chin; B) Turon; D) Sug‘d; E) Tibet.


19. Qadimgi ko‘kturk (Kultegin va Bilga xoqon) bitiklari qayerlardan topilgan?

1) Oloy; 2) Oltoy; 3) Xorazm; 4) Yettisuv; 5) Sharqiy Turkiston; 6) Farg‘ona; 7) Zarafshon vodiylari.

A) 2, 3, 5, 6, 7; B) 1, 2, 5, 6, 7; **D) 2, 4, 5, 6, 7;** E) 1, 4, 5, 6, 7.

20. «Farzandlar Xudo oldida qanchalik kamtarlik, Xudo oldida kuchli sevgi nimani anglatishini, Xudodan qo‘rqish qanchalik go‘zal va buyuk ekanini va unda sof aql bilan yurganlarni qutqarishni o‘rgansinlar», degan tamoyilga amal qilgan ta’limot qaysi?

A) Zardushtiylik; **B) Xristianlik;** D) Tangrichilik; E) Buddaviylik.





VII–VIII ASR BOSHLARIDA TURONDA SIYOSIY VAZIYAT

Bu mavzuda o‘quvchilarni baholashda ularning quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga e’tibor qaratish lozim:

- VIII asrda jahon tarixidagi muhim o‘zgarishlar haqida ma’lumot bera olishi;
- bu o‘zgarishlarning bugungi kundagi ahamiyatini tahlil qila olishi;
- jahon tarixida islom dinining vujudga kelishi va Arab xalifaligining tashkil topish jarayonlaridan xabardorligi;
- islom dinining yoyilishi va Arab xalifaligining Movarounnahrga kirib kelishi tarixini so‘zlab bera olishi;
- bu davrga oid tarixiy manbalar bilan tanishligi va ularni tahlil qila olishi;
- xalifalikka qarshi xalq norozilik harakatlari va ularning oqibatlari haqida bilishi va so‘zlab bera olishi;
- Arab xalifaligining Movarounnahr hududida olib borgan siyosati haqida ma’lumot bera olishi;
- Arab xalifaligining Movarounnahrdagi hukmronligining oqibatlari haqida o‘z munosabatini bildira olishi va xulosa qila olishi;
- mavzu yuzasidan berilgan savol va topshiriqlarni bajarishda faollik ko‘rsatishi;
- jamoalarga bo‘lingan holda Arab xalifaligi davrida Movarounnahr hududidagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy o‘zgarishlar va ularning mahalliy xalqning turmush tarzi, madaniyati, urf-odatlariga ko‘rsatgan ta’sirini tahlil qila olishi va xulosasini bayon eta olishi;
- jamoalar bilan ishlash qoidalariga rioya qila olishi, tinglay olishi, savollar bera olishi, boshqa jamoalarning taqdimotlari yuzasidan takliflar bera olishi.

TEST

1. «Inal xoqonga arab, tuxor hujum qildi. O‘shanda ajraladigan choki bor dubulg‘a kiygan Sug‘doq xalqi hammasi keldi. O‘sha kuni hujum qildi. Turk xalqi Temir darvozagacha, Tinsi o‘g‘li yotadigan toqqa yetdi». Mazkur ma’lumot qaysi manbada berilgan?

A) Kultegin bitiktoshining 45–47-qatorlari;

B) Bilga xoqon bitiktoshining 45–47-qatorlari;

D) To‘nyuqo‘q bitiktoshining 45–47-qatorlari;

E) Mug‘ tog‘idagi Sug‘d bitiklarida.

2. Qutayba ibn Muslim shaxsiyati g‘ayratli, uddaburon lashkarboshi, adolatli peshvo, xiyonatni sevmagan, o‘jar tabiatli va ilmga, she’riyatga yaqin nozikta’b inson sifatida gavdalanishi haqidagi ma’lumot kimga tegishli?

A) Xitoy va arab tilidagi solnomalar; B) Muhammad Narshaxiy;

D) Muhammad ibn Ja’far; E) Kultegin bitiktoshi.

3. Qaysi hokimliklar arab qo‘shinlarini qo‘llab-quvvatlaydi?

A) Kesh, Naxshab, Farg‘ona; B) Kesh, Naxshab, Xorazm;

D) Buxoro, Naxshab, Kesh; **E) Kesh, Nasaf, Xorazm.**

4. To‘g‘ri ma’lumotni aniqlang.

A) Sharqiy Turk xoqonligi vorisi Turkash xoqonligi hukmdori, arab istilochilariga dahshat solgan Suluxon turonliklarning arab bosqinchiligiga qarshi kurashini yangi bosqichga ko‘targani turk-sug‘d ittifoqi mahsuli bo‘ldi.

B) Muhammad ibn Ja’farning bayon qilishicha, Ubaydulloh ibn Ziyod xalifa Muoviya I tomonidan Xurosonga yuboriladi.

D) Xuroson noibi Qutayba ibn Muslim islom dinini qabul qilganlardan xiroj va jiz’ya soliqlarini olmaslikka qaror qiladi.

E) Tanazzulga uchragan Sharqiy Turk xoqonligining Uyg‘ur xoqoni Arab davlati vassaliga aylangan edi.

5. Arablarga qarshi fors, turk va sug‘d qo‘shinlari ittifoqi harakat qilib, qaysi shaharni qaytarib oldilar?

A) Poykand; B) Romitan; D) Marv; **E) Balx.**

6. Turon (Xuroson) shaharlari orasida birinchi bo‘lib arab istilochilari tomonidan egallangan shahar qaysi?

A) Poykand; B) Maymurg‘; **D) Marv;** E) Balx.

7. Abu Bakr Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarida berilishiga ko‘ra, Buxoro hukmdori nima sababdan Ubaydulloh ibn Ziyoddan muhlat talab qiladi?

A) turklardan yordam yetib kelishi uchun;

B) o‘g‘li yosh bo‘lganligi uchun bir xotin taxtda o‘tirgani uchun;

D) askarlarini bir joyga to‘plash uchun;

E) jang taktikasini tuzish uchun.

8. Yillar to‘g‘ri muvofiqlashtirilgan javobni aniqlang.

1.	705-y.	Qutayba ibn Muslimni arab xalifasi Abdurahmon ibn Marvon Xurosonga noib etib yubordi.
2.	720-y.	Sug‘d ixshidi G‘urak va Panjikent hokimi Divashtich boshchiligida arablarga qarshi harbiy harakatlar boshlandi.
3.	654-y.	Maymurg‘ bosib olindi.
4.	657-y.	Chag‘oniyon bosib olindi.
5.	673-y.	Arab qo‘shinlari Amudaryodan kechib o‘tib, Buxoro hududiga bostirib kiradi.

A) 1, 3, 5; B) 2, 4, 5; **D) 2, 3, 5;** E) 3, 4, 5.

9. Arablar Buxoroga yurishdan qaytayotganda yo‘l-yo‘lakay qaysi shaharni egallashdi?

A) Poykand; B) Romitan; D) Marv; **E) Termiz.**

10. Qaysi atama «daryoning narigi tomoni» ma’nosini beradi?

A) Movarounnahr; B) Xuroson; D) Arodi atturk; E) Marv.

11. Qaysi omillar sabab Sosoniylar saltanati quladi?

1. Turkiylar bilan bo‘lgan tinimsiz to‘qnashuvlar.
2. O‘zaro ichki urushlar.
3. Arablar bilan bo‘lgan tinimsiz to‘qnashuvlar.
4. Eftaliylar bilan bo‘lgan tinimsiz to‘qnashuvlar.
5. Mahalliy hokimlar mustaqilligi.
6. Vizantiyaliklar bilan bo‘lgan tinimsiz to‘qnashuvlar.

A) 1, 2, 4, 6; B) 1, 2, 3, 4; D) 1, 3, 4, 5; E) 1, 2, 3, 4, 5.

12. Narshaxiyning yozishicha, kim yosh bo‘lganligi uchun Buxoro taxtida bir xotun o‘tirar edi?

A) Qutayba; B) Tunyuquq; D) Muoviya I; **E) Tag‘shoda.**

13. Muoviya I kimni Buxoroga yurish uchun yuboradi?

A) Ubaydulloh ibn Ziyod; B) Muhammad ibn Ja’far;

D) Qutayba ibn Muslim; E) Ziyod ibn Solih.

14. Nimaning natijasida zodagon dehqonlarning ko‘pi o‘z chokarlari va kadivarlari bilan islomni qaytadan qabul qilib, arablar tomoniga o‘tadilar?

A) zodagonlarga yordam berish uchun Yettisuvdan turk lashkarlari kelishi’

B) oliy martabali arab lashkarboshilari bilan mulkdor dehqonlar o‘rtasidagi qon-qarindoshlik (quda-andachilik) aloqalari o‘rnatilishi;

D) Xuroson noibi Ashros islom dinini qabul qilganlardan xiroj va jiz’ya soliqlarini olmaslikka qaror qilishi;

E) Islomni qabul qilgan aholining ko‘pchiligi nomigagina musulmon bo‘lib, uzoq vaqtlargacha pinhona o‘z dini va e’tiqodlarida qolishi.

15. To‘g‘ri ma’lumotni aniqlang.

A) sug‘dliklarga yordam berish uchun Yettisuvdan mo‘g‘ul lashkarlari keladi;

B) 721-yilda Sug‘d ixshidi G‘urak va Panjikent hokimi Divashtich boshchiligida arablarga qarshi harbiy harakatlar boshlandi;

D) «Turk xalqi Temir darvozagacha, Tinsi o‘g‘li yotadigan toqqa yetdi» — To‘nyuqo‘q bitiktoshi 44–47-qatorlari;

E) Turon hududi ikki qismga bo‘lindi: 1) Movarounnahr («Daryoning narigi tomoni») va 2) Arodi atturk («Turklar yerlari», ya’ni arablarga bo‘ysunmagan hukmdorlar yerlari).

16. Nima uchun 720-yilda Sug‘d ixshidi G‘urak va Panjikent hokimi Divashtich boshchiligida arablarga qarshi harbiy harakatlar boshlandi?

A) Islomni qabul qilmaganlar jon solig‘i – jiz’ya to‘laganligi;

B) Arab tili, yozuvi va xalifalik qonun-qoidalarining joriy etilganligi;

D) Mahalliy hukmdorlar tomonidan aholining boshqarilishi va arablar uchun soliq yig‘ish vazifalarining bajarilishi;

E) Hamma javob to‘g‘ri.

17. Nimaning natijasida arablar bilan mahalliy zodagonlar o‘rtasida ma’lum darajada ittifoq yuzaga kela boshlaydi?

A) zodagonlarga yordam berish uchun Yettisuvdan turk lashkarlari kelishi;

B) oliy martabali arab lashkarboshilari bilan mulkdor dehqonlar o‘rtasidagi qon-qarindoshlik (quda-andachilik) aloqalarining o‘rnatilishi;

D) Xuroson noibi Ashros islom dinini qabul qilganlardan xiroj va jiz’ya soliqlarini olmaslikka qaror qilishi;

E) Islomni qabul qilgan odamlarning ko‘pchiligi nomigagina musulmon bo‘lib, uzoq vaqtlargacha pinhona o‘z dini va e’tiqodlarida qolishi.



18. Rasmdagi shaxs haqida to‘g‘ri ma’lumotni aniqlang.

A) 704-yili uni arab xalifasi Muoviya I Xurosonga noib etib yubordi;

B) Shomning Boxiliy degan joyida tavallud topgan;

D) Islom dinini qabul qilganlardan xiroj va jiz’ya soliqlarini olmaslikka qaror qiladi;

E) Paykand va Romitanni bosib olib, ko‘p kishilarni asir qildi.

19. Nima uchun islom dinini qabul qilishning yangi shartlariga ko‘ra, musulmon bo‘lganlar xatna qildirishlari va «Qur’on» suralarini yod olishlari shart edi?

A) Islomni qabul qilgan odamlarning ko‘pchiligi nomigagina musulmon bo‘lib, uzoq vaqtlargacha pinhona o‘z dini va e’tiqodlarida qolaverganligi uchun;

B) arablar bu o‘lkada o‘zlarining siyosiy mavqelarini mustahkamlash uchun;

D) Islom dinini qabul qilishda aholi o‘rtasida qiziqish uyg‘otish uchun;

E) arablar uchun o‘lkaning geografik o‘rni muhim ahamiyat kasb etganligi uchun.

20. Ubaydulloh ibn Ziyod qancha buxoroliklarni asir oladi?

A) ikki ming; B) uch ming; **D) to‘rt ming;** E) besh ming.

TARIXIY HUJJAT

MOVAROUNNAHRGA TASHRIF BUYURGAN ILK ARAB AYOLI

Abu Ja’far at-Tabariyning xabar berishicha, 681–(680-81)yilda Xuroson amiri etib tayinlangan arab sarkardasi Salm ibn Ziyod yana Buxoro tomon yurish qiladi. O‘zi bilan u rafiqasi Abdulloh qizi Umm Muhammad ismli ayolni olib boradi. Bundan xabar topgan Buxoro malikasi Xo‘tak Xotun yana turk xoqoni huzuriga elchi yuborib, uni yordamga chaqiradi. O‘zining maktubida Xo‘tak Xotun turk xoqoni bilan nikoh bitimi tuzishga va o‘z yerlarini uning mamlakati bilan birlashtirishga rozi ekanligini xabar beradi. Turk xoqoni yana katta qo‘shin bilan Buxoroga yetib kelib, arablar bilan qattiq jang qiladi. Lekin turklar yana mag‘lubiyatga uchraganidan keyin Xo‘tak Xotun arablar bilan yana sulh bitimi tuzishga majbur bo‘lib, ularga juda ham og‘ir soliq to‘lashni o‘z bo‘yniga oladi.

Buxoroni ishg‘ol qilgandan keyin Salm ibn Ziyod Samarqand tomon yo‘l oladi. Yo‘lda uning rafiqasi Umm Muhammad o‘g‘il ko‘rib, uning ismini as-Sug‘diy deb qo‘yadilar. Aytishlaricha, Umm Muhammad Movarounnahr tuprog‘iga qadam bosgan birinchi arab ayoli bo‘lgan ekan. Samarqand arablarga taslim bo‘lganidan keyin Umm Muhammad Samarqand podshohining rafiqasidan o‘ziga biror taqinchoqni qarzga berib turishni so‘raydi. Shunda Samarqand malikasi unga o‘zining juda ham qimmatbaho tojini beradi. Lekin Umm Muhammad tojni egasiga qaytarib bermasdan, uni o‘zi bilan Marvga olib ketadi.

Shamsiddin Kamoliddin maqolasidan

QUTAYBANING O‘LDIRILISHI

714-yilda amalga oshirilgan muhim elchilik safari Qutayba ibn Muslimning ham umri, ham hukmronligi yakuniga yaqin sodir bo‘lgan edi. Qutayba ibn Muslim yangi xalifa Sulaymon ibn Abdulmalik (96/715–99/717) taxtga o‘tirganidan so‘ng unga elchi bilan 3 ta maktub jo‘natgan:

- *1-maktubda* Al-Volid o‘limi yuzasidan o‘z ta’ziyasini bildirgan, Al-Volid va Abdulmalik davridagi xizmatlari va itoatkorligi eslatilgan;
- *2-maktub:* yangi xalifa Sulaymonga nisbatan ham itoatini bildiruvchi mazmundagi maktub;
- *3-maktub:* Yazid ibn Muhallabni tahqir etuvchi maktub.

Bu yerda elchi Qutaybaning amriga binoan, zukko bo‘lishi darkor bo‘lgan. Maktublarni ketma-ketlik asosida vaziyatga qarab topshirish zarur bo‘lgan. Unga ko‘ra, Qutayba elchiga avval birinchi maktubni topshirishni, agar u maktubni Muhallabga bersa, ikkinchi maktubni berishni va Yazid ikkinchi maktubni o‘qiyotganida, xalifa Sulaymon ibn Abdulmalikka uchinchi maktubni berishni buyurgan. Bu vaziyatda xalifa tomonidan elchiga ulkan izzat-ikrom ko‘rsatilgan, ammo elchi ortga qaytmasidan avval Qutayba isyon e’lon qilgan.

Isyon natijasida Qutayba ibn Muslim 96/715-yilda halok bo‘ldi va Xuroson valiysi etib Yazid ibn Muhallab tayinlanadi. Bu voqea Abdulloh ibn al-Axtam ishtirokidagi muhim elchilik safari natijasida amalga oshdi. Iroq noibligidagi Yazid ibn Muhallab Xurosonni ko‘zlab, Abdulloh ibn al-Axtamni elchi sifatida xalifa Sulaymon huzuriga ikkita maktub bilan jo‘natdi. Maktublarning birida Iroqdagi siyosiy-ijtimoiy vaziyat yoritilgan bo‘lsa, ikkinchisida elchi shaxsiyatiga tegishli — uning zukkoligi, bilimdonligi hamda Xuroson va Iroqdagi donishmandligi haqida maqtab yozilgan. Tashrif buyurgan elchi uch kundan so‘ng maxsus marosim asosida qabul qilindi. Qabul davomida xalifa Sulaymon o‘zini Xurosonda katta bo‘lganini bildirib, elchi bilan unga kimni noib etishni maslahatlashgan. Abdulloh ibn al-Axtam elchi sifatida zukkoligidan bir necha nomzodlar yakunida Yazid ibn Muhallabning ham nomzodini tavsiya qilgan va elchilik missiyasi sifatida va’da qilingan valiylik yorlig‘ini uning nomiga olib kelishga erishgan. Bu yerda Yazid o‘zining siyosiy maqsadiga diplomatik usul bilan erishdi. Chunki elchi uchun safardan asosiy murod ham Xuroson noibligiga erishish edi. Demak, safardagi missiya bajarildi.

N. Ibragimova maqolasi



ARABLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA BUXORO

Arablar Buxoroda boshqargan hukmdorlarni o‘z tillariga moslab «Buxorxudotlar», «Buxor-xudo» (Buxoro hokimi) deb ataganlar. Buxorxudotlarning hududi Buxoro viloyatining Buxoro, Vobkent, Kogon, Romitan, Jondor va Qorako‘l tumanlari yerlaridan iborat bo‘lgan. Arablar Buxoroni egallagandan keyingi dastlabki yillarda hokimiyatni buxorxudotlar bilan birgalikda boshqarganlar.

715-yili Xuroson noibi Qutayba ibn Muslim o‘ldirilgach, buxorxudotlar Buxoroni bir yil davomida mustaqil idora qilganlar. 782-yil so‘nggi buxorxudot Bunyod Muqanna qo‘zg‘olonini qo‘llab-quvvatlagani uchun arablar tomonidan qatl etiladi. Buxorxudot Kono birinchi bo‘lib o‘zining tasviri va uning ostiga «Buxoro hokimi» degan yozuv zarb qilingan kumush tangalar (dirhamlar) chiqargan. Bunday tangalar arxeologik qazishmalar vaqtida ko‘plab topilgan. Tarixchi G‘. G‘oibovning «Arablarning O‘rta Osiyoga qilgan ilk yurishlari» nomli kitobida buxorxudotlar vakillari quyidagi tartibda berilgan: Bidun (?–673), Xo‘tak Xotun (673–692), Tug‘shoda I (692–724), Tug‘shoda II (724–738), Qutayba ibn Tug‘shoda (738–753), noma’lum buxorxudot (Tug‘shoda III) (753–768), Sukon (768–775), Bunyod (775–782).

Halim To‘rayevning
«Buxoro tarixi» kitobidan

Movarounnahr (arab. – daryoning narigi tomoni) – o‘rta asrlarda islom mamlakatlarida keng tarqalgan geografik atama. Uning xuddi shu ma’noni anglatgan fors tilidagi «Varorud» va «Varojayxun» shakllari ham mavjud bo‘lib, ularning barchasi avval (XI asrgacha) Xuroson viloyatining davomi sifatida, XI asrning boshida esa Turkiston, ya’ni Qoraxoniylar davlati va undan keyingi turkiy davlatlar tarkibidagi ma’muriy birlik sifatida tushunilgan. XI asrda Yevropa tarixshunosligida mazkur arab atamasining lotincha tarjimasi bo‘lmish yangi «Transoksiana» yoki «Transoksaniya» (Oksning narigi tomoni) atamalari muomalaga kiritilgan.

Hozirgi zamon tarixiy-geografik ilmiy adabiyotda Movarounnahr deganda, asosan, Turkmanistondan tashqari bo‘lgan O‘rta Osiyo hududlari, ya’ni O‘zbekiston, Tojikiston, Qirg‘iziston va Qozog‘istonning janubiy qismi tushuniladi.

Movarounnahr atamasi ilk bor payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) haqidagi hadislarda tilga olingan. Aftidan, bu atama arablar orasida islomgacha bo‘lgan davrlarda ham ma’lum bo‘lib, u vaqtda (mil. avv. VI asr) Sosoniylar davlatidan shimoli-sharqda Jayxun, ya’ni Amudaryoning orqasida joylashgan Turk xoqonligiga qarashli yerlarni anglatgan. Qadimgi fors manbalaridagi ma’lumotlarga tayangan arab geograf olimi Yoqut Hamaviy Movarounnahr atamasini Turon mamlakatining nomi deb bilgan. Arablar o‘zlarining sharqqa qilgan ilk yu-

rishlari davomida (VII asrning 2-yarmi – VIII asrning boshlarida) ikki xil tushuncha haqida ma'lumotga ega bo'lganlar: «ma duna-n-nahr», ya'ni «daryoning pastki tomoni» va «movarounnahr» — «daryoning narigi tomoni». Ulardan birinchisi Xurosonda sharqda Amudaryodan janubdan Hindikush tog'largacha bo'lgan Toxariston yerlarini; ikkinchisi esa, Amudaryodan shimolda joylashgan Shimoliy Toxariston va Sug'd yerlarini o'z ichiga olgan. IX–X asrlarda yashagan va O'rta Osiyo hududlariga tavsif bergan arab geograflaridan faqat al-Istaxriy va Ibn Xavqal ularga nisbatan Movarounnahr atamasini maxsus ishlatganlar. Boshqa arab geograflari esa O'rta Osiyo hududlari haqida so'z yuritganlarida Movarounnahr atamasini juda tor ma'noda ishlatib, uni Xurosonning davomi yoki al-Mashriq (Sharq)ning bir qismi sifatida tasvirlaganlar. Al-Mashriq tushunchasiga esa ular Xuroson va Movarounnahr yerlaridan tashqari, Hindiston, Xitoy yerlarini va hatto Hind va Tinch okeanlaridagi Yaponiyagacha bo'lgan orollarni kiritganlar (Ibn Xurdodbex).

XI asr boshidan e'tiboran Movarounnahr istilolari hudud jihatdan ayrim manbalarda Sug'd va Xorazm, boshqalarida esa Sug'd va Shimoliy Toxariston yerlarini o'z ichiga olgan. Ma'lum jihatdan esa, bu atama endi Turkiston, ya'ni Qoraxoniylar davlati, keyinchalik esa Xorazmshohlar, Chig'atoylar, Temuriylar va Shayboniylar davlatlarining tarkibidagi ma'muriy birlikni anglatgan.



Shunday qilib, Movarounnahr atamasi o'rta asr manbalarida turlicha talqin qilinib, geografik hudud sifatida avval Turon, Turk xoqonligi yoki Turkiston mamlakati (XI asrdan boshlab), ma'lum vaqt esa Xorazm (XII asrning oxiri – XIII asrning boshi) tarkibiga kiritilgan. Demak, bu atama faqat geografik ma'noga ega bo'lib, har xil davrlarda turli davlatlar – Turk xoqonligi, Arab xalifaligi, shuningdek, Somoniylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar va boshqa davlatlarning tarkibiga ma'muri birlik sifatida kirgan. Bu atama haqida turli manbalarda keltirilgan ma'lumotlarning yig'indisi ham hududiy jihatdan «O'rta Osiyo» atamasini anglatadigan Turkiston tabiiy geografik o'lkasining barcha yerlarini qamrab olmaydi. Chunki, mazkur mintaqa tarkibiga kirgan shimoliy Xuroson (Turkmaniston), Yettisuv (Qozog'iston) va Janubiy Toxariston (Afg'oniston) yerlari hech qanday manbalarda Movarounnahr tarkibiga kiritilmagan. Shuning uchun, Movarounnahr atamasining o'rta asrlarda ishlatilgan eng keng ma'nodagi tushunchasi tarkibiga shartli ravishda faqat Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida joylashgan yerlarni kiritish mumkin.

(O'zME, 6-jild)

MOVAROUNNAHR[25] NOHIYATI VA UNDAGI SHAHARLAR HAQIDA SO‘Z

Bu shunday nohiyatki, uning Sharqiy hududi — Tibat hududiga tutash, janubi — Xuroson, g‘arbi — G‘uz va Xallux (Qarluq), shimoli ham Xallux hududi [bilan chegaradosh]. Bu katta va obodon nohiyat, noz-ne’matlari mo‘l; Turkistonning eshigi va savdogarlar [gavjum] joy. [U yerdagi] odamlar jangovar, zafar qozonuvchi, mergan va pokdin. Bu adolat hukmron nohiyat erur. Uning tog‘larida kumush va oltin konlari va qimmatbaho toshlar juda ko‘p, turli ma’danlar, ruh kuporosi, margimushli oltingugurt, oltingugurt va navshadil (nashatir) ham tog‘dan [qazib] olinadi.

Buxoro Movarounnahrdagi eng katta va obod shahar, mashriq podshosining poytaxti. [Havosi] nam joy, mevalar va oqar suvlar ko‘p. Odamlari mergan va zafar qozonuvchi. U yerda yaxshi jun gilam-palos, sholcha va joynamoz tayyorlanadi, pashmin va sho‘ra (ham) ishlab chiqariladi (va uni boshqa) joylarga olib ketadilar. Buxoro hududi o‘n ikki farsangga o‘n ikki farsangdir va uning gir atrofi uzluksiz devor bilan o‘rab olingan va uning hamma rabotlari-yu qishloqlari ana shu devor ichkarisida. *Mu’kon, Xujodiy, Dando‘na, Bo‘mikas, Madyomijkas, Jazg‘ankas* — Buxoro hududidagi minbarli shaharchalar va obodon joylardir, ekinzorlari ko‘p. *Farab* — Jayxun [daryosi] bo‘yidagi shaharcha, daryo mirining qarorgohi o‘sha yerda, atrofi cho‘l.

Baykand (Poykand) — shaharcha, uning mingga yaqin raboti bor, yeri yaxshi; u yerda Buxorodan keltirib dafn etilgan go‘rxonlarning qabr-sag‘analari bor.

Sug‘d — nohiyat, mashriq nohiyatlari ichida undan xurramroq joy yo‘q. Oqar suvlar va daraxtlar ko‘p, havosi sog‘lom, odamlari mehmondo‘st va quvnoq, noz-ne’mat farovon va obod joy; yumshoq tabiatli, diyonatli odamlar ko‘p. *Tavovis* — Buxoroga qarashli shaharcha, Sug‘d sarhadida; unda har yili bir kun bozor bo‘ladi va ko‘p xalq yig‘iladi. *Karmina, Dabusiy, Rabinjan* — Sug‘ddagi shaharchalar, [Buxorodan] Samarqandga boradigan yo‘lda; obod [joylar], noz-ne’mat, oqar suvlar va daraxtlar [ko‘p]. *Kushoniy* — Sug‘ddagi eng obod shahar. *Armon* — Kushoniyga qarashli (joy). *Istixan (Ishtixan)* — xurram va obod joy, noz-ne’mat ko‘p. *Ganjkas, Farnkas* — ikki shahar, Zarafshon daryosi bilan Ishtixan oralig‘ida joylashgan. *Daron* — mo‘jazgina ko‘rkam shahar, Samarqandga tegishli.

[25] Movarounnahr – (arabcha, daryoning narigi tomoni), o‘rta asrlarda islom mamlakatlarida keng tarqalgan geografik atama. Uning xuddi shu ma’noni anglatgan fors tilidagi «Varorud» va «Varojayxun» shakllari ham mavjud bo‘lib, ularning barchasi avval (XI asrgacha) Xuroson viloyatining davomi sifatida, XI asr boshidan e’tiboran esa Turkiston, ya’ni Qoraxoniylar davlati va undan keyingi turkiy davlatlar tarkibidagi ma’muriy birlik sifatida tushunilgan. XI asrda Yevropa tarixshunosligida mazkur arab atamasining lotincha tarjimasi bo‘lmish yangi «Transoksiana» yoki «Transoksaniya» atamalari muomalaga kiritilgan.

Samarqand — katta shahar, obod, noz-ne'mat farovon va butun jahon savdogarlari [kelib-ketadigan] joy. Uning shahriston, kuhandiz va robodi bor. Bozorining tomi ustidan qalayidan [yasalgan] ariqdan suv oqadi; suv tog‘dan keltirilgan. Unda monaviylarning [suv oladigan] hovuzlari bor; ul toifani nag‘o‘shoq ataydilar. Ul shaharda qog‘oz ishlab chiqariladi, [uni] butun jahonga olib ketadilar, kanop (qunnab) ipi [ham] tayyorlanadi. Buxoro daryosi Samarqand shahri yaqinidan [oqib] o‘tadi. *Varag‘sar, Banjikas (Panjikat)* — ikkita shaharcha. Samarqandga qarashli, Buxoro daryosi bo‘yida joylashgan, suv taqsimlash joyi ana shu Varag‘sardadir.

Kash — iqlimi issiq shaharcha, unda yomg‘ir ko‘p yog‘adi, shahriston, kuhandiz va robodi bor. Shahar darvozasi oldidan ikkita daryo oqib o‘tadi, (suvi) ekinlarga ishlatiladi. Uning tog‘larida [har xil] minerallar bor, [jumladan] tarangubin va qizil tuz; uni butun jahonga olib ketadilar. Yaxshi tuyalar ko‘p boqiladi. *Navqat – Quraysh* – ekinzorlari ko‘p shaharcha.

Naxshab (Qarshi) — noz-ne'matlar farovon, ekinzorlar ko‘p obod shahar. Uning bir daryosi bor, shaharning o‘rtasidan [oqib] o‘tadi. *So‘nax* — Naxshabga qarashli shaharcha. *Sakifag‘n* — shaharcha, ekinzorlari ko‘p. *Bazda* — shaharcha, aholisi kam, [biroq] ekinzorlari ko‘p; bir quruq o‘zani bor va unda yilning ma'lum faslidagina suv oqadi, xolos. [Aholi] aksari holda quduq suvidan va do‘loblar [vositasida chiqarilgan suvdan foydalanadi]. *Kasba* — ekinzorlari ko‘p joy.

Tirmiz (Termiz) — ko‘rkam shahar, Jayxun daryosi bo‘yida, uning daryo bo‘yida joylashgan bir kuhandizi bor. Bu shahar Xuttalon va Chag‘oniyonning markazidir. Unda yaxshi sovun, yashil bo‘yra va yelpigich ishlab chiqariladi. *Hoshumgird* — shaharcha, qo‘y va chorvasi ko‘p. *Jarmankon* — shaharcha, ekinzorlari va oqar suvlari bor.

Chag‘oniyon — xarob nohiyat, [biroq] katta nohiyat, ekinzorlari ko‘p. Dehqonlari no‘noqroq, darveshlar joyi erur, lekin noz-ne'matlari bisyordur. Odamlari jangovar va botir. Bu havosi sog‘lom, yeri hosildor va shirin suvlari bor. U yerda qisman yilqi [ham] boqiladi, chakmon, gilam-palos va ko‘plab za'faron tayyorlanadi. Bu nohiyatning podshosi muxtoriyat [huquqiga ega] podshohlardan hisoblanadi va uni Chag‘oniyon amiri deydilar. *Dorzangiy* — shaharcha, aylanasiga xandaq bilan o‘rab olingan, Chag‘oniyon hududida. U yerda paytava, gilam va sholcha tayyorlanadi. *Chag‘oniyon*— katta shahar, tog‘ etagida joylashgan, ushbu nohiyatning qasabasidir. Oqar suvlari bor va xush havoli joy erur, odamlari darvesh.

Bosund — shaharcha aholisi ko‘p, Buxoro va Samarqandga boradigan yo‘lda joylashgan. Mustahkam joy, odamlari jangovar. *Zaynur* — shaharcha, ekinzorlari ko‘p, [biroq] aholisi oz. *Navjod* — shaharcha, mustahkam ko‘rg‘oni bor. *Digar* — shaharcha, Nihom daryosi yaqinida joylashgan, havosi xush va noz-ne'mati ko‘p. *Hamvoron* — shaharcha, Kasavon daryosi yaqinida joylash-

gan, aholisi kam. *Shumon* — mustahkam shahar, tog‘ yon bag‘rida joylashgan. Uning aylanasi boru bilan o‘rab olingan, tog‘ tepasiga qurilgan qo‘rg‘oni va qo‘rg‘on ichida katta buloq bor. Unda za’faron ko‘p yetishtiriladi. *Afrizon* — aholisi kam bir shahar, tog‘lar orasida joylashgan. *Vishgird* — mustahkam shahar, tog‘ va dashtlikda joylashgan: Chag‘oniyon va Xuttalon oralig‘ida. U yerda doim shamol esadi. Shams Balxiyning, uni Olloh rahmat qilsin, qabri o‘sha yerda. Unda za’faron ko‘p yetishtiriladi.

Sarushana (Ustrushona) — katta va obodon nohiyat, noz-ne’mati, shahar va rustolari ko‘p. U yerda sharob ko‘plab tayyorlanadi, tog‘laridan temir [qazib] olinadi. Zomin — Xo‘jand — Farg‘ona yo‘lidagi shahar, Sarushana [nohiyati]ga qarashli. Unda mustahkam qo‘rg‘on bor; ekinzorlari ko‘p bir joy erur. *Charqon* — shaharcha, Sarushana [nohiyati]ga kiradi; obod joy.

Dizak (Jizzax) — shaharcha, unda oqar suv bor. Uning yaqinida Marsamanda degan joy bor, unda bir yilda bir kun bozor bo‘ladi va o‘sha kuni ul bozorda yuz ming dinor [miqdorida mol] savdo qilinadi, deydilar. *Navinjkas* — Sarushananing qasabasi va bu nohiyat amirining qarorgohidir. Aholisi ko‘p, obod, noz-ne’mat farovon va oqar suvlari bor bir joydir. *Fag‘kas, G‘arq, Sobot, Kurkas* — Sarushana hududidagi shaharchalar, ekinzorlari va aholisi ko‘p. *Butamon* — tog‘-daralarda joylashgan nohiyat, Sarushana hududida. U uch qismdan iborat: Ichki Butamon, O‘rta Butamon va Tashqi Butamon. Bu ekinzorlari ko‘p bir nohiyatdir; darveshlar joyi. Uning qishloqlari va rustolari ko‘p. Tog‘larida navshodir konlari ko‘p erur. *Barg‘ar* — O‘rta Butamondagi nohiyat va Daryoja [ham] uning tarkibiga kiradi. Buxoro daryosi Daryojadan oqib boradi, unga O‘rta Butamonda irmoqlar qo‘shiladi.

Xo‘jand — shahar, shu nomdagi nohiyatning qasabasi erur; ekinzorlari ko‘p, odamlari muruvvatli, u yerda anor ko‘p yetishtiriladi.

Farg‘ona — katta va obod nohiyat, unda noz-ne’matlar farovon erur; tog‘lar ko‘p, dasht-u shaharlari, oqar suvlari bor. Turkistonning eshigidir. U yerga ko‘plab turk qullar keltiriladi. Tog‘lari oltin, kumush, mis, qo‘rg‘oshin, navshodir, simob, yonartosh, poyzahr toshi, magnit toshi va [turli] minerallarga boy; u yerda tabarxun va antiqa dorilar tayyorlashda ishlatiladigan giyohlar bor. Qadimda Farg‘ona podshohlari muxtoriyat [huquqiga ega] podshohlardan bo‘lganlar va ularni dehqon deyishgan. *Chadg‘al* — Farg‘onadagi nohiyat, tog‘-daralarda joylashgan; shaharchalari bor, qishloqlari ko‘p. U yerda qo‘rg‘oshin qazib olinadi. Ma’danlar bor. Ko‘plab qo‘y boqiladi. *Axsikat* — Farg‘onaning qasabasi, amir va mas’ul a’yonlarning qarorgohi erur; katta shahar, Xashart daryosi bo‘yida joylashgan; tog‘ etagida. Uning tog‘larida kumush va oltin konlari ko‘p. Odamlari musallasni ko‘p ichadi.

Voskat — Xo‘jand va Farg‘ona [viloyatlari] o‘rtasidagi chegara [joy]; ekinzorlari ko‘p bir shaharcha. *Yasho‘x* — shaharcha, u yerdan simob [qazib] olinadi. *Tamoxas*,

Nomankoxas — ikkita shaharcha, tog‘ yon bag‘rida joylashgan.

So‘x — tog‘da, Butamon va Farg‘ona oralig‘idagi chegarada joylashgan; uning oltmishta qishlog‘i bor. *Avol* — tog‘ etagi, u yerda qishloqlar bor. *Bag‘askon* — Avolga qarashli [joy]. *Xavokand, Rishton, Zandaromash* — gavjum shaharchalar, ekinzorlari ko‘p. *Qubo (Quva)* — katta shahar, [bu] Farg‘ona nohiyatidagi eng obod shahar erur. *O‘sh* — obod joy, noz-ne’mat ko‘p, odamlari jangovar erur; tog‘ etagida joylashgan. Bu tog‘da qo‘riqchilar qo‘yilgan, ular kofir turklarni qaytarib turadi. *O‘rasht, Xirsob* — ikkita shaharcha, oqar suvlari, yalangliklari bor, noz-ne’mat bisyordur, havosi sog‘lom.

O‘zgand — Farg‘ona bilan Turk [lar o‘lkasi] oralig‘idagi chegarada joylashgan shahar. Uning yaqinidan ikkita daryo [oqib] o‘tadi: birini Tabog‘ar daryosi deydilar, Tibatdan boshlanadi; boshqa birini Barsxon [daryosi] ataydilar, Xalluxdan oqib keladi. *Xatlom* — shaharcha, Xuroson amiri Nasr ibn Ahmad shu yerda tug‘ilgan ekan. *Kasho‘kas, Pob* — ikkita obod shaharcha, ekinzorlari ko‘p. Mazkur shaharlar barchasi Farg‘ona nohiyatiga mansub. *Busht, Kalaskon, Yarkand, Ko‘kas, Xushkob* — bir-biriga yaqin joylashgan shaharchalar, ekinzorlari ko‘p, odamlari darvesh.

Iloq — katta nohiyat, tog‘ va cho‘l oralig‘ida joylashgan. Aholisi ko‘p, ekinzorlari bor, obod joy; odamlari oddiy. Unda shahar va rustolar ko‘p. Rustolar aholisida ko‘proq oq kiyimlilar odati bor, ular jangovar va qat’iyatli. Tog‘larida kumush va oltin koni bor. Uning hududi Farg‘ona, Jadg‘al va Choch hamda Xashart daryosi bilan tutash. Bu nohiyat hokimlarini Iloq dehqoni ataydilar, qadimda bu nohiyatdagi dehqonlar muxtoriyat [huquqiga ega] hokimlar edi. *Navkas* — Iloqning qasabasi; shahristoni, qo‘rg‘oni va robodi bor. Ularning bir daryosi borkim, uni Iloq (daryosi) deydilar va Navkas uning bo‘yida joylashgan. *Ko‘hisim* — shaharcha, tog‘ yonbag‘rida. Uning tog‘ida kumush koni bor. *Daxkas* — shaharcha, uning tog‘idan margimush [qazib] olinadi. *Yamudlig‘, Abrlig‘, Iytulax, Alaxjos* — Farg‘ona bilan Iloq chegarasida joylashgan shaharchalar. *Somisibrak* — ko‘rkam va obod shaharcha. *Barfaksum, Hanax, Xos* — shaharchalar, ekinzorlari ko‘p, aholisi kam. *G‘uzjand* — ko‘rkam va noz-ne’mat to‘kin shaharcha. *Tukas* — shaharcha, unda to‘kin-sochinlik erur. *Kalashijak, Xambarak, Ardlonkas, Satbag‘vo, Naxnoh* — bir-biriga yaqin joylashgan shaharchalar, ekinzorlari va oqar suvlari ko‘p. *Ardlonkas* ushbu shaharlarning qasabasidir. *Kurol, G‘azak, Xayvol, Varzo‘l, Kabariya, Bag‘ravonak* — bir-biriga yaqin joylashgan kichik-kichik shaharchalardir, ekinzorlari ko‘p; u yerda yilqi boqiladi. A*bradkas, Bag‘vikas, Farnkas* — bir-biriga yaqin joylashgan kichik-kichik obod shaharchalar, noz-ne’mat farovon erur.

Choch[26] — katta va obod nohiyat; odamlari botir, urushga shay va badavlat;

[26] Choch – arablar bu shaharni Shosh deb atashgan. Chunki arab alifbosida «ch» harfi mavjud emas, arab tilida bu harf o‘rniga «sh» harfi qo‘llaniladi.

noz-ne’mat mo‘l. U yerda kamon, kamon o‘qi va xalanj cho‘pi ko‘p tayyorlanadi. Qadimda uning podshohlari muxtoriyat [huquqiga ega] podshohlar bo‘lganlar. *Bikas* — Choch [viloyati]ning qasabasi erur, katta shahar, obod va ko‘rkam shahar, viloyat sultonining qarorgohi shu yerda joylashgan. *Navijkas* — shaharcha, Parak va Xashart daryolarida ishlovchi qayiq haydovchilar ushbu [shahar]dandirlar. *Karjokas, Tarko‘s, Xotunkas, Dam’onkas* — ikkita kichik va obod shaharcha; Sug‘d va Samarqandning borgohi erur; Farg‘ona va Iloqqa qarashli. *Banokat* — Xashart daryosi bo‘yida joylashgan, ko‘rkam va obod shaharcha. *Xarsankat, Xarajkat (Chinachkat), Shturkas, Sabkas, Nujokat, Kankarol* — Choch viloyatidagi shaharchalar, ularda chochiy kamonlar tayyorlanadi; ko‘rkam, noz-ne’mat bisyor, obod joylardir.

Isbijob — musulmonlar va kofirlar [yashaydigan viloyatlar] chegarasida joylashgan nohiyat; Turkiston sarhadidagi katta va obodon joy; Turkiston hududida nimaiki ishlab chiqarilsa, o‘sha yerga keltiriladi. Unda shaharlar, nohiyatlar va rustolar anchagina. U yerda kigiz tayyorlanadi va [ko‘plab] qo‘y [boqiladi]. Bu nohiyatning qasabasi Isbijob nomli shahardir. Bu katta va noz-ne’matlar bisyor shahar bo‘lib, sultonning qarorgohi erur. Turli boyliklari ko‘p; butun dunyo savdogarlarining to‘plangan joyi erur. Sonikas (Sobanikas) — ko‘rkam, noz-ne’mat ko‘p, boy shahar. Budahkas (Buzahkas) — ko‘rkam va noz-ne’mat ko‘p shaharcha. Sutkand — noz-ne’matli joy, daryo bo‘yida joylashgan; odamlari jangovar. Unda sulh tuzgan turklar yashaydi, ularning qabilalaridan ko‘plar musulmon bo‘lishgan. *Borob* — noz-ne’matli nohiyat, uning qasabasini Kadir ataydilar. Odamlari jangovar va botir; savdogarlar joyi. Isbijob bilan daryo bo‘yi oralig‘i [dagi yerlar] Isbijobning, qisman esa Choch, Borob va Kunjdehning yaylovi sanaladi. U yerda ming o‘tovdan iborat sulh tuzgan turklar yashaydi, ular musulmon bo‘lganlar. *Sahron (Sabron)* — noz-ne’mat ko‘p shahar, G‘uz savdogarlarining [savdo qiladigan] joyi erur. *Zarno‘x* — daryo bo‘yida joylashgan shaharcha, obod, [biroq] aholisi kam. *So‘nox* — Borobga qarashli shaharcha, noz-ne’mat ko‘p; u yerda yaxshi kamonlar tayyorlanadi, [ma’lum qismini] boshqa joylarga [sotuvga ham] olib ketishadi. Shulhiy, Taror, Takonkas, Farunkas, Mirkiy, Navikas — kichik shaharlardir, ularda musulmonlar va turklar [yashaydi]; savdogarlar joyi.

«Hudud ul-olam» asaridan



VIII ASRDA XUROSON VA MOVAROUNNAHR

Bu mavzuda o‘quvchilarni baholashda ularning quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga e’tibor qaratish lozim:

- Jahon tarixi fanidan olgan bilimlaridan foydalanib Arab xalifaligida umaviylar va abbosiylarning hukmronlik davrlari va xususiyatlari haqida so‘zlab bera olishi;
- Arab xalifaligi vaqtida Turon hududidagi siyosiy vaziyat va aholining xalifalikka qarshi noroziliklarining kuchayishi sabablarini tahlil qila olishi;
- shu davrda Samarqandda qog‘oz ishlab chiqarilishining rivojlanish sabablari haqida fikr bildira olishi;
- Turon xalqlarining diniy e’tiqodlaridagi o‘zgarishlarni tahlil qila olishi;
- Muqanna qo‘zg‘olonining asl maqsadi va yengilish sabablari haqida tarixiy manbalar asosida ma’lumotga ega bo‘lishi va xulosa qila olishi;
- VIII asrda Movarounnahr va Xuroson hududidagi voqealarni Jahon tarixidagi voqealar bilan bog‘lab tushuntira olishi;
- jamoalarga bo‘lingan holda davrda Yevropa davlatlarining ijtimoiy-siyosiy ahvolini qiyosiy tahlil qila olishi;
- mavzu yuzasidan berilgan savollarga munosabat bildira olishi va topshiriqlarni bajara olishi.

TEST

1. Noto‘g‘ri mulohazani aniqlang.

A) VIII asrning 40-yillarida xalifalikda toj-u taxt uchun kurash kuchaydi;

B) Sharqiy Turk xoqonligi Uyg‘ur xoqonligi tomonidan tugatildi;

D) Abu Muslimning lug‘aviy ma’nosi «eng yaxshi musulmon» deb tarjima qilinsa-da, mohiyati «Muslimning otasi» demakdir;

E) Abu Muslim qo‘zg‘oloni Arab xalifaligida sulola almashinuviga sabab bo‘lgan.

2. Arab xalifaligi davrida Xurosonning markazi bo‘lgan tarixiy shaharni aniqlang.

A) G‘azna; B) Bag‘dod; D) Balx; **E) Marv.**

3. Qaysi umaviy hukmdor davrida umumiy norozilik nihoyatda kuchaydi?

A) Ma’mun Muhammad; **B) Marvon Muhammad;**

D) Abu Muslim; E) Ziyod ibn Solih.

4. Abu Muslimni dastlab … so‘ngra … qo‘llab-quvvatlaydilar. Nuqtalar o‘rniga mos keluvchi javobni tanlang.

A) mahalliy dehqonlar, chokarlar; B) arab zodagonlari, arab lashkarboshilari;

D) kadivarlar, kashavarzlar; **E) arab zodagonlari, mahalliy dehqonlar.**

5. Quyidagi yillarda sodir bo‘lgan tarixiy voqealarni toping.

1. 747-yil; 2. 750-yil. 3. 751-yil.

a) Arab xalifaligida davlat hokimiyati abbosiylar qo‘liga o‘tdi;

b) Abu Muslim aholini umaviylarga qarshi kurashga da’vat etdi;

d) Xitoy Turonga yurish boshladi.

A) 1-b, 2-a, 3-d; B) 1-a, 2-b, 3-d; D) 1-d, 2-a, 3-b; E) 1-b, 2-d, 3-a.

6. Ziyod ibn Solih boshliq qo‘shin qaysi millat vakillaridan iborat bo‘lgan?

A) arablar va turonliklar; B) o‘g‘uzlar va qarluqlar;

D) arablar va qashqarliklar; E) farg‘onaliklar va kucharliklar.

7. Talas jangida asirga tushgan Xitoy jangchilaridan tanlab olingan hunarmandlar qaysi hududga olib kelingan?

A) Buxoro; **B) Samarqand;** D) Choch; E) Farg‘ona.

8. Nima sababdan Abu Muslim boshliq qo‘zg‘olonchilar qora libos kiyishgan?

1. Qora kiyim motam ramzi bo‘lganligi uchun.

2. Qora rang buyuklikni anglatganligi uchun.

3. Zabardast kuch bayrog‘i sanalgan.

4. Shiddatli janglarda qo‘zg‘olonchilarni umaviy harbiylaridan ajratadigan belgini anglatgan.

A) 1, 2; B) 1, 2, 3; **D) 1, 3, 4;** E) 2, 3, 4.

9. Talas jangida Xitoy qo‘shiniga boshchilik qilgan lashkarboshi qaysi millat vakili edi?

A) Yapon; **B) Koreys;** D) Xitoy; E) Turon.

10. Abu Muslim faoliyatiga oid noto‘g‘ri ma’lumotlar soni nechta?

1. Abu Muslim kufalik edi.

2. U Hirotga kelib, aholini Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) avlodlarini qo‘llab-quvvatlashga chaqirdi.

3. Abu Muslim tez orada Marv shahrini egalladi.

4. Abu Muslim Damashqda davlat va harbiy kuchlarning yuqori lavozimiga tayinlanadi.

5. Abbosiylar Abu Muslimning xalq orasida obro‘yi ortib borishiga xayrixoh emasdilar.

6. Abu Muslim poytaxtdan uzoqlashtirilib, Movarounnahr va Xurosonga noib qilib tayinlangan.

7. Abu Muslim Turonda Arab xalifaligi va islom dini himoyachisiga aylangan.

A) bittasi; B) uchtasi; D) to‘rttasi; **E) ikkitasi.**

11. Nima uchun Talas yaqinida asir tushgan xitoylik jangchilar mahalliy hunarmandlarga qog‘oz ishlab chiqarishni o‘rgatishadi?

A) sulh shartnomasida shunga kelishilganligi uchun;

B) mahalliy hunarmandlar bilan aloqalar yaxshi bo‘lganligi uchun;

D) xalqaro savdoni rivojlantirish uchun;

E) o‘z hayotlarini saqlash uchun.

12. Qaysi tarixiy voqeadan so‘ng Movarounnahr va Xurosonda abbosiylarga qarshi xalq harakatlari avj oldi?

A) Turonga xitoyliklar bosqinidan so‘ng;

B) soliqlar oshirilgandan so‘ng;

D) aholi muttasil hasharga jalb qilinganidan keyin;

E) Abu Muslim xalifa tomonidan qatl ettirilganidan so‘ng.

13. Gao Syanchjining qo‘shini qaysi millat vakillaridan iborat edi?

1) Xitoyliklar; 2) koreyslar; 3) farg‘onaliklar; 4) qashqarliklar; 5) kucharliklar; 6) uyg‘urlar; 7) qarluqlar.

A) 1, 3, 4, 5, 7; B) 2, 4, 5, 6; D) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7; E) 1, 4, 6, 7.

14. Arab xalifaligi bilan Tan imperiyasi qo‘shinlari o‘rtasidagi to‘qnashuv qancha muddat davom etgan?

A) 5 kun; B) 7 kun; D) 9 kun; E) 11 kun.

15. Talas jangi bilan bog‘liq noto‘g‘ri mulohazani aniqlang.

A) Talas jangi Markaziy Osiyo xalqlari tarixida muhim rol o‘ynaydi;

B) Talas jangi G‘arb bilan Sharq o‘rtasidagi aloqalarning butunlay uzilishiga olib keldi;

D) ushbu jangda Arab xalifaligining qo‘li baland keldi;

E) ushbu jang Tan imperiyasining O‘rta Osiyo hududini egallash yo‘lidagi tajovuzkorona siyosatiga chek qo‘ydi.

16. Qachon Samarqandda qog‘oz ishlab chiqarish hunarmandchiligi shahar hunarmandchiligining muhim jabhalaridan biriga aylandi?

A) VII asr; **B) IX asr;** D) X asr; E) XI asr.

17. Xitoy hukumati Turondagi qaysi mahalliy hukmdorlar o‘rtasidagi ixtilofdan foydalanib, Turonga yurish boshlagan?

A) Sug‘d va Farg‘ona; B) Sug‘d va Choch;

D) Farg‘ona va Choch; E) Kesh va Poykand.

18. Qachon Ziyod ibn Solih Xitoy qo‘shinlarini Talas daryosi bo‘yida yakson qildi?

A) 751-yil iyulda; B) 751-yil avgustda;

D) 750-yil iyunda; E) 747-yil avgustda.

19. Bir yilda sodir bo‘lgan voqealar berilgan qatorni toping?

1. Abu Muslim aholini umaviylarga qarshi kurashga da’vat etadi.

2. Xitoy qo‘shini Turonga yurish boshladi.

3. Arab xalifaligida hokimiyat abbosiylar qo‘liga o‘tgan.

4. Tan hukumati Gao Syanchji boshchiligida Turonga katta qo‘shin yuboradi.

5. Ziyod ibn Solih boshchiligidagi arab qo‘shini Xitoy armiyasini yakson etdi.

6. Talas yaqinida asir tushgan hunarmandchlikdan xabardor xitoylik jangchilar mahalliy hunarmandlarga qog‘oz ishlab chiqarishni o‘rgatishadi.

A) 1, 2, 3; B) 1, 2, 5; D) 4, 5, 6; **E) 2, 5, 6.**

20. Talas daryosi bo‘yidagi jangda arablarga qarshi kurashishdan bosh tortib, xitoyliklar armiyasining aryergardiga zarba bergan millat vakillarini aniqlang.

A) qarluqlar; B) farg‘onaliklar; D) qashqarliklar; E) kucharliklar.

21. Samarqand qog‘ozi asosan qaysi turdagi xomashyodan tayyorlangan?

A) ipak; B) shoyi**;** **D) tut daraxti po‘stlog‘i;** E) kanop.

22. Samarqandda tayyorlangan «Sulton qog‘ozi»ga xos bo‘lmagan xususiyatni aniqlang.

A) yupqaligi bilan ajralib turgan; B) silliqligi bilan ajralib turgan;

D) och-sariq novvot rangida bo‘lgan; E) yumshoqligi bilan ajralib turgan.

23. VIII asr oxirida Movarounnahrda bo‘lib o‘tgan qo‘zg‘olon rahbari dastlab qaysi kasb bilan shug‘ullangan edi?

A) kudungarlik; B) sarxanglik; D) naqqoshlik; E) bosh vazirlik.

24. Turon o‘lkasida VII asrgacha mahkama ishlarida qaysi tillar va yozuvlardan foydalanilgan?

A) xorazmiy, sug‘diy, eftaliy; **B) sug‘diy, boxtariy, mahalliy turkiy, xorazmiy;**

D) sug‘diy, boxtariy, toxariy; E) mahalliy turkiy, xorazmiy, boxtariy, sug‘diy, arabiy.

25. Rofe ibn Lays qo‘zg‘olon ko‘targan davrda Xuroson amiri bo‘lgan shaxsni toping.

A) Horun ar-Rashid; **B) Ma’mun;** D) Amin; E) Tohir ibn Husayn.

26. Nimkanop qog‘oz turi qaysi xomashyolardan tayyorlangan?

1) kanop; 2) ipak qoldiqlari; 3) dolchin urug‘idan; 4) po‘stloq tolalari; 5) qamish.

A) 1, 3, 5; **B) 2, 4;** D) 1, 2, 4; E) 2, 3, 4.

27. «Yuzida oq rangdagi, dumaloq shaklli suv tomchi izlari» bilan qoplangan bo‘ladi. Bu Samarqand qog‘ozining qaysi turiga tegishli xususiyat?

A) Samarqand sulton qog‘ozi; B) Nimkanop;

D) Miri Ibragimi; E) Samarqand shoyi qog‘ozi.

28. Muqanna qo‘zg‘oloni bostirilganidan 23 yil o‘tib… .

A) Xalifalikka qarshi Rofe ibn Lays qo‘zg‘olon ko‘tardi;

B) Xitoy hunarmandlari Mesopotamiyaga olib kelindi;

D) Xitoy qo‘shinlari Turonga yurish boshladi;

E) Ziyod ibn Solih Xitoy qo‘shinlarini yakson qildi.

29. Rofe ibn Laysni taslim qilish uchun Ma’mun kimlardan yordam so‘radi?

A) Nuh, Ahmad, Yahyo; B) Ahmad, Yahyo, Muhammad;

D) Nuh, Ahmad, Ismoil; E) Nuh, Nasr, Yahyo.

30. Muqannachilarning qarorgohi bo‘lgan qal’ani aniqlang.

A) Narshax; B) Moxivon; D) Kesh; **E) Som.**

31. Arab tarixchisi Maqsidiyning ma’lumotlariga ko‘ra, Buyuk ipak yo‘li savdosida mashhur va bebaho bo‘lgan mahsulotlarni toping.

1. Xorazm kamonlari. 2. Samarqand qog‘ozlari. 3. Choch sopol idishlari. 4. Eloq kumush tangalari.

A) 1, 2; B) 1, 3, 4; D) 2, 3, 4; **E) 1, 2, 3.**

32. Muqanna qo‘zg‘oloni qayerda ayniqsa avj olgan?

A) Sug‘d; B) Iloq; D) Shosh; E) Xorazm.

33. Muqannachilarning qaysi hududlardagi mag‘lubiyatidan keyin mahalliy mulkdorlar arablarga yordam bera boshlagan?

A) Sug‘d va Iloq; **B) Narshax va Samarqand;**

D) Samarqand va Choch; E) Kesh va Som.

34. Berilgan ma’lumotlardan nechtasi xato emas?

1. Mazdakiylik diniy-falsafiy ta’limot.
2. Mazdakiylikning asoschisi – Mazdak.
3. Mazdakiylikning asosiy g‘oyasi – umumiy tenglik.
4. Mazdakiylikda barcha narsalar umumiy bo‘lishi kerak.
5. Mazdakiylikda barcha narsalar teng bo‘lishi kerak.

A) beshtasi; B) to‘rttasi; D) uchtasi; E) ikkitasi.

35. Muqannaning otasi qayerlik bo‘lgan?

A) Marv; B) Termiz; D) Mashhad; **E) Balx.**

36. Muqannani Marvdan Bag‘dodga keltirib, zindonband qildirgan shaxs kim edi?

A) Abu Ja’far Davonaqiy; B) Xalifa Xorun ar-Rashid;

D) Abul Abbos Saffoh; E) Abu Muslim.

TARIXIY HUJJAT

ABBOSIYLAR

Abbosiylar – Arab xalifalari sulolasi (750–1258), Muhammad (s.a.v.)ning amakilari, Abbos avlodlari, Abu Muslim harakati natijasida hokimiyat tepasiga kelgan. Dastlabki poytaxti — Kufa shahri. «Saffoh» («Xunrez») laqabi bilan mashhur bo‘lgan *Abul-Abbos Abdulloh* sulolaning birinchi xalifasi edi.

Ikkinchi xalifa Saffohning ukasi *Abu Ja’far Mansur* (754–775) Bag‘dod shahriga asos solib, poytaxtni shu yerga ko‘chiradi.

Abbosiylar hukmronligining dastlabki davrida savdo-sotiq rivojlanadi. Bag‘dod Sharqning yirik savdo markaziga aylandi, ilm-fan ravnaq topib, falsafa, matematika, tibbiyot va boshqa fanlarga oid ko‘plab asarlar yaratiladi. Andalusiya (Ispaniya)dan tashqari butun musulmon mamlakatlari — Mag‘ribdan to Movarounnahrgacha abbosiylar qo‘l ostiga o‘tadi. Bular xalifalikning iqtisodiy negizini, siyosiy va harbiy qudratini mustahkamladi. Ayniqsa, *Horun ar-Rashid* va uning o‘g‘li *Ma’mun* zamonida abbosiylar sulolasining gullagan davri edi.



IX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Abbosiylar xalifaligi zaiflasha boshladi. X asrning boshiga kelib faqat Bag‘dod va uning atroflaridagina siyosiy hokimiyat abbosiylar qo‘lida qoldi. Harbiy kuchlar turk sarkardalari qo‘liga o‘tib ketdi. Ular xohlagan vaqtlarida xalifalarni almashtira olar edilar. X asr o‘rtalariga kelib abbosiylar siyosiy hokimiyatni tamoman qo‘ldan boy berib, musulmonlarning diniy xalifasi (payg‘ambar o‘rinbosari)gina bo‘lib qoldilar.

Erondagi *buvahiylar* (945-yil) Bag‘dodni o‘z qo‘liga oldi, lekin ular abbosiylarning mavqeyi bilan hisoblashar edi. Bag‘dod saljuqiy-sunniylar tomonidan bosib olingandan keyin abbosiylar siyosiy hukmronligi qisman tiklandi va ularning mavqeyi mustahkamlandi.

O‘zME 1-jild 10-bet

UMAVIYLAR

Umaviylar (661–750-yillar) – Yaqin va O‘rta Sharq, Movarounnahrda hukmronlik qilgan arab xalifalari sulolasi, arablarning Makkadagi quraysh qabilasining umayya urug‘idan kelib chiqishgan. Asoschisi – *Muoviya I.*

Umaviylar davrida arablar g‘arbda Shimoliy Afrika, Pireney yarimorolining katta qismi, sharqda Tabariston, Jurjon, Mova-

rounnahr, Sind va boshqa hududlarni bosib olishgan. *Muoviya I* (661–680) va *Abdumalik* davrida (685–705) davlatning harbiy, siyosiy, iqtisodiy qudratini oshiruvchi bir qancha ma'muriy va harbiy islohotlar o'tkazilgan. Xususan, xalifa lavozimi nasliy bo'lib qolgan, davlat xazinasi va davlat arxivi tashkil etilgan, arab tili davlat tili deb e'lon qilingan, yangi (oltin, kumush va mis) pul chiqarilgan, harbiy dengiz floti tashkil etilgan. Umaviylar poytaxtni Damashq shahriga ko'chirganlar, shu tufayli bu xalifalikni *Damashq xalifaligi* deb ham atashadi.

Umaviylar davrida ko'plab qo'zg'olonlar (736–737-yillarda O'rta Osiyoda *Xoris ibn Surayj,* 731–740-yillarda Marokashdagi *barbarlar qo'zg'oloni,* 742-yilda Mag'ribda *xorijiylar qo'zg'oloni* va boshqalar) bo'lgan. 747–750-yillardagi *Abu Muslim qo'zg'oloni* natijasida xalifa Marvon II taxtdan tushgan, hokimiyat abbosiylar qo'liga o'tgan. Umaviy hukmdorlar: Muoviya I (661–680), Yazid I (680–683), Muoviya II (683–684), Marvon I (684–685), Abdumalik (685–705), Valid (705–715), Sulaymon (715–717), Umar (717–720), Yazid II (720–724), Hishom (724–743), Valid II (743–744), Yazid III (744), Ibrohim (744), Marvon II (744–750).

O'zME 1-jild 85-bet

MUQANNANING XURUJI VA UNING TOBELARI «OQ KIYIMLILAR»

Ahmad ibn Muhammad ibn Nasrning aytishicha, Muhammad ibn Ja'far bu faslni o'z kitobida keltirgan-u, lekin to'la bayon etgan emas. «Axbori Muqanna» (nomli kitob) ning muallifi Ibrohim va Muhammad ibn Jarir at-Tabariylarning aytishlaricha, Muqanna Marv atrofi aholisidan, Koza deb atalgan qishloqdan bo'lib, nomi Hoshim ibn Hakim edi. U ilgari kudungarlik qilar edi, keyin esa ilm o'rganishga mashg'ul bo'ldi va har xil ilmlarni: ko'zbo'yamachilik, sehr va tilsim ilmlarini o'rgandi. Ko'zbo'yamachilikni yaxshi bilib olib, payg'ambarlik da'vosini ham qildi va uni Mahdiy ibn Mansur hijratning bir yuz oltmish yettinchi yilida (783-yil 5 avgust) o'ldirdi. Muqanna ko'zbo'yamachilikni o'rgangan va g'oyatda ziyrak bo'lib, qadimgi (olimlar) ilmlariga oid ko'p kitoblarni o'qigan va jodugarlikda ustoz bo'lgan edi. Uning otasining nomi Hakim bo'lib, u Abu Ja'far Davonaqiy davridagi Xuroson amiri lashkarboshilaridan biri edi. U Balxdan chiqqan edi.

Hoshim ibn Hakimni Muqanna deyishlariga sabab shu ediki, u juda xunuk, boshi kal va bir ko'zi ko'r bo'lganidan hamisha boshi va yuziga ko'k parda tutib yurar edi. Shu Muqanna abbosiylar da'vatchisi Abu Muslim zamonida Xuroson lashkarboshilaridan biri bo'lib, Abduljabbor Azdiyga vazir bo'ldi va payg'ambarlik da'vosini qildi hamda bir qancha vaqt shu da'voda turdi. Abu Ja'far Davonaqiy odam yuborib, uni Marvdan Bag'dodga oldirib keldi va bir necha yil davomida zindonda tutdi. Shundan keyin u zindondan qutulib, yana Marvga qaytib keldi va odamlarni yig'ib: «Mening kim ekanimni

bilasizmi?» — deb so‘radi. Odamlar: «Sen Hoshim ibn Hakimsan», — dedilar. U: «Yanglishdingiz, men sizning va butun olamning xudosiman», ... — va yana: «O‘zimni qanday nom bilan atashni istasam atayveraman», — dedi hamda: «Men xalqda o‘zimni Odam (ato) suratida, keyin Nuh suratida, keyin Ibrohim suratida, keyin Muso suratida, so‘ng Iso suratida, keyin Muhammad mustafo, — xudo unga rahmat va salomini yo‘llasin, — suratida, keyin Abu Muslim suratida ko‘rsatgan zotman, endi esa mana o‘zingiz ko‘rib turgan suratdaman», — dedi. Odamlar: «Boshqalar payg‘ambarlik da’vosini qilgan edilar, sen esa xudolik da’vosini qilayapsan», — dedilar. Muqanna: «Ular nafsoniy edilar, men esa ruhoniyman va ularning (badanlari) ichida edim, menda shunday qudrat borki, o‘zimni qanday suratda ko‘rsatishni istasam shunday suratda ko‘rsata beraman», — dedi.

Muqanna har bir viloyatga noma yozib, o‘zining doiy (tashviqotchi)lariga berdi. Nomaga mana shularni yozdi: «Rahmli va mehribon tangri nomi bilan, sayidlar sayidi Hoshim ibn Hakimdan falonchi o‘g‘li falonchiga, hamd xudoga bo‘lsin, undan boshqa xudo yo‘q. U Odamning ham, Nuh, Ibrohim, Iso, Muso, Muhammad va Abu Muslimlarning ham xudosidir. So‘ngra (so‘z shuki), qudrat, egalik, izzat va hujjat Muqannanikidir; menga imon keltiring va bilingki, podshohlik menga xos, — unga la’natlar bo‘lsin, — azizlik va xudolik meniki, mendan boshqa xudo yo‘q, ... — kimki menga imon keltirsa, jannat o‘shaniki, kimki menga imon keltirmasa do‘zax uniki». U hali Marvda turgan vaqtidayoq har yerga doiylarini yubordi va ko‘p xalqni yo‘ldan ozdirdi. Marvda arablardan Abdulloh ibn Amin nomli bir kishi bor edi, u Muqannaga imon keltirdi va qizini unga xotinlikka berdi. Ana shu Abdulloh Jayxundan o‘tib Naxshab va Kesh shaharlariga keldi va har yerda xalqni la’nati Muqanna diniga chaqirib, ko‘p kishini yo‘ldan ozdirdi. [Bundaylar] Kesh shaharida va uning qishloqlarida ko‘proq edi. Dastlab Muqanna diniga kirgan va uning dinini yuzaga chiqargan qishloq Keshning Subax nomli qishlog‘i bo‘lib, qishloq aholisining ulug‘ kishisi Umar Subaxiy edi. Ular qo‘zg‘olon ko‘tardilar. Ularning amiri arablardan bo‘lib, porso bir kishi edi, uni o‘ldirdilar. Sug‘dning ko‘pchilik qishloqlari Muqanna diniga kirdi, Buxoro qishloqlaridan ko‘p kishilar kofir bo‘lib, kofirlikni oshkor qildilar. Nihoyat bu fitna ulg‘ayib ketdi va musulmonlar uchun qattiq balo bo‘ldi; (muqannachilar) karvonlarni urib, qishloqlarni talar va ko‘p vayrongarchiliklar qilar edilar.

Muqannaning Movarounnahrga borish sababi bunday edi: Muqanna voqeasi xabari Xurosonga yoyilgach, Xuroson amiri bo‘lgan Humayd ibn Qahtaba uni tutishga buyurdi. Muqanna esa o‘z qishlog‘idan qochib, berkinib yurar edi. Oxiri Muqannaga Movarounnahr viloyatida ko‘p xalq uning diniga kirgani va shu dinning tarqalgani ma’lum bo‘ldi va u Jayxundan o‘tishga qasd qildi. Muqanna o‘ttiz olti kishi bilan Jayxun daryosi labiga kelib, sol tayyorlab Jayxundan o‘tdi va Kesh viloyatiga bordi. U viloyat Muqannaga bo‘ysundi va xalq unga rag‘bat qildi. (Shu viloyatdagi) Som tog‘i tepasida g‘oyatda mustahkam bir hisor bo‘lib, unda oqar suv, daraxtlar va ekin yerlar

bor edi. Bu hisor (ichida) undan ham mustahkamroq yana bir hisor bor edi. Muqanna uni tuzatishga buyurdi va uni tuzatdilar. Muqanna u yerga ko‘p mol va behisob oziq-ovqat yig‘di. Soqchilar tayinladi. Oq kiyimlilar ko‘payishib ketdilar va musulmonlar ularga qarshi tadbir qo‘llashdan ojiz qoldilar. Bu ovoza Bag‘dodga borib yetdi; o‘sha vaqtda Mahdiy xalifa edi, u juda qayg‘urib, Muqannaga qarshi kurashish uchun ko‘p lashkar yubordi va oxiri bu fitnani daf qilish maqsadida o‘zi ham Nishopurga keldi.

Muqanna turklarni chaqirdi hamda musulmonlarning qoni va molini ular uchun halol qilib (hukm chiqardi). Turkistondan talonchilik tamasida ko‘p lashkar keldi. Ular viloyatlarni talar, musulmonlarning xotin va bolalarini asir qilib olar, o‘ldirar edilar. Ular dastlab Buxoroda paydo bo‘ldilar. Muqannaning hammaslaklari bo‘lgan oq kiyimlilardan bir guruhi Numijkat deb atalgan bir qishloqqa bordilar va kechasi masjidga kirib muazzinni o‘n besh kishi bilan birgalikda o‘ldirdilar; butun qishloq aholisini ham o‘ldirdilar. Bu voqea bir yuz ellik to‘qqizinchi yilda (775-yil 18-oktyabr) sodir bo‘ldi. (Bu vaqtda) Buxoro amiri Husayn ibn Maoz edi.

Muqanna toifasining kattalaridan buxorolik Hakim (ibn) Ahmad nomli bir kishi bo‘lib, u bilan birga yana uchta lashkarboshi bor edi. Ulardan birining nomi Xashviy, ikkinchisiniki Bog‘iy bo‘lib, bu ikkovi Fuzayl ko‘shkidan edilar. Uchinchisining nomi — Girdak; u G‘ijduvon qishlog‘idan edi. Bularning har uchalasi ham jangovar kishilar bo‘lib, ayyor, bosqinchi va o‘g‘ri edilar. Ularning qishloq aholisini o‘ldirganligi xabari shaharga yetgach, Buxoro aholisi jam bo‘ldilar va amirning oldiga borib: «Bu oq kiyimlilar bilan albatta jang qilishimiz kerak», — dedilar. Bir yuz ellik to‘qqizinchi yil rajab oyida (775-yil aprel–may) Husayn ibn Maoz o‘z lashkari bilan va Buxoro qozisi Omir ibn Umar Buxoro aholisi bilan chiqib, Narshax qishlog‘iga bordilar, — hozir bu qishloqni Narjaq deydilar, — va oq kiyimlilar qarshisida lashkargoh tuzdilar.

Shunda Buxoro qozisi: «Biz ularni haq dinga chaqiramiz, ular bilan urishish biz uchun munosib emas», — dedi. Keyin qozi yaxshi tadbirkor odamlar bilan birga ularni haq dinga chaqirish uchun qishloqqa kirdi. Oq kiyimlilar: «Biz bu siz aytayotgan narsalarni bilmaymiz», — deb kundan-kunga kofirliklarini kuchaytirdilar va nasihatni qabul qilmadilar. Shundan keyin jang boshlanib ketdi. Oq kiyimlilar yengildilar, ulardan yetti yuz kishi o‘ldirildi va qolganlari qochdilar. Shu bilan o‘sha kun tamom bo‘ldi.

Ertasiga tong otgach, oq kiyimlilar elchi yuborib musulmonlardan omonlik so‘radilar va: «Biz musulmon bo‘ldik»,— dedilar. Musulmonlar ular bilan sulh tuzib, sulhnoma yozdilar va ularga bundan buyon yo‘lkesarlik qilmaslik, musulmonlarni o‘ldirmaslik, o‘z qishloqlariga tarqalish, o‘z amirlariga bo‘ysunish shartlarini qo‘yib, xudo va payg‘ambar ahdini ularga mahkam yukladilar. Shaharning hamma kattalari sulhnomaga qo‘l qo‘ydilar.

Musulmonlar qaytib ketgach, ular ahdlaridan qaytib, yana yo‘lkesarlik bilan mashg‘ul bo‘ldilar. Ular musulmonlarni o‘ldirar va en-

digina bosh tortgan ko‘k ekin (don)larni Narshax hisoriga olib ketar edilar. Musulmonlarning ishi qiyinlashdi. Xalifa Mahdiy[27] o‘z vaziri Jabrail ibn Yah’yoni Muqannaga qarshi urushga yubordi. U Buxoroga kelib Muqannaga qarshi jangga yurish uchun Darvozayi Samarqandda lashkargoh qurdi. Husayn ibn Maoz uning oldiga borib: «Sen (avval) oq kiyimlilarga qarshi urushda menga yordam ber, bu ishdan bo‘shagach, biz sen bilan birga Muqannaning (o‘ziga) qarshi urushga boramiz», — dedi. Jabrail bu taklifni qabul etdi-da, lashkarini oyoqqa turg‘izib Narshax qishlog‘iga bordi, qishloq atrofiga xandaq qazishga buyurib, xandaq ichini lashkargoh qildi; oq kiyimlilar kechasi chiqib hujum qilib qolmasinlar, deb lashkariga hushyor bo‘lib turishga buyruq berdi. Xuddi u aytgandek bo‘lib chiqdi: oq kiyimlilar dastlabki kechadayoq qishloqdan chiqib hujum qilib, ko‘p vayronlik keltirdilar. Buxoro amiri Husayn ibn Maoz Jabrailga ko‘p mehribonlik ko‘rsatib, undan to bu ish tamom bo‘lgunicha Keshga ketmay, Buxoroda bo‘lishini so‘radi.

Jabrail urushni boshlab yubordi. To‘rt oy mobaynida erta-yu kech uzluksiz urishdilar, oq kiyimlilar g‘alaba qozonmagan bir kun ham bo‘lmadi. Musulmonlar chorasiz qolib, tadbir izlashga tushdilar. Molik ibn Forim: «Men bir tadbir ko‘rsataman», — dedi-da, lashkargohdan to hisor devorigacha ariq kavlashga buyurdi va u yerga qurolli kishilarni yuborib, qancha joy kavlasalar uni cho‘p, qamish va tuproq bilan mustahkamlab berkitib borishga buyurdi. (Shu tarzda) hisor devori tagigacha qazib yetdilar va (hisor devori tagini) ellik gaz miqdorida kovlab, ustunlar qo‘yib mahkamladilar. Ellik gaz joy kovlanib bo‘lgach, uni o‘tin bilan to‘lg‘izib, neft sepdilar-da, u ustunlar yonib, qo‘rg‘on devori yiqilsin, deb o‘t qo‘yib yubordilar. Ammo olov yonmadi, chunki olov yonishi uchun unga shamol tegishi kerak. Hisor ichida esa shamol o‘tadigan yo‘l yo‘q edi. Hisorning tagi kovlangan minorasiga palaqmonlarni to‘g‘rilab qo‘yib, tosh otgan edilar, teshik ochilib, shamol chiqishga yo‘l topdi, olov olib ustunlar yondi va Hisor devorining ellik gazcha joyi yiqildi. Musulmonlar qilichbozlikka kirishib ko‘p kishini o‘ldirdilar, qolganlar omonlik tilab, ilgarigi ahdnomaga muvofiq musulmonlarni ranjitmaslik, o‘z qishloqlariga qaytib ketish, o‘z ulug‘larini xalifa oldiga yuborishga (rozi bo‘lish) va o‘zlari bilan birga qurol-yarog‘ olib yurmaslik shartlari bilan sulh tuzdilar va (qishloqdan) tashqari chiqib xandaqdan o‘tdilar. (Ammo) ular yashirin suratda qurolga ega edilar. Oq kiyimlilarning kattasi bo‘lgan Hakimni Jabrail o‘z o‘g‘li Abbosga topshirib: «Buni olib borib saropardaga qo‘y va yashirin ravishda o‘ldir», — dedi. Uning amriga muvofiq ish qilib Hakimni saropardaga olib bordilar. Oq kiyimlilar uzoqdan (qarab) turgan edilar. Jabrail saropardaga borgan edi, oq kiyimlilar Hakimning do‘sti bo‘lgan Hashviyni yuborib u orqali Jabrailga: «Biz Hakimni olmasdan ketmaymiz», — dedilar. Hashviy yangi etik kiygan edi. U Jabrailga shu so‘zlarni aytib turgan ediki, Jabrailning o‘g‘li Abbos kelib: «Hakimni o‘ldirdim», — dedi. Jabrailning buyrug‘i

[27] Mahdiy – abbosiylar sulolasidan bo‘lgan arab xalifasi (775–785).

bilan darhol Hashviyni otdan tushirib o‘ldirdilar. Oq kiyimlilar qichqirishib qurollarini qo‘lga oldilar va jang boshlanib ketdi. Jabrail butun lashkarini otga minishga buyurdi. Ilgarigidan kuchliroq urush bo‘ldi. Qattiq janglar qildilar va oxiri oq kiyimlilar yana yengilib, ulardan ko‘p xalq o‘ldirildi, tirik qolganlari qochdilar.

Hakimning lashkar boshliqlaridan biri bo‘lgan Girdak Muqannaning oldiga ketdi. Ulardan biri — Bog‘iy esa urushda o‘ldirildi.

Jabrail oq kiyimlilarning dillariga qo‘rqinch solish uchun o‘ldirilgan (boshliq)lar kallasini Sug‘dga olib bordi. Sug‘d aholisiga Muqannaning lashkar boshliqlaridan Sug‘diyon nomli bir kishi amir bo‘lgan edi; Sug‘d aholisi u bilan ittifoq bo‘ldilar. Jabrail Sug‘d aholisi bilan ko‘p urushdi va oxiri Buxoro aholisidan bir kishi Sug‘diyonni o‘ldirdi va bu qavm tarqalib ketdi. Jabrail u yerdan Samarqandga bordi va to Maoz ibn Muslim Xurosonga amir bo‘lguniga qadar turklar va oq kiyimlilar bilan ko‘p urushlar qildi. Maoz ibn Muslim bir yuz oltmish birinchi yilda (777) Marvga keldi va bu yerdan ish boshlab, Omuy biyoboniga kirib ketdi. Buxoroga yetganida Buxoro aholisi (orasidagi) dehqonlar jangchi kishilarni yig‘dilar; besh yuz yetmish ming kishi yig‘ildi. Maoz ibn Muslimning farmoni bilan urush qurollarini ko‘plab tayyorladilar; u hunarmandlarning lashkar ichida ish beradigan har bir jinsidan uch ming ishchi kishini teshalar, bellar, to‘qmoq va boltalar bilan ta’minlab, muhayyo qilib qo‘ydi; palaxmonlar, narvonlar va devor teshadigan qurollar ishlatdi va eng yaxshi qurollantirilgan lashkar bilan Sug‘dga qarab yuzlandi. Sug‘dda oq kiyimlilar ko‘p edilar, turk lashkari ham ko‘p kelgan edi. Hariyning amiri Hariydan o‘n mingta qo‘y olib kelgan edi, o‘zi bilan birga olib yurdi. Maoz ibn Muslim unga: «Dushmanimiz turklar bu yerda bizga yaqin joyda turiptilar, ular qo‘yni juda yaxshi ko‘radilar, bu qo‘ylarni Buxoroda qoldir yoki menga sot, men ularni lashkarga taqsim qilib berayin!» — desa u rozi bo‘lmadi. Turk askarlaridan bir to‘dasi chiqib hujum qildilar-da, hamma qo‘ylarni Arbinjon bilan Zarmon o‘rtasidagi bir manzilga olib ketdilar. Turklar ketidan lashkar borgan edi, ularning ham ba’zilarini o‘ldirdilar, ba’zilari esa mag‘lubiyatga uchrab qaytib keldilar.

Maoz ibn Muslim Sug‘d va Samarqandga borib, turklar hamda oq kiyimlilar bilan ikki yilgacha ko‘p urushlar qildi, goh u va goh dushman g‘alaba qozonar edi. Ikki yildan keyin u Xuroson amirligidan iste’fo berdi va Musayyab ibn Zuhayr al-Zabiy Marvda bir yuz oltmish uchinchi yil jumod al-avval oyida (780-yil yanvar–fevral) Xurosonga amir bo‘ldi va rajab oyida (780-yil mart–aprel) Buxoroga keldi. Shu vaqt Buxoro amiri Junayd ibn Xolid edi, uni Xuroson amiri Xorazmga yubordi.

Buxoroda Muqanna sarkardalaridan bo‘lgan Qulortegin nomli bir sarkarda bor edi, u lashkar va mulozimlar tuzib Musayyab bilan urushlar qildi.

Hikoyat: Muhammad ibn Ja’farning rivoyat qilishicha, Muqanna lashkaridan movarounnahrliklar, turklar va boshqalardan iborat ellik mingi uning hisori darvozasiga yig‘ilib, sajda va zoriy qilib, undan diydor ko‘rsatishni so‘radilar. Hech bir javob

ololmagach, yana so‘rashda davom etib: «O‘z egamizning diydorini ko‘rmas ekanmiz, bu yerdan qaytib ketmaymiz», — dedilar. Muqannaning Hojib nomli bir quli bor edi, Muqanna unga: «Bandalarimga ... ayt, Muso mendan diydor ko‘rsatishni so‘radi, toqat qilolmasligi sababli ko‘rsatmadim. Meni ko‘rgan har bir kishi toqat qilolmay darhol o‘ladi», — dedi. Ular yalinib yolvorib, yana so‘rayberdilar va: «Biz diydor istaymiz, agar o‘lsak, bu ayni muddao», — dedilar. Muqanna: «Falon kuni keling sizga diydor ko‘rsataman», — deb va’da berdi. Shundan keyin Muqanna hisorda o‘zi bilan turadigan xotinlarga buyurdi, ular Sug‘d, Kesh va Naxshab dehqonlarining qizlaridan iborat bo‘lib, yuzta xotin edilar. Muqannaning shunday odati bor edi: qayerda xushro‘y xotin bo‘lsa, unga xabar berar edilar va Muqanna uni oldirib kelib, o‘zi bilan birga saqlar edi. Hisorda u bilan birga shu xotinlar va o‘sha xos quldan boshqa hech kim bo‘lmas edi. Hisordagilarning oziq-ovqat kabi ehtiyojlari bo‘lsa, har kuni bir marta hisor darvozasi ochilar, tashqari tomonda esa bir vakil bo‘lib, u kerakli narsalarni tayyorlar, haligi qul vakilni chaqirib, u narsalarni hisor ichkarisiga olib kirgach, yana hisor darvozasini berkitar va to ikkinchi kungacha Muqannaning xunuk yuzini hech kim ko‘rmas edi. Chunki u yuziga ko‘k parda tutib yurar edi. Shunday qilib, u o‘sha xotinlarning har biriga oyna olib, hisorning tepasiga chiqib, bir-birining ro‘baro‘sida turishga va quyosh nuri yerga tushgan paytda barcha oynalarni qo‘lga olib betafovut bir-biriga ro‘baro‘ qilib tutishga buyurdi. Xalq to‘plangan edi. Quyosh nuri oynalarga tushgach, uning aksi bilan o‘sha joy nurga to‘lib ketdi. Shu vaqt Muqanna quliga: «Ana qarang! Xudo o‘z yuzini ko‘rsatyapti deb bandalarimga ayt», — dedi. To‘plangan xalq qarab, butun jahonning nurga to‘lganini ko‘rib qo‘rqdilar va hammalari birdan sajda qilib: «Ey, xudo! Qudrating va ulug‘ligingni shunchalik ko‘rganimiz yetadi, bundan ko‘proq ko‘rsak yuragimiz yoriladi»,— dedilar. Ular hanuz sajdada ekanlar, Muqanna yana quliga: «Sajdadan boshlaringizni ko‘taring! Xudo sizdan rozi va gunohlaringizni kechdi deb ummatlarimga ayt», — dedi. U jamoa qo‘rqqan va vahimaga to‘lgan holda boshlarini sajdadan ko‘tardilar. Shu vaqt Muqanna: «Hamma viloyatlarni sizlar uchun halol qildim. Kimki menga imon keltirmasa, uning qoni, moli va farzandlari siz uchun halol», — dedi. Shundan keyin u jamoa talonchilikka yuz o‘girdi. Bu jamoa boshqalar oldida faxrlanib: «Biz xudoni ko‘rdik», — der edi.

Muqannaning halok bo‘lish sababi. Hirot amiri bo‘lgan Sa’id ko‘p lashkar bilan Muqanna hisorining darvozasiga kelib qo‘ndi, uylar va hammomlar qurib yozinqishin shu yerda bo‘ldilar. Hisorning ichida chashma, daraxtlar va ekinzorlar bor edi. Muqannaning xos kishilari va sipohi solorlar kuchli lashkar bilan hisor ichida edilar. Hisor ichkarisida, tog‘ tepasida yana boshqa bir hisor bo‘lib, u hisorga hech kimga yo‘l yo‘q edi. Muqanna o‘sha xotinlar bilan (shu) hisorda turar edi.

Uning odati shunday ediki, har kuni o‘sha xotinlar bilan birga ovqatlanar va ular

bilan sharob majlisiga o‘tirib sharob ichar edi. Shu tartibda u o‘n to‘rt yil hayot kechirdi. Oxiri Hirot amiri uning ishini og‘irlashtirib, lashkarlari tarqalib ketdi, hisorda bo‘lgan sipohi solor esa hisor darvozasini ochdi va bo‘ysunib tashqari chiqdi, islom dinini qabul etdi. Musulmonlar hisorni oldilar. Muqanna ichki hisorni saqlab qololmasligini tushundi.

Muhammad ibn Ja’farning Kesh dehqonlaridan bo‘lgan Abu Ali Muhammad ibn Horundan rivoyat qilishicha, Abu Ali shunday degan: «Mening buvim Muqannaning o‘zi uchun olib kelib hisorda saqlab turgan xotinlari jumlasidan bo‘lgan ekan. U shunday hikoya qilar edi: «Bir kuni Muqanna xotinlarni o‘z odati bo‘yicha ovqat yeyishga va sharob ichishga o‘tirg‘izib, sharob ichiga zahar soldi-da, har bir xotin uchun bittadan xos qadah tutqizib aytdi: «Men o‘z qadahimdagi sharobni ichganimda sizlar ham qadahlaringizni butunlay bo‘shatishingiz lozim». Hamma xotinlar ichdilar, men esa ichmasdan sharobni ko‘ylagim yoqasiga to‘kdim, Muqanna buni payqamadi. Hamma xotinlar (hushsiz) yiqilib o‘ldilar, men ham o‘zimni ularning orasiga tashlab o‘lganga solib yotdim. Muqanna mening holimdan bexabar edi. Keyin Muqanna o‘rnidan turib qarab, hamma xotinlarning o‘lib yotganini ko‘rdi-da, o‘z qulining oldiga bordi va qilich bilan uning kallasini kesdi. Muqannaning farmoni bilan uch kundan beri tandir qizitayotgan edilar. Muqanna o‘sha tandir oldiga borib kiyimini yechdi va o‘zini tandirga otdi. Tandirdan bir tutun chiqdi. Men u tandir oldiga borib uning vujudidan hech asar ko‘rmadim. Hisorda biror tirik kishi yo‘q edi.

Xalq: «Muqanna farishtalarni olib kelib bizga osmondan yordam berish uchun osmonga chiqib ketdi; uning dini dunyoda (abadiy) qoladi», — desin deb Muqanna o‘zini o‘zi kuydirdi. Keyin u xotin hisor darvozasini ochdi va Sa’id Xarashiy kirib u yerdagi xazinani oldi».

Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr shunday deydi: «Bu qavmdan Kesh va Naxshab viloyatida, Ko‘shki Umar, Ko‘shki Xishtivon va Zarmon qishlog‘i kabi Buxoro qishloqlarida hozirda ham saqlanib kelmoqda. Ular o‘zlari Muqannaning kim ekanligidan butunlay xabarsiz bo‘lsalar ham uning o‘sha dinidalar. Ularning tutgan yo‘llari shuki, namoz o‘qimaydilar, ro‘za tutmaydilar va junub bo‘lganlarida g‘usl qilmaydilar, lekin omonatga xiyonat qilmaydilar. Bu odatlarining hammasini musulmonlardan yashirin tutadilar va musulmonlik da’vo qiladilar.

Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far an-Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asaridan.

LOYIHA ISHI

VIII ASRDA MOVAROUNNAHR VA XUROSONDAGI O‘ZGARISHLARNING AHOLI TURMUSH TARZIGA TA’SIRINI TAHLIL QILISH

(LOYIHA ISHINI TASHKIL ETISHGA OID TAVSIYALARGA QARALSIN)

Bu mavzuda o‘quvchilarni baholashda ularning quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga e’tibor qaratish lozim:

- jamoa tashkil qilib, mavzu yuzasidan berilgan topshiriq asosida taqdimot tayyorlay olishi;
- boshqa jamoalarning taqdimotiga munosabat bildira olishi va takliflar kirita olishi;
- loyiha ishini tashkil qilishga oid tavsiyalar;
- jamoalarga bo‘lingan o‘quvchilar aynan VIII asrda Movarounnahr va Xurosondagi diniy e’tiqod, soliqlardagi, ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlarni tahlil qila olishlari va loyiha taqdimotini himoya qilishlari lozim;
- bu jarayonda topshiriq loyiha ishiga ajratilgan soatdan oldinroq o‘quvchilar tomonidan tashkil qilingan jamoalarga topshiriladi;
- loyiha ishi belgilangan darsda tayyorlangan loyiha taqdimoti jamoalar tomonidan himoya qilinadi;
- boshqa jamoalar tinglab, o‘z fikr va mulohazalarini bildiradilar;
- o‘qituvchi tomonidan xulosalar umumlashtiriladi va jamoalar baholanadi.




QARLUQLAR, O‘G‘UZLAR, TOHIRIYLAR

Bu mavzuda o‘quvchilarni baholashda ularning quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga e’tibor qaratish lozim:

- Arab xalifaligining zaiflashuv sabablari haqida ma’lumot bera olishi;
- Qarluqlar davlati tashkil topishi, hududi, boshqaruv tizimi va ijtimoiy hayoti haqida so‘zlab bera olishi;
- O‘g‘uzlar davlati tashkil topishi, hududi, boshqaruv tizimi va ijtimoiy hayoti haqida so‘zlab bera olishi;
- Tohiriylar davlatining tashkil topishiga sabab bo‘lgan o‘sha vaqtdagi siyosiy vaziyatlarni tahlil qila olishi;
- Tohiriylar davlatining tugatilishi asoslari, safforiylarning hokimiyat tepasiga kelishidagi sabablar haqida tahliliy ma’lumot bera olishi;
- Tohiriylar va safforiylar sulolasining Arab xalifaligi bilan munosabatlari haqida so‘zlab bera olishi.

To‘rtta jamoaga bo‘lingan holda Qarluqlar, O‘g‘uzlar, Tohiriylar va Safforiylar davlatlarining kelib chiqishi, ijtimoiy tuzumi va bugungi kundagi o‘rni haqida qo‘shimcha manbalar asosida tahlil qila olishi maqsadga muvofiq. Bu topshiriq 2 soat uchun mo‘ljallangan bo‘lib, jamoalar oldindan tayyorlanishlari mumkin.



TEST

1. Qarluqlar yurtida poytaxtdan tashqari qaysi yirik shaharlar bo‘lgan?

1) Yangikent; 2) Jo‘l; 3) Navkat; 4) Yor; 5) Karmankat.

A) 1, 2, 4, 5; B) 1, 3, 5; D) 1, 2, 4, 5; **E) 2, 3, 4, 5.**

2. Qachon qarluqlar Movarounnahrning shimoliy hududlarini egallagan?

A) X asrda; B) IX asrda; D) XI asrda; E) XII asrda.

3. Qarluqlar tog‘ jilg‘alari bo‘ylarida qaysi soha bilan shug‘ullanishgan?

A) dehqonchilik; B) chorvachilik; D) savdo-sotiq; E) hunarmandchilik.

4. Qarluqlar davlatining poytaxtini aniqlang.

A) Navkat; B) Karmankat; **D) Suyob;** E) Jo‘l.

5. Qarluqlar davlati bilan savdo-sotiq qilgan joylarni aniqlang.

A) Movarounnahr, Xuroson; **B) Sharqiy Turkiston, Movarounnahr;**

D) Chag‘oniyon, Toxariston; E) Movarounnahr, Farg‘ona.

6. Quyidagi tarixiy voqealarni xronologik ketma-ketlikda joylashtiring.

1. Qarluqlarning kattagina qismi musulmon bo‘lgan.
2. Qarluqlar Turk xoqonligi tarkibiga kirgan.
3. Yettisuv o‘lkasida Qarluqlar davlati tashkil topdi.
4. Qarluqlar Movarounnahrning shimoliy hududlarini egalladi.

A) 2, 3, 1, 4; **B) 2, 3, 4, 1;** D) 1, 3, 2, 4; E)1, 2, 3, 4.

7. Qarluqlar X asrda quyidagi hududlarning qaysi biriga kelib o‘rnashmagan?

A) Xuroson; B) Farg‘ona vodiysi; D) Shosh atrofi; E) Zarafshon vodiysi.

8. Qarluqlar chetga, asosan, qanday mahsulotlar olib borgan?

A) chorvachilik mahsulotlari: qoramollar;

B) kulolchilik mahsulotlari: har xil turdagi idishlar;

D) jun va junli mahsulotlar: gilam, sholcha namat;

E) hunarmandchilik mahsulotlari.

9. To‘g‘ri javobni belgilang.

1. IX asr oxiri – X asr boshi;
2. X asr;
3. X asrning birinchi choragi.

a) o‘g‘uzlar islom dinini qabul qilishdi;

b) O‘g‘uzlar davlati shimoli-sharqdan qo‘zg‘algan qipchoqlar tomonidan qaqshatqich zarbaga uchrab, bo‘linib ketdi;

d) O‘g‘uzlar davlatiga asos solindi.

A) 1-a, 2-b, 3-d; B) 1-b, 2-a, 3-d; D) 1-d, 2-b, 3-a; **E) 1-d, 2-a, 3-b.**

10. O‘g‘uzlar qaysi xalqning etnogenezida muhim rol o‘ynamagan?

A) turkman; **B) o‘zbek;** D) ozarbayjon; E) qoraqalpoq.

11. To‘g‘ri javobni toping.

A) Arab xalifaligida Ma’mun va Amin o‘rtasida 809–812-yillarda kurash bo‘lib o‘tdi;

B) Xalifa Horun ar-Rashid 785–809-yillarda hukmronlik qilgan;

D) Xalifalikning markaziy qismidagi arablar Aminni taxtga ko‘tardi;

E) Tohir ibn Xusayn boshliq Movarounnahr va Xuroson mulkdorlari Ma’munga yordam bermadi.

12. Qaysi sulola zamonida mehnatkashlarning ahvoli nihoyatda og‘irligicha qolaverdi?

A) Tohiriylar; B) Saljuqiylar; D) Somoniylar; E) Safforiylar.

13. Berilgan ushbu tarixiy voqealarni quyidagi yillar bilan to‘g‘ri moslashtiring.

1) 811-yil; 2) 813-yil; 3) 821-yil; 4) 873-yil.

a) Tohir ibn Husayn Ray yaqinida sarkarda Ali Moxonni mag‘lub etdi;

b) Movarounnahr va Xuroson mulkdorlari Tohir ibn Husayn boshchiligida Bag‘dodga yurish qildilar;

d) Tohir ibn Husayn xalifa Ma’mun tomonidan Movarounnahr va Xuroson noibi etib tayinlangan;

e) Yo‘qub va Amr ibn Layslar Xuroson poytaxti Nishopurni egalladi.

A) 1-a, 2-b, 3-d, 4-e; B) 1-b, 2-a, 3-d, 4-e; E) 1-d, 2-b, 3-a, 4-e; E) 1-e, 2-a, 3-b, 4-d.

14. Ushbu hukmdorlardan qaysi biri boshqalariga nisbatan ko‘proq hukmronlik qilgan?

A) Xalifa Amin; B) Ya’qub ibn Lays; D) Amr ibn Lays; **E) Horun-ar Rashid.**



SOMONIYLAR

Bu mavzuda o‘quvchilarni baholashda ularning quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga e’tibor qaratish lozim:

- IX asrda Movarounnahrdagi siyosiy o‘zgarishlarni tahlil qila olishi;
- somoniylarning kelib chiqishi va hokimiyat tepasiga chiqishi haqida ma’lumot bera olishi;
- Ismoil Somoniyning olib borgan boshqaruv siyosatini tahlil qila olishi;
- somoniylar davridagi ijtimoiy hayot, boshqaruv uslublari haqida so‘zlab bera olishi;
- somoniylar davrida harbiy hayotni Turon hududida mavjud bo‘lgan davlatlarning harbiy boshqaruvi bilan solishtirib tahlil qila olishi;
- ularning umumiy va farqli jihatlarini ajrata olishi va xulosa qila olishi;
- berilgan tarixiy manbalar bilan ishlay olishi va ular asosida o‘z xulosasini aytib bera olishi;
- yer egaligining turlari va ularning xususiyatlari haqida ma’lumotga ega bo‘lishi;
- jamoalarga bo‘lingan holda Turon hududida o‘rta asrlarning ilk davridagi yer egaligini Somoniylar davlati yer egaligi bilan solishtira olishi;
- jamoalarga bo‘lingan holda bu davrda Yevropa davlatlarida mavjud bo‘lgan yer egaligi va uning xususiyatlarini qiyosiy tahlil qila olishi;
- mavzu yuzasidan berilgan savollarga javob bera olishi va topshiriqlarni bajara olishi.

TEST

1. Qaysi Somoniy hukmdor davrida uning nomi bilan kumush dirham zarb qilingan?

A) Nuh; B) Ahmad; D) Ismoil; **E) Nasr.**

2. Somoniylar davlati tarkibiga kirgan hududlar to‘g‘ri berilgan qatorni aniqlang.

1) Farg‘ona; 2) Isfijob; 3) Choch; 4) Samarqand; 5) Buxoro; 6) Xorazm. 7) Chag‘oniyon; 8) Xuttalon; 9) Kesh; 10) Seyiston; 11) G‘azna; 12) Balx.

A) 1, 2, 3, 4, 5, 6; B) 7, 8, 9, 10, 11, 12;

D) 2, 4, 6, 8, 10, 12; **E) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11.**

3. Qachon aka-uka Nasr va Ismoil o‘rtasida jang bo‘lib o‘tdi?

A) 865-yil; B) 892-yil; D) 893-yil; **E) 888-yil.**

4. Somoniylarning kelib chiqishi qaysi tarixiy shaxsga borib taqaladi?

A) Nuh; B) Xurmuzd IV; D) Ahmad; **E) Bahrom Chubin.**

5. Ismoil va Amr ibn Lays o‘rtasidagi urushga sababchi bo‘lgan shaxs kim edi?

A) Xalifa Mu’tazid; B) Nasr; D) Xurmuzd IV; E) Nuh.

6. Nasr II davrida tashkil etilgan mahkama xizmatchilaridan qaysi tillarni bilish talab qilingan?

1) fors; 2) tojik; 3) turk; 4) arab.

A) 1, 2; B) 2, 3, 4; **D) 1, 3, 4;** E) 2, 4.

7. Somoniylar davrida lashkar nechta toifaga bo‘lingan?

A) 2; B) 3; D) 4; E) 5.

8. Ismoil Somoniy vafotidan keyin, qoraxoniylar mintaqaning qaysi qismida o‘z hokimiyatini kuchaytiradi?

A) Yettisuv, G‘azna; **B) Yettisuv, Qoshg‘ar;**

D) Xuroson, G‘azna; E) Movarounnahr, Xuroson.

9. Quyidagi yillarda sodir bo‘lgan voqealarni to‘g‘ri moslashtiring.

1. 849-yil; 2. 888-yil; 3.892-yil; 4. 900-yil.

a) Ismoil Somoniy tug‘ilgan; b) Nasr va Ismoil o‘rtasida toj-u taxt uchun kurash bo‘lgan; d) Nasr vafot etgan; e) Ismoil va Amr ibn Lays o‘rtasida urush boshlandi.

A) 1-a, 2-b, 3-d, 4-e; B) 1-b, 2-a, 3-e, 4-d;

E) 1-e, 2-a, 3-b, 4-d; E) 1-d, 2-a, 3-e, 4-b.

10. Nishopur qul bozoridan sotib olgan, iste’dodi tufayli yirik harbiy sarkardaga aylangan shaxsni toping.

A) Samjuriy; **B) Alptegin;** D) Tosh; E) Foyiq.

TARIXIY HUJJAT

VIZANTIYA MANBALARIDA BAHROM CHO‘BIN HAQIDA

588-yilga kelib, Vizantiyaning maxfiy siyosiy faoliyati tufayli Eron chegaralarida xavfli vaziyat yuzaga keldi: g‘arbda lashkarboshi Komentiol boshchiligida Vizantiya armiyasi hujumga tayyorlanib turardi, shimoldan xazarlar, hunnlar va avarlarning birlashgan kuchlari Daryal darasi va Darband orqali Eronning shimoliy hududlariga kirib kela boshladilar, shimoli-sharqdan turk xoqoni El Arslon Yangi Sebug Tegin Amudaryodan Xurosonga kirib keldi, janubdan Firot daryosi tarafidan amirlar Amr va Abbos boshchiligida

nasroniy arablar qishloqlarni talay boshlagan edilar. Bularning eng xavflisi turk xoqoni edi. Shuning uchun Xurmizd Bahromni Katga lashkar bilan turklarga qarshi tashlaydi. Bahrom Balx yaqinidagi jangda turklar ustidan g‘alaba qozonib, ularni yana Amudaryoning o‘ng sohiliga qaytaradi. Biroq, bu g‘alaba forslarga qimmatga tushadi: turklar bilan jangda holdan toygan forslar rumlardan yengiladi. Natijada Xurmizd Bahrom Chubinni lashkarboshilikdan tushiradi. Bahrom mansabdan chetlatilishining boshqa sababi ham bor edi: ma’lumotlarga ko‘ra, u turklarni yengib, juda katta o‘ljani qo‘lga kiritib, uning faqat bir qisminigina Xurmizdning saroyiga yuborgan va o‘zi shahanshohlikni da’vo qila boshlagan. Bunga javoban Bahrom qo‘zg‘olon ko‘taradi. Xurmizdning xasisligi va boshqa salbiy xususiyatlari tufayli Eron aholisining talay qismi Xurmizddan bosh tortadi. Vaziyatni anglagan saroy a’yonlari Xurmizdni taxtdan tushiradilar. Shunda u forslarga nutq bilan murojaat etadi. Xurmizdning nutqi kor qilmaydi, uni qamab, ko‘ziga mil tortadilar, so‘ng qatl qiladilar. Saroy a’yonlari taxtga Xurmizdning balog‘at yoshiga yetmagan o‘g‘li Xusravni o‘tqazadilar. Bu payt katta kuch to‘plashga muvaffaq bo‘lgan Bahrom qo‘zg‘olonni davom ettirib, endi yangi shahanshoh Xusrav II Parvizga (590–628) qarshi kurashadi.

Bahromning qo‘shinlari bilan bo‘lgan jangda Xusrav to‘la mag‘lubiyatga uchraydi. Shunda o‘sha ba’zilar Rumga, boshqalar Kavkazga va yana kimlardir – turklar zaminiga, ya’ni Movarounnahr tarafga qochishni maslahat beradi. Xusrav esa Rumga imperator huzuriga qochadi va undan harbiy yordam so‘raydi.

Narses – Vizantiya lashkarboshisi, Xusrav Parvizga imperator tomonidan 60 000 kishilik lashkar bilan yordamga yuborilgan. Narses fors va yunonlardan iborat o‘z qo‘shinlari bilan Bahrom ustidan bir necha to‘qnashuvlarda g‘alaba qozonadi. Nihoyat, Bahrom to‘la mag‘lubiyatga uchrab, turk xoqonining huzuriga – Xorazmga qochadi. Ba’zi xabarlarga ko‘ra, Bahrom u yerda xoqonning qiziga uylanadi, so‘ng Kaspiy orqali Eronga keladi va mamlakatning shimolida zaharlab o‘ldiriladi. Boshqa xabarga ko‘ra, Bahromni, Xusravning hadyalari va iltimosi bilan, xoqonning xotini zaharlab o‘ldiradi.

Mashhur Eron lashkarboshisi, asli turk bo‘lgan Bahrom Chubin arman tarixiy asarlariga Vaxram Mixrevandak nomi bilan kirgan. U avval sosoniy shohi Xurmizd IV ga (578–589), so‘ng uning o‘g‘li Xusrav II ga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targan. Bahrom eftaliylarga qarshi ham muvaffaqiyatli urushlar qilgan, so‘ng avval Balxga chekingan, keyin Xorazm yaqinidagi cho‘llarga turk xoqoning huzuriga qochgan. U yerda xoqonning qiziga uylangan va o‘sha yerda o‘ldirilgan.

A. Ahmedovning vizantiya va arman manbalari asosidagi maqolalari asosida tayyorlandi

SOMONIYLAR[28] HUKMRONLIGINING BOSHLANISHI

Somonxudotning bir o‘g‘il ko‘rganligi va Asad ibn Abdulloh Qushayriyni do‘st tutganidan, o‘g‘liga Asad deb nom bergan. Asadning to‘rt o‘g‘li bor edi: Nuh, Ahmad, Yahyo va Ilyos.

Rofe ibn Lays[29] Horun ar-Rashid[30]ga qarshi xuruj qilib Samarqandni olganida Horun ar-Rashid Harsama ibn A’yanni Rofe ibn Laysga qarshi urushga yubordi. Rofe Samarqandni hisor qildi va Harsama uni qo‘lga olishdan ojiz qoldi. Bu hodisa sababli Ma’mun[31] Horun ar-Rashid bilan birga Xurosonga kelgan va Horunning dili shu ish bilan g‘oyat darajada mashg‘ul edi, Ma’mun Asadning o‘g‘illariga xat yozib, ularga Rofe bilan urushda Harsamaga yordam berishni buyurdi. Asad o‘g‘illarining da’vatiga ko‘ra Rofe Harsama bilan sulh tuzdi va ular o‘rtasida quda-andalik vujudga kelib, Horun bu ishdan xotirjam bo‘ldi. Rofening butkul Xurosonni olib qo‘yish xavfi bor edi. Shuning uchun bu sulhning tuzilishi Ma’mun uchun juda yoqib tushdi.

Horun mana shu safar vaqtida Tusda vafot etdi. Ma’mun xalifalikka o‘tirgach, G‘asson ibn Ubbod Xurosonga amir bo‘ldi. Ma’mun unga Asad ibn Somonxudotning o‘g‘illariga Xurosonning ayrim shaharlari hukmronligini berishni buyurdi: G‘asson ibn Ubbod ularning har biriga o‘sha qilgan yaxshiliklari evaziga bittadan e’tiborli shaharni berdi: Nuh ibn Asadni Samarqandga, Ahmad ibn Asadni Marvga amir qilib tayinladi. Bu (voqea) ikki yuz ikkinchi yilda (817) bo‘lgan edi. G‘asson Xuroson amirligidan bekor etilib, Tohir ibn Husayn[32] Xuroson amiri bo‘lganda ham Tohir u viloyatlarni Asadning o‘g‘illari qo‘lida qoldirdi va ularning eng kattasi bo‘lgan Nuh ibn Asadga sarpo kiygizdi. Nuh ibn Asad to dunyodan o‘tgunigacha Samarqandda bo‘ldi va birodari Ahmad ibn Asadni (o‘z o‘rniga) xalifa qildi. Ahmad ibn Asad olim va porso bir kishi edi, u to vafot etgunigacha Samarqandda bo‘ldi va (vafoti vaqtida) o‘g‘li Nasr ibn Ahmad ibn Asadni o‘z o‘rniga xalifa qildi. U otasining o‘rniga o‘tirgach, ikki yuz ellik birinchi yili ramazon oyining boshida (865-yil 29-sentyabr) shanba kuni uning nomiga xalifa Vosiq billohdan Movarounnahrning amirligi unga berilganligi to‘g‘risida farmon keldi.

Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asaridan

[28] Somoniylar – kelib chiqishi mahalliy dehqonlardan bo‘lgan hukmdorlar oilasi, 819–875-yillarda Movarounnahr va Xurosonning turli shaharlarida xalifalik tomonidan tayinlangan hokimlar, 875–1005-yillarda esa Arab xalifaligi tarkibidagi Movarounnahr va Xurosonning xalifa tomonidan tayinlanuvchi hokimlari sifatida vorislik tartibida mustaqil hukm surganlar.

[29] Rofe ibn Lays – Nasr ibn Sayyorning nabirasi, buxorxudot Tug‘shodaning kuyovi. 806–810-yillarda Movarounnahr va Xurosonda abbosiylar xalifaligiga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘olon rahbari.

[30] Horun ar-Rashid – abbosiylar sulolasidan bo‘lgan Arab xalifasi (786–809 yy.).

[31] Ma’mun – abbosiylar sulolasidan bo‘lgan xalifa (813–833), yirik siyosiy arbob, ilm-fan homiysi. Xalifa Horun ar-Rashid o‘g‘li. Ma’mun Xuroson viloyati (markazi — Marv sh.) noibi (809–813) bo‘lgan, 813-yilda ukasi Amin bilan taxt uchun bo‘lgan jangda g‘olib chiqib, Bag‘dod xalifaligi uning ixtiyoriga o‘tadi. Xuroson olimlarini o‘z saroyida to‘play boshlab, ularni o‘zi bilan Bag‘dodga olib ketgan, ular «Bayt ul-hikma» («Bilim uyi»)da o‘z ilmiy faoliyatlarini davom ettirganlar.

[32] Tohir ibn Husayn – (775/776–822), Tohiriylar sulolasi asoschisi (821–822).

AMIRI MOZIY ABU IBROHIM ISMOIL IBN AHMAD[33] AS-SOMONIY HUKMRONLIGINING BOSHLANISHI

U somoniylar sulolasi sultonlarining avvalgisi bo‘lib, haqiqatan ham podshohlikka loyiq va haqli edi. U aqlli, adolatli, shafqatli, fikr va tadbir egasi bir kishi edi; hamisha xalifalarga itoat izhor qilar va ularga tobe bo‘lishni zarur va lozim bilardi. U ikki yuz sakson yettinchi yili rabi al-oxir oyining (900-yil aprel) o‘rtasida shanba kuni Amr ibn Laysni Balxda asir etib mamlakatga ega bo‘ldi va sakkiz yil podshohlik qildi. Ikki yuz to‘qson beshinchi yili (907-yil 12-oktyabr) Buxoroda xudoning rahmatiga yetishdi.

Amiri moziy ikki yuz o‘ttiz to‘rtinchi yil shavvol oyida (849-yil aprel-may) Farg‘onada tug‘ildi, o‘n to‘rt yoshga yetganida otasi vafot etdi. Katta akasi amir Nasr[34] uni juda ulug‘ tutar, u ham amir Nasrning xizmatini qilar edi. Husayn ibn Tohir at-Toiy ikki yuz oltmishinchi yili rabi al-oxir oyida (874-yil yanvar-fevral) Xorazmdan Buxoroga kelganida u bilan buxoroliklar o‘rtasida urushlar bo‘lib, besh kundan keyin u shaharni oldi, buxoroliklarni shahar va qishloqda turishdan man qildi va ko‘p kishini o‘ldirdi; xorazmliklarga bosqinchilik qilishga ruxsat berdi. Ular buxoroliklarning narsalarini musodara qilar, kechasi zo‘rlik bilan uylariga bostirib kirishar, og‘ir jinoyatlar qilib mol olar edilar. Buxoro aholisi Husayn ibn Tohirga qarshi urushga chiqdi, ko‘p kishi o‘ldirildi va shaharning uchdan bir qismi kuydi. Urushda shahar aholisining qo‘li baland kelgach, Husayn ibn Tohir jarchi qo‘yib aholiga omonlik e’lon qildi. Jam bo‘lib urushga tayyor turgan xalq omonlik xabarini eshitib tarqaldi, ba’zilar qishloqqa ketdilar. Husayn ibn Tohir xalq tarqalib ketganini bilib qilichni ishga soldi va ko‘p kishini o‘ldirdi. Xalq yana (unga qarshi) qo‘zg‘aldi va Husayn ibn Tohir yengildi. Kun bo‘yi urush qildilar, kech bo‘lgach Husayn ko‘shkning darvozasini mahkam berkitdi. Xalq uni ushlab olish uchun ko‘shk darvozasini qo‘riqlab turar edi. Husayn ibn Tohir Buxoro xirojini tamom olgan, uning hammasi g‘idrifiy diram bo‘lib saroy o‘rtasiga to‘kib qo‘yilgan edi. Husayn ibn Tohir bu g‘idrifiylarni kumushga almashtirib olmoqchi edi-yu, bunga vaqt topa olmadi va o‘sha kechasi devorni teshib o‘zining yaqin kishilari bilan och va yalang‘och holda qochib ketdi; u g‘idrifiy diramlar (saroyda) qola berdi. Odamlar bundan xabardor bo‘lib, saroyga kirdilar va u pullarni taladilar. Ko‘p kishilar o‘sha moldan shunday boy bo‘lib ketdilarki, boylik asari ularning avlodlariga ham qoldi. Shaharda: «Falonchi Husayn ibn Tohir saroyining boyi», — deyishar edi.

---

[33] Ismoil ibn Ahmad – Somoniylar davlati hukmdori (892–907), 874–892-yillarda Buxoro hokimi, 892-yildan Movarounnahr amiri, 900-yildan esa xalifa Mu’tazid (892–902) farmoni bilan Xuroson amiri deb e’lon qilingan.

[34] Nasr – Somonxudotning nabirasi bo‘lmish Ahmadning o‘g‘li, somoniylar sulolasi vakili. 864-yilda Samarqand hokimi bo‘lgan. V. V. Bartoldning fikricha, 875-yilda xalifa Mu’tamid (870–892) tomonidan butun Movarounnahrga amir qilib tayinlangan (875–892).

Shunday qilib, Husayn ibn Tohir qochdi, undan keyin ham Buxoro aholisi boshida boshqa har xil mojarolar va har kimlar bilan urushlar ko‘p voqe bo‘ldi. Buxoroning ahli ilm va yaxshi kishilari marhum Xo‘ja Abu Hafs Kabirning o‘g‘li Abu Abdulloh al-faqihning huzuriga yig‘ildilar. U jasoratli kishi edi. Buxoro ishlari bo‘yicha u bilan maslahat qildilar. Xurosonda biror amir yo‘q edi. Ya’qub ibn Lays zo‘rlik bilan Xurosonni olgan va Buxoroda Rofe ibn Harsama u bilan urushayotgan edi. Xurosonda ham notinchlik bo‘lib, Buxoro bu to‘polonlardan xarob bo‘layotgan edi. Shunday qilib, Xo‘ja Abu Hafsning o‘g‘li Abu Abdulloh Samarqandga Nasr ibn Ahmad ibn Asad as-Somoniyga — u Samarqand va Farg‘onaning amiri edi — xat yozdi va undan Buxoroga amir yuborishini so‘radi. Nasr ibn Ahmad o‘z birodari Ismoil ibn Ahmadni Buxoroga yubordi. Amir Ismoil Karminaga yetgach, bir necha kun u yerda turib, Buxoroga, Buxoro amiri Husayn ibn Muhammad al-Xavorijiyga elchi yubordi. Uning elchisi bir necha marta borib-kelib turdi va oxiri amir Ismoil Buxoroga amir, Husayn ibn Muhammad al-Xavorijiyning esa unga xalifa bo‘lishiga qaror qilindi. Husayn Xavorijiyning lashkari bu qarorga bo‘ysundi.

Amir Ismoil Xavorijiyni o‘ziga xalifa tayin qilganligi haqida farmon bilan bayroq va sarpo yubordi. Xavorijiyni shu bayroq va sarpo bilan Buxoro shahrida aylantirdilar. Buxoro aholisi shodlik ko‘rsatdi. O‘sha kuni seshanba kuni edi, juma kuni xutbani Nasr ibn Ahmad nomiga o‘qidilar va Ya’qub ibn Lays[35] nomini xutbadan tushirdilar. Bu voqea amir Ismoilning Buxoroga kirishidan oldin bo‘lib, o‘sha juma kuni ikki yuz oltmishinchi yil muborak ramazon oyining birinchi jumasi (874-yil 23-iyul) edi. Abu Hafs Kabirning o‘g‘li, — xudo ularni rahmat qilsin, — uning istiqboliga chiqdi. Buxoroning arab va boshqalardan iborat ulug‘ odamlari u bilan birga Karminagacha bordilar. Abu Abdulloh buyrug‘i bilan shaharni yasatdilar.

Amir Ismoil Buxoroga kelganidan pushaymon edi. Chunki uning lashkari oz, Buxoroda esa to‘polon va g‘avg‘o ko‘tarilgan edi, o‘ziga nisbatan buxoroliklar dildan qanday munosabatda ekani unga ma’lum emas edi. Abu Abdulloh ibn Xo‘ja Abu Hafs (istiqbol uchun Buxorodan) chiqib Karminaga kelgach, amir Ismoilning dili quvvat topdi; Abu Abdulloh har nima qilsa ham shahar aholisi uni qaytara olmasligini bilib, o‘z qarorini qat’iy qildi. Abu Abdulloh unga ko‘p madhlar aytib dilini quvvatlantirdi. Amir Ismoilni Buxoroga olib kelgach, uni ulug‘lab, hurmat ko‘rsatdilar, shahar aholisi (Abu Abdullohning) buyrug‘i bilan uning ustidan ko‘p tilla va kumush sochdilar.

Amir Ismoil Husayn al-Xavorijiyni tutib, zindonga yubordi va xudoyi taoloning qudrati bilan u g‘avg‘o tinchidi.

[35] Xurosonda hukmronlik qilayotgan safforiylar sulolasi vakillari (Ya’qub ibn Lays)ga Buxoro va Movarounnahrning ayrim viloyatlari bo‘ysunar edi.

AMIR ISMOILNING BUXOROGA KIRISHI

(Amir) Nasr ibn Ahmad amir Ismoilning gardaniga har yili Buxoro molidan besh yuz ming diramini yuborib turishni vazifa qilib yuklagan edi. (Lekin) Shundan keyin amir Ismoil bir qancha urushlarda bo‘ldi va u mol xarj bo‘lib ketib, yubora olmadi. Amir Nasr yana odamlarini yuborib o‘sha molni talab qildi, amir Ismoil yubormadi va shu sababdan oralarida noxushlik paydo bo‘ldi. Amir Nasr lashkar yig‘di va Farg‘onaga, o‘z birodari Abu-l-Ash’asga xat yozib, uni ko‘p lashkar bilan kelishga va yana bir xatni Shoshga, boshqa birodari Abu Yusuf Ya’qub ibn Ahmadga yozib, uni ham o‘z lashkari bilan kelishga va Isfijob turklarini ham olib kelishga buyurdi. (Shunday qilib) ular ko‘p lashkar yig‘dilar va ikki yuz yetmish ikkinchi yili rajab oyida (885-yil dekabr – 886-yil yanvar) Buxoroga qarab yurdilar. Amir Ismoil bundan xabar topgach, o‘z birodariga hurmat yuzasidan Buxoroni bo‘shatib Farabga ketdi, Amir Nasr Buxoroga keldi va amir Ismoilni uchratmagach, Baykandga borib, shu yerga qo‘ndi. Baykandliklar uni kutib olib, ustidan ko‘p oltin-kumush sochdilar va ko‘p tuhfalar chiqardilar. Amir Ismoil bilan o‘sha vaqtda Xuroson amiri bo‘lib turgan Rofe ibn Harsama o‘rtasida do‘stlik bor edi. Amir Ismoil unga xat yozib, yordam so‘radi, Rofe o‘z lashkari bilan kelib, Jayxun daryosi muzlagan edi, muz ustidan o‘tdi. Amir Nasr Rofening kelganidan xabar topib, Buxoroga qaytdi. Amir Ismoil Rofe bilan borib Samarqandni olishga ittifoq tuzdi. Bu xabar amir Nasrga etgach, u tezlik bilan Tavoisga borib, yo‘lni to‘sdi. Amir Ismoil va Rofe cho‘l yo‘li bilan ketdilar. Buxoroning hamma qishloqlari amir Nasrning tasarrufida edi. Ular cho‘lda na oziq-ovqat va na yem-xashak topa olmas edilar. U yil qahatchilik yili edi. Ularning ahvollari og‘irlashdi. Ularning lashkarlari orasida bir man non hatto uch diramga yetdi va Rofe lashkaridan ko‘p kishilar ochlikdan halok bo‘ldilar. Amir Nasr Samarqandga, o‘z o‘g‘li Ahmadga xat yozib, unga Samarqand Sug‘didan jangchilar to‘plashni buyurdi. Viloyat aholisi: «Bular isyonchilardir, ularga yordam berish halol bo‘lmaydi», — deb amir Ismoilga yem-xashak bermadilar.

Amir Nasr Rofening kelganidan tangdil bo‘lgan edi. U Karminaga ketdi. Amir Ismoil va Rofelar uning izidan borayotgan edilar, bir kishi Rofega nasihat qilib: «Sen o‘z viloyatingni qo‘yib, bu yerga kelding, agar u ikki birodar bir-biri bilan kelishib turib seni o‘rtaga olsalar sen nima qila olasan?» — dedi. Rofe bu gapdan qo‘rqdi va amir Nasr oldiga elchi yuborib: «Men urushish uchun kelganim yo‘q, balki sizlarning orangizda sulh qilish uchun keldim», — dedi. Amir Nasrga bu gap yoqib tushdi va Buxoro amiri biror boshqa kishi bo‘lishi, amir Ismoil omili xirojlikka tayinlanib, devon daromadi va xutba uning nomida bo‘lmasligi hamda u har yili (amir Nasrga) besh yuz ming diram to‘lab turishi lozimligi shartlari bilan sulh tuzdilar. (Rofe) Nasr ibn Ahmadni chaqirdi va Ishoq ibn Ahmadni ham chaqirib unga sarpo kiygizdi-da, Buxoro amir-

ligini unga topshirdi. Amir Ismoil bunga rozilik berdi. Amir Nasr (Samarqandga) qaytib ketdi va Rofe ham Xurosonga jo‘nadi. Bu ikki yuz yetmish uchinchi yili (886-yil 8-iyun – 887-yil 27-may) bo‘lgan edi. Shu voqeadan keyin o‘n besh oy o‘tgach, amir Nasr odam yuborib, molni talab qildi; amir Ismoil molni ushlab qolib, yubortirmadi. Amir Nasr o‘rtada kafil bo‘lgan Rofega xat yozdi. Rofe ham amir Ismoilga shu mazmunda xat yozdi. Amir Ismoil bu xatga iltifot qilmadi. Amir Nasr ikkinchi marta hammasi movarounnahrliklardan bo‘lgan lashkar to‘pladi; Abu-l-Ash’as Farg‘onadan keldi va yana qaytadan o‘sha avvalgi tartibda Buxoroga qarab yurdilar. (Amir Nasr) Buxoro tomon yuzlanib, Karminaga yetganida amir Ismoil ham o‘z lashkarini yig‘ib, Tavoisga bordi. Ikki orada to‘qnash bo‘lib, qattiq jang bo‘ldi. Is’hoq ibn Ahmad yengilib, Farabga ketdi. Amir Ismoil farg‘onaliklar ustiga qattiq hujum qilgan edi. Abu-l-Ash’as mag‘lub bo‘lib, Samarqandga jo‘nadi. U o‘z birodarini qoldirib qochib kelgani uchun samarqandliklar uni tutib olmoqchi bo‘lgan edilar, Abu-l-Ash’as Samarqanddan qaytib Rabinjonga keldi. Amir Ismoil Ahmad ibn Muso Marzuqni asir qilib olib, Buxoroga yubordi. Buxoro lashkari ikkinchi marta yengildi. Amir Ismoil o‘z joyida turgan edi. U bilan ozgina odam qolgan, mashhur kishilardan esa Siymoul-kabir u bilan birga edi. Amir Ismoil odam yuborib, qullardan va mavoliylardan qochganlarining hammasini yig‘dirdi. Ishoq ibn Ahmadni Farabdan qaytarib oldirib keldi. Buxoro g‘oziylaridan ham ikki ming kishi chiqdi va qishloqlar lashkarlarini jam qildilar. (Amir Ismoil) ularning hammasiga oziq-ovqat berdi. Amir Nasr Rabinjonga borib lashkar anjomlarini tayyorlab qaytdi. Amir Ismoil uning oldiga — Vozbadin qishlog‘iga bordi va shu yerda jam bo‘lishib ikki yuz yetmish beshinchi yili seshanba kuni jumod al-oxir oyining o‘n beshinchisida (888-yil 25-oktyabr) urush boshladilar. Amir Ismoil Farg‘ona lashkari ustidan g‘alaba qozondi. Abu-l-Ash’as yengilib qochdi, lashkar hammasi yengilib qochgan va amir Nasr ozgina odamlar bilan qolib, u ham mag‘lubiyatga uchragan edi.

Xorazmliklardan bir to‘dasi Nasrga yetib borib, uni o‘ldirmoqchi bo‘ldilar, ammo Siymoul-kabir ham buni uzoqdan ko‘rdi va xorazmliklarga qichqirib, ularni amir Nasrdan uzoqlashtirdi, so‘ng o‘zi otdan tushib, Nasrning uzangisini o‘pdi. Otasining quli bo‘lgan sipohsolor Siymoul-kabir odam yuborib, amir Ismoilga bu holdan xabar berdi. Nasr ibn Ahmad otdan tushdi va yostiqni yerga tashlab o‘tirdi. Amir Ismoil yetib keldi-da, otdan o‘zini tashlab, yaqin kelib, yostiqni o‘pdi hamda: «Yo amir! Xudoning hukmi shu ekanki, meni senga qarshi qo‘ydi va biz shunday bir zo‘r ishni o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rib turibmiz», — dedi. Amir Nasr: «Men bu qilgan ishlaringga ajablanaman, o‘z amiringga bo‘ysunmading va xudoyi taoloning senga bergan buyrug‘ini bajarmading!» — dedi. Amir Ismoil: «Ey, amir! Men xato ish qilganimga iqrorman, hamma gunoh menda, sen fazilatda (mendan) ulug‘roqsan va mening bu katta gunohimdan o‘tib afv etasan», — dedi.

Bular shunday so‘zlashib turganlarida ularning boshqa birodari Is’hoq ibn Ah-

mad yetib keldi. U otdan tushmay turgan edi, amir Ismoil: «Hoy falonchi! O‘z xo‘jang uchun otdan tushmaysanmi?» — deb unga dashnom berdi va undan achchig‘landi. Is’hoq tezda otdan tushib, o‘zini Nasrning oyog‘iga tashlab yer o‘pdi va: «Mening otim hali sovitilmagan toy, undan darrov tushib bo‘lmaydi», — deb uzr so‘rab, so‘zini tamom qilgan edi, amir Ismoil (Nasrga qarab): «Ey, amir! Yaxshisi shuki, bu xabar (Samarqandga) yetib, Movarounnahrda xalq qayg‘uga tushmasdan burun tezda o‘zingning aziz qarorgohingga qaytsang edi», — dedi. Amir Nasr: «Ey, Abu Ibrohim! Meni o‘z joyimga yuboradigan senmisan?» — dedi. Amir Ismoil: «Shunday qilmasam nima qilay? Qul o‘z xo‘jasiga nisbatan uning murodi nima bo‘lsa, shuni bajarishdan boshqacha muomala qilolmaydi», — dedi. Amir Nasr so‘zlar va uning ko‘zidan yosh quyilar, o‘tgan ishlar va to‘kilgan qonlarga pushaymon yer edi. So‘ng amir Nasr turib otga mindi, amir Ismoil va birodari Is’hoq uzangilarni tutib turdilar va uni (Samarqandga) qaytarib yubordilar. (Amir Ismoil) Siymoul-kabir va Abdulloh ibn Muslimni uni kuzatish uchun yubordi. Ular bir manzil birga borganlaridan keyin amir Nasr ularni qaytarib, o‘zi Samarqandga ketdi. Amir Nasr ibn Ahmad shu asirlik kunida ham o‘sha odamlar bilan, xuddi o‘zi amir bo‘lib taxtda o‘tirgan va ular uning oldida xizmatda turgan kunlardagidek so‘zlashar edi. Amir Nasr bu voqeadan to‘rt yil keyin ikki yuz yetmish to‘qqizinchi yili jumod al-avval oyidan yetti kun qolganida (892-yil 21-avgust) vafot etdi. U butun Movarounnahr yerlariga amir Ismoilni xalifa qilib tayinladi va boshqa birodarini hamda o‘z o‘g‘lini uning farmoniga bo‘ysundirdi.

Amir Nasr dunyodan o‘tgach, amir Ismoil Buxorodan Samarqandga kelib, davlat ishini rostladi va uning o‘g‘li Ahmad ibn Nasrni o‘ziga xalifa qildi. U shu yerdan boshlab g‘azot ishiga kirishdi.

Amir Ismoil Buxoroga kelganidan to akasi o‘lib, butun Movarounnahrni unga topshirib vafot qilganiga qadar yigirma yil o‘tdi. Amir Nasrning vafot etganligi xabari Amirul-mu’minin Mu’tazid billohga yetgach, ikki yuz saksoninchi yili muharram oyida (893-yil mart-aprel) u amir Ismoilni Movarounnahrga amir qilib farmon berdi. Amir Ismoil shu tarixda Taroz jangiga borib, ko‘p qiyinchilik ko‘rdi va oxiri Taroz amiri (bo‘ysunib) chiqib, ko‘p dehqonlar bilan birga islom dinini qabul etdi va Taroz fath etildi, (u yerdagi) katta ibodatxonani masjidi jome qildilar. Amir ul-muminin Mu’tazid billoh nomiga xutba o‘qidilar. Amir Ismoil ko‘p o‘ljalar olib Buxoroga keldi. U to Amr (ibn) Lays[36] kuchayib ketgunicha yetti yil podshohlik qildi va Movarounnahrning amiri bo‘lib turdi.

(Amr ibn Lays kuchayib) Xurosonning ba’zi joylarini oldi va jangga kirishdi. Amirlik qilib turgan Ali ibn al-Husayn Guzgoniyon amiri bo‘lmish Ahmaddan yordam so‘ragan edi, yaxshi javob ololmadi va Jayxundan o‘tib, Buxoroga — amir Ismoil oldiga keldi. Amir Ismoil xursand bo‘lib, sipohlari bilan uning istiqboliga chiqdi, e’zoz va ikrom bilan

[36] Amr ibn Lays – Xurosonda tashkil topgan safforiylar davlatining hukmdori (873–900).

uni Buxoroga olib kirib, ko‘p tuhfalar taqdim etdi, Ali ibn al-Husayn Farabga borib, o‘n uch oy u yerda bo‘ldi. Amir Ismoil unga doimo hadyalar yuborib turdi va yaxshi munosabatda bo‘ldi. Ali ibn al-Husayn, to uni (o‘z) o‘g‘li urushda o‘ldirgunicha, Farabda turdi.

Amr ibn Lays Balx amiri Abu Dovudga, Guzgoniyon amiri Ahmad ibn Farig‘unga va Movarounnahr amiri amir Ismoilga xat yozib, ularni o‘ziga bo‘ysunishga chaqirdi va yaxshi va’dalar qildi. Ular farmonga bo‘ysunib, unga xizmat qildilar. Amir Ismoil oldiga elchi kelib, xatni unga berdi hamda Balx amiri va Guzgoniyon amirining bo‘ysunganligidan xabar berib: «Bu bo‘ysunishga sen loyiqroqsan, chunki sen kattaroqsan va podshohzodaliging tufayli podshohlik qadrini yaxshiroq bilasan», — dedi. Amir Ismoil: «Sening xo‘jang shu qadar nodon ekanki, meni ular qatorida sanapti; (axir) ular mening qullarim-ku! Mening senga javobim — qilich; men bilan uning o‘rtasida urushdan boshqa narsa yo‘q, qaytib borib unga ayt, urush asbobini sozlasin!» — deb javob berdi. Amr ibn Lays amirlar va ulug‘ kishilar bilan maslahat qilib, amir Ismoil ishi borasida ulardan yordam so‘radi va: «Boshqa bir kishini yuborib, unga yoqimli so‘zlar aytish va yaxshi va’dalar qilish kerak», — dedi. Keyin u xat yozib, Nishopur shayxlaridan va o‘zining yaqin kishilaridan bir guruhini yubordi va xatida quyidagilarni aytdi: «Garchi Amir ul-mu’minin bu viloyatni menga bergan bo‘lsa ham men mulkdorlikda seni o‘zimga sherik qildim. Sen do‘st bo‘lib, men bilan yaxshi munosabatda bo‘lginki, hech bir badgo‘y bizning oramizga kirishga yo‘l topa olmasin, o‘rtamizda do‘stlik va birlik bo‘lsin, bundan ilgari aytgan gaplarimiz go‘stoxlik yuzasidan aytilgan edi, biz u gapdan kechdik. Sen Movarounnahr viloyatini qo‘ruqla, chunki u dushman chegarasidir; fuqaroga g‘amxo‘rlik qil! Biz u viloyatni senga berdik, xursandlik va xon-u moningning obodonligidan boshqa narsani istamaymiz. U viloyat xarob bo‘lmasin deb o‘zim bormay, Nishopurning mashhur kishilaridan bir qanchasini (elchi qilib) yubordim: ular huzurida (ushbu xat mazmunini) qabul etib so‘z berdim va shu aytilgan so‘zlarga ularni guvoh qildim, sendan boshqa hech kimga e’tiqodim yo‘q, oramizda do‘stlik mustahkam bo‘lishi uchun sen ham menga ishonishing kerak».

Amr (ibn) Laysning (elchilar yuborganligi) xabari amir Ismoilga yetgach, u Jayxun labiga (odamlar) yubordi, ular elchilarni suvdan o‘tishga qo‘ymadilar, keltirgan narsalarini olmadilar va (Ismoilga) yetkizmadilar, (elchilarni) xo‘rlab qaytardilar. Amir (ibn) Lays bundan g‘azablanib, urushga hozirlandi. O‘zining sipohsolori Ali ibn Surushga lashkar bilan Omuyaga borib, lashkarni o‘sha yerda to‘xtatishni va buyruq bo‘lmagunicha suvdan o‘tishga shoshilmaslikni buyurdi. Uning ketidan boshqa sipohsolar — Muhammad ibn Laysni besh ming kishi bilan yuborib: «Ali ibn Surush va sen birgalikda ish ko‘ringlar, lashkarni saqlanglar, u taraf-dan kimki omon tilab kelsa omonlik bering va yaxshi munosabatda bo‘ling va kemalar tayyorlab ayg‘oqchilar yuboring!» — dedi. Amr (ibn) Lays ketma-ket lashkar yuborib turdi.

Amir Ismoil bundan xabar topgach, yigirma ming kishi bilan tezda Buxorodan Jayxun daryosi labiga bordi va kechasi Jayxun suvidan o‘tib dushmanga to‘satdan hujum qildi. Ali ibn Surush bundan xabardor bo‘lib, tezda otga mindi va lashkarga qurol berib, piyoda askarlarni oldinga yubordi. Urush boshlanib ketdi, Amir Ismoilning lashkari har tomondan hujum qilar edi. Jang qattiq bo‘ldi. Muhammad ibn Ali ibn Surush chekindi, uning o‘zi va Nishopurning mashhur kishilaridan ko‘plari asir tushdilar. Ikkinchi kuni amir Ismoil Amr (ibn) Laysning (asir tushgan) askarlariga oziq-ovqatlar berib xursand qildi va hammasini Amr (ibn) Lays huzuriga qaytarib yubordi. Shunda lashkarboshilar amir Ismoilga: «Bular bizga qarshi urush qilgan edilar, sen ularni asir olganingdan keyin hammalariga sarpo kiygizib, qaytarib yubording!» — dedilar. Amir Ismoil: «Bu bechoralardan nima talab qilasiz, — qo‘ying ular o‘z yurtiga borsinlar, ular endi hech qachon sizga qarshi urushga kelmaydilar va boshqalarning dillarini ham (urushdan) qaytaradilar», — dedi. Amir Ismoil orqaga qaytdi va ko‘p kumush, kiyim-kechak, tilla va qurol-yarog‘lar (o‘lja qilib) Buxoroga keldi.

Shundan keyin Amr (ibn) Lays xafalik, g‘amginlik va pushaymonlikda bir yil Nishopurda bo‘ldi, u: «Men Ali (ibn) Surush va uning o‘g‘li uchun qasos olaman», — der edi. Amir Ismoil Amr (ibn) Laysning urush tadorikini ko‘rayotganligini eshitib, askarini yig‘di, ularga oziq-ovqat berib, har tomondan dushmanga qarab yurdi; (yig‘ilgan askarning) yaroqlisiga ham yaroqsiziga ham, tikuvchi-yamoqchilarga ham oziq-ovqat berdi. Bu ishdan xalq norozi bo‘lib: «Amir Ismoil shu lashkar bilan Amr (ibn) Laysga qarshi urush qilmoqchimi?!» — der edi. Bu xabar Amr (ibn) Laysga yetib, u xursand bo‘ldi. (Amir Ismoil) Jayxun labida edi, Mansur Qorategin va Pors Baykandiy Xorazmdan Omuyaga keldilar; Turkiston viloyati va Farg‘onadan o‘ttiz ming kishi yetib keldi. Yigirma beshinchi zul-qa’dada (amir Ismoil) Muhammad ibn Horunni lashkarning bosh qismi bilan yubordi va ikkinchi kuni o‘zi ham yo‘lga chiqib, Jayxundan o‘tdi va Omuyaga har joydan askar to‘pladi. Buxorodan Xorazm shahriga ketdilar va ikkinchi dushanba kunigacha (urushga) hozirlanib bo‘lib, u yerdan Balxga qarab yuzlandilar.

Amr (ibn) Lays Shoriston hisorini oldi va sipohlari bilan Shoriston oldiga kelib tushdi; lashkar keltirdi va (shahar) atrofiga xandaq qazdirib o‘radi. Sipoh (shaharga) kirgunicha bir necha kun o‘tdi. U shahar devorini mustahkam qildi va o‘zini shahardan qaytib ketmoqchidek qilib ko‘rsatib xalqni sevintirdi.

Amir Ismoil Ali ibn Ahmadni Forobga yuborib, Amr (ibn) Laysning ish boshida turgan kishilarini o‘ldirishga buyurdi, ular buyruqni bajarib, ko‘p mol olib keldilar. Ismoil har tarafdan odamlar yuborar, ular Amr (ibn) Lays odamlarini o‘ldirib, mol olib kelar edilar.

Amir Ismoil Balxning Aliobod (degan joyi) ga kelib tushib, uch kun o‘sha yerda turdi. So‘ngra u yerdan lashkarini ko‘chirdi va o‘zini Namozgohga tushmoqchidek qilib ko‘rsatib, unga boriladigan yo‘lni kengaytirdi. Amr (ibn) Lays buni ko‘rib, o‘sha tomon darvozalarini

mahkam qildi va o‘sha tarafga ko‘p lashkar qo‘ydi; palaxmon va devor teshadigan qurollarni o‘sha tomonga to‘g‘rilatdi. U Namozgoh yo‘liga pistirma tayyorlatib, uni lashkar bilan band qildi. Tong otgach, Amiri moziy (Ismoil) yana yo‘lni o‘zgartirdi va boshqa yo‘l bilan shahar darvozasiga qarab yurib, «Puli Ato» — «Ato ko‘prigi»ga kelib tushdi. Amr ibn Lays bu ishdan taajjubda qolib, palaxmonlarni o‘sha tomonga olishni lozim topdi. Amir Ismoil uch kun u yerda turdi. Uning farmoni bilan shaharga suv yubormay qo‘ydilar, devorni yiqitib, daraxtlarni kesdilar va yo‘llarni tekisladilar. Nihoyat, seshanba kuni ertalab amir Ismoil ozgina lashkar bilan otga minib shahar darvozasiga borgan edi. Amr ibn Lays darvozadan chiqib, urush boshladi. Jang qattiq bo‘ldi. Amr ibn Laysning lashkari yengilib qochdi. Amir Ismoilning lashkari ularning orqasidan izma-iz quvlab, ba’zilarini o‘ldirar va ba’zilarini asir olar edi. Shunday qilib, Balxda sakkiz farsang yiroqlikdagi bir joyga yetganlarida ikki xizmatchisi bilan birga Amr (ibn) Laysni ko‘rdilar, xizmatchilarning biri qochdi, biri esa Amr ibn Laysga yopishdi. Shundan keyin Amr (ibn) Laysni tutib oldilar. Har kim: «Amr (ibn) Laysni men tutdim», — der edi. Ammo ibn Laysning o‘zi esa: «Meni mana bu o‘z xizmatchim tutdi», — dedi. Amr (ibn) Lays o‘sha xizmatchisiga, har biri yetmish ming diram qiymatga ega bo‘lgan o‘n besh dona marvarid bergan ekan, ularni o‘sha xizmatchidan tortib oldilar. Amr (ibn) Lays chorshanba kuni jumod al-avval oyining o‘ninchisida ikki yuz sakson sakkizinchi yili (901-yil 2-may) asir olindi.

Amr (ibn) Laysni amir Ismoil oldiga olib kelganlarida, u piyoda bo‘lib yurmoqchi edi, ammo Amiri moziy bunga ruxsat bermadi va: «Bugun sen bilan shunday muomalada bo‘layki, odamlar taajjubda qolsinlar», — dedi va uni saropardaga olib kirishga buyurdi va o‘z birodarini uni qo‘riqlab turishga yubordi. To‘rt kundan keyin Amr (ibn) Lays amir (Ismoil)ni ko‘rdi.

Amir Ismoilning buyrug‘i bilan undan qanday qilib asir tushib qolganligi haqida so‘ragan edilar, u: «Chopib ketayotgan edim, otim charchab qoldi, otdan tushib uxladim, uyg‘onganimda boshimda ikkita qul turganini ko‘rdim, ulardan biri qamchin bilan burnimga turtdi». Men: «Bu qari kishidan nima istaysan?», — dedim va meni halok qilmasliklarini o‘tinib so‘radim. Ular otlaridan tushib, oyog‘imni o‘pdilar va zinhor (o‘ldirmaymiz) dedilar. Ulardan biri meni otga mindirdi. Odamlar yig‘ildilar va mendan: «Nimang bor?» — deb so‘radilar. Men: «Har biri yetmish ming diram qiymatida bir nechta marvarid bor», — dedim va uzugimni berdim. Ular oyog‘imdan etigimni yechib, bir qancha qimmatbaho gavharlarni topib oldilar. (Shu payt) meni lashkar topdi va Muhammadshoh odamlarni mendan uzoqlatib turgan asnoda uzoqdan amir Ismoilni ko‘rib, otdan tushmoqchi bo‘lgan edim, u o‘z joni va boshi hurmatini o‘rtaga qo‘yib, «Otdan tushma!» — dedi; mening ko‘nglim qaror topdi. U meni saropardaga tushirdi; Abu Yusuf men bilan birga chodirda o‘tirib, meni qo‘riqlab turdi; suv so‘ragan edim, menga gulob berdilar va menga xilma-xil izzat-ikromlar ko‘rsat-

dilar. Keyin amir Ismoil mening oldimga kirib, mehribonlik ko‘rsatdi va seni o‘ldirmayman deb ahd qildi va meni kajavaga o‘tqizib, hurmat bilan shaharga yetkazishga buyurdi va kechasi Samarqand shahriga olib kirdilar, bundan Samarqand aholisidan hech kimning xabari bo‘lmadi. Amir Ismoil mening uzugimni tortib olib, qo‘ygan kishidan uch ming diramga sotib olib, bahosini to‘ladi va uzukni menga yubordi. Uzukning ko‘zi qizil yoqut edi», — dedi.

(Yana) Amr (ibn) Lays: «Jang kuni menda qirq ming diram bor edi, uni urush vaqtida mendan tortib oldilar. Men ellik farsang masofaga chopib bora oladigan va o‘zim ko‘p sinagan bir ot ustida edim, o‘sha kuni u shunday sust yurar ediki, men uning ustidan tushishni istar edim. Otning oyoqlari ariqqa tushib ketdi, men otdan yiqildim va o‘zimdan umid uzdim, haligi ikki kishi meni o‘ldirishga qasd qilgan vaqtlarida o‘zim bilan birga turgan kishiga: «Mening otimga minib qoch!» — dedim, u otga minib oldi, qarasam, ot xuddi bulutdek yugurar edi. Men tushundimki, bu (hammasi) mening davlatim ketganligidan ekan. Ayb otda emas ekan», — dedi.

Amr (ibn) Lays amir Ismoilga qarab: «Men Balxda o‘n xarvor oltin bekitganman, buyurgin, uni olib kelsinlar, ularga ega bo‘lishga bugun sen ko‘proq sazovorsan!» — dedi. Amir Ismoil odam yuborib, oltinlarni oldirib keldi va hammasini Amr ibn Laysga yubordi. Har qancha iltimos qilsalar ham marhum amir Ismoil u oltinlardan hech bir narsa olmadi.

Amir ul-mu‘minning Amr ibn Laysni o‘ziga yuborilishini talab qilib yozgan xati Samarqandga yetib keldi; xatning boshlanishiga shunday yozilgan edi: «Abdulloh ibn al-imom Abu-l-Abbos al-Mu’tazid[37] billoh Amir ul-mu‘minindan, Amir ul-mu‘mininning g‘ulomi Abu Ibrohim Ismoil ibn Ahmadga». Bu xat amir Ismoilga etgach, u Amr (ibn) Laysga achinib, g‘amgin bo‘ldi, ammo xalifa farmonini qaytara olmadi. Nihoyat uning buyrug‘i bilan Amr (ibn) Laysni kajavaga o‘tqizib, Buxoroga olib keldilar. Amir Ismoil uyalganidan yuzini unga ko‘rsatmadi va: «Biron hojating bo‘lsa, so‘ra», — deb odam yubordi. Amr (ibn) Lays: «Mening bolalarimni yaxshi kutsinlar hamda bu meni olib ketayotgan kishilarga nasihat qilgin toki ular menga nisbatan yaxshi muomalada bo‘lsinlar», — deb javob qaytardi. Amir Ismoil shunday qildi va uni kajavaga o‘tirg‘izib Bag‘dodga yubordi. Amr (ibn) Lays Bag‘dodga etgach, xalifa uni Sofiy xodimga topshirdi va u Mu’tazid xalifaligining oxirigacha shu Sofiy xodim qo‘lida asirlikda turdi hamda ikki yil zindonda bo‘lgandan keyin, ikki yuz sakson to‘qqizinchi yilda (901-yil 16-dekabr – 902-yil 4-dekabr) o‘ldirildi.

Amir Ismoil Amr (ibn) Laysni xalifaning oldiga yuborgandan keyin xalifa amir Ismoilni Xuroson amiri qilib farmon yubordi — Hulvon dovonidan boshlab Xuroson viloyati, Movarounnahr, Turkiston, Sind, Hind va

[37] Xalifa Mu’tazid – 892–902 yilarda hukmronlik qilgan abbosiy xalifa.

Gurgonlar hammasi uniki bo‘ldi. U har bir shaharga bittadan amir tayin qildi, adolat va yaxshi axloq bilan ish tutdi, kimki fuqaroga zulm qilsa, unga jazo berdi. U zohid bo‘la turib shunday siyosatli ediki, somoniylar sulolasidan hech kim undan siyosatliroq bo‘lmagan. U davlat ishida hech beparvolik qilmas, hamisha xalifaga bo‘ysunar va umrida hech mahal xalifaga itoatsizlik qilmay, uning farmonini mahkam tutar edi.

Amir Ismoil bemor bo‘lib bir qancha vaqt yotdi. Uning kasalligi ko‘proq rutubatdan edi. Tabiblar: «Jo‘yi muliyonning havosi xushroq», — dedilar. Uni o‘zining xos mulkidan bo‘lgan Zarmon qishlog‘iga olib bordilar: «Bu yerning havosi unga muvofiqroq keladi», — dedilar. Amir bu qishloqni yaxshi ko‘rar va ov qilish uchun hamma vaqt o‘sha yerga borar edi; u yerga bog‘ qurgan edi. Bir muddat u yerda bemor yotib, oxiri ikki yuz to‘qson beshinchi yili safar oyining o‘n beshinchisida (907-yil 25-noyabr) xuddi shu bog‘da katta bir daraxt tagida vafot etdi. U yigirma yil Xuroson amiri bo‘ldi. Hukmdorlik muddati o‘ttiz yil edi. Xudoyi taolo uni rahmat qilsin, negaki uning davrida Buxoro poytaxt bo‘ldi, somoniylar sulolasidan chiqqan hamma amirlar Buxoroda turadigan bo‘ldilar. Undan oldingi Xuroson amirlarining hech biri Buxoroda turgan emas. U Buxoroda turishni o‘zi uchun muborak deb hisoblar, uning ko‘ngli Buxorodan boshqa hech bir yerda orom topmas va u qayerda bo‘lmasin: «Bizning shahar, ya’ni Buxoro, ana bunday, ana shunday», — der edi. Amir Ismoil vafot etgandan keyin o‘rniga o‘g‘li o‘tirdi.

Unga «Amiri moziy» — «Dunyodan o‘tgan amir» degan laqabni berdilar.

Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far an-Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asaridan

SOMONIYLAR VA SAFFORIYLAR

Elchilar ayrim holatlarda davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarning keskinlashib ketishiga ham sababchi bo‘lib qolganlar. Jumladan, hijriy 271-yilning sha’bon oyida (871-yil, iyun) elchilarning omadsiz faoliyatidan so‘ng Amr ibn Lays (878–901) va amir Ismoil Somoniy (849–907) o‘rtasidagi aloqalar nihoyatda yomonlashib ketadi. Amr ibn Lays elchisi tomonidan o‘z hukmdorining bir qator viloyatlar hukmdorlari bilan birga, Amir Ismoil nomiga ham maktub bitganini aytganligi munosabatlar keskinlashuviga «sabab» bo‘ladi. Amir Ismoilga elchining mayda viloyatlar hukmdorlari bilan o‘zini bir qatorga qo‘ygani yoqmaydi va ikki davlat o‘rtasida urushdan boshqa narsa yo‘qligini aytadi. Amr ibn Lays o‘zaro munosabatlarni yaxshilash uchun Nishopur shayxlari, o‘z yaqin kishilaridan iborat kichik bir guruhni ikkinchi marotaba elchi qilib jo‘natadi. Biroq, somoniy hukmdor tomonidan elchilar olib kelgan sovg‘alar qabul qilinmaydi, ular Amudaryodan o‘tkazmasdan ortga quvib yuboriladi.

Husniddin Mamadaliyev maqolasi

SOMONIYLAR DAVRIDA IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOT

Bu mavzuda o‘quvchilarni baholashda ularning quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga e’tibor qaratish lozim:

- somoniylar davrida qishloq xo‘jaligining ahvoli, ulardagi o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumot bera olishi;
- Somoniylar davlatidagi mashhur Buxoro, Samarqand, Xorazm shaharlarining rivojlanishi, ularda taraqqiy etgan sohalar haqida so‘zlab bera olishi;
- bu sohalarning bugungi kundagi ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari bilan solishtirib xulosa qila olishi;
- pul islohotlari va ularning natijalari haqida ma’lumot bera olishi;
- sarroflar haqida ma’lumot bera olishi, ularning bugungi kundagi zamonaviy ko‘rinishlarini tahlil qila olishi;
- qurilish sohasidagi o‘zgarishlar va me’moriy yodgorliklarning bugungi kundagi ahamiyati;
- tashqi savdo aloqalari va unda Buyuk ipak yo‘lining ahamiyati haqida ma’lumot bera olishi;
- somoniylar davrida islom dinining mintaqada keng yoyilishi va uning nufuzining oshishida Buxoroning ahamiyatini tahlil qila olishi va xulosasini taqdim eta olishi;
- mavzuda berilgan rasmlar asosida o‘z munosabati va fikrini bayon eta olishi;
- mavzu yuzasidan berilgan savollarga javob bera olishi va topshiriqlarni bajara olishi.

TEST

1. Somoniylar davrida asosiy dehqonchilik solig‘i qanday nomlangan?

A) Xiroj; B) Ushr; D) Jiz’ya; E) Zakot.

2. Arab geografi Istaxriy qaysi hududni Movarounnahr viloyatlari ichida eng nufuzli hudud deb ta’riflagan?

A) Farg‘ona; B) Choch; D) Samarqand; E) Xorazm.

3. Nuqtalar o‘rniga mos raqamlarni joylang.

1. Bir farsax (farsang) … mildan iborat.
2. Bir farsax … km ekin yeri.
3. Ayrim hududlarda bir farsax … qadamga teng bo‘lgan.
4. Umuman olganda, ushbu o‘lchovning qiymati … dan … km gacha o‘zgargan.

a) 5,6; 8,5; b) 12000; d) 6; e) 3;

A) 1-e, 2-a, 3-d, 4-b; B) 1-b, 2-a, 3-d, 4-e; E) 1-a, 2-b, 3-d, 4-e; **E) 1-e, 2-d, 3-b, 4-a.**

4. Somoniylar davrida qaysi hududda qayiqsozlik taraqqiy qildi?

A) Termiz; B) Iloq; D) Choch; **E) Xorazm.**

5. Somoniylar davrida «zandaniychi» nomli mato turi qaysi hududda tayyorlangan?

A) Farg‘ona; **B) Buxoro;** D) Choch; E) Iloq.

6. Somoniylar davrida kumush tangalar hukumat boshlig‘i nomidan qaysi shaharda zarb qilindi?

1) Buxoro; 2) Balx; 3) Samarqand; 4) Urganch; 5) Marv; 6) Shosh.

A) 1, 2, 3, 4, 5, 6; B) 1, 2, 4, 6; **D) 1, 3, 5, 6;** E) 2, 4, 6.

7. Somoniylar davrida qurilishda qaysi usul kashf qilindi?

A) parchin ishlatish usuli; B) chor usuli;

D) gumbaz usuli; E) ansambl usuli.

8. Xorazmdagi (Qavatqal’a), Samarqanddagi (Afrosiyob) va Termiz yaqinidagi (Qirqqiz) qal’alariga xos umumiy xususiyatni aniqlang.

A) pardoz ishlarida loy suvoq ishlatilgan;

B) hammasi pishgan g‘ishtdan qurilgan;

D) hammasi xom g‘isht va paxsadan bunyod etilgan;

E) ushbu inshootlarni bezashda mayolika ishlatilgan.

9. Quyidagi qaysi inshootning asosiy zali ohaktoshli ganchning ichiga tolasimon o‘simliklar qo‘shilgan materiallardan juda nafis o‘ymakorlik usulida hashamdor qilib ishlangan?

A) Afrosiyobdagi somoniylar qasri; B) Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi;

D) Xorazmdagi Qavatqal’a; E) Termizdagi Qirqqizqal’a.

10. Quyidagi mulohazalarning qaysi birida xatolik mavjud?

A) Choy ichimligi Sharqiy Turkiston orqali Turkiston diyoriga tarqaldi;

B) Sibir, Xazar va Bulg‘ordan Movarounnahrga qimmatbaho mo‘ynalar olib kelingan;

D) Xitoy bilan savdoda choy, ipak mato, tuz, ot asosiy o‘rinda edi;

E) VI–VII asrlarda choy asosiy import mahsulotiga aylandi.

11. Qaysi omil somoniylar davrida Movarounnahr aholisining mustaqil xalq bo‘lib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi?

A) Ismoil Somoniy islohotlari;

B) sun’iy sug‘orishdagi yutuqlar;

D) mamlakatda tinchlik va osoyishtalikning o‘rnatilishi;

E) islom dini ravnaqi.

12. Quyida berilganlarning qaysi biri Buxoroda VIII–X asrda bunyod etilgan madrasa hisoblanmaydi?

A) Farjak; **B) Registon;** D) Timchayi Xon; E) Kalabod,

TARIXIY HUJJAT

BUXORODA BO‘LGAN «BAYT UT-TIROZ» – TO‘QIMACHILIK KORXONASINING BAYONI

Buxoroda — hisor (*qal’a devori*) bilan shahriston o‘rtasida, masjidi jome yaqinida bir korxona bor edi; unda paloslar, darpardalar, yazdiy kiyimlilar, yostiq jildlari, funduqiy joynamozlar va ust kiyimlarni xalifa uchun to‘qir edilar; bitta darpardaga (butun) Buxoro xiroji sarf bo‘lardi. Bag‘doddan har yili alohida bir omil kelib, Buxoro xirojining evaziga shu kiyimlilardan olib ketar edi. Bir vaqt kelib bu korxona bekor qoldi va bu hunar bilan shug‘ullanuvchi kishilar tarqalib ketdilar.

Buxoro shahrida shunday ishga tayin qilingan ustalar bo‘lar edilar: Viloyatlardan savdogarlar kelib, odamlar zandaniychini olib ketganlaridek, u kiyimlilardan Shom va Misr, Rum shaharlariga olib ketar edilar. Xurosonning hech bir shaharida bunday (matoni) to‘qiy olmas edilar. Shunisi qiziqki, bu hunar egalaridan ba’zilari Xurosonga bordilar va bu ish uchun kerakli asboblarni shaylab shu kiyimlikdan to‘qidilar, lekin Buxorodagidek sifatli bo‘lib chiqmadi. Bu kiyimlikka ega bo‘lmagan birorta ham podshoh, amir, rais yoki boshqa mansab egasi yo‘q edi. Uning qizil, oq va yashil ranglisi bo‘lar edi. Bugun hamma viloyatlarda u kiyimlardan ko‘ra zandaniychi mashhurroq.

Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far an-Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asaridan

XORAZM

Xorazm[38] – bir o‘lkaning nomidir. Bu o‘lka Xurosondan ham, Movarounnahrdan ham alohidadir. Uni har tomondan cho‘llar o‘rab turadi. Uning chegarasi shimol va g‘arb tomonda g‘uzlar (o‘g‘uzlar) mamlakatining chegarasi bilan ulanib ketgan, uning janub va sharq tomonida esa Xuroson va Movarounnahr joylashgan. U keng viloyatlar va ko‘p shaharlarni o‘z ichiga oluvchi katta nohiyatdir. U Jayxun daryosining oxiridir. Undan keyin daryo Xorazm ko‘li (*Orol dengizi*)ga quyilgan yergacha bu daryoda hech qanday aholi maskani yo‘qdir. U Jayxun daryosining ikki tomonida joylashgan. Uning eng katta shahri Jayxunning shimol tomonida joylashgan, uning janub tomonida al-Jurjoniya[39] nomli katta shahar bor. U poytaxtdan[40] keyin Xorazmdagi eng katta shahardir. U g‘uzlarning savdo qiladigan yeri bo‘lib, bu yerdan karvonlar Jurjon[41]ga yo‘l oladi. Ularning karvonlari oldin ko‘p vaqtlar davomida al-Xazar (*Kaspiy dengizi shimolidagi Xa-*

[38] Amudaryoning quyi oqimi havzasida Orol dengizi yonida joylashgan viloyat. Qadimda Xorazm hududida katta va kuchli davlat bo‘lib, fanda u Katta Xorazm nomi bilan yuritiladi. Uning chegaralari janubda Murg‘ob va Tajan daryolarining yuqori oqimlarigacha cho‘zilgan.

[39] Gurganch shahrining arabcha nomi. Uning xarobalari Ko‘hna Urganch deb ataladi (Hozirgi Turkmanistonning Toshovuz hududida).

[40] Bu paytda (X asrda) Xorazm poytaxti Amudaryoning o‘ng sohilidagi Kat shahri edi.

[41] Jurjon – Xurosonda, Kaspiy dengizining janubi-sharqiy hududida joylashgan Gurgon shahrining arabcha shakli.

zarlar mamlakati) mamlakatiga, shuningdek, Xurosonga yo‘l olar edi. Xorazmda poytaxtdan boshqa Darg‘on, Hazorasp, Xiva, Ardaxushmitan, Sofardiz, Nuzvor, Karda-ron-xosh, Kardar, Qariya Qarotakin, Madminiya, Mizdohqon va Jurjoniya shaharlari bor.

Ibn Havqalning
«Kitob surat al-ard» asaridan.

BUXORO SHAHRI

Bu Hisorning ikkita darvozasi bor, biri Sharq tomonda, biri g‘arb tomonda; Sharq tomondagisini «Dari g‘uriyon», g‘arb tomondagisini «Dari Registon» deydilar, tarjimonning davrida keyingisini «Dari alaffurushon» deb ataganlar. Hisorning o‘rtasida bu darvozadan to u darvozagacha to‘g‘ri yo‘l bo‘lgan. Bu Hisor podshohlar, amirlar va askar boshliqlarining turarjoylari bo‘lib, zindon, podshohlik devonlari va podshohlar turadigan qasr qadimdan shu yerda bo‘lgan. Haram saroyi va xazina (ham) shu hisorda bo‘lgan. Tarjimonning davrida bu hisor buzilib ketdi. Bundan bir necha yil ilgari Arslonxon uni yangilashga buyurdi va o‘ziga turarjoy qilib oldi hamda hisorni (ma’lum) shartlarga muvofiq idora qilib turishi uchun, ulug‘ bir amirni qutvol qilib tayinladi. Bu hisor xalq ko‘zida zo‘r e’tiborga ega edi.

Besh yuz o‘ttiz to‘rtinchi yil oylaridan birida (1139-yil 28-avgust — 1140-yil 16-avgust) Xorazmshoh[42] Buxoroga kelganida amir Zangi Ali xalifa hamda Sulton Sanjar[43]ning farmoni bilan, Buxoroning voliysi edi. Xorazmshoh uni qo‘lga olib o‘ldirdi va hisorni vayron qildi. Hisor ikki yildan ortiqroq shu vayronligicha qoldi. Besh yuz o‘ttiz oltinchi yili (1141-yil 6-avgust — 1142-yil 26-iyul) Go‘rxon tomonidan Buxoroga voliy qilib tayinlangan Alptegin o‘sha yiliyoq hisorni obodon qilishga buyurdi va uni o‘zi uchun turarjoy qilib oldi. Hisor ilgarigidan ham yaxshiroq bo‘ldi. Besh yuz o‘ttiz sakkizinchi yili ramazon oyida (1144-yil 8-mart – 6-aprel) g‘uz askarlari Buxoroga yetib keldi. Aynuddavla, Qarochabek va Shahob vazirlar hisorga qamaldilar, ko‘p jang va qiyinchiliklardan keyin g‘uz askarlari hisorni olib, Shahob vazirni o‘ldirdilar va hisorni vayron qildilar; hisor shu vayronligicha qoldi. Besh yuz oltmishinchi yili (1164-yil 18-noyabr — 1165-yil 6-noyabr) Buxoro shahrining aylanasiga devor qurmoqchi bo‘ldilar; devorning tagini pishiq g‘ishtdan ishlash zarur bo‘ldi. Hisorning tagi va minoralari pishiq g‘ishtdan edi, uni buzib olib, Buxoro shahrining devoriga ishlatdilar. Hisor bir yo‘la vayron bo‘ldi va u qasrdan hech bir imorat va nishon qolmadi. Olti yuz to‘rtinchi yili (1207-yil 28-iyul — 1208-yil 15-iyul) Xorazmshoh Muhammad ibn Sulton Takash[44] Buxoroni olib, hisorni qaytadan tikladi; xitoyliklar yengildilar. Olti yuz o‘n oltinchi yili (1219-yil 19-mart — 1220-yil 7-mart) esa tatar lashkari keldi, ularning amiri Chingizxon edi. Ular qal’aning darvozasida o‘n ikki kun jang qilib, uni oldilar va vayron qildilar.

---

[42] Xorazmshoh – 1127–1156-yillarda hukmronlik qilgan anushtaginiylar sulolasidan bo‘lgan Xorazmshoh Alouddin Otsiz nazarda tutilyapti.

[43] Sulton Sanjar – Saljuqiylar davlati sultoni (1118–1157).

[44] Xorazmshoh Muhammad ibn Sulton Takash – anushtaginiylar sulolasidan bo‘lgan Xorazmshoh (1172–1220). Uning davrida Xorazmshohlar davlati ikki barobar kengaydi.

BUXORO VA UNGA TOBE JOYLARNING XIROJI

Somoniylar va ular qo‘l ostidagi amirlar davrida Buxoroning xiroji Karminaniki bilan qo‘shilib, bir gal bir million bir yuz oltmish sakkiz ming besh yuz oltmish olti diram-u besh yarim donakni tashkil etgan. Undan keyin xiroj har jihatdan kamaygan, ba’zi yerlar suv tagida qolib ketib, podshoh u mavzedan xiroj olishni to‘xtatgan; suv olib ketgan joydan (ham) xiroj olmay qo‘ygan; yerlarning ba’zisi alaviylar va faqihlar qo‘liga o‘tib sulton bulardan ham xiroj olmagan. Ba’zi yerlar, masalan, Baykand va boshqa ko‘p qishloqlar, sultonning mulkiga o‘tib, xiroj daftaridan o‘chirilgan va Karminaning xiroji Buxoro xirojidan ajratilib alohida olingan.

Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far an-Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asaridan

SAMARQAND

Samarqand shahrini qal’a devori o‘rab turadi[45]. Uning to‘rt darvozasi bor. Ulardan biri sharq tomonga qaragan Bob as-Sin (*Xitoy*) deb atalgan bo‘lib, balandlikda joylashgan. G‘arb tomonga chiquvchi darvoza Bob al-Navbahor («*Temir darvoza» deb ham ataladi*) deb ataladi. Shimoliy darvoza Bob Buxoro, janubiy darvoza esa Bob Kesh deb ataladi.

Samarqand shahrida katta bozorlar, mahallalar, hammomlar, karvonsaroylar mavjud. Unda oqar suv mavjud bo‘lib, u shaharga bir qismi qo‘rg‘oshindan qilingan osma ariq[46] orqali kirib boradi. Bu ariqning sathi butunlay qo‘rg‘oshindan yasalgan. Gap shundaki, shahar atrofidan chuqur pastlik o‘tgan bo‘lib, oldin undan shahar devori uchun loy olingan bo‘lib, natijada katta xandaq hosil bo‘lgan. Shu sababli uning ustidan madinaga suv o‘tkazish uchun bu xandaq ustida maxsus g‘ov qurish zarur bo‘ladi. Bu ariq qadimiy, islomdan oldingi vaqtlarda qurilgan bo‘lib, shahar bozorlarining o‘rtasidan, aholi eng zich yashaydigan Ras at-Toq[47] nomli yerdan o‘tgan. Bu osma ariqning ikki tomonida vaqf yerlari joylashgan bo‘lib, ulardan olinadigan daromad ariqni ta’mirlash ishlariga ishlatilgan. Unga qishin-yozin qarab turish vazifasi otashparastlarga yuklatilgan bo‘lib, maxsus tuzilgan shartnomaga ko‘ra, buning evaziga ulardan jizya[48] olinmaydi.

...Samarqand Movarounnahrning asosiy savdo markazidir. Ismoil ibn Ahmad davrigacha butun davlat boshqaruvi mahkamasi shu shaharda bo‘lgan.

Rabod devorlarida na yog‘ochdan, na temirdan yasalgan birorta yopiladigan darvoza yo‘q, chunki bu yerda yuz bergan ko‘p fitnalar tufayli sulton ularni olib tashlashni buyurgan.

...Samarqand tuprog‘i unumdor va quruq. Agar ko‘chalardagi va odamlarning

[45] Bu yerda ichki shaharning mudofaa devorlari nazarda tutilgan. Ular o‘rab turgan shaharning maydoni taxminan hozirgi Samarqanddagi Afrosiyob xarobalariga to‘g‘ri keladi.
[46] Mahalliy aholi tomonidan bu ariq Juyi Arzis deb atalgan.
[47] «Ark boshi» ma’nosini bildiradi.
[48] Arablar tomonidan islom bo‘lmagan aholi vakillariga solingan soliq.

uylaridagi oqar suvlardan ko‘tariladigan ko‘p bug‘lanishlar va ulardagi zich o‘suvchi tol daraxtlari ko‘p bo‘lmaganda, ba’zi tabiblarning aytishicha, ortiqcha quruqlik, albatta, ularga zarar keltirgan bo‘lar edi. Ularning binolari paxsa va yog‘ochdan qurilgan.

Shahar aholisi o‘zining chiroyi bilan ajralib turadi. Ular saxiylik qilishda, o‘zlariga ko‘p xarajat sarflash va g‘amxo‘rlik qilishda ortiqcha harakat qiladilar. Bunda ular Xurosonning ko‘pchilik shaharlaridan ustun turadilar, shuning uchun ham bu hol ularning mablag‘larini kamaytirib yuborgan.

Samarqand Movarounnahr qullarining to‘planish yeridir. Movarounnahrdagi eng yaxshi qullar Samarqandda tarbiya olganlar[49].

Shahar bilan eng yaqin tog‘lar orasidagi masofa bir yengil marhalani tashkil qiladi, faqat unga bevosita Ko‘hak[50] nomli bir kichik tog‘ tutashgan bo‘lib, uning etagi Samarqand devorigacha cho‘zilgan. Uning uzunligi bir mil[51]ga teng. Bu tog‘dan shahar binolari qurilishi uchun tosh va idishlar yasash uchun, shuningdek, shisha idishlar yasash uchun ishlatiladigan loy va ohak qazib olinadi. Menga xabar berishganidek, bu tog‘da kumush va oltin konlari bor, lekin ularni qazib olish imkoniyati yo‘q.

Butun shahar – uning deyarli hamma yo‘llari, ko‘chalari va bozorlariga toshlar yotqizilgan.

Ibn Havqalning
«Kitob surat al-ard» asaridan

NAZORAT ISHI

2-CHORAK UCHUN NAZORAT ISHI

- Test;
- biletlarda tayyorlangan savol-javoblar (jamoaviy va yakka holda);
- loyiha ishlarini tahlil qilish;
- chorak davomida o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarni tahlil qilish;
- olingan bilimlarni o‘zlashtirishni aniqlash uchun jamoalarga bo‘lingan holda mavzular yuzasidan tuzilgan savollar asosida zakovat ko‘rinishidagi o‘yinlar tashkil qilish;
- mavzularni umumlashtirgan holda jamoalarga bo‘linib taqdimotlar tayyorlash;
- mavzular bo‘yicha mustaqil manbalar bilan ishlagan holda qo‘shimcha ma’lumotlar topish va taqdimot tayyorlash;
- o‘quvchilar tomonidan mavzularga oid turli sahna ko‘rinishlarini tayyorlash va ijro etish.

---

[49] X asrda Samarqandda eng katta qul bozori bo‘lib, bu yerda qullar Bag‘dodga yuborilishidan oldin maxsus tayyorgarlikdan o‘tkazilgan.

[50] «Ko‘h ak» – Forscha «Kichik tog» tog‘ degan ma’noni anglatadi. Bugungi kunda bu tog‘ Cho‘ponota deb ataladi.

[51] Uzunlik o‘lchov birligi bo‘lib, 1 mil – 750 metrga teng bo‘lgan.

G‘AZNAVIYLAR

Bu mavzuda o‘quvchilarni baholashda ularning quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga e’tibor qaratish lozim:

- → g‘aznaviylarning hokimiyat tepasiga chiqish arafasidagi siyosiy vaziyatlar haqida tushuncha bera olishi;
- → g‘aznaviy hukmdorlarning olib borgan ishlarini uzviylik asosida tahlil qila olishi;
- → g‘aznaviylar davrida boshqaruvning tashkil etilishi haqida so‘zlab bera olishi;
- → jamoalarga bo‘linib, G‘aznaviylar davlati va somoniylar davridagi davlat boshqaruvini solishtira olishi va xulosa qila olishi;
- → mavzu yuzasidan berilgan savollarga javob bera olishi va o‘z xulosasini bildira olishi;
- → topshiriqlarni bajarishda faollik ko‘rsatishi va tahlil qila olishi.

TEST

1. G‘aznaviylar davlati asoschisi bo‘lgan shaxsni aniqlang.

A) Mahmud G‘aznaviy; B) Sabuqtegin; D) Foyiq; **E) Alptegin.**

2. G‘azna shahrida qanday mahsulotlar bilan savdo qilingan?

1) jun; 2) mo‘yna; 3) ip-gazlama; 4) gazlama.

A) 1, 2; B) 3, 4; D) 1, 3; E) 2, 4.

3. Sobuqtegin qachondan boshlab G‘azna va uning atroflarini somoniylar noibi sifatida boshqargan?

A) 965-yil; **B) 977-yil;** D) 962-yil; E) 999-yil.

4. Sobuqtegin dushmanlarga qarshi kurashda somoniylarga bergan yordami uchun qanday sharafli nomga sazovor bo‘ldi?

A) Iskandari Soniy; **B) Nosiriddin ad-davla;**

D) Zul yaminayn; E) Yamin ad-davla va amin ul-milla.

5. Qaysi g‘aznaviy hukmdor turkiy barxson urug‘i vakili hisoblanadi?

A) Alptegin; **B) Mahmud G‘aznaviy;** D) Foyiq; E) Samjuriy.

6. Saida xotun qaysi viloyatda o‘g‘li nomidan hukmronlik qilgan?

A) Kirmon; B) Isfahon; **D) Ray;** E) Fors.

7. Mahmud G‘aznaviy qaysi hududni somoniylardan butkul ajratib oldi?

A) Xuroson; B) Xorazm; D) Movarounnahr; E) Kobul.

8. Mahmud G‘aznaviy qayerda bo‘lgan jangda Xorazm qo‘shinini yengdi?

A) Hazorasp yonida; B) Ko‘hna Urganchda; D) Xiva yaqinida; E) Xonqa yaqinida.

9. Nima sababdan Mahmud G‘aznaviy Xorazmga yurish qildi?

A) Xorazm Ma’mun akademiyasini G‘aznaga ko‘chirish uchun;

B) Xorazmda katta qo‘zg‘olon boshlanganligi uchun;

D) Xorazm hukmdori G‘aznaga bo‘ysunishdan bosh tortgani uchun;

E) Xorazm hukmdori Ma’mun ibn Ma’mun Mahmud G‘aznaviyning o‘g‘liga suiqasd qilgani uchun.

10. Qachon Xuron uchun g‘aznaviylar va qoraxoniylar to‘qnashuvi sodir bo‘ldi?

A) 1003–1006-yillar; **B) 1006–1008-yillar;**

D) 962–963-yillar; E) 996–999-yillar.

11. 1029-yilda Mahmud G‘aznaviy tomonidan egallangan hududlarni toping?

A) Chag‘oniyon, Qo‘ybodiyon; **B) Jilob, Ray;**

D) Vaxsh, Xuttalon; E) Xorazm, Xuttalon.

12. Mahmud G‘aznaviy qaysi hududlarni 1024-yilda o‘z davlati tarkibiga qo‘shib oldi?

1) Xorazm; 2) Jilob; 3) Ray; 4) Chag‘oniyon; 5) Qo‘ybodiyon; 6) Xuttalon.

A) 1, 2, 3; **B) 4, 5, 6;** D) 1, 3, 5; E) 2, 4, 6.

13. Nuqtalar o‘rniga mos javobni tanlang.

Mahmud G‘aznaviy ... va boshqa yurtlardan olib kelingan boyliklarni ko‘p hollarda obodonchilik va qurilish ishlariga sarflagan.

A) Xorazm; B) Xuttalon; D) Ray; **E) Hindiston.**

14. Abu Rayhon Beruniy qaysi shaharda hashamatli saroylar, madrasa va bozorlar borligini qayd etgan?

A) Kobul; B) Isfahon; **D) G‘azna;** E) Balx.

15. Mahmud G‘aznaviy davrida qaysi shaharlarda bir qator qurilish ishlari amalga oshirildi?

A) Kobul, G‘azna; B) Kobul, Balx; D) G‘azna, Nishopur; **E) Balx, Nishopur.**

16. Abu Rayhon Beruniy o‘zining eng sara asarlarini qayerda yozgan?

A) Xorazm; B) Kobul; **D) G‘azna;** E) Nishopur.

17. «Ma'naviy ulug'vorlik bamisoli alanga va shamol, bularning harakat va parvoz xususiyati bor. Maishat esa, qiya yerdagi qum uyumiga o'xshash. Uning tubanlikka surilish xususiyati bor». Ushbu falsafiy jumlalar muallifini toping.

A) Abulqosim Firdavsiy; **B) Sobuqtegin;** D) Abulhasan Farruxiy; E) Umar Xayyom.

18. Musulmon olamida ilk davlat madrasasiga asos solgan hukmdorni aniqlang.

A) Sobuqtegin; B) xorazmshoh Ma'mun; D) Alptegin; **E) Mahmud G'aznaviy.**

19. Ijodi uchun munosib haq ololmaganligini ro'kach qilib, Mahmud G'aznaviy bergan 60 000 kumush dirhamni aholiga tarqatgan shoirni toping?

A) Abu Sahl Masihiy; B) Umar Xayyom; D) Gardiziy; **E) Abul Qosim.**

20. G'aznaviylar davridagi manbalarda nechta devon nomi uchraydi?

A) 5; B) 4; D) 3; E) 6.

21. G'aznaviylar davlatida kim Mahmud G'aznaviydan so'ng hokimiyat ishlari uchun javobgar edi?

A) Muhammad Yusuf; **B) Ali Qarib;** D) Ma'mun ibn Ma'mun; E) Faxriddin Davlo.

TARIXIY HUJJAT

G'AZNAVIYLAR DAVLATI[52]DA BOSHQARUV

... Sulton Mahmud[53] saltanatga o'tirganida amir al-mo'minin al-Qodir billoh[54]dan unvon so'raydi. Unga Yamin ud-davla (davlatning baxti) unvonini beradilar. U Nimro'z, Xurosonni, Hindistonda esa ko'p viloyatlarni olib, Sumanotta borib Manotni zabt etib keladi. Samarqandni qo'lga kiritib, Xorazm yo'lini ochadi, Qo'histon va Iroqqa keladi. Ray, Isfahon, Hindistonni bosib, Tabaristonni o'z itoatiga bo'yso'ndirganida amir al-mo'mininga elchisini ko'p hadyalari bilan yuborib, unvonlari martabasini ko'tarishni so'rab deydi: «Menga Hindiston, Xuroson, Iroq, Tabariston taslim bo'ldi. Movarounnahrni olganman, sening noming ostida jang qilaman. Samarqand xoqoniga uch unvon berganlar. Bular: Zahir ud-davla (davlat madadkori), Muinu xalifatullohi (Olloh o'rinbosarining yordamchisi) va Malik ush-Sharq va-s-sin (Sharq va Chin maliki). Hozir xoqon menga tobedir. Unga uchta unvon berganlar, menga bo'lsa bitta, xolos».

Shuncha hadyalar bilan Mahmudga javob keladi: «Unvon mardning sharafini

[52] G'aznaviylar davlati (977–1186) – Xuroson, Shimoliy Hindiston hamda qisman Movarounnahr va Xorazmda g'aznaviylar sulolasi boshqargan turkiy davlat. G'aznaviylar davlatiga Sabuqtegin asos solgan. Davlat nomi saltanatning poytaxti G'azna shahri nomidan olingan.

[53] Sulton Mahmud – G'aznaviylar davlatining 998–1030-yillarda hukmronlik qilgan mashhur hukmdori.

[54] Qodir al-billoh – abbosiylar sulolasidan bo'lgan Arab xalifasi (991–1031).

ko‘taradi, martabasi oshib, shu unvon bilan odamlar orasida taniqli bo‘ladi. Sen o‘zing sharafli va taniqli kishisan, senga bir unvon ham etadi. Xoqon esa savodsiz, nodon bir zotdir. Shu uchun uning iltimosini bajardik. Bilib qo‘yki, odamga ota-ona nom beradi, o‘zi kuniyat oladi, podshohlar esa unvon va laqab beradilar. Shu ikkala ismlardan ortig‘i kibr va g‘urur nishonasidir. Hech bir xiradmand kishi o‘zining sharmandaligini xohlamaydi. Odam yosh bo‘lsa, uning nomini oladilar, ammo katta bo‘lib yaxshi-yomonning farqiga borsa, o‘zini bilib qolganda kuniyat oladi, chunki «al-kunya maylani» (ya’ni kuniya mening maylimdir). Odamlar ham uning hurmati uchun kuniyati bilan chaqirib ehtirom qiladilar. Mulk va millat undan shoyista xizmatlar ko‘rsa, podshoh uni xizmatiga yarasha sharaflab, unvon beradi va boshqalardan ajratib, fazilatini ko‘rsatadi. Podshoh va xalifa bergan unvon ota-ona qo‘ygan nomdan ham, o‘zi tanlagan kuniyatdan ham yaxshiroqdir. Odamlar kishining yuksalishi uchun uni podshoh bergan unvon bilan chaqiradilar. Shu uchta nomdan ortgan unvon behudadir.

Sen har xil ilmlardan xabardorsan, senga e’tiqodimiz ziyodadir. Bizdan so‘ralgan so‘z xalq o‘rtasida tarqalib ketadi, kitoblarda yoziladi. Sen bo‘lsa, savodsiz kishi qiladigan ishni qilayapsan». Mahmud bunday javobni eshitib, xafa bo‘ladi.

Abu Ali Hasan ibn Ali Tusiy
Nizomulmulkning «Siyosatnoma» asaridan

BERUNIY VA MAHMUD G‘AZNAVIY

Nizomiy Aruziy Samarqandiy «Chahor maqola» asarida yozadi: «Xorazmshoh Abul-Abbos Ma’munning Ahmad ibn Muhammad as-Suhaymiy nomli vaziri bo‘lib, u hakim ta’bli, latif ruhli, fozil kishi edi. Xorazmshohning o‘zi ham hakimona (donishmand, faylasuflarcha) tabiatli, fozil kishilarni yaxshi ko‘ruvchi odam edi. Shu tufayli uning saroyida bir necha hakim va fozil kishilar, chunonchi, Abu Ali ibn Sino, Abu Sahl Masihiy, Abul-Xayr ibn Xammor, Abu Rayhon Beruniy va Abu Nasr Arroq (yoki al-Iroq)lar to‘plangan edi». («Nodir hikoyatlar yohud chahor maqola», T. 1985, sah. 78) Aruziy Samarqandiy fikricha, Abu Nasr Arroq riyoziyot ilmi sohalari bo‘yicha ikkinchi Batlimus, Abul-Xayr ibn Xammor tabobat sohasida Buqrot (Gippokrat) va Jolinus (Galen) dan keyin uchinchi, Abu Rayhon Beruniy yulduzlar ilmida Abu Ma’shar (Balxiy) va Ahmad ibn Abdujalil (Farg‘oniy) bilan bir safda edilar. Ibn Sino va Abu Sahl Masihiylar esa barcha fanlarni o‘z ichiga olgan falsafa bo‘yicha Aristotolis (Arastu)ning shogirdlari edilar.

Shundan so‘ng Nizomiy Aruziy Samarqandiy G‘aznaviylar davlati rahbari Sulton Mahmudning xorazmshoh Ma’munga yozgan maktubining asosiy mazmunini keltiradi: «Eshitishimcha, xorazmshohning majlisida (yuqoridagi allomalarning ilmlari keltirilgan) dunyoda tengi yo‘q fozil kishilar bor ekan.

Ular bizning majlisimizga yuborilishlari zarur. Toki ular bizning majlis-suhbatlarimizda qatnashish sharafiga noil bo‘lsinlar. Biz esa ularni hamma zarur narsalar bilan ta’min etamiz. Bu xizmat uchun xorazmshohdan minnatdor bo‘lamiz». Sulton Mahmud xorazmshoh Ma’mundan katta boj-xiroj emas, oltin-kumush emas, buyuk allomalarni yuborishni so‘ramoqda. To‘g‘ri, Sulton Mahmudning keyinroq vaziri Xoja Ahmad ibn Hasan Mekoliy bilan yuborgan maktubida Xorazm poytaxtida Sulton Mahmud nomiga xutba o‘qish masalasi ham bor. Lekin, keyingi maktub yozilgan vaqtda xorazmshoh Ma’munga qarshi o‘z qo‘shin boshliqlari isyon ko‘tarishni rejalashtirgan edilar. Xufyalari orqali buni bilib qolgan Sulton Mahmud xutba yordamida xorazmshohni isyonchilarning hujumidan asrab qolmoqchi edi. Xorazmshoh Sulton Mahmudning qaynisi (singlisining eri) edi. Qo‘shin boshliqlarining isyoni boshlanishi oldidan xorazmshoh o‘z vaziri Abu Rayhon Beruniydan: «Bu og‘ir vaziyatni o‘nglash uchun nima qilish kerak?» – deb maslahat so‘raydi. Vazir Beruniy o‘z aql-zakovati bilan xorazmshohga yagona to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatadi. Lashkarboshilar Sulton Mahmud nomiga xutba o‘qimasa, Sulton Mahmud lashkar boshliqlarining isyonini bostirish uchun katta qo‘shin bilan yetib kelishi mumkin edi. Vaziyat yanada og‘irlashuvi mumkin edi. Xorazmshohga Beruniy xutba masalasini qo‘shin boshliqlariga bildirmay turaylik, deydi. Xorazmshoh bu maslahatni qabul qilmaydi va qo‘shin boshliqlariga xutba masalasini aytadi. Qo‘shin boshliqlari norozi bo‘lib to‘polon ko‘taradilar. Xorazmshoh ularni tinchitish uchun: «Men sizlarni sinab ko‘rish uchun aytgan edim», — deydi.

Lekin qo‘shin boshliqlari bu gapga ishonmaydilar. Ular xorazmshohning ko‘shkiga bostirib kirib, yoqib yuboradilar. Xorazmshoh yong‘inda halok bo‘ladi. Sulton Mahmud bu voqeadan xabar topib, Xorazmga katta qo‘shin bilan keladi. Xorazmshohni o‘ldirgan qo‘shin boshliqlarini tutib, avval fillarga bostirib, so‘ng dorga ostiradi.

Beruniy va Abul-fazl Bayhaqiy yozishicha, shu vaqtlarda Sulton Mahmud bir necha marta Hindistonga yurish qilib, g‘olib chiqqan edi. U Bag‘dod xalifasidan Yamin-ud-davla va Toj-ul-milla («Davlatning o‘ng qo‘li va musulmon millatining Toji» degan unvon bilan taqdirlangan edi. U o‘zini Osiyodagi barcha xalqlarni haq yo‘lga – islom diniga kirituvchi G‘oziy deb, bu bilan faxrlanardi). Donishmand va zakovatli shoir Firdavsiy ham «Shohnoma» asarining boshlanishida Sulton Mahmudni butun olamga baxt-saodat keltiruvchi, adolatli va dono podshoh deb maqtaydi. Atoqli adib va tarixchi Mahkam Mahmudov «Sulton Mahmud va Firdavsiy» maqolasida shu haqda bunday yozadi:

«Sulton Mahmudni faqat Aruziy emas, balki sho‘ro olimlari ham tarixga zid ravishda zolim, jahldor qilib ko‘rsatgan edilar. Aslida, tarixiy manbalarda buning aksini ko‘ramiz. Sulton Mahmudning zamondoshi, tarixchi, G‘aznaviylar davlati devonidagi xattotlar boshlig‘i, bosh munshiy Abu Nasr Mishkan va ba’zi lashkarboshilar ham Sultonga istagan vaqtlarida ko‘nglidagi fikrlarini bemalol aytar edilar. Sulton mashhur vaziri Hasan May-

mandiyning o‘g‘li Ahmad ibn Hasanni ham otasining o‘rniga bosh vazir qilib qo‘ygan edi. Ahmad ibn Hasan avval adolatli, yaxshi ishladi. Davlat xazinasini halol yo‘l bilan boyitdi. Lekin keyingi vaqtlarda boylikka, mol-dunyo to‘plashga, poraxo‘rlikka ruju qo‘ydi. Bu aybları isbotlangach, Sulton Mahmud uni bosh vazirlikdan bo‘shatdi, poraxo‘rlik bilan orttirgan boyliklarini davlatga va egalariga qaytarishga majbur qildi. Ahmad ibn Hasan Sulton devoni bosh munshiysi Abu Nasr Mishxon bilan qalin do‘st edi. Bosh munshiy bosh vazirning iltimosi bilan Sulton Mahmuddan uni vazifasida qoldirishni iltimos qildi. Sulton ko‘nmadi, Abu Nasrga bosh vazirning poraxo‘rligini, boylik to‘plashga xirs qo‘yganligini tushuntirdi. Abu Nasr Mishkonning shogirdi, yordamchisi Abul-fazl Bayhaqiy yozishicha, bir kuni Sulton ovdan keyin ziyofat vaqtida unga yarim hazil va yarim jiddiylik bilan dedi: «Vazirlar – podshohlarning qullaridir». «Bu fikrni qaysi kitobda o‘qigansan?» – deb haholab kuldi. Bosh munshiy: «Bunday fikrni hech bir kitobda uchratmaganman. Lekin bir kitobda boshqacharoq fikrni uchratdim», – dedi. Sulton Mahmud: «Qanaqa fikr?» – deb so‘radi. Bosh munshiy: «Kitobda o‘qidimki, «Eng ahmoq va ilmsiz odamlar vazirlikka intiladilar». Sulton Mahmud: «Nima uchun?» – deb so‘radi. Bosh munshiy: «Chunki podshoh eng hurmatli vazirni ham bir haftaga yetmay, dushmanim deb hisoblaydi».

Sulton Mahmud bosh munshiyning podshohga nisbatan bunday dadil fikriga qarshi biror so‘z aytmadi. U, haq gapni eshitsa, mardona tan olardi».

«Boshqa bir kuni, – deb yozadi maqola muallifi, — Sulton huzurida ziyofatda yetakchi lashkarboshilardan biri – Ali Nushtagin ko‘p may ichib, mast bo‘lib qoldi. Yarim kechada «Uyimga ketaman», – deb o‘rnidan turdi. Sulton «Mast ahvolda ko‘chada yursang, muxtasib va mirshablarga tutilib, kaltak yeysan, ketma», – dedi. Lashkarboshi o‘jar edi, navkarlari bilan ko‘chaga chiqqanida tungi muhtasibga uchradi. Uni tutib, kaltakladilar. Ertasiga u sulton huzuriga muhtasibdan shikoyat qilib keldi. Sulton Mahmud haholab kulib: «Aytgan edim-ku, kaltaklashadi, deb. Muxtasib to‘g‘ri jazo bergan, seni lashkarboshi deb ayab o‘tirmaydi, shariatga to‘liq amal qiladi», — dedi.

Saljuqiylar davlatining rahbari sulton Sanjarning dono vaziri Nizomulmulk «Siyosatnoma» asarida bunday yozadi: «Hikoya qiladilarki, Sulton Mahmud G‘oziyning qiyofasi (yuzi) xunuk, bo‘yni ozg‘in, burni cho‘ziq va o‘zi ko‘sa ekan...». Bir kuni u ertalab maxsus hujrasida namoz o‘qish uchun o‘tirardi. Oldiga oyna va taroq qo‘yilgan... Vaziri Shamsul-Kufot Ahmad (ibn) Hasan hujra eshigidan kirib salom beradi. Shoh boshi bilan o‘tirishiga ishorat qiladi. U Mahmudning yoniga o‘tiradi. Mahmud namoz o‘qib bo‘lgach, jomasi (to‘ni, chakmoni), kulohi va etigini kiyadi. Oynaga qarab, o‘z yuzini ko‘rib, tabassum qilib deydi: «Bilasanmi, dilimdan nima o‘tdi? Odamlar meni yomon ko‘radilar, deb qo‘rqaman, chunki chiroyli emasman. Odamlar odatda go‘zal yuzli shaxslarni yaxshi ko‘radilar. Endi men nima qilishim kerak?»

Vaziri maslahat beradi:

«Oltinni o‘zingga dushman deb bil, shunda odamlar seni o‘zlariga do‘st tutadilar».

Mahmudga bu javob yoqib tushadi va: «Bu so‘z tagida ming ma’no bor», — deb qo‘yadi. Mahmud hayr-u-sahovat bilan taom yeyishga qo‘l uradi, odamlar uni yaxshi ko‘rib maqtaydilar. Unga buyuk ishlar va xazinalar nasib qiladi. (Hindistonga) Sumanotga borib, uni zabt qilib qaytadi. Samarqand, Iroqni ham qo‘l ostiga kiritadi. Bir kuni Mahmud (vaziri) Ahmad Hasanga aytadi:

«Men oltin va kumushdan qo‘l tortdim-u, ikki olam ham menga nasib etdi. Dunyo boyligini hech narsa deb bildim-ku, ikki jahonda aziz bo‘ldim».

«Siyosatnoma» muallifi Nizomulmulk yana aytadi: «U (Sulton Mahmud) xudoni sevguchi va ilmning do‘sti, odil, javonmard va uyg‘oq (ruhli) va g‘oziy shoh edi». Nizomulmulk shu asarida yana bir necha o‘rinda xalqni, savdogarlarni, bechoralarning bor-yo‘g‘ini tortib oluvchi zolimlarni qanday yo‘q qilgani haqida hikoyatlarni keltiradi. Yana bir hikoyatda kuchli va zolim qaroqchilar to‘dasini oqilona hiyla bilan, karvonda tuyalarga yuklab olib kelingan zaharli olmalar yordamida halok etgani bayon qilinadi. Shu bobda yana Sulton Mahmudning shia mazhabida bo‘lgan daylamiy buvayhiylarning Iroqda ahli sunna musulmonlariga zulm qilib, qiynayotganligi haqida maktublar olgach, buvayhiy haqida bunday degani keltiriladi. «Sulton Mahmud Iroq viloyatini olganida bir ayol karvon bilan Dayri Kajin rabotiga kelgan edi. O‘g‘rilar uning narsalarini o‘g‘irlab ketdilar»... Shu ayol Sulton Mahmud oldiga bordi va zulmdan shikoyat qildi. Sulton Mahmud: «Dayri Kajin mening viloyatimda emas, ularga mening farmonim o‘tmaydi», – dedi. Ayol xafa bo‘lib:

«Sen qanday jahon podshohisanki, o‘z martabangga yaramaysan, sen qanday cho‘ponsanki, qo‘ylarni bo‘ridan saqlayolmaysan?!» – dedi.

Mahmudni ko‘zlariga yosh keldi va dedi:

«To‘g‘ri aytasan, narsalaringning tavonini beraman va qo‘limdan nima kelsa qilaman».

Keyin Sulton Mahmud Dayri Kajin rabotiga qo‘shni bo‘lgan Kirmon amiri Abu Ali Ilyos nomiga xat yozib, elchi yuborib, aytdiki: «Menga Iroq musulmonlaridan ketma-ket xatlar kelyaptiki, daylamiylar Iroqda (Bag‘dod va atrofida) zulm-u sitam bilan shug‘ullanib, oshkora bid’at qilayotgan va yo‘lovchilar izidan borib, go‘zal ayol va chiroyli bolalarni tutib, saroylariga olib borib, sharmanda etayotgan ekanlar. (Daylamiy, buvayhiy, shialarni) ularni bandi qilib, xohlagan vaqtlarida qo‘shib yuboradilar. Payg‘ambar yorlari (Abu Bakr, Umar, Usmon)... nomlariga la’nat aytib, Oyishayi Siddiqani zoniya (zinokor) deb haqoratlaydi. Muqto‘lari (iqta egalari) yilda 2-3 marta raiyatdan xiroj olmoqdalar. Majdud-davla deganni «shahanshoh» deb e’lon qilibdilar. Uning to‘qqizta mankuha (nikohlangan) xotini bo‘lib, raiyat o‘rtasida har bir shahar va nohiyada zanodiqa (zinokorlik) hamda otiniya mazhablarini targ‘ib qilib, Xudoning rasulini haqoratlab, namoz-u, ro‘za, hajni inkor etib yurishibdi... bu hol menga ma’lum bo‘ldi-yu, bu ishni Hindiston g‘azyatidan ham muhimroq deb, Iroqqa keldim.

Hamma pokiza, musulmon, xanafiy-mazhab turklardan iborat lashkarni daylamiylarni, zanodiqa (zindiqlar) va botiniylarga qarshi qo‘ydik, toki ularning urug‘ini ham qoldirmay, yo‘q qilishsin. Ularning ba’zilari qilichdan o‘tkazildi, ayrimlari zindonga tushdilar, yana birlari olamda sarson-u ovora... Tez muddatda Xudo azza va jalla madadi bilan Iroq mulkini shunday badmazhablardan pokladik, chunki Tangri bizni shu uchun yaratib, xalqboshi qilib qo‘ygan, toki yer yuzini fasodchilardan bo‘shatib, sipoh ahlini (oddiy xalqni) himoya etaylik, olamni adolat va insof bilan obod qilaylik...». «Siyosatnoma» kitobining yana bir bobida Sulton Mahmud qanday qilib shahar qozisining o‘g‘riligini, qallobligini fosh etib, jazo bergani aytiladi.

Nizomulmulk «Siyosatnoma»da Sulton Mahmud tabiatidagi bir nuqsonni ham mufassal tushuntiradi. Bag‘dod xalifasi Samarqandni poytaxt qilgan qoraxoniylar xoqoniga uch unvon, Sulton Mahmudga faqat bir unvon (Yaminuddavla unvonini) bergan ekan. Bunday unvonlari kamligidan Sulton Mahmud juda xafa bo‘lib, xalifa Qodir-billohga elchilar bilan sovg‘a-salom yo‘llab, doimo unvon so‘rar ekan, ya’ni sultonning tabiatida shuhratparastlik ziyoda ekan. Har to‘kisda ham bir ayb bo‘larkan. Beayb — faqat tangri taolodir.

Muhammad Beruniy «Mashohiri Xorazm» asarida bayon qilgan, Bag‘dod xalifasining xorazmshohni faqat xalifaga bo‘ysunuvchi mustaqil davlatboshi sifatida tan olib, unvon, bayroq, nog‘ora, zarchoponlarni Sulton Mahmud G‘aznaviydan yashirin ravishda yuborishning siri ham sultonning g‘azabini keltirish uchun xalifaning siyosiy nayrangi, maqsad xorazmshoh bilan G‘aznaviylar davlatini urishtirib qo‘yish ekanligini anglash mumkin. Xalifa Qodir billoh G‘aznaviylar davlatining kuch-qudratiga qarshi Xorazmshohlar davlatini kuchaytirmoqchi edi. Lekin oqibatda buning teskarisi – xorazmshohni isyonchilar halok qildilar. Aslida bularni isyonchilar emas, Xorazmning g‘aznaviylarga qaram bo‘lishini, bo‘ysunishini istamagan vatanparvar kuchlar, deyish mumkin. Oradan ming yillar o‘tgach, hozirgi tarixchilarning gumanizm va tolerantlik nigohi bilan qaralganida xorazmshoh Ma’mun II ga Beruniyning maslahati eng to‘g‘ri yo‘l bo‘lib ko‘rinadi. Chunki xorazmshohning yashirin ravishda Sulton Mahmud nomiga xutba o‘qitib, tobeligini bildirgani qo‘shin boshliqlarining g‘azabini keltirdi. Vazir maqomidagi Beruniy xorazmshohga boshliqlari bilan kelishuvni taklif etgan edi. Ammo xorazmshoh bu maslahatga ko‘nmay: «Qo‘shin boshliqlari, amirlar kim bo‘libdi, menga buyruq beradi?» — deb g‘azablanib, ularni jazoga torta boshladi. Bunga javoban qo‘shin boshliqlari ham g‘azablanib, xorazmshohni halok etdi. Bu falokat Sulton Mahmudga Xorazmga qo‘shin bilan bostirib kelishiga yo‘l ochdi. Bundan avvalroq Sulton Mahmud xorazmshohdan Beruniy, Ibn Sino va boshqa olimlarni talab qilishi, bizningcha, faqat G‘azna saroyining shon-shuhrati uchun bo‘lib qolmay, xorazmshohning kuch-qudratini zaiflashtirish uchun bo‘lgan edi.

Ammo shunisi borki, Sulton Mahmud o‘zi istagan yuksak unvonlarga yarasha buyuk xizmatlar ham qilgan. Ehtimol, Sulton

Mahmudning unvonlarga havas qo‘yishini Nizomulmulk saljuqiy sulton Malikshoh talabi bilan yozgandir? Turk olimi Erdo‘g‘on Merchil «G‘aznali Mahmud» risolasida sof tarixiy voqealarni bayon qilgan.

Doktor Erdo‘g‘on Merchilning «G‘aznali Mahmud» kitobida, adib Mahkam Mahmudovning «Sulton Mahmud va Firdavsiy» badeasi (essesi)da bu tarixiy shaxs haqida yangicha qarashlarni ko‘ramiz. «G‘aznali Mahmud» asarida jasurligi va oqilligi Sabuntegin va uning o‘g‘li Mahmuddan kam bo‘lmagan turk lashkarboshlig‘i Ali Teginning Somoniylar davlatini himoya qilish uchun qilgan buyuk xizmatlari va hasadgo‘ylarning gap-so‘zlari sababli somoniylar amiri Mansur ibn Nuh uni ushlash uchun 16 mingli qo‘shin yuborgani, Ali-tegin o‘z ixtiyoridagi 2 200 turk g‘ulomi, qarmatiylarga va hind mushriklariga qarshi g‘azot uchun kelgan 800 otliq askari bilan somoniy qo‘shinini mag‘lub etgani, so‘ng G‘azna shahrini egallashi, bu shahar qadimda Kushonlar davlati va aftoliylar – Oq xunlar davlatining poytaxti bo‘lgani, Ali-tegin ilk G‘aznaviylar davlatining asoschisi ekanligi, u o‘z qo‘shinida bo‘lgan Sabun-tegin bilan uning o‘g‘li Mahmudni tarbiyalab, yetishtirgani haqida qimmatli ma’lumotlar beriladi. Bu asarda yana Sabuqtegin va Mahmudning Somoniylar davlati himoyasi uchun qilgan xizmatlari, Sulton Mahmudning Hindistonga qarmatiylarga va mushriklarga qarshi, islomiyat shon-shavkati uchun qilgan 17 yurishning sabablari va tafsilotlari chuqur yoritilgan.

Sho‘ro davri tarixchilarining ko‘pchiligi manbalarni buzib talqin etib, Sabuqtegin va Mahmud G‘aznaviy Somoniylarning davlatiga qarshi jang qilib, uni bosib olgan deb yozadilar. Holbuki, manbalarda Sabuqtegin ham, uning o‘g‘li Mahmud ham somoniy davlatiga sadoqat bilan xizmat qilib, so‘nggi somoniy hukmdorlari Abdulmalikni va Nuhni tashqi dushmanlardan oxirigacha himoya qilganligi aytiladi. Somoniylarning qo‘shin boshliqlaridan Alp-tegin nihoyat darajada ishonchga loyiq, vafoli, ishbilarmon, vatanini sevuvchi, jasur, olijanob, non va tuzi ko‘p (saxiy), Allohdan qo‘rqadigan (iymoni mustahkam) kishi edi. U somoniylar hukmdori Nuh ibn Nasr davrida mavqeyi ko‘tarildi. Nuh ibn Nasr vafot etgach, uning kichik yoshdagi o‘g‘li Abdulmalik taxtga o‘tirdi, uni Alp-tegin tarbiya qilgan edi. Abdulmalik ibn Nuh ibn Nasr yetti yil (954–961) hukmronlik qildi. Abdulmalik davrida Alp-tegin davlat ishlarini orqaga surgan bosh vazir Yusuf ibn Is’hoqni vazifasidan chetlatib, uning o‘rniga tarixchi Muhammad Bal’amiyning qo‘ydirdi. Bal’amiy tarixchi Muhammad ibn Jarir Tabariyning mashhur «Tarixi umam val-muluk» («Xalqlar va maliklar – podshohlar tarixi») asarini arabchadan ancha o‘zgartirib, forschaga tarjima qilgan.

Turk tarixchi olimi E. Merchil yozishicha, Somoniylar davlatining rahbari amir Nuh II ham o‘z qo‘shin boshliqlariga buyuk xizmatlari uchun katta mansablar va unvonlar berish huquqiga ega bo‘lgan. Amir Nuh II Somoniylar davlatining eng kuchli dushmanlari – qoraxoniylar yordamiga tayangan Abu Ali Simjur va Foyiq qo‘shinlarini mag‘lub etganlari uchun Sabuqteginni «Nasir-ud-din va-d-dunyo» unvoni bilan taqdirlab, Balx,

Toxariston, Bomiyon, G‘ur va Garjiston idorasini, Mahmudga esa «Sayfuddavla» (Davlat qilichi) unvoni bilan Xuroson sipohsolorligini berdi. Fors shoiri Abulqosim Firdavsiy o‘ttiz besh yil qizg‘in mehnat qilib, Ajam tarixi bitilgan «Shohnoma» asariga so‘nggi nuqtani qo‘ydi. Doston Sulton Mahmud G‘aznaviy sha’niga bitilgan maqtov so‘zlari bilan boshlanadi:

Quyosh nurlari-la olam yorishdi,
Fil suyagi yanglich nurla qorishdi.
Kim edi bu quyosh, bergan harorat,
Kimning nuri ila keldi saodat?
Shohlar shohi bu, Abul-Qosim,
Toj-u taxti uning quyoshday sim-sim.
Mag‘rib-u Mashriqqa u berar jamol,
Undan farovonlik, undandir kamol.
Uyg‘ondi shul bois mening ham baxtim,
Uni ilhom ila kuylamoq – ahdim.
Hukmdorni ko‘rish orzusi ila,
Uyquda ham uning duosi ila,
Ruhimga ko‘rindi ajib manzara,
Ummon to‘lqinidan balqdi yorug‘ sha’m,
Parvoz qildi ko‘kka, yorishdi olam.
Maysazorni ko‘rdim sha’m yorug‘ida,
Unda ochilgandi minglab chechaklar,
Feruzarang bir taxt gulzorlar aro,
Taxt uzra o‘ltirar edi bir nihol,
Boshida olmosdan toj edi hilol.
Kamonchilar safi cheksiz, poyonsiz,
Taxt yonida turar donishmand vazir,
Shahanshohga adl, haq sirlarin aytur,
Ko‘rib bu hashamat, shon-u shavkatni
Sanoqsiz fillarni, qo‘shin va taxtni,
A’yonlardan so‘rdim havas-la yonib,
«Bu toj-u taxtmi yo osmon va qamar,
Vodiyni qoplamish yulduzmi, lashkar?
A’yonlar aytdilar: «Bu shohi Rum va Hind,
Zabtida mamolik Kanujdan to Sind».
Ta’zimdadir shohga Eron va Turon,
Barcha xalqlar undan kutadi farmon.
Shoh kiygan mahali boshiga zar toj,
Adlidan dillar shod, g‘aniy va muhtoj,
Mahmud hukm qilsa va bersa farmon,
Bo‘ri bilan ko‘zi tinch yashar, omon.
Kashmir gumbazlari, to sohili chin,
Uni sharaflaydi xoqoni – Mochin.
Go‘zdaklar ona sutin emishni tashlab,
Sulton Mahmud deya so‘z ayta boshlar.
Kuylagin bu nomni bayt-la jarangdor,
Asrdan asrga yangrat ohangdor.
Farmoniga barcha qilar itoat,
Unga xizmat qilish baxt-u saodat»...
Uyg‘onib, o‘yladim, xayrli bu tush,
Boshimga soyasi solajak bu qush.[55]

Lekin Abulqosim Firdavsiyning ushbu madhiyasi «Shohnoma»ning o‘zbek va tojik tilida nashr qilingan nusxalarida tushirib qoldirilgan. Dostonning Tehron va Moskvada chop qilingan kitoblarida «Sulton Mahmud tavsifi» asliyatida qanday bo‘lsa shundayligicha berilgan.

So‘ng Firdavsiy dostonida unga homiylik qilgan Abu Mansur ibn Muhammadga maqtov beriladi («Meni tuproqdan ko‘tarib, boshimni osmonga yetkazdi»). Keyin Sulton Mahmudga madhiya boshlanadi. U yuksak badiiy mahorat bilan yozilgan.

Abror Xidirovning «Beruniy va Mahmud G‘aznaviy haqida yangi qarashlar» maqolasidan

[55] Forsiydan Mahkam Mahmud tarjimasi.

QORAXONIYLAR

Bu mavzuda o‘quvchilarni baholashda ularning quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga e’tibor qaratish lozim:

- Qoraxoniylar davlatining tashkil topishiga sabab bo‘lgan siyosiy vaziyat haqida so‘zlab bera olishi va tahlil qila olishi;
- qoraxoniylardan bo‘lgan hukmdorlarning tarixdagi o‘rni, ularning olib borgan siyosati haqida ma’lumot bera olishi va uzviylik asosida tahlil qila olishi;
- Somoniylar davlati o‘rnida G‘aznaviylar va Qoraxoniylar davlatlarining tashkil topishini tahlil qila olishi;
- somoniylar o‘rnida tashkil topgan G‘aznaviylar va Qoraxoniylar davlatlari tasarrufiga qaysi hududlar kirganligi;
- qoraxoniylar davridagi ijtimoiy va iqtisodiy hayotni so‘zlab bera olishi;
- qoraxoniylar davrida boshqaruv islohotlarining o‘ziga xosligi haqida so‘zlab bera olishi;
- qoraxoniylarning ikkiga bo‘linish sabablari haqida so‘zlab bera olishi va ularning taxminiy hududlarini xaritadan ko‘rsatib bera olishi;
- Qoraxoniylar davlatining rivojlanishdagi hududiy imkoniyatlari, qazilma boyliklardan foydalanganliklari, tashqi aloqalari haqida ma’lumot bera olishi;
- Qoraxoniylar davlatining rivojlanishida Buyuk ipak yo‘lining ahamiyati, hududdagi eng mashhur shaharlar haqida so‘zlab bera olishi;
- madaniy hayot va Mahmud Qoshg‘ariyning ilmiy merosi haqida so‘zlab bera olishi;
- jamoalarga bo‘lingan holda Qoraxoniylar davlatining tariximizda tutgan o‘rnini tahlil qila olishi hamda G‘aznaviylar, Somoniylar, Safforiylar, Tohiriylar va boshqa davlatlar bilan taqqoslay olishi.

TEST

1. X asrning ikkinchi yarimida Yettisuv va Qoshg‘arda qaysi qabilalar o‘zlarning kuchli davlatlarini tuzishgan: 1) qarluq; 2) usun; 3) chig‘il; 4) o‘g‘uz; 5) yag‘mo?

A) 1, 3, 5; B) 1, 4, 5; C) 2, 3, 4; E) 1, 2, 5.

2. Ismoil Somoniy Tarozni zabt etganidan so‘ng turkiy qabilalar qayerga chekinishdi?

A) Janubiy Xuroson; B) Sharqiy Turkiston;

D) Shimoliy Hindiston. **E) G‘arbiy Qoshg‘ar.**

3. Qachon Bilgakul o‘zini hokim deb atab, yakka hokimlikka da’vo bilan chiqdi?

A) X asrning birinchi yarmida; **B) X asrning ikkinchi yarmida;**

D) X asr boshlarida; E) IX asrning 40-yillarida.

4. Noto‘g‘ri ma’lumotni toping.

A) Bilgakul Isfijob hokimi edi;

B) Bilgakulning «qora» degan laqabi bo‘lgan;

D) Bilgakulning avlodlari tomonidan Movarounnahrga hujumlar bo‘lmagan;

E) Tarixchilar qoraxoniylarning nomi Bilgakulga nisbatan «qoraxon» deyilsa kerak deb, taxmin qiladilar.

5. X asr ikkinchi yarmida qoraxoniylar g‘arbiy yo‘nalishda qaysi hududlarni o‘z ta’sir doiralariga kiritib oladilar?

1) Balxash ko‘li; 2) Sharqiy Turkiston; 3) Isfijob; 4) Farg‘ona; 5) Yettisuv; 6) O‘zgand; 7) Murg‘ob daryosi quyi oqimi; 8) Samarqand.

A) 2, 4, 6, 8; **B) 3, 6, 7;** D) 1, 3, 5, 7; E) 3, 4, 5, 7, 8.

6. Qoraxoniylar Turonda qancha muddat hukmronlik qilishdi?

A) 100 yil; B) 150 yil; D) 170 yil; **E) 200 yil.**

7. Tog‘ri javobni tanlang.

1) X asrning 40-yillarida; 2) X asrning ikkinchi yarimida; 3) X asr oxirida.

a) ichki ziddiyatlar natijasida Somoniylar davlati kuchsizlana boshladi;

b) Movarounnahrga qoraxoniylarning to‘liq hukmronligi qaror topdi;

d) Somoniylar davlati yangi ikki davlatga ajraldi.

A) 1-a, 2-b, 3-d; B) 1-d, 2-a, 3-b; D) 1-b, 2-d, 3-a; **E) 1-b, 2-a, 3-d.**

8. Qaysi qoraxoniy hukmdor davrida qoraxoniylar sulolasi islom dinini qabul qilgan?

A) Bilgakultegin; **B) Sotuq Bug‘roxon;**

D) Ibrohim Nasr; E) Arslonxon.

9. Dastlab qoraxoniylar yuksala boshlagan hududni toping.

A) Sharqiy Turkiston; **B) Yettisuv;**

D) Bolasog‘un; E) G‘arbiy Qoshg‘ar.

10. Qoraxoniylar va g‘aznaviylar o‘rtasidagi to‘qnashuvdan so‘ng qaysi hududlar g‘aznaviylar tasarrufida qoldi?

A) Xuttalon, Termiz, Qorako‘l; B) Buxoro, Samarqand, Xorazm;

D) Qabadiyon, Xuttalon, Termiz; E) Yettisuv, Qoshg‘ar, Bolasog‘un.

11. Sharqiy Qoraxoniylar tasarrufida bo‘lgan hududlar berilgan qatorni toping.

1) Samarqand; 2) Kesh; 3) Yettisuv; 4) Buxoro; 5) Xuttalon; 6) Sharqiy Turkiston.

A) 1, 3, 6; B) 2, 4, 6; D) 1, 6; E) 1, 5, 6.

12. Mahmud Qoshg‘ariy va Yusuf Xos Hojiblarga qoraxoniylar tomonidan qanday unvon berilgan?

A) xos hojib; B) hojib; D) tegin; E) ustod.

13. G‘arbiy Qoraxoniylar davlati tarkibida bo‘lgan hududlarni toping.

1) Xuttalon; 2) Chag‘oniyon; 3) Termiz; 4) Samarqand; 5) Buxoro.

A) 1, 2, 4, 5; B) 1, 2, 3, 4; D) 1, 2, 3; E) 1, 2, 3, 4, 5.

14. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asarida qaysi kasb egalaridan so‘z va iboralarning o‘z va ko‘chma ma’nolarini puxta bilish talab etiladi?

A) elchilardan; B) shoirlardan; D) san’atkorlardan; E) qiziqchilardan.

15. Qaysi hududdagi oltin, neft, feruza konlarida konlarida ko‘plab odamlar mehnat qilgan?

A) Farg‘ona, Nurota; **B) Buxoro, Ustrushona;**

D) Buxoro, Nurota; E) Ohangaron, Ustrushona.

16. Qoraxoniylar davrida … dan oriq hunarmandchilik sohalari rivojlandi. Nuqtalar o‘rniga to‘g‘ri javobni qo‘ying.

A) 50; B) 20; **D) 30;** E) 40.

17. Surxondaryoda joylashgan qoraxoniylar davrida bunyod etilgan me’moriy yodgorlikni aniqlang.

A) At-Termiziy maqbarasi; **B) Jarqo‘rg‘on minorasi;**

D) Raboti Malik karvonsaroyi; E) Namozgoh masjidi.

18. «Devonu lug‘otit-turk» asari qachon va kim tomonidan yozilgan?

A) X asr Mahmud Qoshg‘ariy; B) XII asr Ahmad Yugnakiy;

D) XI asr Mahmud Qoshg‘ariy; E) XI asr Yusuf Xos Hojib.



TARIXIY HUJJAT

QORAXONIYLAR NOMI XUSUSIDA

Tashkil etilgan yangi davlatning nomi Qoraxoniylar xoqonligi deb atalishining sababi o‘tmishda «qora» so‘zi buyuk, oliy, umumiy kabi ma’nolarda ishlatilganligi bilan bog‘liq. Bu odatning kelib chiqishi esa qadimgi turklarda sharq tomon ko‘k, g‘arb tomon oq, janub tomon qizil, shimol tomon qora deb aytilganligi va shimol tomoni hurmat qilinib bunga ibodat qilinganligi bilan bog‘liq. Shuning uchun ushbu qarluqlar bilan ularga keyin kelib qo‘shilgan uyg‘ur qabilalari tashkil etgan davlatning bosh «Qoraxon», ya’ni buyuk xon, buyuk xoqon deb nomlangan. Mazkur davlatning ma’muriy tizimiga ko‘ra, bosh hukmdorlik lavozimi avloddan avlodga qoldirilgan. Buning natijasida hukmdor sulolasining nomi ham qoraxoniylar deb atala boshlagan.

G‘arb mamlakatlarida nashr etilgan tarixiy asarlarda mazkur sulola turli nomlar bilan atalgan. Masalan, «Qoraxoniylar sulolasi», «Xoqoniya sulolasi» «Afrosiyob sulolasi», «Tabg‘ochxon sulolasi» kabi nomlar shular jumlasidandir. Nemis olimi O. Prittsak (Omeljiam Pritsak)ning aytishicha, qoraxoniylar sulolasining «Ilikxon sulolasi» deb nomlanishi Utbiyning asarlaridan olingan. Utbiy esa Movarounnahr hukmdorini Arslon ilik Nosir binni Ali bilan uning katta ukasi Arslon qoraxon Abu Nosir Ahmad binni Alini bir odam, deb xatoga yo‘l qo‘ygan hamda ularning ilik va xon degan unvon darajalarini qo‘shib, ilikxon deb bilgan «Xoqoniya sulolasi» va «Xoqoniya» degan nomlar Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘otit-turk» va Ibn Atxirning «Tarixi umumiya» nomli asarlaridan olingan. «Afrosiyob sulolasi» degan nom fors tilida yozilgan «Shohnoma» asarida keltirilgan Turon turklari qahramoni nomidan olingan.

SOTUQ BUG‘ROXON VA QORAXONIYLAR

IX asrning oxiri va X asrning boshlarida tibetliklar kuchayib, Torim vohasining g‘arbiy va janubiy qismini o‘z nazoratlariga olganlar va u yerda o‘zlarining ma’muriy apparatlarini tashkil etgan. Turkistondan bu yerga ko‘chib kelgan va xitoylik olimlar tomonidan «g‘arbiy Pomir uyg‘urlari» deb nomlanganlar Torim vohasida o‘rnatilgan tibetliklar hukmronligini ag‘darganlar. Qoraxoniylar sulolasi Torim vohasining janubida qozongan g‘alabasi dastlab faqatgina hozirgi Oqsuv bilan Qashqar oralig‘idagi yerlar bilan cheklanib turgan edi. Keyin ushbu holat o‘zgargan.

Qoraxoniylar sulolasi ushbu hududda muqim o‘rnashib olganidan so‘ng, bir necha marta shimolga yurish qilib, o‘z ta’sirini Kuchargacha kengaytirdi. Ammo Kuchar atrofida yuqorida tilga olingan Uyg‘ur xoqonligi tarixiy sahnadan yo‘qolganidan so‘ng Urumchi, Turfon, Qumul viloyatlari, Lobnor ko‘li atrofi, Jungg‘or tekisligining sharqi-janubiy qismi kabi joylar orqali Uzoq Sharqdagi mamlakatlarga boradigan karvon yo‘llari-

ni Xitoy manbalarida «Shijou xueygu» deb nomlangan uyg‘ur xonligi tomonidan to‘sib qo‘yildi. Shundan keyin qoraxoniylar sulolasi o‘zining siyosiy markazini, ya’ni poytaxtini Bolasog‘undan Qashqarga ko‘chirdi. Chunki shu zamonda, birinchidan, ushbu shahar Buyuk ipak yo‘lidagi yirik rivojlangan savdo markazlaridan biri edi, ikkinchidan, Taklamakon cho‘li janubidagi Yorkend va Xo‘tan shaharlari orqali Xitoy poytaxti Chang‘anga boradigan karvon yo‘llari ochiq edi.

Qashqarga kelganidan so‘ng, vaziyatni to‘g‘ri tushungan Sotuq Bug‘roxon (920–956) islom dinini qabul qildi va o‘zini Abdulkarim deb atadi. U taxtda o‘tirgan davrda Qoraxoniylar xoqonligida katta rivojlanish yuz berdi.

Rivoyatlarga qaraganda, Sotuq Bug‘roxonning otasi vafot etganidan so‘ng taxt vaqtincha uning amakisi (otasining ukasi)ga qoldirilgan edi. Saroydagi kelishuvga binoan Sotuq Bug‘roxon ulg‘ayganidan keyin amakisi taxtni unga berishi lozim edi. Ammo amalda bunday bo‘lmadi. Amakidan taxtni kuch bilan tortib olish yagona yo‘l bo‘lib qoldi. Zarur kuchni to‘plash maqsadida Sotuq Bug‘roxon maxfiy holda islom diniga o‘tib, unga e’tiqod qilganlarning himoyasiga ega bo‘ldi.

Bir qorong‘u kechada endi 16 yoshga to‘lgan Sotuq Bug‘roxon 40 nafar yaqinlari yordamida o‘rdaga hujum qilib kirib, amakisini va uning hamdamlarini o‘ldirdi va xonlik taxtini o‘zi egalladi. Shundan keyin Sotuq Bug‘roxon birinchi navbatda budda diniga e’tiqod qiluvchilar makoni Xo‘tanga, undan so‘ng Sharqiy Turkistonning sharqiy viloyatlarida yashayotgan uyg‘urlar (Shichjou xueygu) hokimiyatiga qarshi urush boshladi. Ammo uning harakatlari kutilgan natijani bermadi. Shundan keyin Sotuq Bugroxon o‘zining siyosiy faoliyatini g‘arb tomonga qaratdi. Yettisuv va Balxash ko‘li atrofidagi hududlarda yag‘molar ko‘targan qo‘zg‘olonlarni bostirib, o‘z qo‘shinlarini Ili vodiysi orqali Junggor tekisligiga bevosita o‘zi Sotuq Bug‘roxon islom dinini hukmronlik qilgan Qashqar va Oqsuv viloyatlardagina emas, balki qoraxoniylar qo‘shinining qadami yetgan hamma yerlarda, jumladan, Yettisuv, Balxash ko‘li bo‘yi va Jungg‘or tekisligi kabi joylarda yashovchilarga ham singdirgan. Uning rag‘bati bilan qoraxoniylar qo‘shinlari budda ibodatxonalarini, haykalga cho‘qinuvchilar va boshqa dinlar e’tiqodchilarining qurilishlarini buzib tashlashgan. Shuning uchun islom dini targ‘ib qilingan yozma materiallarda, jumladan, uyg‘urcha, arabcha va forscha yozuvlardagi ma’lumotlarda Sotuq Bug‘roxonning islom dinini tarqatishda ko‘rsatgan xizmatlariga nihoyatda yuksak baho berilgan.

Sotuq Bug‘roxon 955-yilda (ayrim asarlarda 956-yilda) vafot etgan va Qashqardan 32–35 km narida joylashgan Ortush shahridagi qabristonga dafn etilgan. Shundan keyin mavjud an’anaga ko‘ra, uning o‘rniga katta o‘g‘li Muso Bug‘roxon (Muso binni Abdukarim) Arslonxon nomi bilan taxtga o‘tirgan. Muso Bug‘roxon o‘z hayotida Xo‘tandagi buddaviylar hokimiyati bilan Shichjou (G‘arbiy viloyat) uyg‘urlari hokimiyatiga qarshi onda-sonda urush qilganligi hisobga olinmasa, boshqa tilga olishga arzigulik hech qanday harbiy muvaffaqiyat qozonmagan.

Ablat Xo‘jayev va Dilrabo Turdiyevalarning «Qoraxoniylar xoqonligi tarixi Xitoy Xalq Respublikasi olimlari tadqiqotlarida» asaridan

SALJUQIYLAR

Bu mavzuda o‘quvchilarni baholashda ularning quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga e’tibor qaratish lozim:

- saljuqiylarning kelib chiqish tarixi haqida tushunchaga ega bo‘lishi va so‘zlab bera olishi;
- saljuqiy hukmdorlarning olib borgan boshqaruv siyosatini uzviylik asosida so‘zlab bera olishi va xulosa qila olishi;
- mavzuda berilgan rasm va xaritalar bilan ishlay olishi va xulosa qila olishi;
- saljuqiylar sababli Kichik Osiyoda turkiy davlat va millatga asos solinishini bilishi va manbalar asosida tahlil qila olishi;
- saljuqiylar davrining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida so‘zlab bera olishi;
- Saljuqiylar davlatining mashhur vaziri Nizomulmulk haqida ma’lumot bera olishi;
- «Siyosatnoma» asari va uning mazmuni haqida ma’lumotga egaligi va so‘zlab bera olishi;
- saljuqiylar davri bilan bir vaqtda mavjud bo‘lgan Yevropa davlatlaridagi hayot va boshqaruv tizimini qiyosiy tahlil qila olishi;
- qo‘shimcha manbalar bilan ishlay olishi va tahlil qila olishi;
- mavzu yuzasidan berilgan savollarga javob bera olishi, topshiriqlarni bajara olishi va o‘z xulosalarini bildira olishi.

TEST

1. Saljuqiylar turkiy o‘g‘uz qavmi tarkibida dastlab qayerlarda istiqomat qilishgan?

A) Amudaryoning o‘rta oqimi, hozirgi Qozog‘istonda;

B) Sirdaryoning o‘rta oqimi, hozirgi Janubiy Qozog‘istonda;

D) Amudaryo bo‘ylari va Zarafshon vodiysida;

E) Amudaryo bo‘ylari, hozirgi Turkmanistonda.

2. Saljuqiylar kimning roziligi bilan Xurosonga qadam bosishadi?

A) Saljuqbek; **B) Mahmud G‘aznaviy;**

D) Malikshoh; E) Sulton Sanjar.

3. Qoraxoniylar va saljuqiylarning lashkari qoraxitoylarga yengilishi qaysi davlatning yuksalishiga sharoit yaratdi?

A) Eron; B) Ozarbayjon; D) Iroq; **E) Xorazm.**

4. Saljuqiylar davlatida sulton qanday vakolatlarga ega edi?

1) Mulk, yer-suv taqsimlash;

2) muhim davlat va boshqaruv mansablariga tayinlash, ularning ishini, shikoyat va arizasini nazorat qilish;

3) moliyaviy kirim-chiqimni nazorat qilish;

4) mamlakat obodonchiligi, qurilish ishlari, karvon yo‘llari xavfsizligini nazorat qilish.

A) 1, 2, 3, 4; B) 2, 3, 4; D) 1, 2, 3; E) 2, 4.

5. Nizomulmulk o‘zining «Siyosatnoma» asarida podsho haftada necha kun zulm ko‘rganlarni qabul qilishi kerakligini ta’kidlaydi?

A) besh kun; B) to‘rt kun; D) uch kun; **E) ikki kun.**

6. G‘arbiy Saljuqiylar davlati tarkibiga qaysi hududlar kirgan?

A) Eron, Ozarbayjon, Iroq; B) Suriya, Ko‘niya, Iroq;

D) Movarounnahr, Xuroson; E) Xorazm, Iroq, Ozarbayjon.

7. XI asrning 40-yillarida saljuqiylar qayerlarga harbiy yurishlar tashkil etishdi?

1) Xorazm; 2) Eron; 3) Kavkazorti; 4) Suriya.

A) 1, 2; B) 3 ,4; D) 1, 3, 4; **E) 1, 2, 3.**

8. Sulton Malikshoh sharq va g‘arb yo‘nalishlararo savdosini jonlantirish uchun qanday tadbirni amalga oshirgan?

A) oltindan tanga zarb qildirgan;

B) savdo yo‘llari xavfsizligini ta’minlagan;

D) yo‘llar bo‘ylab yangi karvonsaroylar qurdirgan;

E) Xuroson va Iroq savdogarlarini ba’zi to‘lovlardan ozod etgan.

9. Saljuqiylar zamonida savdo-sotiqda g‘arbiy o‘lkalardan Kaspiy dengizi orqali Turkistonga qanday mahsulot olib kelingan?

A) turli ziravorlar; B) qimmatbaho toshlar;

D) neft mahsulotlari; E) turli matolar.

10. Darslikda berilgan xaritani ko‘z oldingizga keltiring. Buyuk saljuqiylar saltanati g‘arbda qaysi suv havzalari bilan tutashgan edi?

A) Kaspiy dengizi, Fors qo‘ltig‘i;

B) Orol va Kaspiy dengizi, Qora dengiz;

D) Ural daryosi, O‘rta dengiz, Kaspiy dengizi;

E) Qizil dengiz, Qora dengiz, O‘rta dengiz.

TARIXIY HUJJAT

DANDANAKON JANGI

G‘aznaviylar qo‘shini 1040-yili 17-mayga qadar Seraxsda bo‘lib, jazirama issiqdan Marv tomon yuradi. Ochlik va qahatchilik yuz beradi, ustiga-ustak Murg‘ob daryosi qurib qolgan edi. Saljuqlar qadimgi dasht taktik usulini qo‘llab cho‘ldagi quduqlarga o‘limtiklarni tashlab, ularni ko‘mib tashlaydilar. G‘aznaviylar qo‘shini ortidan izma-iz kelayotgan saljuqiylarning beto‘xtov hamla qilishlari vaziyatni bundan ham murakkablashtiradi. Ayniqsa, bir otli jangchilar va ot-ulovi bo‘lmagan g‘ulomlarga qiyin bo‘ladi.

16 ming otliq qo‘shinga ega saljuqiy boshliqlar Mas’ud qo‘shini bilan hal qiluvchi jang qilmoqchi bo‘ladilar. G‘aznaviylarning ilg‘or qismlari bilan dastlabki to‘qnashuv 22-mayda yuz beradi. Turkmanlar, yinalchilar va ular tomoniga o‘tgan sulton g‘ulomlari jon-jahdlari bilan olishadilar, biroq chekinishga majbur bo‘ladilar. Raqibning beto‘xtov hamlalari bezovta qilishiga qaramay g‘aznaviylar qo‘shini asta-sekin Marvga tomon yuradi. Biroq, tashnalikdan horigan jangchilar jang qilishni istashmaydi, ko‘pgina g‘ulomlar bo‘lsa «qochoqlarga qo‘shilib ketadi».

1040-yil 23-may erta tongda bomdod namozidan so‘ng g‘aznaviylar qo‘shini Marvdan ikki chaqirim naridagi o‘z qarorgohidan qo‘zg‘aladi. Amir boshdan-oyoq qurollangan o‘nlab g‘ulomlar qurshovida boradi. Uch chaqirim chamasi yurilgach, sulton qo‘shini turkman-o‘g‘uzlarning ilg‘or qismlariga duch keladi; shiddatli jang boshlanib ketadi. Mas’ud va uning sarkardalari dushman hamlalarini qaytara borib, kun chiqqanda Dandanakon nomli kichik shaharcha devorlari ostiga yetib keladilar. Aholi g‘aznaviylar qo‘shinini qal’aning yagona darvozasidan qo‘ymaydi, lekin tashnalik azobidan horib-charchagan jangchi va g‘ulomlarga suv beradi. Amirga hamroh bo‘lgan amaldorlar va sarkardalar unga Dandanakonda dam olish lozimligini maslahat berishadi. Biroq, sulton qal’adan 5 farsax olislikda bo‘lgan suv havzasi tomon harakat qilishni buyuradi. «Qachonki (hukmdor), — deb yozadi voqea ishtirokchisi bo‘lgan tarixchi Bayhaqiy, — u yerdan qo‘zg‘algach, qo‘shin tartibi buzilgan: saroy g‘ulomlari tuyalardan tushib toziklar va ulardan zaifroq bo‘lgan barcha kishilarning otlarini jang qilmoq bahonasida tortib ola boshlaydilar». Bayhaqiyning yozishicha, «o‘zaro kelishishlari uchun signal edi, bunda saroy g‘ulomlari — turklar birlashib olib, otlarga minganlar va 370 g‘ulom sher (tasviri) bo‘lgan nishonlari bilan orqalarini o‘chirib, turkmanlarga qo‘shildilar». Saljuqlar o‘g‘ruqqa tashlanib, qimmatbaho buyumlar, qurol-yarog‘larni, jangovar va yuk hayvonlarini tashmalab keta boshlaydilar. O‘zlariga qo‘shilgan sulton g‘ulomlari bilan birgalikda Mas’ud turgan joyga shiddatli hamla qiladilar. Sulton va uning yonida qolgan ozgina tozik-g‘ulomlar mardonavor olishadi. Mas’ud qolgan-qutgan qo‘shini bilan o‘zini beto‘xtov ta’qib etib kelayotgan raqibi hamlalarini qaytarib, Marvarrudga, u yerdan esa G‘aznaga ketadi.

Sulton Mas’udning Dandanakon devorlari ostida qaqshatqich mag‘lubiyatga uchrashi yangi davlat tug‘ilganidan dalolat berardi. Xuddi jang maydonining o‘zida chodir qurilib, sulton taxti o‘rnatiladi. «To‘g‘rul, – deb guvohlik beradi Bayhaqiy, – taxtga o‘tirdi, barcha amaldorlar uning huzuriga kelib uni Xuroson amiri sifatida qutlashdi».

Faxriddin Hasanovning
«Turon xalqlari harbiy san’ati» kitobidan

ELCHILAR VA ULARNING ISH TARTIBI

Tashqaridan kelgan elchilarning saroyga kelib-ketishlari noma’lum qolishi, ularning ahvolidan xabardor bo‘lmaslik g‘aflat va ishning tartibsizligidan darak beradi. Chegarada turgan amaldorlar mamlakat hududiga kirib kelayotgan har bir kishi haqida suvoriy chopar orqali ma’lumot berib turishlari shart. Agarda kelayotgan kishi elchi bo‘lsa, biror obro‘li kishini unga yo‘ldosh qilib, tegishli shartlarga yuborishsin. Bu yerda uni boshqa kishilarga topshirib, yangi obod shahar va nohiyalarni tomosha qildirib, oxiri saroyga olib kelsinlar. Amaldorlar va mansabli kishilarga farmon shudirki, elchilar qaysi manzilga qo‘nsalar, mehmondo‘stlik bilan kuzatishi kerak. Elchilar yuborgan podshoh sha’niga yaxshi-yomon so‘zlar bo‘ladi. Podshohlar ham bir-birlarining hurmatlarini bajo keltirib, elchilarni e’zozlaganlar, shunda ularning qadrlari va martabalari oshgan. Agarda podshohlar o‘rtasida ziddiyat yo dushmanlik vujudga kelsa va shu sharoitda elchilar kelib, farmon bo‘yicha ish yuritsalar, hech qachon ular xafa bo’lmaydilar va yaxshilikni ulardan darig‘ tutmaydilar.

Shu ma’noda Alloh Azza va Jalla nozil qilgan kitobi — «Qur’on»da shunday deyilgan: «Elchining faqat bir vazifasi bor — so‘zlarni to‘g‘ri yetkazib berish».

Podshohning elchi yuborishdan maqsadi xat yo maktub yuborish emas, balki uning safardan ko‘zda tutgan qator maqsadi va sir-asrorlari mavjud. Podshoh tog‘ yo‘llarining ahvoli, daryolar qandayligi, lashkar darajasi, u yerda qancha yem-xashak bor, qayerda kim hokim-u va malik, lashkarlarning soni qancha — shularni bilish uchun elchi yuboradi. Bular qurol-aslaha miqdori, ziyofat va majlis ahvoli, saroyning qabul tartibi, qonun-qoidalari, chavgon o‘yini (polo) va ov tartibi, podshohning siyrat-u xulq-atvori, uning saxiyligi, ko‘rinishi va ishlari qay darajadaligi, keksami yoki yoshmi, viloyati obodmi yo kambag‘almi, lashkari undan xursandmi, o‘zi baxilmi yoki saxiy, ishlarda hushyormi yoki g‘ofil, vaziri o‘ziga mosmi yoki yo‘q, o‘zi diyonatli va yaxshi kishimi yo manfurmi, lashkarboshilari ishbilarmon va rasm-rusumlarni biladigan kishilarmi, nadimlari zarif insonlarmi, qanday dushman va do‘sti bor, sharobga mayli qanaqa, din ishlarida salbiy, himmatli va shafqatlimi yoki zolim va berahm kishimi, hazilga moyilligi ko‘proqmi yoki jiddiy gapga. Ko‘proq qullar orasida bo‘lishni istaydimi yo ayollar davrasidami kabi masalalar qiziqtiradi va shu savollarga javob topish uchun elchi yuboriladi. Agarda uni qo‘lga olmoqchi bo‘lsalar va unga muxolifat qilib biror yomon-

likni ko‘zlasalar, uning ahvolidan voqif bo‘la turib, yomonlik yo yaxshilik tadbirini qiladilar. Alp Arslon[56], uning ruhi shod bo‘lsin, davrida bu bandaning boshiga bir voqea tushdi.

Rahmatli shahid Sulton o‘z mazhabida juda ham mustahkam edi va takror-takror shunday dedi: «Hay darig‘, agar mening vazirim shofi’iy mazhabidan bo‘lganda edi, kuchli siyosatchi va haybatli bo‘lardi. Shu sababdan uning o‘z mazhabida qat’iy va mo‘taqid bo‘lganligidan va shofi’iy mazhabidan xato sanashidan kamina hamisha undan andisha qilib hayiqardim». Shunday bo‘ldiki, rahmatli shahid Sulton Movarounnahr va Samarqand azmini qildi. Chunki Samarqand xoqoni Shamsulmulk unga bo‘ysunmasdi. Lashkar yig‘ib, Shamsulmulk Nasr ibn Ibrohimga elchi yubordi. O‘z tomonimdan men ham bo‘ladigan voqeadan xabardor qilishi uchun Ashtarni sulton elchilariga qo‘shib yubordim. Sulton elchisi xat va xabarni yetkazdi va u yerda ham o‘z elchisini sulton rasulga hamroh qilib qaytardi. Odat borki, elchilar hamma murod va maqsadlarni eshitib olib, avval vazirga aytadilar, bundan maqsad shuki, vazir sultonga qaytganidan so‘ng bularni unga o‘zi yetkazsin. Ittifoq bir kuni o‘z chodirimda yaqin kishilarim bilan o‘tirib shaxmat o‘ynardim. Bir kishini shaxmatda yutib, uning uzugini garovga olib, chap qo‘limning barmoqlari kattalik qilganidan o‘ng qo‘limga taqib olgandim. Shu payt Samarqand xonining elchisi kelib, eshik oldida kutayotganligi haqida xabar berdilar.

Buyurdim, shaxmatni olib ketdilar. Elchi kirib o‘tirdi va bandaga bor gaplarini aytib berdi, men esa uzukni barmog‘imda aylantirib o‘tirdim. Elchining ko‘zi uzukka tushdi, u xizmatini bajarib tashqariga chiqdi. Sulton farmoni bilan xon elchisi va u bilan bir kishini elchi qilib yubordi. Men ham donishmand Ashtarni juda jasur kishi bo‘lgani uchun ular bilan jo‘natdim.

Elchilar Samarqandga yetib borib, Shamsulmulk oldiga kirganda xoqon o‘z elchisidan so‘radi:

«Sulton Alp Arslonning fikr-u ishlari va ko‘rinishi qanday ekan, lashkarlari qancha va qanday qurollangan?»

Elchisi aytibdi:

«Mening xoqonim, Sulton ko‘rinishi-yu nazari, mardligi va siyosati, haybati va farmon berishida tengi yo‘qdir. Lashkarlari sonini Xudo biladi, qurol-aslahalarida ham kamchilik yo‘q, saroy va devon tartibi, majlisi va qabul qilish ishlari ham yoqimli. Mamlakatida hech ayb ko‘rinmaydi. Illo bir ayb bor. Agarda shu kamchilik bo‘lmasa, juda yaxshi bo‘lardi».

Undan so‘rashdi;

Qaysi aybi bor ekan?

Vaziri rofiziy ekan, — dedi elchi.

Qanday qilib bildingiz?

Peshin namozini ado qilib, uning chodiriga kirdim, suhbatlashib o‘tirganimda vazirning o‘ng qo‘lida uzuk ko‘rdim. U uzukni barmog‘ida aylantirib, men bilan suhbat qildi.

[56] Alp Arslon – Saljuqiylar hukmdori (1063–1072). Jumlalar muallifi Nizomulmulk shu sulton saroyida vazir darajasiga erishgan, hukmdor vafot etgach, taxtga chiqqan 17 yoshli yangi sulton Malikshohga ham vazir, ham otaliq vazifasini bajargan.

Donishmand Ashtar ham tez menga xabar berdiki, Shamsulmulk huzurida sen haqingda shunday gap bo‘ldi, xabardor bo‘lganing yaxshi. Men Sultondan xavfsirab, ko‘p qayg‘urdim, Sulton mening mazhabimdan or qiladi va har vaqt meni urishadi, deb o‘ylardim. Agarda u mening rofiziylikda ayblanayotganligimni va Samarqand hokimi dargohida shunaqa gap bo‘lganini eshitsa edi, meni omon qo‘ymasdi.

Shunda aybsizligimga qaramay, bu xabar sultonga yetmasin deb o‘ttiz ming dinorni xarj qildim. Bu voqeani shuning uchun ham esladimki, elchilar ko‘proq ayb qidiradilar. Ular podshoh va uning mamlakatida bo‘lgan ayb va kamchiliklarni, yaxshi ishlarni so‘rab-surishtirib, qulay vaqti kelganda podshohni yomonlaydilar. Shuning uchun ham dono va ziyrak podshohlar o‘z axloqlarini yaxshilab, hech kim ularni ayb qilmasligi uchun shoyista va pok din-u, rostgo‘y kishilarni o‘z atrofiga yiqqanlar.

Elchi ham podshohlar xizmatida bo‘lgan, so‘zlashda jasur, jahon ko‘rgan, donishmand, o‘tkir xotirali, andishali va chiroyli bo‘lsin. Agarda elchi yoshi ulug‘ va olim bo‘lsa yaxshidir, yuborilgan nadim shu yo‘sinda bo‘lsa, ishonch uyg‘otadi. Agarda jasur va qo‘rqmas kishini elchi qilib yuborsalar va u odobli, qurol ishlatishini, chavandozlikni bilsa, muboriz bo‘lsa, yaxshiroqdir. Unda bizning haqimizda ham boshqalarda xuddi shunday taassurot qoladi. Elchi ulug‘vor kishi bo‘lsa ham yaxshi, chunki uning hurmati oshgan bo‘lib, unga yomonlikni ravo ko‘rmaydilar. Sharob ichmaydigan, masxarabozlik qilmaydigan, qimor o‘ynamaydigan, kamgap, dono elchi yaxshiroqdir. Ko‘p vaqtlar podshohlar elchiga hadya va sovg‘alar yuborib, o‘zlarini kuchsiz va mehribon ko‘rsatganlar va shu yo‘l bilan elchi orqasidan lashkar yig‘ib, botirlarini yuborib, dushmanni mag‘lub etganlar. Elchining siyrati va fikri-zikri podshohning aqli-zakovatidan dalildir.

Abu Ali Hasan ibn Ali Tusiy
Nizomulmulkning «Siyosatnoma» asaridan

LOYIHA ISHI

Jamoalarga bo‘lingan holda Somoniylar, G‘aznaviylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar davlatlarining o‘ziga xosligi va umumiy jihatlarini tahlil qilish va himoya qilish:

1-guruh: Somoniylar
2-guruh: G‘aznaviylar
3-guruh: Qoraxoniylar
4-guruh: Saljuqiylar

Davlat tuzumi	Ijtimoiy tuzumi	Boshqaruv usullari	Huquqiy asosiy belgilari	Farqli jihatlari

XORAZMSHOHLAR DAVLATI VA UNING YUKSALISHI

Bu mavzuda o‘quvchilarni baholashda ularning quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga e’tibor qaratish lozim:

- → Xorazmning tarixi haqida dastlabki bilimlarini yodga olishi va ma’lumot bera olishi;
- → saljuqiylar tarkibidan mustaqil davlat bo‘lib ajralib chiqish jarayonlari haqida ma’lumotga ega bo‘lishi va so‘zlab bera olishi;
- → qo‘shimcha manbalar bilan ishlay olishi va tahlil qila olishi;
- → xorazmshohlarning olib borgan boshqaruv siyosatini uzviylik asosida so‘zlab bera olishi va munosabatini bildira olishi;
- → QR kod orqali berilgan xorazmshohlar davriga oid ma’lumotni bilishi va o‘z mulohazasini bildira olishi.

TEST

1. Xorazmda hukmronlik qilmagan sulolani belgilang.

A) Oltintoshlar; B) Afrig‘iylar; **D) O‘g‘uzlar;** E) Anushteginiylar.

2. Anushteginiylar davrida Xorazm poytaxti qaysi shahar bo‘lgan edi?

A) Kat; B) Hazorasp; D) Nishopur; E) Gurganch.

3. Anushtegin Xorazm noibi sifatida qaysi yillar mobaynida hukmronlik qilgan?

A) 977–997-yillar; B) 1057–1097-yillar; **D) 1077–1097-yillar;** E) 1097–1127-yillar.

4. Anushtegin dastlab qaysi saljuqiy hukmdor saroyida xizmat qilgan?

A) Jaloliddin Malikshoh; B) Sulton Sanjar; D) Alp Arslon; E) G‘iyosiddin Barqiyoruq.

5. Qaysi Anushteginiy hukmdor vafotidan so‘ng uning vorislari o‘rtasida taxt uchun o‘zaro kurash kelib chiqqan?

A) Qutbiddin Muhammad; B) Otsiz; **D) El Arslon;** E) Takash.

6. Xorazmshoh Otsiz Xorazm mustaqilligi uchun qaysi saljuqiy hukmdorga qarshi kurashgan?

A) Sulton Sanjar; B) Jaloliddin Malikshoh; D) Alp Arslon; E) G‘iyosiddin Barqiyoruq.

7. Xorazmshohlar haqida o‘z asarlarida ma’lumot bermagan tarixchini belgilang.

A) Rashiduddin; B) Otamalik Juvayniy; **D) Hofizi Abru;** E) Muhammad Narshaxiy.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

8. Qaysi Anushteginiy hukmdor xalifa nomini xutbadan chiqarib tashlaydi?

A) Alovuddin Muhammad; B) Otsiz; D) El Arslon; E) Takash.

9. Bag‘dodni egallashga qaratilgan yurishdan oldin vafot etgan Xorazmshoh kim edi?

A) Alovuddin Muhammad; B) Otsiz; D) El Arslon; E) Takash.

10. Xorazmshoh Alovuddin Muhammadning xalq orasida obro‘si oshib ketishiga sabab bo‘lgan voqeani ayting.

A) Bag‘dod yurishi;

B) Xalifa nomini xutbadan chiqarib tashlash;

D) Iroq va Ozarbayjonga yurish;

E**) Movarounnahrdan qoraxitoylarning quvib chiqarilishi.**

TARIXIY HUJJAT

SULTON MUHAMMAD BILAN MO‘MINLAR AMIRI NOSIRDINULLOH ABULABBOS ORASIDAGI SOVUQLIK SABABLARI

Sulton Takish zamonida Iroq uchun xorazmshohlar bilan Bag‘dod boshqaruvi orasida urush kelib chiqqan bo‘lib, oldin aytib o‘tganimizdek, Sulton Takish Bag‘dod qo‘shinini yenggan va ularning qo‘mondoni bo‘lgan vazirni ham o‘ldirgan edi.

Bu urushdan so‘ng xalifa tez-tez sultonni yo‘q qilish uchun qoraxitoy xonlari, G‘ur sultonlariga maktublar yuborib turdi. Xalifaning yashirin qilgan harakatlari sulton G‘aznani olib g‘urliklar xazinasini izlayotganida oshkor bo‘ldi. Xazinada xalifaning G‘ur sultonini Sulton Muhammadga qarshi fitna chiqarishga urinib, ig‘vo qilgani va qoraxitoy qo‘shinidan yordam so‘ragani haqidagi maktublari qo‘lga tushdi. Sulton o‘sha paytda bu sirni fosh qilmasdan, bu maktublarni dalil sifatida yonida saqlab qo‘ydi.

O‘sha vaqtda Jaloliddin Hasan o‘z manfaatini ko‘zlab musulmon bo‘ldi va xalifa ham uning musulmonligini qabul qildi. U haqiqatan ham musulmon bo‘lganini isbotlash uchun hajga bir karvon yubordi. Xalifaning buyrug‘iga ko‘ra, uning bayrog‘ini sulton bayrog‘ining oldida olib yurdilar. Sulton buni eshitgach, ruhan siqildi va qalbi sindi. Keyin xalifa Jaloliddin Hasandan bir necha jasur kishilar berishni so‘radi. Jaloliddin Hasan uning istagichalik fidoyi kishilarni berib, ularga xalifa nimaniki buyursa, o‘sha ishni bajarishni topshirdi. O‘sha paytda xalifa bilan Makka amirining orasi buzildi. Xalifa o‘sha fidoyi kishilardan bir qismini Makka amirini o‘ldirish uchun yubordi. Fidoyilar xato qilib, Makka amiri o‘rniga uning ukasini o‘ldirdilar. Bu jirkanch voqea arafa kuni Arofat tog‘ida

sodir bo‘ldi. Yana u sultonning sodiq bir odami hisoblangan va otabek O‘zbekning yoniga yuborgan Iglamishni Iroqda fidoyilarga pichoqlatib o‘ldirtirdi.

Sulton o‘z rutbasini Buvayx sulolasi va saljuqlilardan past deb bilmasdi, hatto ularning amirlari bilan bir xil darajada deb hisoblashiga qaramasdan xalifa ularga bir xil nazar bilan qaramadi. Bag‘dod o‘lkasi xalifaga, xalifa esa saljuqlilar boshqaruviga tobe edi. Tarixiy kitoblarda ochiq yozilganidek, Toiy (974–991-yillar), Mustarshid (1118–1135-yillar) kabi xalifalar ularning amri ostida edi. Sulton xalqi va qo‘shni mamlakatlar hukmdorlarini tanqid qilishidan o‘zini qutqarmoq va ularning: «Musulmon bir sulton tuproq, yer orzu-havasi bilan qasamyod qilingan va islomning ustuni bo‘lgan imomga hujum qilib, o‘z diniga zarar yetkazdi», — deyishiga imkon bermaslik uchun xalifaga qarshi hujumga bir bahona topishni istayotgan edi. Allohning Rasuli (s.a.v.) bu borada mana bunday deydi: «Kimki biror imomni tan olib, unga o‘z sadoqatini bildirmasdan dunyodan o‘tsa, u johiliya davrida o‘lgandek bo‘ladi».

Sulton o‘z mamlakatidagi mashhur imomlarni chaqirib, yuqorida sanab chiqilgan xatti-harakatlar qilgan bir odamning xalifalik qila olmasligi, bunday bir xalifa kunlarini jihod bilan o‘tkazgan va islomga xizmat qilgan bir sultonning tagiga suv qo‘ysa, sulton uni xizmat vazifasidan uzoqlashtirishi va uning o‘rniga yangi bir xalifani tayinlashi ma’qul bo‘lishligi, boshqa tomondan esa xalifalikda hazrat Husayn naslidan bo‘lgan sayyidlar haqqi borligi, abbosiyning ushbu maqomni zo‘ravonlik yo‘li bilan qo‘lga kiritgani kabi mavzularda fatvo olib, xalifa nomini mamlakatning hamma joyida o‘qilgan xutbalardan chiqartirib tashlatdi. Lekin abbosiylar xonadoniga hujum qilishi sultonga yaxshilik keltirmadi.

Alouddin Atomalik Juvayniyning
«Tarixi Jahongusho» asaridan



XORAZMSHOHLAR DAVLAT BOSHQARUVI VA IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOT

Bu mavzuda o‘quvchilarni baholashda ularning quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga e’tibor qaratish lozim:

- Xorazmshohlar davlatining iqtisodiy-siyosiy va ijtimoiy jihatdan barqarorlashuv davri haqida ma’lumotga ega bo‘lishi va so‘zlab bera olishi;
- Xorazmshohlar davlatining ichki vaziyatlari haqida ma’lumot bera olishi va ularning sabablarini tahlil qila olishi;
- davlat boshqaruvining tashkil etilishi va o‘ziga xosliklari haqida ma’lumot bera olishi;
- Xorazmshohlar davlatining boshqaruvini saljuqiylar davlati boshqaruvi bilan solishtirib, tahlil qila olishi;
- lavozimlar va ularning majburiyatlari haqida ma’lumot bera olishi;
- Xorazmshohlar davridagi shaharlar va ularning o‘ziga xosliklari haqida ma’lumot bera olishi;
- Sharq va G‘arb bozorlarining o‘ziga xosliklarini taqqoslab tahlil qila olishi;
- mavzuga oid savol va topshiriqlar bilan ishlay olishi.

XORAZM DAVLATI

Anushteginlar sulolasi:

- Anushtegin (1017–1097)
- Qutbiddin Muhammad (1097–1127)
- Alouddin Otsiz (1127–1156)
- El Arslon (1156–1172)
- Sultonshoh (1172–1198)
- Alouddin Takash (1193–1200)
- Alouddin Muhammad (1200–1220)
- Jaloliddin Muhammad (1220–1231)

IV–XI asr – Afrig‘iylar
875–999-yillar – Somoniylar
1017-yillar – G‘aznaviylar
1044-yil – Saljuqiylar
1156–1221-yil – Mustaqil

- **1097–1127-yillar** – Qutbiddin davrida Xorazmshoh unvoning tiklanishi
- **1127–1156-yillar** – Otsiz davrida Xorazmshohlar davlati poydevorining barpo etilishi
- **1172–1200-yillar** – Takash davrida Xorazmning eng kuch-qudratga to‘lib toshgan yillari
- **XII asrning ikkinchi yarmi** – mustaqillik uchun kurashning boshlanishi
- **XIII asr** – buyuk davlat

- **1182–1207-yillar** – Movarounnahrning qo‘shib olinishi.
- **1187–1193-yillar** – Nishopur, Ray, Marvning bo‘ysundirilishi.
- **1194-yil** – Eronning bo‘ysundirilishi.
- **1206-yil** – Malik Sanjar qo‘zg‘olonining bo‘lib o‘tishi.
- **1207-yil** – Buxoroning qo‘shib olinishi.
- **1210-yil** – Talos vodiysida qoraxitoyliklarning yengilishi.
- **1212-yil** – Qoraxoniylar hukmiga chek qo‘yilishi.
- **1216-yil** – Chingizxon huzuriga Bahouddin Roziy boshchiligidagi elchilarning yuborilishi.
- **1218-yil bahor** – Mahmud Yalovoch boshchiligida Chingizxon elchilarining Buxoroda qabul qilinishi.
- **1218-yil** – Chingizxon yuborgan karvonning O‘trorda talanishi.
- **1219–1221-yil** – Xorazmning zabt etilishi.

TEST

1. Muhammad Xorazmshoh davrida poytaxt qaysi shaharga ko‘chiriladi?

A) Kat; B) Xazorasp; D) Nishopur; **E) Samarqand.**

2. Turkon xotun haqidagi «Dunyo va uning pokdomoni, Ulug‘ Turkon, olam ayollarining malikasi» degan ta’rifni qaysi tarixchi bergan?

A) Rashiduddin; B) Hofizi Abru; D) Otamalik Juvayniy; **E) Shahobiddin an-Nasaviy.**

3. Turkon xotun turkiylarning qaysi urug‘idan edi?

A) Qang‘li; B) Qipchoq; D) Qo‘ng‘irot; E) Bekdili.

4. Turkon xotun o‘z siyosatida asosan qaysi qabiladan bo‘lgan harbiylarga suyanar edi?

A) Qang‘li; **B) Qipchoq;** D) Qo‘ng‘irot; E) Bekdili.

5. Turkon xotun mo‘g‘ul bosqini davrida qayerga yashiringan edi?

A) Urganch; B) Xazorasp; D) Nishopur; **E) Ilol qal’asi.**

6. Turkon xotun mo‘g‘ullar tomonidan qo‘lga olingach, qayerga jo‘natilgan edi?

A) Qoraqurumga; B) Urganchga; D) Samarqandga; E) Yettisuvga.

7. Xorazmshohlar davrida harbiy vazirlik qanday nomlanadi?

A) Devoni harb; B) Devoni sohibi shuhrat; **D) Devoni Jaysh;** E) Devoni ravohib.

8. Harbiylarga maosh berish bilan shug‘ullanuvchi devon qanday nomlanadi?

A) Devoni harb; B) Devoni sohibi shuhrat; D) Devoni Jaysh; **E) Devoni ravohib.**

9. Xorazmshohlar davlatida hukumat qanday nomlanadi?

A) Devoni Alo; B) Devoni Salotin; D) Majlisi oliy; **E) Oliy toj faxriy majlisi.**

10. Xorazmshoh davlatida vazirlar qaysi tillarni bilishi talab etilgan?

A) Turk, arab, pahlaviy; B) Arab va fors; **D) Turk, arab va fors;** E) Turk va o‘g‘uz.

11. Qaysi Anushteginiy hukmdor davrida vazirlikning takomillashgan tizimi yaratildi?

A) Alovuddin Muhammad ; **B) Otsiz;** D) El Arslon; E) Takash.

12. Quyidagi qaysi lavozimga faqat turkiy asilzodalar avlodidan bo‘lgan shaxslar tayinlangan?

A) Hojib; B) Ustozdor; D) Ustoz; E) Sipohsolor.

13. Saroydagi ishlarni boshqarish bilan qaysi lavozim egasi shug‘ullangan?

A) Hojib; B) Buyuk hojib; **D) Ustozdor;** E) Sipohsolor.

14. Qaysi Anushteginiy hukmdor davrida 6 kishidan iborat kengash tuzilgan edi?

A) Alovuddin Muhammad; B) Otsiz; D) El Arslon; E) Takash.

15. Anushteginiylar saroyida xizmat qilgan choshnigir unvonidagi shaxs qanday vazifani bajaradi?

A) saroy ishlarini nazorat qilish;

B) saroy tozaligini ta'minlash, hukmdor yotog'iga mas'ul;

D) oliy hukmdorga beriladigan ovqat va ichimliklarni tatib ko'rish;

E) hukmdor otxonasi boshlig'i.

16. Xorazmdagi qurilish ishlarida qaysi daraxt yog'ochidan keng foydalanilgan?

A) chinor; B) tut; D) terak; **E) majnuntol.**

17. O'rta asrlarda yurtimizdagi qaysi davlat savdogarlari Bag'dod va hatto Andalusiyaga ham borganlar?

A) Xorazm; B) Buxoro; D) Farg'ona; E) Shosh.

18. Anushteginiylar saroyida xizmat qilgan «oxur amiri» unvonidagi shaxs qanday vazifani bajaradi?

A) saroy ishlarini nazorat qilish;

B) saroy tozaligini ta'minlash;

D) oliy hukmdorga beriladigan ovqat va ichimliklarni tatib ko'rish;

E) hukmdor otxonasi boshlig'i.

19. Qaysi lavozim egasi hukmdorning eng muhim topshiriqlarini bajargan, safarlarda doimo unga hamrohlik qilgan?

A) Hojib; B) Amiri shikor; D) Ustozdor; E) Sipohsolor.

20. Xorazmshohlar davlatida bozorlarda tartibni saqlash qaysi lavozim egasining vazifasi sanalgan?

A) Hojib; B) Muhtasib; **D) Ustozdor;** E) Sipohsolor.

TARIXIY HUJJAT

TURKON XOTUN HAYOTINING BA'ZI BIR JIHATLARI VA UNING FE'L-ATVORI

U Bayot urug'idan edi. Bayot urug'ining yemek qabilasiga mansub hisoblanadi. Uning ishi yurishib, mavqeyi mustahkamlanib bordi, shunda u «Xudovandi jahon» degan laqab oldi. U turk mamlakatlaridan birining hukmdori Jonkishixonning qizi edi.

El Arslonning o‘g‘li Takish hukmdorlarning o‘g‘li hukmdorlarning qizini olgani kabi unga uylandi. Hokimiyat sulton Muhammadga otasi Takishdan meros bo‘lib o‘tganidan keyin yemek va unga qo‘shni bo‘lgan boshqa qabilalar uning davlati tarkibiga kelib qo‘shildilar. Shu sababli sultonning kuchi ko‘paydi, u esa ularni yanada ulug‘ladi. Natijada Turkon xotun mamlakatni boshqara boshladi[57]. Sulton qaysi bir mamlakatni bosib olgudek bo‘lsa, uning qaysidir viloyatini, albatta, onasining yaqinlari uchun ajratib berardi.

U ulug‘vor va aqlli ayol edi. Unga shikoyat xatlari, arznomalar kelgudek bo‘lsa, ularni sinchkovlik bilan adolat nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqardi va jabr qiluvchining zulmi ostida ezilgan odam tarafini olardi. Ammo u qotillikni mardlik nishonasi deb baholardi. U mamlakat uchun ko‘plab yaxshi ishlar qildi. Agar bularning hammasini birma-bir sanaydigan, uning ulug‘vor ishlarini ta’kidlab ko‘rsatadigan bo‘lsak, yana ko‘p qog‘ozlarni qoralashimizga, ko‘p gapirishimizga to‘g‘ri kelardi. Uning kotiblari (kuttab al-insho) yettita edi. Ularning hammasi mashhur, davrining atoqli va olijanob insonlari edi. Agar undan va sultondan bir masala bo‘yicha ikkita munosabat bildirilgan noma kelib qolgudek bo‘lsa, albatta, uning bitilgan muddatiga qaralardi. Ulardan qaysi biri keyin yozilgan, shu nomadagi fikr mamlakat miqyosida asos qilib olinardi. Uning farmonlaridagi tug‘rosi quyidagicha edi: «Ulug‘ Turkon, mo‘minlarning va tinchlikning himoyachisi, ikki olam ayollarining malikasi». Uning shiori «Faqat Ollohdan himoya istayman» degan so‘zlar edi. U bu so‘zlarni qalam bilan katta qilib, chiroyli tarzda yozib qo‘ygandi, uni boshqa biror odam o‘zgartira olmasdi.

Shihobiddin Muhammad an-Nasaviyning «Siyrat as-Sulton Jalol ad-Din Mangburni» asaridan

SULTON MUHAMMADNING ONASI TURKON XOTUN

Turkon xotun asli «qang‘li» nomi berilgan turk qabilasidan edi. Bu qabilaga mansublar Turkon tomonidan doimo himoya qilinar va boshqaruvda so‘z sohibi edilar. «Ajamiylar» ham deyilgan bu odamlar qo‘pol tabiatli va marhamatsiz edilar. Ular qayerga borsalar, o‘sha yerni xarob qilardilar, xalq ularni ko‘rgan paytda qochishga yo‘l izlardi. Ularning xalqqa ravo ko‘rganlari bu aziyat va zulm, sulton davlati asoslarini shiddatli tarzda larzaga keltirgan muhim omillardan biri edi.

Turkon xotunning alohida bir saroyi, o‘ziga bog‘liq bir davlat arkoni, o‘ziga xos mol-mulk va yerlari bor edi. Bulardan tashqari, uning so‘zi sulton va uning yaqinla-

[57] Sulton Muhammadning farmoni onasi tomonidan muhokama qilinmasdan rad etilgan paytlar ham ko‘p bo‘lgan. Uning o‘z shaxsiy «devon al-inshosi» bo‘lgan va mamlakat ishlarini mustaqil hal qilgan. Juvayniyning aytishicha, Turkon xotun Gurganch (Urganch)ni o‘ziga poytaxt qilib tanlagan edi. Uning o‘z saroyi, o‘z mulki bor edi.

ri tomonidan tinglanar, sulton xazinasini u xohlaganicha sarflay olardi. Turkon xotunning tez-tez yashirin vaqtichog‘lik ziyofatlar tashkil qilganligini aytadilar. Shu bilan birga, u davlat sohibi bo‘lgan bir qancha xonadonga mansub shaxslarni yo‘q qildirgan edi. Yangi bir mamlakat fath etilganidan so‘ng u yerning boshqaruvchilari garov sifatida Xorazmga keltirilgan paytda Turkon xotun ulardan o‘g‘liga biror aziyat yetmasin, deb ularning hammasini o‘ldirtirib, daryoga otib yuboradi.

Sulton onasi va haramini Mozandoronga olib ketib (*Mo‘g‘ullar hujumi davri haqida gap ketmoqda*), u yerning qal’asiga berkitish uchun Xorazmga odamlarini yubordi. Turkon xotun o‘g‘lining buyrug‘iga ko‘ra harakat qildi. Sulton oilasi va haramini olib ketayotganida askarlarni Xorazmda qoldirishdi. Harakat paytida asir qilib olingan turli mamlakatlarning podshohlarini buyruq bilan Jayxun daryosiga cho‘ktirib yuborganidan so‘ng, bolalari, nevaralari, yaqinlari va xazinasi bilan vazir Nosiriddinning kuzatuvida Dehiston ustidan Mozandoronga tomon harakat qildi.

Mozandaronga kelgan sulton u yerni ham ishonchli deb hisoblamay, Turkon va boshqa haram a’zolarini Lorijon (Tehrondan 50 mil shimoli-sharqdagi nohiya) va Ilol (Tejen irmog‘idagi hudud) qal’asiga yubordi. Sulton ketidan ta’qib qilib Mozandoronga kelgan Subutoy eslatilgan qal’alarni qamal qilish uchun askar chaqirdi. Taqdirni qarangki, yomg‘ir bulutlari o‘z yuklarini ustiga to‘kkan va o‘sha paytgacha hech kim suv tanqisligini ko‘rmagan Ilol qal’asi qurshovga olingan vaqtda yomg‘ir ham ularga dushmanlik qilib yog‘may qo‘ydi.

O‘n besh kundan so‘ng suv tugagach, og‘ir ahvolda qolgan Turkon xotun boshqa haram a’zolari bilan va vazir Nosiriddin bilan pastga tushdi. Ular qal’aning tubiga borgan vaqtda ob-havo yuzini norozi ohangda bujmaytirib, qovog‘ini osib, yashin ustiga yashin chaqib yig‘lay boshladi.

Mo‘g‘ul askarlari Turkon xotunni o‘g‘illari, qizlari va Nosiriddin bilan birga Toliqonda turgan Chingizxon yoniga olib bordilar. 618/1221–1222-yili Chingizxon buyrug‘iga ko‘ra, Nosiriddinni qiynab o‘ldirdilar. Chingizxon sultonning o‘g‘il farzandlaridan birontasini ham tirik qoldirmadi. Tirik qolgan Turkon, sultonning qizlari, singillari va ayollarini Chingizxon buyrug‘i bilan sultondan va uning mamlakatidan ayrilgani uchun dod-faryod qilib, yig‘latdilar.

Qoraqurum (*Chingizxon davlati poytaxti*)ga olib ketilgan Turkon xotun u yerda bir necha yil baxtsiz hayot kechirdi va 1233-yilda vafot etdi. Chingizxon uning qizlaridan ikkitasini Chig‘atoyga taqdim qildi. Chig‘atoy ularning birini o‘zining shaxsiy cho‘risi qilib, boshqa birini esa vaziri Qutbiddin Xabash Amidga berdi. Boshqa shahzodalar chekiga tushgan qizlaridan birini Amid hojibga berdilar.

Ulardan boshqa Sulton Jaloliddin haramiga mansub bo‘lgan Turkon ismli ikki yoshli bir qizcha Jurmogunga tushdi. Jurmogun



uni xoqonga yubordi. Xoqonning amriga ko‘ra, uni saroyda tarbiyaladilar. Keyinchalik jahon shahzodasi Xulogu G‘apb o‘lkalariga boshqaruvchi bo‘lib ketayotganida Turkonni va unga loyiq birisi bilan turmush qurish uchun Xuloguga berdilar. Xulogu esa uni juda qiymatli bir kelin sarpolarini berib 655/1257–1258-yilda mo‘g‘ul davlatiga qilgan munosib xizmatlari tufayli Mosul boshqaruvchisi o‘g‘li Malik Solihga shariat hukmlariga ko‘ra nikohlab berdi.

Shihobiddin Muhammad an-Nasaviyning «Siyrat as-Sulton Jalol ad-Din Mangburni» asaridan.

TAKRORLASH

Bu mavzuda o‘quvchilarni baholashda ularning quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga e’tibor qaratish lozim:

- QR kod orqali berilgan ma’lumot yordamida Chingizxon bosqini arafasida Xorazmshohlar davlatining umumiy manzarasini tasvirlay olishi va o‘z xulosasini bildira olishi;
- jamoalarga bo‘lingan holda XII asrgacha bo‘lgan Turon hududidagi voqealar, davlatlarning tashkil topishi va tugatilishi haqida uzviylik va davriy ketma-ketlik asosida taqdimot tayyorlay olishi va himoya qila olishi;
- Chingizxon bosqini arafasida Turondagi umumiy vaziyatni tahlil qila olishi.

ETNIK JARAYONLAR VA O‘ZBEK XALQINING SHAKLLANISHI

Bu mavzuda o‘quvchilarni baholashda ularning quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga e’tibor qaratish lozim:

- etnik jarayonlar, etnogenez tushunchalari haqida ma’lumotga ega bo‘lishi va ma’lumot bera olishi;
- o‘zbek xalqining shakllanish jarayonlari haqida so‘zlab bera olishi;
- xaritalar bilan ishlay olishi;
- o‘zbek xalqining asosini qaysi elatlar tashkil etishi haqida ma’lumot bera olishi;
- mavzu yuzasidan berilgan savollarga javob bera olishi, topshiriqlarni bajara olishi va o‘z xulosalarini bildira olishi.

TEST

1. «Etnos» so‘zi ma’nosi to‘g‘ri berilgan qatorni toping.

A) Lotincha «xalq»; B) Yunoncha «urug‘-qabila»;
D) Lotincha «qabila»; **E) Yunoncha «xalq».**

2. Qachondan boshlab o‘lkamiz Turkiston deb atala boshlandi?

A) IV asr; B) VI asr; **D) VII asr**; E) X asr.

3. Qachonga kelib, mintaqada yagona etnik qatlam va turkiy til muhiti shakllana boshladi?

A) VII asr; B) VIII asr; **D) IX asr;** E) XI asr.

4. Qaysi sulola davriga kelib o‘zbek xalqi shakllanishi yakuniga yetdi?

A) Anushteginiylar; B) Somoniylar; **D) Qoraxoniylar;** E) G‘aznaviylar.

5. Bizning yurtimiz qachondan boshlab rasman O‘zbekiston deb atala boshlandi?

A) 1900-yil; B) 1917-yil; D) 1859-yil; **E) 1924-yil.**

6. Qaysi asrdan boshlab yurtimizga arab va ajam xalqlari o‘rnasha boshladi?

A) VII asr; **B) VIII asr;** D) IX asr; E) X asr.

7. O‘zbeklar alohida etnik birlik (elat) bo‘lib ... .

A) Movarounnahr, Xorazm, Yettisuv, qisman Sharqiy Turkistonning g‘arbiy mintaqalarida shakllangan.

B) Movarounnahr, Xorazm, Yettisuv, qisman G‘arbiy Turkistonning g‘arbiy mintaqalarida shakllangan.

D) Movarounnahr, Xorazm, Yettisuv, qisman Janubiy Turkistonning g‘arbiy mintaqalarida shakllangan.

E) Movarounnahr, Xorazm, Yettisuv, qisman Shimoliy Xurosonning g‘arbiy mintaqalarida shakllangan.

8. O‘zbek xalqining asosini qaysi etnik guruhlar tashkil etgan?

A) Janubiy Sibir, Oltoy, Yettisuv, Sharqiy Turkiston hamda Volga va Ural daryosi bo‘ylaridan turli davrlarda Movarounnahrga kirib kelgan etnik guruhlar;

B) kushonlar, xioniylar, kidariylar va eftaliylar;

D) turk, uyg‘ur, o‘g‘uz, tojik;

E) sug‘diylar, baqtriylar, xorazmiylar, farg‘onaliklar, shoshliklar, yarim chorvador qang‘lar, ko‘chmanchi sak-massagetlar kabi etnik guruhlar.

9. Qachondan boshlab yurtimizda sug‘diylar va boshqa mahalliy etnoslarning turkiylashuv jarayoni bo‘lib o‘tdi?

A) VII asr; B) VIII asr; D) IX asr; E) X asr.

10. Qabila va millat orasidagi etnik birlik bu – ... .

A) xalq; B) urug‘; **D) elat;** E) qabila ittifoqi.



MINTAQADA ISLOM DINING YOYILISHI

Bu mavzuda o‘quvchilarni baholashda ularning quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga e’tibor qaratish lozim:

- islom dini dastlab Turonning qaysi hududlarida tarqalganligini bilishi;
- islomning jahon diniga aylanishidagi tarixiy shart-sharoitlarni so‘zlab bera olishi;
- islom dinida dastlabki bo‘linish, uning tarixiy sabablari haqida ma’lumot bera olishi;
- islom dinidagi oqimlar, mazhablar va ularning yo‘nalishlari haqida tahliliy ma’lumot bera olishi;
- hanafiylik, molikiylik, shofe’iylik, hanbaliylik mazhablarining o‘ziga xosliklarini tahlil qila olishi;
- tariqat va uning ma’nosi haqida ma’lumot bera olishi.

TEST

1. Movarounnahr so‘zining ma’nosi nima?

A) daryoning narigi tomoni; B) ikki daryo oralig‘i;
D) turklar yerlari; E) dunyoning markazi.

2. Arablar Turonning o‘zlariga bo‘ysunmagan yerlarini qanday atagan?

A) Dor ul-harb; B) Mulki at-turk; **D) Arodi at-Turk;** E) Movarounnahr.

3. Qaysi voqeaga qadar arablar tomonidan Movarounnahrda mahalliy sulolalar boshqaruvi saqlanib qolgan?

A) G‘urak va Divashtich qo‘zg‘oloniga qadar;
B) Muqanna qo‘zg‘oloniga qadar;
D) Abu Muslim qo‘zg‘oloniga qadar;
E) Shayx Sharik al Mahriy qo‘zg‘oloniga qadar.

4. Arablar va musulmonlikni qabul qilgan mahalliy aholi huquqlarining tengligi g‘oyasini ilgari surgan shaxsni ayting.

A) Abu Muslim; **B) Imom Abu Hanifa;** D) Imom G‘azzoliy; E) Hakim Termiziy.

5. Mashhur imom No‘mon ibn Sobit Kufiy qaysi mazhab asoschisi sanaladi?

A) Hanafiylik; B) Hanbaliylik; D) Shofe’iylik; E) Molikiylik.

6. Erkinlik tamoyillari homiysi sifatida nom qozongan shaxsni belgilang.

A) Abu Muslim; **B) Imom Abu Hanifa;** D) Imom G‘azzoliy; E) Hakim Termiziy.

7. Buxorodagi dastlabki madrasalar qachondan boshlab ochila boshlagan?

A) VII–VIII asr; **B) VIII–IX asr;** D) IX–X asr; E) X–XI asr.

8. «Qubbat ul-islom» — islom dinining gumbazi nomi bilan mashhur bo‘lgan shaharni belgilang.

A) Samarqand; **B) Buxoro;** D) Bag‘dod; E) Damashq.

9. Buxorodagi huquqshunoslar uchun qurilgan maxsus madrasa qanday nomlangan?

A) Gavkushon madrasasi; B) Farjak madrasasi;
D) Faqihlar madrasasi; E) Nizomiya madrasasi.

10. 2017-yilda O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan qayerda Kalom ilmi maktabini tashkil etish ishlari boshlandi?

A) Toshkentdagi Islom madaniy markazida; B) Imom Buxoriy majmuasida;
D) Imom Moturidiy majmuasi qoshida; E) Abu Muin Nasafiy ziyoratgohida.

11. 2017-yilda Prezident tashabbusi bilan qayerda Aqoid ilmi maktabini tashkil etish ishlari boshlandi?

A) Toshkentdagi Islom madaniy markazida; B) Imom Buxoriy majmuasida;
D) Imom Moturidiy majmuasi qoshida; **E) Abu Muin Nasafiy ziyoratgohida.**

12. 2000-yilda 1130 yillik yubileyi nishonlangan ajdodimizni belgilang.

A) Zamahshariy; B) Qoshg‘ariy; **D) Moturidiy;** E) Marg‘inoniy.

13. Suriya, Iroq, Turkiya, Pokiston, Hindiston, Shimoliy Afrika kabi mamlakatlarda quyidagi qaysi ta’limot fan sifatida o‘tiladi?

A) Ashariya; **B) Moturidiya;** D) Hanbaliya; E) Kubraviya.

14. Qaysi ta’limot asosan mo‘taziliya, qadariya, jabariya kabi adashgan guruhlarning aqidaviy g‘oyalariga qarshi turgan?

A) Ashariya; B) Moturidiya; D) Hanbaliya; E) Kubraviya.

15. Bugungi kunda Markaziy Osiyo musulmonlarining asosiy qismi qaysi tariqatga ergashadi?

A) Ashariya; B) Molikiylik; D) Hanbaliylik; **E) Hanafiylik.**

16. «Tariqat» so‘zining ma’nosini belgilang.

A) jun; **B) yo‘l;** D) rivojlantirish; E) himoya.

17. Abu Mansur Moturidiy yashab o‘tgan yillarni belgilang.

A) 880–970-yillar B) 870–945-yillar **D) 870–944-yillar** E) 970–1044-yillar

18. Abu Mansur Moturidiy maqbarasi yurtimizning qaysi hududida joylashgan?

A) Samarqand; B) Buxoro; D) Qarshi; E) Namangan.

19. Abul Hasan Ash’ariy yashagan yillarini belgilang.

A) 880–970-yillar; B) 870–945-yillar; D) 870–944-yillar; **E) 873–936-yillar.**

20. Chin mohiyati nafsni poklash, axloqni sayqallash, ma’naviy kamolotga erishishdan iborat bo‘lgan tushunchani belgilang.

A) tariqat; B) mazhab; **D) tasavvuf;** E) ta’limot.

MUHADDISLAR

Hadislarni yig‘uvchilar, sharhlovchi, targ‘ib etuvchilar

Imom al-Buxoriy (810–870)

- Hadisshunos.
- Hadis ilmida «amir al-mo‘minin» degan sharafli nomga sazovor bo‘lgan.
- 600 mingga yaqin hadisni yod bilgan.
- «Al-jome’ as sahih», «Al-adab al-mufrad», «At-ta’rix as-saqiy» kabi 20 dan ortiq asarning muallifi.
- «Al-jome’ as sahih» asariga 7 275 hadis kiritilgan.
- 1974-y. 1200 yilligi, 1998-y. esa allomaning 1225 yilligi keng nishonlangan.

Imom Muslim (819–874)

- Hadisshunos.
- Nishopurda tug‘ilgan.
- Ishonchli manbalar asosida to‘plangan va tartibga keltirilgan 6 hadislar to‘plami mualliflaridan biri.
- Mashhur asari «Al-jome’ as sahih».

Imom Abu Dovud (817–880)

- Hadisshunos.
- Siyistonda tug‘ilgan.
- Ishonchli manbalar asosida to‘plangan va tartibga keltirilgan 6 hadislar to‘plami mualliflaridan biri.
- «Abu Dovud dunyoda hadis uchun, oxiratda esa jannat uchun yaratilgan».
- «Sunan» asarida 4 800 hadisni keltiradi.

Muhammad at-Termiziy (824–892)

- Hadisshunos.
- Ishonchli manbalar asosida to‘plangan va tartibga keltirilgan 6 hadislar to‘plami mualliflaridan biri.
- Eng mashhur asarlari «Al-jome’» va «Payg‘ambarning alohida fazilatlari».
- 1990-yili 1 200 yilligi keng nishonlangan.

Imom Ahmad al-Nasoiy (830–915)

- Hadisshunos.
- Turkmanistonning Niso shahridan.
- Ishonchli manbalar asosida to‘plangan va tartibga keltirilgan 6 hadislar to‘plami mualliflaridan biri.
- «Sunan al-kubro», «Al-Mujtabo» mashhur asarlarining muallifi.

Imom ibn Mojja (834–886)

- Hadisshunos.
- Ishonchli manbalar asosida to‘plangan va tartibga keltirilgan 6 hadislar to‘plami mualliflaridan biri.

TA’LIM

Bu mavzuda o‘quvchilarni baholashda ularning quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga e’tibor qaratish lozim:

- o‘qiganlari asosida mamlakatimizda IV–XII asrlardagi ta’lim haqida ma’lumotlarga ega bo‘lishi;
- imom G‘azzoliy ilmi haqida ma’lumotlar bera olishi;
- Kaykovus «Qobusnoma»sidan berilgan parcha yuzasidan chiqargan xulosasini gapirib berishi.

TEST

1. Sharqda «Hujjat ul-islom» nomi bilan mashhur bo‘lgan olimni aniqlang.

A) Hakim at Termiziy; B) Abu Mansur Moturidiy;
D) Imom G‘azzoliy; E) Burhoniddin Marg‘inoniy.

2. «Ilmning avvali sukut qilish, keyin tinglash, keyin uni yod olish, keyin unga amal qilish, keyin esa tarqatish – boshqalarga o‘rgatish», – deb aytib o‘tgan shaxsni belgilang.

A) Hakim at Termiziy; B) Abu Mansur Moturidiy;
D) Imom G‘azzoliy; E) Burhoniddin Marg‘inoniy.

3. Buxorodagi Farjak madrasasi qachon yonib ketgan edi?

A) 932-yil; **B) 937-yil;** D) 950-yil; E) 897-yil.

4. X asrda Samarqandda nechta madrasa tashkil etilgan?

A) 12; B) 10; **D) 17;** E) 25.

5. Madrasalar dastlab qanday nom bilan atalgan edi?

A) xonaqo; B) maydon; D) darsxona; **E) majlis.**

6. Yurtimizning qaysi hududida Xitoy qog‘oziga yozilgan hujjatlar saqlanib qolgan?

A) Mug‘ qal’asi; B) Som qal’asi; D) Tuproqqal’a; E) Jonbosqal’a.

7. «Qadimgi O‘zbekiston ilk yozma manbalarda» kitobining muallifi kim?

A**) A. Sagdullayev;** B) A. Asqarov; D) E. Rtveladze; E) M. Is’hoqov.

8. Buxorodagi ilk madrasaga kim asos solgan?

A) Ziyod ibn Solih; B) Said Ibn Usmon;
D) Imom Buxoriy; **E) Qutayba ibn Muslim.**

9. X asrlarda madrasa ta'limi necha yoshdan boshlangan?

A) 12 yosh; B) 14 yosh; **D) 12–14 yosh;** E) 16 yosh.

10. O'rta asrlarda boshlang'ich ta'lim necha yosh oralig'ida berilgan?

A) 6–15 yosh; B) 8–13 yosh; D) 6–8 yosh; **E) 6–12 yosh.**

11. Quyidagi qaysi madrasada talabalarga stipendiya ham berilar edi?

A) Farjak; B) Govkushon; **D) Nizomiya;** E) Abbosiya.

12. Buxorodagi ilk masjid qaysi bino o'rnida qurilgan?

A**) Masjidi Kalon;** B) Masjidi Moh; D) Poyi kalon; E) Masjidi Mag'oki attor.

13. Qaysi davrda Balxning o'zidagina 400 madrasa mavjud edi?

A) IX asr boshlarida; B) IX asr oxirida;

D) X asr o'rtalarida; E) XI asrda.

14. IX asr boshlarida Balxda qancha masjid mavjud edi?

A) 400 ta; B) 900 ta; **D) 1 848 ta;** E) 1 858 ta.

15. Anushteginiylar davrida mamlakatda jami qancha madrasa faoliyat yuritgan?

A) 2 450; B) 1 400; **D) 4 440;** E) 4 044.

16. Anushteginiylar davrida Gurganj shahrida qancha madrasa faoliyat yuritgan?

A) 500; B) 600; **D) 700;** E) 1 000.

17. Sharqda birinchilardan bo'lib fanlar tasnifini kim yaratgan edi?

A) Beruniy; **B) Forobiy;** D) Ibn Sıno; E) Ibn Xaldun.

18. Abu Nasr Forobiy fanlarni necha guruhga bo'lib tasnif etgan?

A) 2; B) 3; D) 4; **E) 5.**

19. Ibn Xaldun fanlarni necha guruhga bo'lib tasnif etgan?

A) 2; B) 3; D) 4; E) 5.

20. X–XII asrlarda madrasada ta'lim jarayoni uchun asosiy javobgar shaxs kim edi?

A) Ustod; **B) Mudarris;** D) Xatib; E) Imom.



AQL-ZAKOVAT BILAN BUNYOD ETILGAN BOY MA'NAVIYAT

Bu mavzuda o‘quvchilarni baholashda ularning quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga e’tibor qaratish lozim:

- Turon hududida islom dinining keng yoyilishiga salmoqli hissa qo‘shgan muhaddislar faoliyatini dalillar bilan asoslay olishi;
- imom Buxoriyning hadisshunos olim sifatida islom olamidagi o‘rni haqida ma’lumot bera olishi, uning hadisshunoslik ilmidagi ilmiy merosi haqida ma’lumotga ega bo‘lishi;
- imom Termiziyning hadisshunos olim sifatida islom olamidagi o‘rni haqida ma’lumot bera olishi, uning ilmiy merosining ahamiyatini so‘zlab bera olishi;
- Zamahshariy, Marg‘inoniy, Hakim Termiziy, Narshaxiylarning islom dini ilmini rivojlantirish borasida qo‘shgan hissalari va ilmiy merosi haqida so‘zlab bera olishi;
- «Hidoya» asari va uning mohiyatini bila olishi;
- Al Mufassal asarining bugungi kundagi ahamiyati haqida tushunchaga ega bo‘lishi va so‘zlab bera olishi.

TEST

1. «Qur’oni karim»dan keyingi o‘rinda turadigan ikkinchi muhim manba bu ... .

A) «Kalom»; **B) «Hadis»;** C) «Hidoya»; D) «Tafsir».

2. Imom Buxoriy tomonidan yaratilgan «al-Jome as-sahih» asari necha yil davomida yozib tugallangan?

A) 17 yil; **B) 16 yil;** C) 15 yil; D) 14 yil.

3. Imom Buxoriyning sahih to‘plamiga kiritilgan ishonchli hadislarning soni takrorlanadiganlari bilan birga qanchani tashkil etadi?

A) 7 277 ta; B) 4 000 ta; C) 7 257 ta; **D) 7 275 ta.**

4. Qachon musulmonlar tomonidan ilk kasalxona yaratilgan?

A) 705-yil; B) 706-yil; **C) 707-yil;** D) 909-yil.

5. Bug‘ qishlog‘i hozirgi qaysi tuman hududida joylashgan?

A) Shovot; **B) Sherobod;** C) Muzrabot; D) Shahrixon.

6. Bir xil nomdagi asar («al-Jome as-sahih») yaratgan ajdodlarimiz birgalikda faoliyat olib borgan shaharni belgilang.

A) Buxoro; B) Xazorasp; **C) Nishopur;** D) Marv.

7. «Al-Jome' as-sahih» («Ishonarli to'plam»), «Ash-Shamoil an-nabaviya» («Payg'ambar alayhissalomning shakl va sifatlari»), «Al-Ilal fil-hadis» («Hadislardagi illatlar»), «at-Ta'rix» («Tarix») kabi asarlar muallifi bo'lgan shaxsni belgilang.

A) Imom Buxoriy; **B) Imom Termiziy;** C) Hakim Termiziy; D) Imom G'azzoliy.

8. «Hofizlar haqida tazkira» asari muallifini aniqlang.

A**) Shamsuddin az-Zahabiy;** B) Ibn Moja; C) Is'hoq Rohivayh; D) Imom G'azzoliy.

9. Mahmud Zamahshariy tomonidan umumiy miqdorda qancha asar yaratilgan?

A) 40 dan ortiq; B) 40 taga yaqin; **C) 50 dan ortiq;** D) 50 taga yaqin.

10. Bizga qadar Zamahshariyning qancha asarlari yetib kelgan?

A) 30 ga yaqin; B) 50 dan ortiq; **C) 20 ga yaqin;** D) 40 dan ortiq.

11. Mahmud Zamahshariyning arab tili grammatikasiga oid asarini belgilang.

A) «Al-Kashshof»; **B) «Al-Mufassal»;** C) «At-Tarix»; D) «Al-usul al ashara».

12. Bir yarim yil davomida Makkada yozilgan asarni belgilang.

A) «Al-Kashshof»; **B) «Al-Mufassal»;** C) «At-Tarix»; D) «Al-usul al ashara».

13. Mahmud Zamahshariyning fiqhga oid asarini belgilang.

A) «Al-Kashshof»; B) «Al-Mufassal»; C) «At-Tarix»; **D) «Turli masalalarning muhimi».**

14. Quyidagi qaysi shaxsning shajarasi xalifa Abu Bakr Siddiqqa (632–634) borib taqaladi?

A) Zamahshariy; B) Qoshg'ariy; C) Moturidiy; **D) Marg'inoniy.**

15. 2000-yilda yubileyi nishonlangan ajdodlarimizni belgilang.

A) Zamahshariy, Marg'inoniy; B) Qoshg'ariy, Moturidiy;
C) Moturidiy, Imom Termiziy; **D) Marg'inoniy, Moturidiy.**

16. «Shayx ul-islom» nomiga sazovor bo'lgan shaxsni belgilang.

A) Zamahshariy; B) Qoshg'ariy; C) Moturidiy; **D) Marg'inoniy.**

17. Abu Bakr Narshaxiy o'z asarida qaysi sulola tarixiga ko'proq urg'u bergan?

A) G'aznaviy; **B) Somoniy;** C) Saljuqiy; D) Qoraxoniy.

18. Hakim at-Termiziy umri davomida qancha asarga mualliflik qilgan?

A) 60 ga yaqin; B) 60 dan ortiq; **C) 400 ga yaqin;** D) 300 dan ortiq.

19. Hakim at-Termiziyning qancha asari bizgacha yetib kelgan?

A) 60 ga yaqin; B) 40 dan ortiq; C) 20 ga yaqin; D) 70 dan ortiq;

20. Abu Bakr Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asari kimga bag'ishlangan edi?

A) Nasr ibn Ismoil; **B) Nuh ibn Nasr;** C) Abdumalik ibn Nuh; D) Nuh ibn Mansur.

LOYIHA ISHI

ISLOM DINING TURONLIK BUYUK MUHADDISLARI

Bu mavzuda o‘quvchilarni baholashda ularning quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga e’tibor qaratish lozim:

- Taqdim etilgan Al Buxoriy va Imom Termiziy, Zamahshariy haqidagi filmlar asosida jamoalarga bo‘lingan holda o‘z mulohazalarini taqdim eta olishi;
- Filmlardan olgan taassurotlari haqida esse yoza olishi.



IX–XII ASRLARDA ILM-FAN VA MADANIYATNING YUKSALISHI

Bu mavzuda o‘quvchilarni baholashda ularning quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga e’tibor qaratish lozim:

- IX–XII asrlarda Movarounnahr hududida Uyg‘onish davrining sodir bo‘lishiga sabab bo‘lgan omillar haqida munosabat bildira olishi;
- qarluqlar, o‘g‘uzlar, tohiriylar, safforiylar, somoniylar, qoraxoniylar, g‘aznaviylar, xorazmshohlar davrida madaniyatning o‘ziga xosliklari va umumiy jihatlari haqida tahliliy ma’lumot bera olishi;
- davlat hukmdorlarining ilm-fan rivojlanishi uchun olib borgan siyosati va uning natijalari haqida ma’lumot bera olishi;
- Xorazm Ma’mun Akademiyasining tashkil etilishi va uning bugungi kundagi ahamiyati haqida so‘zlab bera olishi;
- Bog‘dodda tashkil etilgan «Bayt al-Hikma»da buyuk vatandoshlarimizning faoliyati haqida ma’lumotga ega bo‘lishi.

TARIXIY HUJJAT

«BAYT AL-HIKMA»NING TASHKIL TOPISHI

O‘rta asr Sharq xalqlari fani va madaniyati tarixida Bag‘dodda bunyod etilgan «Bayt al-hikma», so‘zsiz, yirik ilmiy voqea sanaladi.

«Bayt al-hikma» o‘zbek tilida «Hikmatlar uyi» degan mazmunni anglatadi. Bu iboradagi «hikmatlar» ortida o‘sha davrdagi qator fanlar, jumladan, falsafa, tabobat, falakiyot, riyoziyot, adabiyot, diniy ilmlar tushuniladi. Binobarin, «Bayt al-hikma» birinchi navbatda, ushbu fanlar bilan birga boshqa fan yo‘nalishlarida ham olib borilgan ilm va tarjimalar dargohi bo‘lgan.

Mohiyatan avvaliga kutubxona sifatida bunyod bo‘lgan «Bayt al-hikma» ko‘p vaqt o‘tmay, u yerda jamlangan kitoblarni arab tiliga tarjima qilish markaziga aylandi. Keyinchalik esa bu markaz tevaragida o‘z davrining eng yirik olim va tarjimonlari to‘planib ijod qila boshlaganlar. Ta’kidlash joizki, ularning o‘zagini Movarounnahr va Xuroson olimlari tashkil etdi. Ayni paytda bu maskanda, bir tomondan, yunon, hind va fors tillaridagi ko‘plab nodir asarlarning jamlangani, ikkichi tomondan, kitoblarning eng noyoblari tanlab olinib, arab tiliga o‘girilgani hamda muomalaga kiritilishi, uchinchi tarafdan esa, muhim asarlarni yaratgan taniqli olimlarning «Bayt al-hikma»da to‘plangani, uni o‘rta asr-

larning eng mashhur ilmiy dargohiga aylanishi va ilmiy adabiyotlarda «Bag‘dod ilmiy maktabi» va «Bag‘dod akademiyasi» degan nomlar bilan tanilishiga asos bo‘ldi.

«Bayt al-hikma» ta’sis etilgan yil haqidagi ma’lumotlar hozirga qadar ma’lum emas. U Bag‘dodning qaysi nuqtasida joylashgani borasida ham aniq bir xulosaga kelish qiyin. Ammo u xalifa saroyining biror-bir qismiga joylashgan bo‘lishi kerak, deb taxmin qilish mumkin. Bundan tashqari, «Bayt al-hikma»ning tashkil topishi ba’zan faqat xalifa al-Ma’mun ismi bilan ham bog‘lab ko‘rsatiladiki, bu haqiqatdan ancha yiroqdir.

Tarixdan ma’lumki, 749-yilda Abu-l-Abbos Saffah (749–754) xalifa Marvon II ni taxtdan ag‘dargach, xalifalikni boshqarish abbosiylar sulolasi qo‘liga o‘tadi. Bag‘dod tez orada sharqda Markaziy Osiyogacha, g‘arbda Ispaniyaga qadar kengayayotgan yirik davlatning poytaxtiga aylanadi. Arablar, odatda, o‘zlari bosib olgan mamlakatlarning boyliklarini o‘z manfaatlari yo‘lida ishlatish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solar edilar. Shu boisdan bu mamlakatlarning ham moddiy, ham ma’naviy boyliklari asta-sekin Bag‘dodga oqib kela boshladi. Ayniqsa, al-Mansur, Horun ar-Rashid, al-Ma’mun kabi abbosiy xalifalar qadimiy qo‘lyozma asarlar va yirik olimlarni o‘z saroylariga jalb etishga alohida e’tibor qaratish bilan bir qatorda, bu borada mislsiz jonbozlik ham ko‘rsatdilar. Natijada Bag‘dod tez orada butun xalifalikda ilmiy faoliyat yuritish uchun katta imkoniyatlarga ega bo‘lgan qulay shaharga aylanadi. Bu esa, o‘z navbatida, olimlarning o‘sha yerda ijod qilishi ishtiyoqini oshirib yuboradi.

Saroyda qo‘lyozma asarlarni saqlash odati umaviylar sulolasi davrida ham mavjud bo‘lsa-da, bu ish abbosiy xalifalardan al-Mansur davrida doimiy jarayonga aylandi, sifat va miqdor jihati ham tubdan o‘zgardi. Al-Mansur nodir qo‘lyozma asarlarni to‘plashdan tashqari, o‘zga yurtlardagi olimlarni ham o‘z saroyiga jalb eta boshladi. Uning saroyida Gundishopur maktabidan taklif etilgan turli diniy e’tiqodda bo‘lgan ko‘pgina olimlar, tabiblar, kimyogarlar, geograflar va muhandislar xizmat qilgan. Ular orasida Bag‘dod shahrining qurilishida ishtirok etgan astrologlar – eronlik an-Navbaxt (vaf. 777-yil) va basralik yahudiy Menassiyalar (vaf. tax. 815-yil) ham bor edi. Musulmonlar orasida «Mashallah» nomi bilan tanilgan Menassiya, al-Mansur, Horun ar-Rashid, al-Amin va al-Ma’munlar davrida eng mashhur astrologlardan biri edi.

Al-Mansur saroyida Gundishopur maktabidan Bag‘dodga taklif etilgan qator tabiblar ham faoliyat ko‘rsatgan. Ular ichida Baxtyashu oilasiga mansub bir qancha xristian tabiblari bo‘lib, ularning eng yirik namoyandasi bo‘lmish Jibril ibn Baxtyashu, xalifa al-Mansur uchun tabobatga oid ko‘pgina asarlarni yunon tilidan arab tiliga tarjima qiladi. Jibril ibn Baxtyashuning o‘zi va bu oilaning o‘ndan ortiq boshqa tabiblari Bag‘dod shahrida uzoq yillar davomida tabiblik faoliyati bilan mashg‘ul bo‘lganlar.

Harronlik yirik kimyogar va tarjimon Jobir ibn Hayyon ham xalifa al-Mansur davrida yashagan. Ibrohim al-Fazariy xalifa al-Mansurning topshirig‘iga binoan, hindlarning astronomiyasiga oid yirik qomusiy asari «Sindhind»ni sanskrit tilidan arab tiliga tarjima qiladi.

Yuqorida zikr etilga asarlardan tashqari, al-Mansur uchun falsafa, tabobat, falakiyot, riyoziyot, tarix, adabiyotga oid boshqa kitoblar ham tarjima qilingan. Xalifa al-Mansur mazkur kitoblar, yozilgan noyob qo‘lyozma asarlarni saqlash uchun o‘z saroyidan maxsus joy ajratgan. Shu tariqa «Bayt al-hikma»ning yaratilishiga asos bo‘lgan saroy kutubxonasi paydo bo‘ldi.

Ammo bu kutubxonaning vazifasi kitobxonlarni zaruriy adabiyotlar bilan ta’minlash emas, balki to‘plangan nodir qo‘lyozma asarlar, turli mamlakatlardan keltirilib, arab tiliga o‘girilgan kitoblarni saqlashdan iborat bo‘lgan. Al-Mansur davrida bu maskan hali «Bayt al-hikma» deb nomlanmagan edi.

Ma’lumki, al-Mansurning o‘g‘li Muhammad al-Mahdiy ibn Mansur (775–785) va nabirasi al-Hodiy ibn al-Mahdiylar (785–786) hukmronlik qilgan yillarda ilmiy izlanishlar va tarjima faoliyatida katta siljishlar yuz berdi, deb bo‘lmaydi. Shu sababdan ham ular davrida «Bayt al-hikma» bilan bog‘liq bo‘lgan sezilarli o‘zgarishlar ro‘y bermagan, deb o‘ylaymiz.

Abbosiy xalifalar ichida eng dong taratganni Horun ar-Rashid (786–809) taxtga o‘tirganidan so‘ng, ijtimoiy va madaniy hayotning barcha jabhalarida katta o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Bu, albatta, «Bayt al-hikma»ga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadi.

O‘rta asr manbalaridagi ba’zi ma’lumotlar «Bayt al-hikma» Horun ar-Rashid davrida ta’sis etilgan, degan xulosaga kelishga asos bo‘ladi. Jumladan, Ibn an-Nadim o‘zining «al-Fixrist» kitobida bazir Sahl ibn Horun, astrolog Abu Sahlal-Fadl ibn Navbaxt va nusxa ko‘chiruvchi A’lon ash-Shu’uvbiylar haqida so‘z yuritar ekan, ularni Horun al-Rashidning «Bayt al-hikma»sida faoliyat ko‘rsatgan, deb ma’lumot beradi. Bundan «Bayt al-hikma» Horun al-Rashid davrida mavjud edi, degan mantiqiy xulosa paydo bo‘ladi. Ehtimol, Horud ar-Rashid o‘z saroyida, jamlagan, katta miqdordagi kitoblar, tarjimalar va ulamolar uchun alohida joy ajratib, unga «Bayt al-hikma» nomini bergan bo‘lishi mumkin. Shuni ham aytish kerakki, «al-Fixrist» muallifi bu markazni ba’zan «Bayt al-hikma», ba’zan esa «Xizanat al-hikma» iborasi bilan ataydi.

Ayni paytda o‘rta asrlarning yana bir mashhur mualliflaridan Yoqut al-Hamaviy ham Ibn an-Nadimning fikrini tasdiqlaydi.

Umuman, Horun ar-Rashid davrida «Bayt al-hikma» turli adabiyotlar saqlanadigan maskandan tarjima va tadqiqotlar olib boriladigan markazga aylandi. U yerga kelgan taniqli ulamolar, tadqiqotchilar nafaqat turli mavzulardagi kitoblar bilan tanishish, balki ularni mutolaa qilish imkoniyatiga ham ega edilar. Bu davrda tarjima ishlariga bo‘lgan ahamiyat bag‘oyat ortib, «Bayt al-hikma»dagi asarlar soni yanada ko‘paydi.

Ibn al-Qiftiyning bu markaz haqidagi fikrlari ham nihoyatda diqqatga sazovor. U shunday deb yozadi: «Haqiqatan, «Bayt al-hikma» turli ilmiy yo‘nalishlar markazi bo‘lib, Horun ar-Rashid bu institut haqidagi fikrining ibtidosi edi. Uning o‘g‘li halifa al-Ma’mun bu ishni amalga oshirdi. «Hikmat» so‘zi musulmon olimlarining fikriga ko‘ra, ilohiy ilmlar, hisob, tabobat va falakiyotni qamrab olgan». Fikrimizcha, Ibn al-Qiftiy sanab o‘tgan ilmlar qatorida falsafa ham kiritilsa, Bag‘dod ilmiy maktabidan o‘rin olgan asosiy fanlar majmuasi to‘liq ifodalanadi.

Horun ar-Rashidning kichik o‘g‘li al-Amin (809–813) davrida «Bayt al-hikma»ning faoliyati birmuncha susaygan bo‘lsa, uning katta o‘g‘li al-Ma’mun davrida o‘z taraqqiyotining eng yuqori cho‘qqisiga ko‘tarildi. Biz al-Ma’munni — katta, al-Aminni esa kichik o‘g‘il deb shartli ataymiz, aslida ularning har ikkisi ham bir vaqtda, ya’ni 786-yilda ikki onadan dunyoga kelgan. Al-Ma’mun al-Amindan olti oyga katta bo‘lishiga qaramay, xalifalik kursisida avval al-Amin o‘tirgan. «Bayt al-hikma»ning taqdirida al-Ma’munning o‘rni bag‘oyat yuksak bo‘lgani tufayli, biz uning ilmiy va siyosiy faoliyati, shuning barobarida, har ikki aka-uka munosabatlari xususida alohida to‘xtalib o‘tamiz.

Al-Ma’mun «Bayt al-hikma»ga alohida e’tibor bilan qaradi. Natijada uning davrida (813–833) «Bayt al-hikma»dagi ilmiy muhit misli ko‘rilmagan darajada rivojlanib, u yerda yunon, fors va hind tillaridagi muhim kitoblarni arab tiliga o‘girish, sharhlash bilan bir qatorda, mustaqil ilmiy faoliyat ham olib borilib, yangi asarlar yozildi. Al-Ma’mun diniy ilmlar, falsafa, aniq fanlar bilan qiziqqan va o‘zi ham ular bilan muntazam shug‘ullangan. Shuningdek, u tarjimonlar va olimlarga har bir yozgan yohud tarjima qilgan kitoblari uchun katta mukofotlar tayinlagan. Al-Ma’munning bevosita homiyligi ostida Yunoniston, Hindiston, Rum, Eron va Marvdan «Bayt al-hikma»ga katta miqdorda turli mavzudagi kitoblar kelib tushgan. Ularning ba’zilari esa harbiy yurishlardagi o‘lja sifatida Bag‘dodga olib kelingan.

Al-Ma’munning qo‘llab-quvvatlashi bilan eng sara asarlar tanlab olinib, arab tiliga o‘girildi. Umuman, bu davrda tarjimonlik ishlari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilib, yaxshi tashkil etilgan doimiy faoliyatga aylanadi. Tarjimonlar alohida-alohida guruhlarga bo‘linib ishlaganlar; har bir guruhni albatta malakali, mohir tarjimon boshqargan va so‘nggi tahrir uchun ushbu shaxs mas’ul bo‘lgan. Tarjimalar, odatda, yunon tilidan suryoniy tiliga, so‘ngra arab tiliga, ba’zan esa yunon tilidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri arab tiliga o‘girilgan. Aksar hollarda, tarjimalar kitob matnlarining asli bilan taqqoslab amalga oshirilgan. Har bir tarjimonlar guruhi tarkibida matn ko‘chiruvchi va kitoblarni muqovalovchi mutaxassislar bo‘lgan. Binobarin, al-Ma’mun davriga kelib, «Bayt al-hikma» tarkibida yirik kutubxona, tarjima va asarlar yozish, ko‘chiruvchilar hamda muqovalash uchun ajratilgan maxsus xonalar mavjud edi. Bag‘dodning ash-Shammosiya mintaqasi hamda Damashq atrofidagi Qasiyon tog‘larida mav-

jud bo‘lgan rasadxonalar ham «Bayt al-hikma» tarkibiga kirgan. Manbalarda al-Ma’mun tasarrufidagi bu ikki mashhur rasadxonaning «Bayt al-hikma» tarkibida bo‘lganini anglatuvchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’lumotlar uchramaydi. Zero, tarixdan ma’lumki, al-Ma’mun o‘z saroyiga to‘plagan aksariyat astronomlar, jumladan, Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Ahmad al-Marvaziy, Yahyo ibn Abu Mansur, Xolid al-Marvarrudiy, al-Abbos al-Javhariy va boshqalar mazkur rasadxonalarda kuzatuv ishlarini olib borganlar. Modomiki, shunday ekan, fikrimizcha, bu ikki rasadxonani ham «Bayt al-hikma» tarkibiga kiritish mumkin.

Yuqorida bayon etilgan ma’lumotlar asosida «Bayt al-hikma»ning ta’sis etilishi haqida quyidagicha xulosaga kelish mumkin. Bag‘dod xalifalari saroyining ma’lum qismini egallagan «Bayt al-hikma»ning asosi – xalifa al-Mansur davrida yaratildi, Horun ar-Rashidning homiyligi ostida u ancha kengaytirildi va rivojlantirildi, o‘zining tarixiy «Bayt al-hikma» nomi bilan yuritila boshladi. Al-Ma’mun esa u yerda mashhur allomalarni to‘plab, ularga har taraflama ko‘mak berdi, uning eng yuqori taraqqiyot darajasiga ko‘tarilishini va o‘sha davr uchun o‘ziga xos ilmiy maktabga aylanishini ta’minladi.

Bahrom Abduhalimovning
«Bayt al-hikma va Markaziy Osiyo olimlarining Bag‘doddagi ilmiy faoliyati (IX–XI asrlarda aniq va tabiiy fanlar)» kitobidan.

TEST

1. Qaysi asrlarga kelib me’morchilikning asosiy yutuqlari, ayniqsa, masjid va madrasalar qurilishida namoyon bo‘ladi?

A) X–XI; B) VII–IX; **D) IX–X;** E) XI–XII.

2. Qachondan boshlab qurilishda pishgan g‘ishtdan foydalanishga o‘tildi?

A) VIII asr; **B) IX asr;** D) X asr; E) XI asr.

3. Moddalarning solishtirma og‘irligi miqdorini aniqlash ilk marta kim tomonidan yaratilgan edi?

A) Abu Rayhon Beruniy; B) Abu Ali Ibn Sino;
D) Abu Nasr Forobiy; **E) Muso Xorazmiy.**

4. Har bir shahar va viloyatda o‘ziga xos me’moriy uslublar rivojlandi. Bu nimadan dalolat berar edi?

A) me’morchilik rivojidan;
B) qurilishda pishgan g‘ishtdan foydalanish yutuqlaridan;
D) algebra va geometriya fanlarining rivojlanganligidan;
E) qurilish uslublari xilma-xilligidan.

5. Qaysi asrda kelib pishgan g‘ishtdan foydalanish mahorati yuksak darajaga yetadi?

A) XI–XIII; B) VIII–IX; D) IX–X; E) X–XI.

6. Qaysi sulolaga mansub oliy hukmdorlar, shahzoda yo malikalar biror-bir shaharda bir yoki bir nechta madrasa qurishni o‘z vazifalari deb bilganlar?

A) somoniylar; **B) saljuqiylar;** D) g‘aznaviylar; E) qoraxoniylar.

7. Bag‘doddagi saljuqiylar sulolasining vaziri Nizomulmulk tomonidan qaysi madrasa qurdirilgan?

A) Gavkushon madrasasi; B) Farjak madrasasi;

D) Faqihlar madrasasi; **E) Nizomiya madrasasi.**

8. Xalifa Ma’mun qachon xalifalik taxtiga o‘tirgan?

A) 833-yil; **B) 813-yil;** D) 823-yil; E) 820-yil.

9. Xalifa Ma’mun Bag‘dodga olib ketgan olimlar qatorida bo‘lgan ajdodimizni belgilang.

A) Beruniy; B) Ibn Sino; D) Forobiy; **E) Xorazmiy.**

10. Nizomulmulk tomonidan qayerda qurilgan madrasaga shifoxona ham birikti-rilgan edi?

A) Buxoro; B) Hazorasp; **D) Nishopur;** E) Marv.

11. Bag‘doddagi Nizomiya madrasasi qancha talaba o‘qishi uchun mo‘ljallangan?

A) 4 000; B) 5 000; **D) 6 000;** E) 7 000.

12. Xalifa Ma’munning Bag‘doddagi saroyida qayerdan kelgan olimlar faoliyat olib borishgan?

A) Xuroson, Movarounnahr, Xorazm; B) Xuroson Movarounnahr, Hindiston;

D) Xuroson, Movarounnahr va Misr; E) Xuroson, Movarounnahr va Iroq.

13. Xorazmshoh Ma’mun saroyida xizmat qilgan vazirni belgilang.

A) Suhayl Zahabiy; B) Abu Muhammad Darun;

D) Abu Husayn Suhayliy; E) Abu Husayn Tusiy.

14. Xorazmdagi Ma’mun akademiyasiga asos solgan hukmdorni belgilang.

A) Ma’mun ibn Muhammad; B) Ma’mun ibn Horun;

D) Abu Hasan Ali ibn Ma’mun; E) Ma’mun ibn Oltintosh.

15. Xorazmdagi Ma’mun akademiyasiga qachon asos solingan?

A) 1003-yil; B) 1006-yil; **D) 1004-yil;** E) 1009-yil.

16. Xorazmdagi Ma’mun akademiyasiga boshchilik qilgan shaxsni belgilang.

A) Beruniy; B) Ibn Sino; D) Forobiy; E) Xorazmiy.

17. Qachon yurtimizda Ma’mun akademiyasining 1000 yillik yubileyi nishonlangan?

A) 2004-yil; B) 2005-yil; **D) 2006-yil;** E) 2007-yil.

18. Xorazmdagi Ma’mun akademiyasida Abu Rayhon Beruniy bilan birga faoliyat yuritgan ajdodimizni belgilang.

A) Ahmad Farg‘oniy; **B) Abu Ali ibn Sino;**

D) Abu Nasr Forobiy; E) Muso Xorazmiy.

19. «Ilmdan o‘zga najot yo‘q va bo‘lmagay» so‘zlari kimga tegishli edi?


A) Imom Buxoriy; B) Imom Termiziy;

D) Hakim Termiziy; E) Imom G‘azzoliy.

20. Xorazmdagi Ma’mun akademiyasining aksariyat olimlari o‘zlarini fan sohasida kimning davomchilari sifatida ko‘rgan?

A) Ahmad Farg‘oniy; B) Ibn Sino;

D) Abu Nasr Forobiy; **E) Muso Xorazmiy.**



O‘RTA OSIYODA MADANIY HAYOT

QOMUSIY OLIMLAR

- **Muso al-Xorazmiy** (783–850)
- **Ahmad al-Farg‘oniy** (797–865)
- **Abu Nasr Forobiy** (873–950)
- **Abu Ali Ibn Sino** (980–1037)
- **Abu Rayhon Beruniy** (973–1048)
- **Abu Abdulloh al-Xorazmiy** (vafoti 997)
- **Ismoil Jurjoniy** (1042–1136)
- **Mahmud Chag‘miniy** (XII–XIII asr)
- **Mahmud az-Zamahshariy** (1075–1144)

ADIBLAR

- **Abu Bakr al-Xorazmiy** (935–993)
- **Abu Abdulloh Rudakiy** (860–941)
- **Abu Mansur as-Saolibiy** (961–1038)
- **Nosir Husrav** (1004–1088)
- **Yusuf Xos Xojib** (XI asr)
- **Mahmud Qoshg‘ariy** (XI asr)
- **Daqiqiy** (vafoti 977)
- **Firdavsiy** (934–1020)
- **Ahmad Yugnakiy** (XII asr)
- **Sobir Termiziy** (1089–1147)
- **Rashiduddin al-Votvot** (1114–1184)

TARIXCHILAR

- **Abu Bakr Narshaxiy** (899–959)
- **Abulfazl Bayhaqiy** (995–1077)
- **Abu Nasr Utbiy** (961–1040)
- **Gardiziy** (X–XI asr)
- **Majiduddin Adno** (X asr)
- **Istaxriy** (IX–X asr)
- **Ibn Havqal** (X asr)
- **Nizomulmulk** (XI asr)

MUHADDISLAR

- **Imom al-Buxoriy** (810–870)
- **Imom Muslim** (819–874)
- **Imom Abu Dovud** (817–880)
- **Iso at-Termiziy** (824–892)
- **Imom Ahmad al-Nasoiy** (830–915)
- **Imom ibn Mojja** (834–886)

FAQIHLAR

- **Qaffol ash-Shoshiy** (903–976)
- **Abu Mansur al-Moturidiy** (870–944)
- **Burhonuddin al-Marg‘inoniy** (1123–1197)

TASAVVUF

- **Yusuf Hamadoniy** (1048–1140)
- **Ahmad Yassaviy** (1041–1167)
- **Abduholiq G‘ijduvoniy** (1103–1179)
- **Najmiddin Kubro** (1145–1221)
- **Sulaymon Baqirg‘oniy** (vafoti 1186)



O‘RTA OSIYODA MADANIY HAYOT

Har tomonlama bilim sohiblari

Ahmad al-Farg‘oniy (797–865)

- Farg‘oniy (Alfraganus).
- Astronomiya, matematika, geografiya fanlarining rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan.
- Sharq qomuschilari maktabining asoschisi.
- «Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum».
- «Astronomiya asoslari haqidagi kitob».
- «Usturlob yasash haqida kitob».
- «Oyning Yer ostida va ustida bo‘lish vaqtlarini aniqlash haqida risola».
- Qohira yaqinidagi Ravzo orolida nilometrni — suv sathini belgilovchi uskunani yaratgan.
- G‘arb olimlari uni birinchi arab astronomi deb hisoblaydilar.
- «Samoviy harakatlar va yulduzlar fanining majmuasi haqida kitob» asari astronomiyaga bag‘ishlangan arab tilidagi birinchi kitob bo‘lib, Yevropada tarqalgan asarlarning eng mashhuridir.
- «Zij» astronomiyaga oid asar hisoblanib, lotin tiliga 1126-yilda Ispaniyada Adelard Bat tarjima qilgan.
- Butun faoliyati «Bayt ul-hikma» bilan bog‘langan.
- «Bayt ul-hikma» qoshidagi Bag‘dod va Damashq rasadxonalarining ilmiy rahbari bo‘lgan.
- Osmon va Yerning to‘liq xaritasini tuzayotgan guruhga rahbarlik qilgan.
- 1998-yilda 1 200 yilligi nishonlangan.

Muhammad al-Xorazmiy (783–850)

- Algoritmus, Alxokrismus.
- Matematika, geografiya, astronomiya, tarix fanlarining rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan.
- Musulmon Sharqida «hisob» – matematik laqabini olgan.
- «Al-jabr val-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob» – algebraik asar, «Hind hisobi haqida kitob» yoki «Qo‘shish va ayirish haqida kitob» – arifmetik asar, «Kitob surat ul-arz» – geografiyaga oid asar.
- «Zij» – astronomik va geografik asar.
- Trigonometrik masalalar: tangens, kotangens tushunchalarini kiritgan.
- «Hind hisobi haqida» asari orqali arab dunyosi va Yevropani hindlarning hisoblash tartibi bilan tanishtirdi. Asar 1145-yilda Sevilyada (Ispaniya) Robert Chester tomonidan lotin tiliga tarjima qilingan.
- 1983-yilda 1 200 yilligi keng nishonlandi.

Abu Nasr Forobiy (873–950)

- Qomusiy olim, mashhur faylasuf.
- Falsafa, tilshunoslik, mantiq, riyoziyot, musiqa nazariyasining rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan.
- Sharq falsafasining otasi.
- «Al-muallim as-soniy» (Ikkinchi muallim).
- 70 dan ortiq tilning bilimdoni.
- Fanning turli sohalariga oid 160 dan ortiq turli asarlar yozgan.
- Falsafa sohasidagi qilgan ishlari unga shuhrat keltirdi.
- Arastu, Suqrot, Yevklid asarlarini chuqur tahlil qilgan va ularga sharhlar yozgan.
- Bastakor, musiqa asboblarini tayyorlovchi mohir usta, ixtirochi bo‘lgan.
- «Baxt-saodatga erishuv yo‘llari» («Risola fi-t tanbeh ola asbob as-saodat»), «Shaharni boshqarish» («As-siyosat an-madaniya»), «Urush va tinch turmush haqida kitob» («Kitob fitoyii val xurub»), «Fazilatli xulqlar» («Asashrat al-Fazila») asarlari mashhur bo‘lgan.
- XII–XIII asrlarda asarlari lotin, qadimiy yahudiy, fors tillariga tarjima qilingan.
- «Sharq Arastusi».

Abu Rayhon Beruniy (973–1048)

- Astronomiya, fizika, geologiya, matematika, geodeziya, mineralogiya, tarix fanlarining rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shgan.
- 154 ta ilmiy asar yozgan.
- Fan olamida katta shuhrat keltirgan asarlari: «Hindiston», «O‘tmish avlodlaridan qolgan yodgorliklar».
- Falakiyotga oid asarlarida Kopernikdan qariyb V asr muqaddam Yerning Quyosh atrofida aylanishi haqidagi fikrni o‘rta asrlarda birinchi bo‘lib ilgari surgan, Yerning dumaloq shaklda ekanligini asoslab bergan.
- Dunyoning geografik xaritasini tuzgan.

Mahmud az-Zamahshariy (1075–1144)

- Buyuk mutafakkir, Jorulloh.
- «Arablar va g‘ayri arablar ustozi», «Xorazm fahri».
- Arab grammatikasi, lug‘atshunoslik, adabiyot, aruz ilmi, geografiya, tafsir, hadis, fiqhga oid 50 dan ortiq asarlar yaratgan.
- «Al-mufassal» arab grammatikasiga, «Al-Kashshof» Qur’on tafsiriga bag‘ishlangan mashhur asarlaridandir.

Abu Ali Ibn Sino (980–1037)

- Avitsenna.
- «Shayx ul-rais».
- Tibbiyot, falsafa, botanika fanlari rivojiga katta hissa qo‘shgan.
- Adabiyot va she’riyatda mohir ijodkor bo‘lgan.
- Asarlarining umumiy soni 450 dan oshadi. Lekin bizgacha 160 ga yaqin asari yetib kelgan.
- «Kitob al qonun fit-tib» asari tibbiyotga bag‘ishlangandir. Bu asar XII asrda lotin tiliga tarjima qilingan.
- «Kitob ush-shifo», «Donishnoma» asarlarida falsafa, mantiq, matematika, astronomiya haqida so‘z yuritilgan.
- «Tayr qissasi», «Salomon va Ibsol», «Hayy ibn Yaqzon» nomli qissalar yaratgan.
- Sharq, fors poeziyasida ruboiy janrining asoschilaridan biri, arabcha qit’alar yozgan. Tabobat masalalarini ommabop holda nazm bilan izohlovchi «Urjuza» nomli tibbiy asar yaratgan.

Ismoil Jurjoniy (1042–1136)

- Mashhur tabib.
- «Al-Xuffayl al-a’loiy», «At-Tibb al-mulukiy», «Zahirayye Xorazmshohiy», «Kitob al-ahrod», «Kitob yodgor», «Faylasuflarga qarshi raddiya kitobi».

Abu Abdulloh Al-Xorazmiy (vafoti 997)

- Tilshunos va fan tarixchisi.
- «Mafotih al-unum» (ilmlar kalitlari) nomi bilan tanilgan.
- «Ilmlar kaliti» asari bilimlarning barcha sohalarini o‘z ichiga oluvchi izohli terminologik lug‘at.

Mahmud Chag‘miniy (XII–XIII asr)

- Ahmad Farg‘oniy va Abu Rayhon Beruniyning ilmiy an’analarini davom ettirgan yirik faylasuflardan biri.
- Astronomiya, riyoziyot, tabobat, geografiya fanlari bilan shug‘ullangan.
- Qadimgi yunon astronomiya maktabi yutuqlari bilan birgalikda Sharq olimlarining ilmiy ishlarini keng jalb etish orqali yangi xulosalar chiqargan.
- Doiraviy trigonometriya asoslarini va 1-marta koordinatalar tizimini mufassal ishlab chiqqan va uning asosiy qoidalari «Mulaxxas fi-l-xay’a» asarida o‘z ifodasini topgan.
- Astronomiyaga oid qisqa to‘plam asarining muallifidir.

MUHAMMAD IBN MUSO AL-XORAZMIY

Bu mavzuda o‘quvchilarni baholashda ularning quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga e’tibor qaratish lozim:

- al-Xorazmiyning ilm-fan rivojiga qo‘shgan hissasi haqida ma’lumot bera olishi;
- «Algebra» atamasining shakllanishi al-Xorazmiy nomi bilan bog‘liqligini sharhlab bera olishi;
- uning ilmiy merosining bugungi kundagi ahamiyatini izohlab bera olishi;
- «Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiyning fan taraqqiyotidagi o‘rni» mavzusida qo‘shimcha ma’lumotlar asosida taqdimot tayyorlay olishi;
- mavzu yuzasidan berilgan savollarga javob bera olishi va topshiriqlarni bajara olishi;
- QR kodda taqdim etilgan film asosida Xorazmiy haqida mustaqil ish tayyorlash olishi va tushuntirib bera olishi.

TEST

1. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy qaysi yillarda yashab o‘tgan?

A) 783–850-yillar; B) 724–794-yillar; D) 797–865-yillar; E) 820–932-yillar.

2. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy o‘zining qaysi asarida o‘nlik sanoq sistemasini yozib qoldirgan?

A) «Al-jabr val muqobala»; B) «Hind hisobi haqida kitob»;
D) «Qo‘shish va ayirish haqida kitob»; E) «Kitob surat ul-arz».

3. «Xorazmliklar aql-idrok, ilm, fiqh, qobiliyat hamda bilim kishilaridir», – degan so‘zlar kimga tegishli edi?

A) Ishtaxriy; **B) Muqaddasiy;** D) Zahabiy; E) Tabariy.

4. Al-Xorazmiy bugungi kunda qaysi fanning asoschisi sanaladi?

A) Geometriya; B) Astronomiya; D) Kibernetika; **E) Algebra.**

5. «Zij» asari muallifi bo‘lgan shaxs Bag‘dodda kimning saroyida xizmat qilgan?

A) Xalifa Ma’mun; B) Xalifa Horun ar Rashid;
D) Abu Ali Husayn ibn Ma’mun; E) Nuh Ibn Mansur.

6. Qaysi yilda oydagi kraterlardan biriga Xorazmiy nomi berildi?

A) 1967-yilda; B) 1973-yilda; D) 1956-yilda; **E) 1976-yilda.**

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

7. «Xorazmiy o‘z davrining eng buyuk matematigi va agar barcha shart-sharoitlar nazarga olinsa, hamma davrlarning ham eng buyuklaridan biri», – degan fikr kimga tegishli?

A) Ignatiy Krachkovskiy; **B) Jorj Sarton;** D) Sergey Tolstov; E) Rozen.

8. Al-Xorazmiy qaysi hukmdor uchun yer xaritasini yaratishda qatnashdi?

A) Xalifa Ma’mun; B) Xalifa Horun ar-Rashid;

D) Abu Ali Husayn ibn Ma’mun; E) Nuh ibn Mansur.

9. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy 0 sonini son sifatida e’tirof etgan va hind sanoq tizimidan foydalanib...

A) algebra faniga asos soldi; B) birinchi va ikkinchi darajali sonlarga ajratdi;

D) arab sanoq tizimiga asos solgan; E) matematika asoslarini yaratgan.



AHMAD FARG‘ONIY

Bu mavzuda o‘quvchilarni baholashda ularning quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga e’tibor qaratish lozim:

- Ahmad Farg‘oniyning ilm-fan rivojiga qo‘shgan hissasi haqida ma’lumot bera olishi;
- uning ilmiy merosining bugungi kundagi ahamiyatini izohlab bera olishi;
- mavzu yuzasidan berilgan savollarga javob bera olishi va topshiriqlarni bajara olishi;
- *loyiha ishi:* Ahmad Farg‘oniy ilmiy merosining ahamiyati;
- QR kodda taqdim etilgan film asosida Farg‘oniy haqida mustaqil ish tayyorlay olishi va tushuntirib berishi.

TEST

1. Mashhur olim Ahmad al-Farg‘oniy qaysi yillarda yashab o‘tgan?

A) 783–850-yillar; B) 724–794-yillar; **D) 797–865-yillar;** E) 820–932-yillar.

2. Ahmad al-Farg‘oniy Farg‘onaning qaysi qadimiy shahrida tug‘ilgan?

A) Axsikat; B) Xushkat; **D) Quva;** E) Koson.

3. Ahmad al-Farg‘oniy qayerlardagi rasadxonalarda faoliyat olib borgan?

A) Damashq va Bag‘dod; B) Damashq va Kufa;

D) Bag‘dod va Qohira; E) Damashq va Qohira.

4. Ahmad al-Farg‘oniy o‘zining astronomiyaga oid ilmiy ishlarida qaysi yunon olimi asarlaridan foydalangan edi?

A) Platon; B) Arximed; **D) Ptolemey;** E) Eratosfen.

5. Ahmad al-Farg‘oniyning qaysi asari o‘rta asr musulmon Sharqi mamlakatlaridagi, so‘ng Ispaniya orqali Yevropa mamlakatlaridagi astronomiya ilmining rivojini boshlab bergan?

A) «Oyning Yer ostida va ustida bo‘lish vaqtlarini aniqlash haqida risola»;

B) «Yetti iqlimni hisoblash haqida»;

D) «Usturlob yasash haqida kitob»;

E) «Astronomiya asoslari haqidagi kitob».

6. Farg‘oniyning mashhur Miqyos an-Nili, ya’ni Nilometri qaysi yili qurilgan edi?

A) 832–833-yillar; **B) 861-yil;** D) 865-yil; E) 816-yili.

7. Qachon Ahmad al-Farg‘oniyga Qohira shahrida haykal o‘rnatildi?

A) 1998-yil; B) 2000-yil; D) 2008-yil; **E) 2007-yil.**

8. «Selenografiya» asari muallifini aniqlang.

A) Yan Kominskiy; B) Abu Rayhon Beruniy;

D) Yan Geveliy; E) Ahmad al-Farg‘oniy.

9. Qaysi Yevropa uyg‘onish davri olimi Avstriya va Italiya universitetlaridagi ma’-ruzalarida Farg‘oniy asarlaridan foydalangan?

A**) Regiomontan;** B) Shiller; D) Yan Geveliy; E) Dante.

10. Oydagi kraterlardan biriga Ahmad Farg‘oniy nomini ilk bor kim bergan edi?

A) Regiomontan; B) Shiller; **D) Yan Geveliy**; E) Dante.



ABU NASR FOROBIY

Bu mavzuda o‘quvchilarni baholashda ularning quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga e’tibor qaratish lozim:

- Forobiyning ilm-fan rivojiga qo‘shgan hissasi haqida ma’lumot bera olishi;
- uning ilmiy merosining bugungi kundagi ahamiyatini izohlab bera olishi;
- mavzu yuzasidan berilgan savollarga javob bera olishi va topshiriqlarni bajara olishi;
- QR kodda taqdim etilgan film asosida Forobiy haqida mustaqil ish tayyorlay olishi va tushuntirib bera olishi;
- *loyiha ishi:* Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri» asarida fozil shahar kishilari egallashi kerak bo‘lgan fazilat va xislatlar bilan tanishib, taqdimot tayyor olishi.

TEST

1. Abu Nasr Forobiy yashab o‘tgan yillarni belgilang.

A) 783–850-yillar; **B) 873–950-yillar;** D) 797–865-yillar; E) 820–932-yillar.

2. Forobiy Sharq ilm-fani rivojiga qo‘shgan hissasi uchun qanday nom bilan ulug‘lanadi?

A) Shayx ur-Rais; B) Hakim; D) Shayx ul-islom; **E) Muallim us-Soniy.**

3. Abu Nasr Forobiy qaysi shaharda tug‘ilgan edi?

A) Jand; **B) O‘tror;** D) O‘zgand; E) Fanokat.

4. Forobiyning turli fan sohalariga oid qancha asarlari mavjud?

A) 160 dan ortiq; B) 150 ga yaqin; D) 50 dan ortiq; E) 70 ga yaqin.

5. Ma’lumotlarga ko‘ra, Abu Nasr Forobiy qancha tilni bilgan?

A) 60 dan ortiq; B) 160 ga yaqin; **D) 70 dan ortiq;** E) 50 ga yaqin.

6. Nima uchun Forobiy Sharqda ikkinchi muallim deb e’tirof etiladi?

A) Yunon olimlari asarlariga sharhlar bitgani uchun;

B) Faqat Aristotel asarlariga sharhlar bitgani uchun;

D) Ko‘plab tillarni bilganligi uchun;

E) O‘z zamonasining barcha ilmlarini mukammal egallagani hamda bu ilmlar rivojiga katta hissa qo‘shgani uchun.

7. Abu Nasr Forobiyning jamiyatning kelib chiqishi, maqsad va vazifalari izchil yoritilgan asarini belgilang.

A) «Fozil odamlar shahri»; B) «Shaharni boshqarish»;
D) «Fazilatli xulqlar»; E) «Urush va tinch turmush haqida kitob».

8. Abu Nasr Forobiy tomonidan chizmasi keltirilgan musiqiy asbobni belgilang.

A) Chang; B) Chiltor; **D) Shohrud;** E) Qonun.

9. Forobiy nimani inson tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillardan biri deb bilgan?

A) Jismoniy tarbiya; B) Tarix; **D) Musiqa;** E) Adabiyot.

10. Forobiy tomonidan Arastuning qaysi asariga sharh bitilgan?

A) Metafizika; B) Ritorika; D) Etika; E) Sofistika.



ABU RAYHON BERUNIY

Bu mavzuda o‘quvchilarni baholashda ularning quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga e’tibor qaratish lozim:

- Abu Rayhon Beruniyning ilm-fan rivojiga qo‘shgan hissasi haqida ma’lumot bera olishi;
- uning ilmiy merosining bugungi kundagi ahamiyatini izohlab bera olishi;
- mavzu yuzasidan berilgan savollarga javob bera olishi va topshiriqlarni bajara olishi;
- XI asrni «Beruniy asri» deb nomlanishining asoslarini tushuntirib bera olishi;
- *loyiha ishi:*
  QR kodda taqdim etilgan film asosida Beruniy haqida mustaqil ish tayyorlay olishi va tushuntirib berishi.

TEST

1. Abu Rayhon Beruniy qachon va qayerda tavallud topgan?

A) 950-yil, Kot shahrida; **B) 973-yil, Kot shahrida;**
D) 973-yil, Gurganjda; E) 980-yil, Kot shahrida.

2. Olim Beruniy nomini nima uchun olgan edi?

A) olam hikmatlari sirlarini anglab yetgani uchun;
B) yunon olimlari asarlariga sharhlar bitgani uchun;
D) shahar tashqarisida tug‘ilganligi sababli;
E) shahar ichida tug‘ilganligi sababli.

3. «Beruniyning qiziqqan ilm sohalaridan ko‘ra, qiziqmagan sohalarini sanab o‘tish osondir», – deya bobomizning ilmiy salohiyatini baholagan olimni aniqlang.

A) Ignatiy Krachkovskiy; B) Jorj Sarton;
D) Sergey Tolstov; E) Rozen.

4. XI asrni «Beruniy asri» deya ta’riflagan olim kim?

A) Ignatiy Krachkovskiy; **B) Jorj Sarton;**
D) Sergey Tolstov; E) Rozen.

5. Beruniy tomonidan yaratilgan jadvalda qancha yulduz koordinatasi keltirilgan?

A) 1018; B) 1129; **D) 1029;** E) 1118.

6. Abu Rayhon Beruniyning ilk ustozini belgilang.

A) Abu Nasr Forobiy; D) Abu Sahl Masihiy;

B) Abu Bakr Roziy; **E) Abu Nasr Iroq.**

7. Beruniyni ko‘p qirrali olim sifatida namoyon etgan asarni belgilang.

A) «Mineralogiya»;

B) «Saydana»;

D) «Hindiston»;

E) «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar».

8. Qachon yurtimizda olim tavalludining 1000 yillik yubileyi nishonlangan?

A) 1973-yil; B) 1983-yil; D) 1975-yil; E) 1976-yil.

9. Ibn Sino va Beruniylarning memoriali Birlashgan Millatlar Tashkilotining Venadagi markaziga qachon o‘rnatilgan?

A) 2007-yil; B) 2008-yil; **D) 2009-yil;** E) 2010-yil.

10. Beruniyning qaysi asarida 1000 dan ortiq o‘simliklar nomi 30 dan ortiq tilda berib o‘tilgan?

A) «Mineralogiya»;

B) «Saydana»;

D) «Hindiston»;

E) «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar».



ABU ALI IBN SINO

Bu mavzuda o‘quvchilarni baholashda ularning quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga e’tibor qaratish lozim:

- Abu Ali ibn Sinoning ilm-fan rivojiga qo‘shgan hissasi haqida ma’lumot bera olishi;
- uning ilmiy merosining bugungi kundagi ahamiyatini izohlab bera olishi;
- mavzu yuzasidan berilgan savollarga javob bera olishi va topshiriqlarni bajara olishi;
- *Avitsenna* so‘zining Abu Ali ibn Sino nomi bilan bog‘liqligini asoslab bera olishi;
- *loyiha ishi:* Abu Ali ibn Sino ilmiy merosi – Jahon nigohida;
- QR kodda taqdim etilgan filmlar asosida olim haqida mustaqil ish tayyorlay olishi va tushuntirib bera olishi:

TEST

1. Quyida Abu Ali ibn Sınoga berilmagan ta’rifni belgilang.

A) Shayx ar-rais; B) Sharaf al-mulk; D) Hakim al-vazir; **E) Shayx ul-islom.**

2. «Tib qonunlari» asari lotin tiliga necha marta nashr etilgan?

A) 20 marta; B) 30 marta; **D) 40 marta;** E) 50 marta.

3. Belgiyaning qaysi shahrida Abu Ali ibn Sınoga atab haykal o‘rnatilgan?

A) Brussel; B) Bryugge; **D) Kortreyk;** E) Gent.

4. O‘simlikka Avitseniyya nomini bergan shved olimini belgilang.

A) Karl Levenguk; B) Jeyms kuk; **D) Karl Linney;** E) Lui Paster.

5. Ibn Sino muzeyi bugungi kunda qayerda joylashgan?

A) Samarqand Xartang qishlog‘ida; **B) Afshona qishlog‘ida;**
D) Nasafda; E) Toshkentda.

6. Ibn Sinoning «Tib qonunlari» asari qachon ilk bora lotin tiliga tarjima qilingan?

A) X asrda; B) XI asrda; **D) XII asrda;** E) XVII asrda.

7. Ibn Sino necha yoshida buyuk hakim – tabib bo‘lib yetishadi?

A) 15 yoshida; **B) 16-17 yoshida;** D) 22 yoshida; E) 19 yoshida.

8. Ibn Sino xalqaro jamg‘armasi qachon tuzilgan edi?

A) 1998-yil; **B) 1999-yil;** D) 2007-yil; E) 2009-yil.

9. Ibn Sino merosini o‘rganish Yevropada qachondan qizg‘in tus oldi?

A) XVI asr; B) XVII asr; **D) XIII asr;** E) XV asr.

10. «Tib qonunlari» qachonga qadar Yevropa tibbiyotida asosiy qo‘llanma sifatida foydalanilgan?

A) XVI asr; **B) XVII asr;** D) XII asr; E) XIX asr.

TARIXIY HUJJAT

ARISTOTEL[58]NING «OSMON HAQIDA»GI KITOBIGA DOIR BERUNIYNING SAVOLLARIGA IBN SINONING JAVOBI

Ibn Sino aytdi: bu, Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniyning Xorazmdan menga yuborgan masalalarining javobi haqida yozgan risolamdir. Xudo seni maqsadingga yetishishing bilan shod etsin. Hamma orzu qilganlaringni ravo qilsin, ikki dunyo saodatini senga nasib qilsin, kecha va kunduzda hamma yomon ko‘rgan narsangni sendan qaytarsin, hamisha seni salomat qilsin. Bir necha masalalar so‘rabsan, bu masalalardan ba’zisi Aristotelga qarshi qaratilgandir. U kishi «Osmon va olam» nomli asarida o‘sha masalalar haqida so‘zlagan edi. Bulardan ba’zisi o‘zingga qiyinlik qilgan masalalardir. Endi savollaringga javob beraman, masalalarni qisqa bayon qilishga yo‘l tutaman. Chunki ko‘ndalang kelib qolgan ba’zi mashg‘ulotlar har bir masalaning javobida keragicha so‘zni kengaytirishga imkoniyat bermadi. Agar men Faqih Ma’sumiy senga yoziladigan narsa haqida huzuringda so‘zlar deb ko‘z tutmaganimda risolani yuborish shul vaqtga qadar kechikmagan bo‘lar edi. Marhamat qilib har bir so‘raganlaringni shu risolada yozaman, so‘ngra har biriga qisqacha javob beraman.

BERUNIYNING BIRINCHI SAVOLI

Nima uchun Aristotel falakning markazdan yoki markazga harakati yo‘qligini sabab qilib, uning yengilligi va og‘irligi yo‘q ekanini lozim topdi, deb so‘rabsan. Biz, albatta, ijobiy bo‘lmasa ham taxmin qilamizki, falak jismlarning eng og‘irlaridan biridir. Bunday o‘ylash falakning markaz tomonga harakat qilishini isbot qilmaydi. Falak bo‘laklari bir-biriga o‘xshashdir. Agar falak bo‘laklaridan har biri markazga tomon tabiiy harakat qilsa, so‘ngra bu bo‘laklar bir-biri bilan tutashsa, bu hol falakning markaz tevaragida turishidan boshqa bir narsani lozim ko‘rmay-

[58] Aristotel – (mil. avv. 384/383–322/321), Yunonistonning buyuk faylasufi, «Birinchi muallim» nomi bilan shuhrat qozongan.

di. Shu bilan birga, falak jismlarning eng yengili deb ham o‘ylay olamiz. Bu o‘ylash falakning markazdan harakatini ijob qilmaydi. Lekin falakni markaz bilan birlashishidan yoki ajralishidan uning tashqarisida hosil bo‘lgan bo‘shliq uni harakatga keltiradi. Agar Aristotelning fikricha, falak tashqarisida bo‘shliqning yo‘qligi aniq va to‘g‘ri bo‘lsa va biz falakni olov kabi latif gavhar, deb taxmin qilsak ham, u go‘yo chegaralangan to‘da bir narsadir. Ammo falakning aylanma harakati tabiiy harakat bo‘lmasligi mumkin. Falakning bu aylanma harakati sayyoralarning Sharq tomonga bo‘lgan tabiiy harakatlariga va G‘arb tomonga bo‘ladigan kecha-kunduzlik araziy harakatlariga o‘xshaydi. Agar falakning aylanma harakati araziy emas, chunki aylanma harakatlarida bir-birlariga zidliklari va u harakatlarning yo‘nalishlarida kelishmaslik yo‘q deyilsa, shul so‘zga lozim keladigan narsalar orasida bo‘yamachilik va safsata zohir bo‘ladi. Chunki bir narsaning o‘zida biri Sharq tomonga, yana biri G‘arb tomonga bo‘lgan ikki tabiiy harakatni o‘ylash mumkin emas. Bu esa ma’nida mos bo‘lib, lafzda ayirmalik bo‘ladi. Chunki G‘arbga tomon harakatni Sharqqa tomon harakatning ziddi, deb aytilmaydi. Bu taslim va e’tirof qilingan bo‘lib, lafzlarda talashilganda ma’nilarga qaraymiz.

IBN SINONING JAVOBI

Falakning yengil ham, og‘ir ham emasligini o‘z so‘zlaringda isbot qilib, men uchun yetarli mashaqqat chekibsan: o‘z so‘zlaringda falakning na yuqorisiga va na quyisiga tomon harakat qilishi uchun o‘rin yo‘qligini iqror qilibsan. Bunga falak bo‘laklarining bir-birlari bilan almashganligini dalil qilibsan. Men ham falakning pastga tomon harakat qilishi mumkin emas, pastda falakni ko‘chib borishi uchun tabiiy bir o‘rin yo‘q deyman. Agar bir og‘izdan falakning shunday harakatining borligini qiyomatga qadar faraz qilinsa ham, men yo‘q deyman. Chunki falak pastga tomon harakat qiladi deyish olamdagi hamma unsurlar o‘z tabiiy o‘rinlaridan ko‘chib yuradilar deyishni isbot qiladi. Bunday ko‘chib yurish tabiat olamida ham mumkin deyish yanglishdir. Bu esa falakning ko‘chishi uchun bo‘shliq bor ekanligini isbot qiladi. Holbuki, tabiat olamida bo‘shliq yo‘qdir. Shunday bo‘lgach, pastga falak ko‘chib borishi uchun tabiiy bir o‘rin yo‘qdir va yana yuqorida ham xoh haqiqiy, xoh xayoliy bo‘lsin, harakatga o‘rin yo‘qdir. Chunki bu harakat ham biz aytgandek, ilojsiz yomonliklarga, ya’ni hamma unsurlarning o‘z tabiiy o‘rinlaridan ko‘chmaklariga yoki bo‘shliqning borligiga olib boradi. Holbuki, na fe’l bilan, na vahm va imkon bilan isbot qilinishi mumkin bo‘lmagan narsadan ko‘ra buzuqroq bir narsa yo‘qdir. Shunday bo‘lgach, na quyiga, na yuqoriga borish uchun joyining yo‘qligi menga taslim qilinadi. Har bir tabiiy jismning tabiiy o‘rni bordir. Shul muqaddima (so‘z boshi)ga «falak jismdir» deb kichik muqaddimani qo‘shsak (mantiqiy istilohlar bilan), birinchi shaklning birinchi navida «falakning tabiiy o‘rni bor» degan natija chiqadi. Bu natijani ba’zi qiyosga ko‘chirib, «falakning tabiiy

o‘rni yo yuqorida, yo pastda va yoki u o‘zining turgan yerida» deb, uning yuqori va quyida bo‘lmasligini oradan chiqarsak, «falakning tabiiy o‘rni turgan yeridir», degan natija chiqadi. O‘zining tabiiy o‘rnida bo‘lgan har bir narsa haqiqatda yengil ham, og‘ir ham emas. Falak o‘zining tabiiy o‘rnidadir; natija: falak aslida yengil ham, og‘ir ham emas. O‘z tabiiy o‘rnida bo‘lgan har bir narsani yengil ham, og‘ir ham emas deyishga dalil shulkim, yengil narsa yuqoriga harakat qiladi, uning tabiiy o‘rni yuqorilik bo‘ladi. Tabiiy o‘rnida bo‘lgan narsaning yengil bo‘lishi mumkin emas. Chunki mumkin deyilganda yuqoridagi «yengil narsa yuqoriga harakat qiladi», degan muqaddima bilan bir narsaning tabiiy o‘rnida bo‘ladi, ham tabiiy o‘rnida bo‘lmaydi, demakdir, bu esa qarama-qarshilikdir.

Og‘ir narsada ham shunday hukmdir. Chunki og‘ir narsa tabiat bo‘yicha quyiga harakat qiladi. Uning tabiiy o‘rni pastlikdir. Tabiiy o‘rnining pastlik ekaniga sabab shulki, tabiati bilan harakat qiluvchi har bir narsaning harakati tabiiy o‘rniga tomon bo‘ladi. Ilgarigi singari bayon qilamizkim, tabiiy o‘rinda bo‘lgan narsa haqiqatda og‘ir emasdir. Endi ikki muqaddimaning natijalarini qo‘shsak, «tabiiy o‘rnida bo‘lgan narsa aslida og‘ir ham emas, yengil ham emas», degan masala isbotlanadi.

«Falak o‘zining tabiiy o‘rnidadir» degan ikkinchi kichik muqaddimaning to‘g‘riligi isbotlandi. So‘zning tuzilishi shu natijaga keltiradikim, bu to‘g‘riroqdir. Ya’ni falak aslida yengil ham, og‘ir ham emasdir. Hamda bilquvva va bilimkon falak og‘ir va yengil emasdir. Shuning uchunki, bor quvvatga asosan yengillik va og‘irlik yoki butunida bo‘ladi. Masalan, unsurlarning tabiiy o‘rinlarida bo‘lgan bo‘laklariki, amalda ular na yengil va na og‘ir bo‘lmasalar ham ularda yengillik, og‘irlik bilquvva va bilimkon bordir. Chunki ularning majburiy harakat bilan tabiiy o‘rinlaridan ko‘chishlari va tabiiy harakat bilan yo yuqorilab, yo quyilab o‘z o‘rinlariga qaytishlari mumkin. Yoki bilquvva yengillik, og‘irlik bo‘laklarda bo‘lib, butunda bo‘lmaydi. Masalan, unsurlar qulliyalari, bular yengil ham emaslar, og‘ir ham emas. Chunki ularning yarimlari yuqorilab harakat qilsalar, yarimlarini quyiga tomon harakat qilishlari zaruriy bo‘ladi. Bu hol shakllarining yumaloqligiga va boshqa ko‘p sabablarga asoslangandir. Balki yengillik va og‘irlik unsurlarning bo‘laklaridadir. Endi, agar falak bilquvva og‘ir va yengil bo‘ladigan bo‘lsa, bu sifat butun falakda bo‘ladi. Holbuki, biz butun falakda yuqoriga va quyiga harakati bo‘lmasligini isbot qildik, bu masalada o‘zingning ba’zi fikrlaringga suyandik. Masala bizning foydamizga hal bo‘lib, falak butun yengil ham, og‘ir ham emas, degan fikr isbotlandi.

Falak bo‘laklari bilan ham ma’lum miqdorda bilquvva og‘ir ham emas, yengil ham emas. Chunki yengil va og‘ir bo‘laklar yengilliklari, og‘irliklari orasida tabiiy o‘rinlariga tomon tabiiy harakat qiladi. Tabiiy o‘rinlariga harakat qiluvchi bo‘laklar yo majburiyat bilan tabiiy o‘rinlarida qo‘zg‘alib, tabiiy harakat bilan yana o‘z tabiiy o‘rinlariga qaytadilar. Yoki yangidan paydo bo‘lib, tabiiy o‘rinlariga tomon harakat qiladilar. Masalan,

yog‘dan paydo bo‘lgan olov yuqoriga qarab harakat qiladi. Falak bo‘lagining majburiy suratda tabiiy o‘rindan qo‘zg‘alishi mumkin emas. Chunki bu bo‘lakning harakati uchun, bu bo‘lak zotidan bo‘lmagan tashqi bir harakatga keluvchi kuch lozimdirkim, bu esa yo jism bo‘ladi, yo jism bo‘lmaydi. Harakat qildiruvchi narsalar jism emasdirlar; chunonchi, hokimlarning tabiat, faol aql birinchi sabab deb atagan narsalarkim, ular majburan qilolmaydilar. Tabiatda majburiy harakat yo‘qligi ma’lumdir. Ammo aqlda, birinchi sababda majburiy harakat mumkin emasligi ilmi ilohiga topshirilgandir. Ammo jismga tegishli illat bo‘lsa va uni harakatga solish mumkin bo‘lsa, ustiqussod [tuproq, havo, suv, olov]-ning biri yoki ularning qo‘shilmalari bo‘lishi lozim bo‘ladi, Chunki bu beshtadan, ya’ni alohida olganda to‘rtta, qo‘shib olganda to‘rt jismdan murakkab beshinchi jisman boshqa jism yo‘qdir. Har bir harakat qildiruvchi yoki ta’sir etuvchi jism, albatta, harakat qiluvchi va ta’sirlanuvchiga bevosita tegadi va undan ta’sirlanadi. Buning bayoni «Kitob ul-kavn va-l-fasod»ning birinchi maqolasida bordir. Endi biron jism falakdagi biron bo‘lakni harakat qildirishi mumkin emas; faqat o‘shal jism yo majburiy harakati, yo tabiiy harakati bilan falak bo‘lagiga tutashgandagina falak bo‘lagini harakatga solishi mumkin. Majburiy harakat falak qismiga yopishgan tashqi bir harakatlantiruvchining ishi bo‘lib, falakning ma’lum tarafga tomon tabiiy harakat qiluvchi bo‘lagiga borib cheklanadi. Bu harakatlantiruvchi boshqa harakatlantiruvchilarning birinchi harakat ettiruvchisidir. Bu harakatlantiruvchi tabiiy bo‘lsa, u oddiy olovdir, yoki tarkibida olov bo‘lagi g‘olib bo‘lgan murakkab bir narsa bo‘ladi. Ammo basit olov falakka ta’sir qila olmaydi. Chunki jismlarning jismlarga ta’siri bir-biriga tegishli bo‘lib, basit olov har bir tarafdan falakka tegib turganidan ta’sirlanadi, falakning hech bir bo‘lagi bir-biridan farq qilmaydi. E, Tangri, magaramki, bu bo‘laklarning ba’zisi kuchsiz bo‘lib, kuchsizlari ta’sirlanishda kuchliroq bo‘lganda, ta’sirlanish farqli bo‘ladi. Javharning kuchsizligi zoti jihatidan bo‘lmasdan, balki bir ta’sir etuvchining sababidandir. Bu chog‘da masala avvalgi holiga — falakning biron bo‘lagini biron jism harakat qildira olmasligiga qaytadi. Ammo, olov g‘olib bo‘lgan murakkab jism bo‘lsa, olov kurrasi o‘rniga yetishga qadar turmaydi. Chunki u murakkab bo‘lib, xolis olovga aylanib ketadi. Meteorlarda ko‘rganimiz kabi yonib-kuyib bitadi. Agar u murakkab narsa xolis olovga aylanishda sustlik qilsa, falakka tegisha olmaydi, chunki bunday murakkabda jinsiy va boshqa og‘ir bo‘laklar bordir. Falak jirmiga [massasiga] xolis olovdan boshqasining tab’an tegib turishi mumkin emas. Ammo uch unsur (tuproq, suv, havo) o‘rniga yaqinlashish xolis olovga ham, xolis olov bo‘lmaganga ham mumkindir. Tarkibi xolis olov bo‘lmagan narsaning uch unsur o‘rniga yaqinlashishi mumkin bo‘ladi. Lekin tab’an falakka tegishi mumkin bo‘lmaydi. Ammo boshqa ustiqus tuproq, suv, havo, shamollarning hammasi falakka tegishi mumkin emas. Chunki ular hammalari tabiiy o‘rinlaridan ko‘chmaydilar. U uch unsurning birikmalari va shuningdek,

bo‘laklariga kelganimizda bularning ham falakka ta’sir qilishlari mumkin emas. Chunki ularning olov oldida kuyishlari va xolis olovga aylanishlari sababli falakka tegishlari mumkin emas. Olov falakka ta’sir etmas. Buni yuqorida isbot qildik. Olov o‘zida hosil bo‘lgan har bir narsani o‘zgartiradi, parchalaydi, Chunki olov, haqiqatda, issiqdir. Haqiqatda issiq bo‘lganini o‘z jinsi bilan aralashuvchi ham jins bo‘lmagan narsadan ajraluvchi jinslari turlicha bo‘lgan narsalar bilan jinslari bir xil bo‘lgan narsalar orasini ajratuvchi deb ta’rif qilinadi. Olov o‘zidan ta’sirlanuvchi bir jismga ta’sir etib, agar u jism turli bo‘laklardan murakkab bo‘lsa, ularni bir-biridan ajratib, o‘zining olovlik tabiatiga ko‘chiradi. O‘shal jismning javhariga olov aralashganidan u jismga muxolif bo‘lmaydi. Ammo sovuq narsa, issiq narsadek emasdir. Shak yo‘qki, ta’sir qiluvchi narsalarning oralarida ish ko‘rsatish va ta’sir qilish jihatidan, issiq hamma narsadan ko‘ra qattiqroq va kuchliroqdir. O‘z tabiiy o‘rnida bo‘lgan narsaning jinsi kuchli bo‘lib, kulliysi juz’iysidan kuchliroq bo‘ladi. Endi o‘zing qanday gumon qilasanki, kulliy o‘rnida bo‘lgan issiq narsa oldiga kelgan bir juz’iyni ta’sirlantirmay, o‘ziga tortib o‘zgartirmay yoki agar o‘shal juz’iy murakkab bo‘lsa, bo‘laklarini bir-biridan ajratmay qo‘yib yuborsin. Shul muqaddimalardan ustuquslar-unsurlarning na soddasining va na murakkabining falakka yetisholmasligi ravshan bo‘ldi. Falakka yetisholmagach, unga tegolmaydi, tegmagach unga ta’sir etolmaydi. Demak, basit [sodda] va murakkablarning birontasi falak bo‘laklariga ta’sir etolmaydi. Falak bo‘laklarida o‘zlaridan boshqa jismlarning kullinlarida sodda ham murakkab juz’iylarning ta’sir qilishlari mumkin bo‘lmagach, bo‘laklarning ta’sirlanishlari va majburan o‘zlaricha harakat qilishlari ham mumkin emas. Muqaddam [shart] ijobi [bo‘lishligi] bilan istisno, ya’ni falak juz’iylariga o‘zlaridan boshqalarning ta’sir qilishi mumkin emas, degan so‘zimiz haqdir. Bundan natija, ya’ni uning «ta’sir qabul qilishi va majburiy harakat qilishi mumkin bo‘lmaydi» degan so‘zimiz to‘g‘ri va haqdir. Falak na butun holida, na bo‘laklar holida bilquva [quvvat]da yengil ham emas, og‘ir ham emas. Amalda ham shunday emasligini isbot qilgan edik. Demak, falak mutlaqo yengil ham, og‘ir ham emasdir. Bizning bayon qilmoqchi bo‘lganimiz shudir.

Falakni bir vajhdan yengil deb atash sen uchun durustdir. U vajh shulki, odamlar bir jismning ustiga ko‘tarilib chiqqan jismlar tagida qolgan jismdan yengilroq deb ataydilar. Ana shu sababdan falak hamma narsaning eng yengili deyish mumkin bo‘ladi. Ammo falakning aylanma harakati uning tabiiy harakati bo‘lmasligi mumkin degan hamda agar aylanma harakati araziy emas deb fasl oxiriga qadar cho‘zilgan degan so‘zing durust emas. Chunki adashtirib falakning tabiiy aylanma harakati bor deyuvchilarning birontasi ham buni isbot qilmagan. Sening keltirgan e’tirozing o‘zingning zarariggadir, balki boshqa sabablardan ham, agar so‘z uzaytirishning va nima uchun bu so‘zni yolg‘iz bir masala qilding, deb so‘ralishning yoqimsizligi bo‘lmasa edi, aylanma harakatini bayon qilar edim.

Ammo falak va sayyoralar harakati zid harakatlardir, deb isbot qilishing noto‘g‘ri. Ularning harakatlari turlicha, xolos. Chunki zid harakatlar, deb yo‘nalishlari va borish joylari qarama-qarshi bo‘lgan harakatlarga aytiladi. Agar baland-pastlikning ziddi bo‘lmasa edi, markazdan chetga yo‘nalgan harakatning ziddi deb ismlamas edik. Bu faslning bayoni «Kitob as-samo at-tabiiy»ning beshinchi maqolasidadir. Ammo ikki xil aylanma harakatlarning yo‘nalishlari va nihoyatlari bizning arz qilishimizga vaz’iydir — tabiiy emasdir. Chunki falakning aylanma harakatiga tab’an chek yo‘q. Sababi u harakatlarning bir-biriga zid emasligidir. Bas, bir-biriga muxolif ikki aylanma harakat bir-biriga zid emasdir. Bizning bayon qilmoqchi bo‘lganimiz shudir.

BERUNIYNING IKKINCHI SAVOLI

Nima uchun Aristotel o‘z kitobining ikki joyida ilgarigi o‘tgan odamlarning falak bor, deb aytishlari haqidagi so‘zlarini falakning doimo turg‘un ekaniga kuchli hujjat va dalil qildi? Buzuq va nohaq so‘zida doimo turmaydigan va mutaassib bo‘lmagan odam unga ishonadi. Chunki ularning so‘zlari ma’lum emas va falakning boshi ham noma’lum. Faqat ahli Kitob [Yahud va nasoro]lar aytganidan ham ancha kamroq ekanligi ma’lum. Chunki hindlar va shularga o‘xshash xalqlardan hikoya qilingan so‘zlar yerning obod joylarida tabiiy hodisalarning ketma-ket paydo bo‘lishini ko‘rsatadi. Bularni o‘rganish falak o‘zgarmaydi, degan fikrning noto‘g‘riligini ko‘rsatadi. Tog‘larning hollarida o‘zgarishlar zohir bo‘lib turgani uchun falak o‘zgarmaydi, deb hukm chiqarishda eng qadimgi xalqlarning so‘zini hujjat qilish ham xatodir.

IBN SINONING JAVOBI

Bilmoq kerakki, Aristotel bu so‘zni qat’iy dalil bilan aytgan emas, so‘z orasida keltirgan. Buning ustiga, tog‘ning holi osmon ahvoliga o‘xshash emasdir. Chunki odamlar tog‘larni butun borliqlari bilan saqlangan ko‘rsalar ham, tog‘lar bo‘lagida parchalanish, ba’zisining ba’zisiga qo‘shilishi, ba’zisida tog‘lik shaklining buzilishiga o‘xshash turli hollar paydo bo‘ladi. Hamda tog‘ ahvoli falakdek yuqori emasdir. Bu so‘z Aflotunning siyosat va boshqa narsalar haqida yozgan kitoblarida zikr qilgan so‘zlaridandir. E soil, sen go‘yo bu so‘zni haqida Aristotelga o‘zini qarshi ko‘rsatib, xristianlarga firib bergan Yahyo an-Nahviy bo‘yamachidan olganga o‘xshaysan. Holbuki, Yahyo an-Nahviyning bir qancha kitoblarga qilgan tafsiriga qaraganda, bu masalada Aristotelga muvofiqligi ma’lum bo‘ladi. Yoki e soil, bu so‘zni ilohiyotda qattiq shug‘ullanib va tabiblik davosi bilan siydiklar, axlatlar, jarohatlar tekshirishda nazariyasi me’yoridan o‘tib, o‘zini rasvo qilib va maqsadini ijod etishda bilimsizligini ko‘rsatib, behuda qiynalgan Muhammad ibn Zakariyo ar-Roziydan oldingmi? Bilmak kerakki, Aristotelning olamning boshi [ibtidosi] yo‘q, deganining ma’nosi olamning Yaratuvchisi yo‘q, degani emas, balki maqsadi olamning yaratuvchisi ishlashdan bo‘sh emas, dega-

nidir. Bu maqom olam boshiga [ibtidosiga] oid masalalar bayoni emasdir. Ammo soilning «Botilga chidamaydigan va taassub qilmaydigan odam», degan so‘zi g‘alatga solish, dag‘allikdir. Bu bo‘lsa muhokama va munozara bobida qabih va yomondir. Chunki bu falak masalasida, agar soil Aristotel so‘zining ma’nosiga tushungan bo‘lsa, ayni maqsaddir. Agar tushunmagan bo‘lsa, bas, taxmin bilan so‘zlash va tushunmasdan so‘z egasini nopisand qilish aybdir. Agar tushungan bo‘lsa edi, tushunish uni bu xil jafolik so‘zlardan qaytarar edi. Bas, aql yo‘l bermaydigan so‘zlar bilan kinoya qilish noloyiqdir.

BERUNIYNING UCHINCHI SAVOLI

Nima uchun Aristotel va boshqa faylasuflar tomonlar soni 6 ta deb zikr qilganlar? Biz bu tomonlarni tayinlashda kub shaklini olaylik. Chunki kubning 6 tomoni bor. Kubning har yog‘iga o‘zidek 6 ta kub qo‘yilsa, u kubning hosil bo‘lgan shaklini yana kubga aylantirish uchun kamchilik joylari to‘latilsa, hammasi bo‘lib 27 kub mavjud bo‘ladi. Boshqa yangi jihatlar avvalgi kubning qirra va burchaklariga tegadi. Jihatlar shu adadga yetmagan taqdirda, kublar avvalgi kubga qaysi tomondan tegadi? Shar singari jismlarning tomonlari bo‘lmaydi.

IBN SINONING JAVOBI

Jismning sathlariga barobar bo‘lgan jihatlar [tomonlar] jismning haqiqiy jihatlari emasdir. Balki bu jihatlar jismning arziy kenglik tomonining jihatlaridir. Chunki falsafa tayin qilgan olti jihat jismning uzunligi, qalinligi va enini chegaralovchilardir. Har bir jism chegarali bo‘lgach, ravshandirki, u jismning bo‘yi, eni va qalinligi chegaralidir. Bundan ma’lumki, har bir uzunlik, enlilik va qalinlikning ikki uchi bo‘lib, bu uchlar sanog‘i 6 va bularga 6 jihat-muvofiqdir. Har bir jismning cheklanishi «Kitob as-samo at-tabiiy»ning uchinchi maqolasida bayon qilingandir. Markaz bilan cheklangan uzunlikning olam tomonida bo‘lgan cheki (uchi) quyi (tegi) bo‘lib, buning teskari tomoni esa ustdir. Qolgan to‘rt jihat «o‘ng», «so‘l», «old» va «orqa», deb ataladi. Hamma jismda bu ismlar bo‘lavermaydi. Balki bu jihat jonli jism jihatlaridir. Jonli jismning harakat chiqadigan va zohir bo‘ladigan yog‘i o‘ng, uning qarshisi so‘l, deb ataladi. Jonli jismning ko‘rar tomoni uning oldi, qarshisi orqa, deb ataladi. Bas, har bir jismda bu 6 jihat zaruriydir. Ammo sening sharda bu 6 jihat yo‘q, deyishing durust emasdir. Chunki sharning uzunligi, kengligi, qalinligi bo‘ladi. Shar bu uzunlik, qalinlik bilan chegaralanadi. Bulardan har birining ikki cheki bo‘lib, bas, hamma cheklar 6 ta va bularga ro‘baro‘ bo‘lgan jihatlar ham 6 ta bo‘ladi. Mantiq qoidasi bo‘yicha, muqaddam va toliy, ya’ni yuqoridagi ikki muqaddimaning ulardan biriga ko‘ra jism va ikkinchisi har jismda uzunlik, kenglik va qalinlik bor. Bularning har birida chek bor. Hammasi oltita bo‘ladi. Mazmuni haq bo‘lgach, bas, sharning 6 jihati bor, demak, natijasi haqdir. Jismning jihati, haqiqiy taraflari, jismning sathiga

ro‘baro‘ bo‘lgan, deb aytmak qanday mumkin bo‘ladi. (Holbuki, savol qiluvchi so‘zning boshidan jihatlarning 6 tasi jismning sathiga ro‘baro‘ bo‘ladi degan edi). Ma’lumdirki, kurraning atrofida juda ko‘p yo‘nalishlar bordir. Shimol qutbning jihati Sharq, G‘arb va Janub qutbi jihatlari emasdir. Aksi ham shunga o‘xshash bo‘ladi. Agar sharni o‘rab olgan sath bitta bo‘lsa ham, sharda zotiy biror jihat bo‘lmaydi. Buni yuqorida bayon qilganmiz. [Agar shar jism bo‘lsa, uning uzunligi, kengligi, chuqurligi bo‘ladi deb to oxirigacha dalil va araziy bir jihat ham bo‘lmaydi. Buni ham yuqorida, ya’ni har bir jismda 6 jihatning bo‘lishi zarur deb isbot etganmiz]. Ammo jismlar ko‘p burchakli shaklda bo‘lgan bo‘lsa, bu holda bu jismning har bir sathiga muvofiq, jihatini hosil qilish mumkindir. Chunki u jismlarning sathlari zotiy bo‘lmasa ham, araz va vaz’iy [e’tibor] bilan bo‘lishi to‘g‘ri edi. Endi jismga zotida lozim bo‘ladigan jihatlar jismlarning uch o‘lchoviga [uzunlik, kenglik, qalinligi] ro‘baro‘ bo‘ladigan narsalardir. Faylasuflarning tayin qilgan jihatlari shulardir.

BERUNIYNING TO‘RTINCHI SAVOLI

Nima uchun Aristotel bo‘linmas bo‘lakchalar bor deyuvchilarning so‘ziga qo‘shilmadi? Holbuki, jism cheksiz bo‘lishini qabul qiladi, deganlar so‘ziga lozim keladigan narsa undan yomonroq edi. Bu shulki, bir tomonga harakat qilayotgan ikkita harakat qiluvchilardan biri ilgari ketgan bo‘lsa ham, bir-biriga yeta olmasligi kerak. Bunga Quyosh bilan Oyni misol qilaylik. Bu shundayki, Quyosh bilan Oyning o‘rtasida faraziy masofa bo‘lib, Oy bilan Quyosh birmuncha miqdor sayr qilsalar, Oy sayr qilgan chog‘da Quyosh ham o‘shal zamonda — kichikroq, miqdor sayr qiladi. Shu xil nihoyatsiz sayr qilib bir-biriga yeta olmasligi kerak bo‘ladi. Holbuki, biz Oyning Quyoshdan o‘tib ketganini ko‘ramiz. Bo‘linmas bo‘lak bor deyuvchi odamlarga bundan boshqa ko‘p e’tirozlar lozim bo‘ladi. Bu e’tirozlar geometriya olimlari oldida ma’lumdir. Lekin bo‘lak cheksiz taqsimni qabul qiladi, qilgan e’tirozim bularning muxoliflarida undan ham ko‘ra qabihroqdir. Aqlga to‘g‘ri kelmas guruhning e’tirozlaridan qanday qutulish mumkin?

IBN SINONING JAVOBI

Bir-biriga birikkan bir narsa jismni sathmi, uzunlikmi, harakatmi, zamonmi, uning bo‘linmas bo‘lakdan murakkab bo‘lishi mumkin bo‘lmaydi. Bo‘linmaydigan bo‘lak ikki tarafi bo‘lmagan bir narsadir. Buni Aristotel «Sam al-Kiyon» kitobining 6-maqolasida kuchli, shubhasiz dalillar bilan bayon qilgandir. U o‘z-o‘ziga e’tiroz qilib, o‘zi javob bergandir. Lekin bilmak kerakki, Aristotelning bo‘lak cheksiz narsaga bo‘linadi, degan so‘zining ma’nosi haqiqatda abadiy bo‘linadi, degani emas. Balki, maqsadi shulki, har bir modda bo‘lagining zotan o‘rtasi — ikki tarafi bor. Bas, ba’zi bo‘laklar shu taraflar o‘rtasidan bo‘linishi mumkin. Ikki bo‘lak orasida bo‘lsa, shu xil bo‘laklar amalda ikkiga bo‘linadi va ba’zi bo‘laklar zotan vosita va o‘rtaga ega bo‘lib taqsimlanishni qabul qilsa ham, le-

kin g‘oyat kichikligidan amalda bo‘linmaydi. Ana shunday bo‘laklar bo‘linish imkoniyatiga ega. Endi sening shu e’tirozingni har bir moddaning amalda abadiy bo‘linishi mumkin degan kishiga yetishi zarur va aniqdir. Ammo kimki moddaning ba’zi bo‘laklari amaliy va ba’zi bo‘laklari amaliy emas, balki bilquvva bo‘linadi desa, biz yuqorida aytgandek bo‘lishiga sening e’tirozing lozim bo‘lmaydi. Chunki amaliy bo‘linmay, bilquvva ajraladigan chekli bo‘laklarning taqsimiga ko‘pincha harakat voqe bo‘ldi. Bas, bu tahqiq o‘sha ikki so‘zga lozim kelgan ikki yomonlikning o‘rtasida yurishga olib boradigan bir yo‘ldir. Ammo Aristotelning bu masalaga bergan javobi sharhlovchilarning bu javobiga qilgan sharhlarini chalg‘itish va safsataligi ravshandir. Agar ortiqcha va cho‘ziq so‘z so‘zlashdan cheklanmasam edi, buni zikr qilar edim. Lekin maqsadning bayonidan keyin uzun so‘zlash mujmal va noma’quldir.

BERUNIYNING BESHINCHI SAVOLI

Aristotel ikkinchi maqolada tuxum va yasmuq singari shakllar aylanma harakatda ochiqlikka va bo‘sh o‘ringa muhtoj, shart-shakllari esa unga muhtoj emasdir, deb zikr qildi. Holbuki, haqiqatda uning aytganidek emas, chunki tuxum shakli eng uzun o‘qida aylanishidan, yasmuq shakli esa eng qisqa o‘qida aylanishidan paydo bo‘ladi. Agar u shakllarning aylantirish o‘qlari holatlarni o‘zgartmasalar, Aristotel aytgan tuxum va yasmuq shaklidagilarning ochiqlik va bo‘shliqda muhtojliklari ko‘rilmaydi. Shar shakliga o‘xshash narsalardan boshqa biron narsa to‘g‘ri kelmaydi. Chunki tuxum shaklining o‘qi eng uzun va yasmuq shaklining o‘qi eng qisqa bo‘lgach, har ikki shakl shar shaklidek aylanadi va o‘zlaridan bo‘sh bo‘lib turuvchi bir joyga muhtoj bo‘lmaydi. Lekin tuxum shaklining o‘qiga eng qisqa, yasmuq shaklining o‘qiga eng uzun chiziq olinsa, shu vaqtda u shakllar ochiqlikka, bo‘shliqqa muhtoj bo‘ladilar va Aristotelning aytgani to‘g‘ri keladi. Shunday bo‘lsa ham, tuxum shaklidagi narsa eng qisqa qutrida aylanishi, yasmuq shaklidagi narsa eng uzun qutrida aylanishi va har ikkisining bo‘shliqda muhtoj bo‘lmay, ketma-ket joylanib turishlari mumkindir. Masalan, ashxos [hamma borliq]ning falak ichidagi harakatlarikim, ko‘pchilikning fikricha, falak ichida bo‘shliq yo‘qdir. Buni, ya’ni tuxum shaklining eng qisqa o‘qida, yasmuq shaklining eng uzun o‘qida aylanishi mumkindir, demak falak shar emas, balki tuxum yoki bir yasmuq shaklidadir, degan e’tiqodni tushunib yetmayman, chunki men shunday e’tiqodni rad qilishga tirishdim. Lekin mantiq ilmining egasi Aristoteldan taajjub qilib aytaman.

IBN SINONING JAVOBI

Umring uzun bo‘lsin, durust, bu so‘z haqida qilgan e’tirozing unga lozim bo‘ladigan narsalardandir. Chunonchi, ba’zi ta’riflarimda buni bayon qildim. Lekin Aristotel so‘zini tafsir qiluvchilarning har biri bu so‘zga uzr bayon qildilar. Shul holda menga kelgani Somustiyusning «Osmon va olam» kitobi-

ga qilgan tafsirida «Faylasuf so‘zining eng yaxshi tomonlarini ochib bermog‘imiz kerak», degan so‘zdir. Endi aytamizkim, sharning aylanma harakatidan biron sabab ila bo‘shliq voqe bo‘lmaydi. Tuxum va yasmuq shakllarining aylanma harakatida bo‘shliq bo‘lishi mumkindir. Yana buning ustiga shu uzr bilan birga, hamisha Aristotel so‘ziga kamchilik kelib kiradi. Falak shaklining tuxum yoki yasmuq shaklida ekanining xatoligi tabiatdan va geometriyadan dalillar keltirish bilan isbotlanadi. Agar seni matematika ilmidan uzoq turasan va atrofingdagi fozillaring geometriya san’atidan uzoq turadilar, deb o‘ylaganimda quvvat va toqatim boricha matematika va geometriya ilmining bir tarafidan burhonlar va hujjatlar keltirishga kirishar edim. Ammo tuxum va yasmuq shakllarining harakatlari goho bo‘shliqni vujudga keltirmaydi, degan so‘zingga va falak ichida harakat qiluvchi turli shakldagi jismlarni misol qilib shohid tutishingga javob shulkim, bu so‘z u so‘zga, ya’ni falak shaklining tuxum va yasmuq shaklida bo‘lishidagi so‘zga va u holda lozim keladigan narsaga o‘xshamaydi. Shundaykim, olam ichida harakat qiluvchi jismlar o‘zlariga tutunuvchi jismlarni ketma-ket uchratib turadi. Ammo agar falak yasmuq shaklida bo‘lib, harakati eng qisqa o‘qdan bo‘lmasa yoki tuxum shaklida bo‘lib, harakati eng uzun o‘qda bo‘lmasa, bo‘shliqning voqe bo‘lishi, albatta, zaruriy va lozimdir. Chunki falak harakat qilgan vaqtda uning jismi tutunadigan falak orqasida bir jismning borligi mumkin emasdir. Falak ichida mavjud jismlar uchun esa shunday bir jism bor.

BERUNIYNING OLTINCHI SAVOLI

Aristotel tomonlarni bayon qilganda: «Har bir jismdan o‘ng tomon harakatning boshlanish tomonidir», – dedi. Bundan so‘ng shu hukmni teskari qilib: «Osmonning harakati Sharqdandir, chunki Sharq osmonning o‘ng tomonidir», – dedi. Bunday hukmni teskari qilishi durust emas. Buni isbot qilish burxoniy davr (aylanish dalili)ga boradi.

IBN SINONING JAVOBI

Faylasuf Aristotel: «Falakning harakati Sharqdan, chunki Sharq falakning o‘ng tomonidir», – deb isbot qilmadi. Balki bu so‘z bilan Sharq falakning o‘ng tomonidan ekanini isbot qildi. Chunki falakning harakati Sharqdan paydo bo‘ladi. Jonli narsaning harakati o‘ng tomonidan paydo bo‘ladi. Harakat qiluvchi falak Aristotel fikricha jonlidir. Shu jihatdan Sharq falakning o‘ng tomoni deydi. Oqil kishining falak harakatining Sharqdan ekanini isbot qilib o‘tirishi maholdir. Chunki falak harakatining Sharqdan ekani shubhasizdir. Zeroki, falakning harakati abadiy suratda bir tomondan bo‘ladikim, u esa Sharq tomonidir. Balki faylasuf falakning o‘ng tomoni qayoqda ekanini isbot qilgandan so‘ng falakning o‘ng tomonini — mohiyatini tanitmoqchi bo‘ldi va shunday qasd qildi.



www.idum.uz saytidan yuklab olindi

MUNDARIJA

Kirish ... 3
Tarix darslari samaradorligini oshirishda tarixiy faktlarni to‘g‘ri tanlash va ulardan foydalanishga bo‘lgan talablar ... 6
O‘zbekiston tarixini o‘qitishning metodlari va ularning klassifikatsiyasi ... 9
Elektron axborot ta’lim resursi va ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etish ... 15
Interfaol metodlar ... 17
Dars tahlillari va ularning natijaviyligi ... 33
O‘quv mashg‘ulotining texnologik xaritasini tuzish usullari ... 35
Ajdodlarimizning ma’naviy qadriyatlari – jahon sivilizatsiyasi asoslaridan biri ... 37
IV–VII asrlarda mamlakatimiz xalqlarining turmush tarzi ... 40
IV–VII asrlarda Xorazm ... 44
IV–V asrlarda xioniylar va kidariylar ... 50
Eftaliylar ... 53
Turk xoqonligi ... 61
G‘arbiy Turk xoqonligi ... 71
Mahalliy hokimliklarning tashkil topishi ... 84
Turon xalqlarining harbiy san’ati ... 94
VI–VII asrlarda Turon xalqlari madaniy hayoti ... 98
VII–VIII asr boshlarida Turonda siyosiy vaziyat ... 102
VIII asrda Xuroson va Movarounnahr ... 115
Qarluqlar, o‘g‘uzlar, Tohiriylar ... 129
Somoniylar ... 132
Somoniylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot ... 146
G‘aznaviylar ... 152

www.idum.uz saytidan yuklab olindi



Qoraxoniylar 162
Saljuqiylar 167
Xorazmshohlar davlati va uning yuksalishi 173
Xorazmshohlar davlat boshqaruvi va ijtimoiy-iqtisodiy hayot 176
Etnik jarayonlar va o‘zbek xalqining shakllanishi 182
Mintaqada islom dinining yoyilishi 184
Ta’lim 187
Aql-zakovat bilan bunyod etilgan boy ma’naviyat 189
IX-XII asrlarda ilm-fan va madaniyatning yuksalishi 192
Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy 202
Ahmad Farg‘oniy 204
Abu Nasr Forobiy 206
Abu Rayhon Beruniy 208
Abu Ali ibn Sino 210

Akbar Turg‘unovich Zamonov,
Nargiza Kamaritdinovna Ismatova,
Zokir Turg‘inovich Zamonov,
Zebo Nurqobilovna Jabborova

O‘ZBEKISTON TARIXI
(IV ASRDAN XIII ASR BOSHLARIGACHA)

7-sinf

O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma

Muharrir B. Azimov
Texnik muharrir M. Olimbekova
Musahhih T. Mahmudova

Bosishga ruxsat etildi: 24.11.2022. Bichimi 60x84 1/8.
«Arial» garniturasi, ofset usulida chop etildi.
Bosma tabog‘i 28,0. Shartli bosma tabog‘i 26,04.
Adadi
Buyurtma